Avqof – masjid va madrasalarning vaqf xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi.  
Ajam – arab halqlari va mamlakatlaridan o‘zga yurt va xalqlar.  
Azarxurra – otashparastlar sig‘inadigan muqaddas olov, o‘t.  
Ayl – Amir Temur asqariy qismlarining o‘n nafarli bo‘linmasi.  
Aylboshi - o‘n nafarli askariy bo‘linmaning kichik zobiti askarboshi.  
Akkor – koranda, qishloqning ziroatkor aholisi.  
Amid ul-mulk – davlat hujjatlari va elchilik aloqalari vaziri.  
Amir ul-umaro – amirlar amiri, bosh sarkarda.  
Animizm – ruh va jonga ishonish; ota – bobolar ruhiga sig‘inish.  
Ariz – Qo‘sish ta’minoti bilan shug‘ullanuvchi vazir.  
Ark – ichki qal’a, hukmdorning shahar ichidagi qo‘rg‘on – saroyi, qarorgoxi.  
Arkbegi – podsho qarorgohining boshqaruvchisi.  
Atrabon – otashparastlik ibodatxonasing ruhoniysi, otashgoh xizmatchisi.  
Axriman – zardushtiylik dinining zulmat, ochlik, urush, o‘lim, gunoh va barcha yovo‘zliklar.  
Axuramazda - zardushtiylik dinining bosh tangrisi, yorug‘lik, farovonlik, sihat – salomatlik, tinchlik va barcha ezguliklar xudosi.  
Band – Toshlardan bino qilingan suv omborining to‘g‘oni; suv ombori; to‘g‘on.  
Banno – g‘isht teruvchi binokor.  
Bantak – qo‘l.  
Barzikor – qo‘sishchi, ziroatkor, qishloqning mexnatkash aholisi.  
Barid – kirim.  
Barot - ijaraga olish.  
Bek – el-yurt, viloyat hokimi.  
Begor – jamoat ishlariga safarbar etish; hashar.  
Biy – urug‘ qabila oqsoqoli.  
Boj – savdogarlardan olinadigan soliq.  
Borgoh – podshoh saroyidagi qasr, qabulxona.  
Bosqoq – mug‘ullar hokimlik qilgan XIII-XIV asrlardagi mahalliy hokim.  
Burong‘or – qo‘sinning o‘ng qanoti.  
Burj – shahar va qal’a devorlari va minoralari.  
Burg‘u – karnay.  
Bo‘dun – chorvador aholi; qora bo‘dun – qora, oddiy xalq.  
Vazir – devonxona boshlig‘i.  
Vazkirom – soliq yig‘uvchi, moliya xodimi.  
Vag‘n – ibodatxona.  
Vag‘npat – ibodatxona ruxoniysi.  
Vag‘nze – ibodatxona yer va mulklari.  
Visoqboshi – to‘rt nafarli askariy guruh boshlig‘i; chodir boshlig‘i.  
Dapirpat – kotib, elchi, sarkotib.  
Debo – tovlanuvchi nafis ipak mato.  
Devon – vazirlar mahkamasi.  
Devonbegi – vazirlar mahkamasining bosh ma’muri.  
Dehnishin – o‘troq, qishloq aholisi.  
Dehqon – ilk o‘rta asrlarda “qishloq hokimi”, yer egasi.  
Digir – charxparrak va chiqirlarga ariqdan yoki chiqir xandakdan suv botirgich ko‘za.  
Dinor – bir misqol (4,8gr) og‘irlikda zarb jtilgan oltin yoki kumush tanga.  
Dovul – katta nog‘ora.  
Dorug‘a – harbiy ma’mur.  
Dorug‘ona – dorug‘alar foydasiga olinadigan to‘lov(soliq).  
Dudang – hosilning oltidan ikki hisobida olinadigan dehqonchilik solig‘i.  
Do‘lob – charxparrak; quduqdan suv chiqaradigan charx.  
Yom – jom, savdo yo‘llaridagi qo‘noq.  
Jiz’ya- islom diniga o‘tmaganlardan olinadigan jonboshi solig‘i.  
Jome – masjid – juma kunlari jamoat nomozi o‘qiladigan katta masjid.  
Joriya – cho‘ri.  
Juvong‘or – qo‘sining so‘l qanoti.  
Juybon – suv taqsimlovchi mirob.  
Zobitona – kirimni hisoblovchi moliya xodimi uchun olinadigan to‘lov (soliq).

Zakot – chorvadan olinadigan soliq; to‘plangan boylikdan daromad solig‘i.  
Zarbxona – chaqa va tangalar zARB etiladigan ustaxona.  
Izofa – zahira qism.  
Ilmi aro‘z – poetika.  
Ilm hay’at – astronomiya.  
Ixshid – ilk o‘rta asr viloyat hokimi, xon yoki amir avlodlari.  
Iqto‘,iqta‘ – yirik mansabdorga hadya etilgan yer va mulk.  
Kadivar – ilk o‘rta asrlarda yirik yer egalariga qaram bo‘lgan ziroatkor qishloq aholisi; chorikor.  
Kay yoki kava – pahlavon, botir yo‘lboshchi (hukmdor).  
Kalavachi – ip yigiruvchi.  
Kalon – XIII asrdagi yer solig‘i.  
Kanbul – qo‘riqchi askariy bo‘lima.  
Karbos – bo‘z; paxta ipidan to‘qilgan mato.  
Kashovarz – ilk o‘rta asrlardagi ozod qo‘shchi, ziroatkor.  
Kahhol – ko‘z tabibi.  
Keshik - XIII asrda mug‘ullar qo‘shinidagi zahira qism; gvardiya, guruh.  
Kibor – aslzoda ulug‘ kishilar.  
Koriz – yer osti suv inshooti.  
Korikor – xizmatkor.  
Kofiya – arab tili morfologiyasi.  
Koshin – sirli, rangdor, qurilishdagi sopol bezak.  
Koh – saroy, ichki qal’a, ark, o‘rda.  
Kohin – ibodatxona xizmatchisi.  
Koroplastika – ma’budalarning sopol haykalchalari.  
Kuhandiz – hukumdar qarorgohi, akropol, poytaxt.  
Ko‘ragon – xon kuyovi.  
Ko‘shk – istehkomli baland qo‘rg‘on.  
Labirint – tanbur, dalon, darvoza oldi istehkomi (adashtiruvchi yo‘lak).  
Lavh – yozuv taxtasi, yozuv kursichasi, yoki kursi.  
Lak – yuz ming.  
Lahm – yer osti yo‘li.  
Loyqoq – sel loyqalari qoplangan maydon.  
Madrasa – oliv diniy imgoh.  
Majus – otashparast.  
Majusiy – otashparastlik dindori.  
Manglay – ilg‘or guruh.  
Mesh – suv yoki qimiz olib yuradigan teri xalta yoki to‘rva, sanoch.  
Mirixazora – minglik harbiy bo‘linmaning amiri (sardori).  
Mirob – suv xo‘jaligi boshqaruvchisi.  
Mirobona – suv solig‘i.  
Mirrix – Zardo‘shtiylardagi urush, jang va g‘alaba tangrisi.  
Moi sardaraxt – bog‘ va daraxtzorlardan olinadigan soliq.  
Mo‘zoriy – qo‘shchi, ziroatkor, ekin ekuvchi.  
Mulk - hususiy yer.  
Mulki vaqf – madrasa va masjidlar tasarrufidagi yer-mulk, xayrli ishlar uchun ajratilgan mol – mulk.  
Mulki devoniy – davlat yerlari.  
Mamlakai xos – davlat mulklari.  
Musallas – o‘zum yoki mayizdan tayyorlangan shirin sharob, may, xaoma.  
Mustafiy – markaziy hokimiyat devonxonasi daftardor hisobchisi; moliya vaziri.  
Muxassilona – soliq yig‘uvchilar uchun to‘lov.  
Muhrkash – chit va matolarga gul bosuvchi.  
Muxtasib – tosh – tarozu, narx – navo va mafkura nazoratchisi.  
Mushrif – saroy ish boshqaruvchisi.  
Muqto‘ yoki iqtidor – iqto‘ yer va mulklariga ega bo‘lgan yer egasi.  
Muhoraba (mahoraba) – jang, urush, harbiy to‘qnashuv.  
Muhrdor – devonxonaning muhr saqlovchisi; muhr bosuvchi, muhr sohibi.  
Naus – otashparastlar xilxonasi, ostadonlar saqlanadigan mozor-qo‘rg‘on.  
Naf – shahar va qishloq aholisi.  
Naftandoz – neftli va pilikli ko‘zachalarni irg‘itadigan palaxmon, harbiy moslama.  
Namozgoh – iyd ibodatlari o‘qiladigan masjid; iydgoh.  
Nova (nov) – suv tashlag‘ich tarnov; suv tashlag‘ich.  
Nohid – Zardo‘shtiylardagi hosildorlik va farovonlik ma’budasi.  
Ostadon (ossuary) – sopol tobutchasi.

Otashgoh – muqaddas o‘choq; o‘txona, olovxona.  
Ohangar – temirchi.  
Payza – Mug‘ullar davrida imtiyozli shaxslarga beriladigan yorliq.  
Paykon – kamon o‘qi yoki nayzaning tosh, suyak yoki metalli uchi.  
Palahmon – toshotar; harbiy qurol.  
Pandus – ko‘tarma yo‘l.  
Parchin – sirlangan rang–barang g‘isht parchalari.  
Poykor – kichik mirob; qishloq mirobi.  
Rabod – tashqi shahar, karvonsaroy.  
Rais – shahar hokimi.  
Ra’dandoz – o‘t otg‘ich; harbiy qurol.  
Riyoziyot – matematika.  
Savqo‘ljaysh – strategiya.  
Sadoq – o‘qdon.  
Sadoqxona – kamon va o‘qdonlar ombori.  
Sardoba (obdon) – pishiq g‘ishtdan qurilgan gumbazli hovo‘z; suvxona.  
Sarishumor – jonbosh solig‘i.  
Sarrojlik – egar va jabduq yasovchi ustaxona.  
Satrap – viloyat noibi (ahamoniylar va antik davr).  
Satrapiya – ma’muriy bo‘lim, viloyat (ahamoniylar va antik davr).  
Strateg – mudofaa va qo‘sish vaziri (antik davr).  
Saxronishin – sahroyi, tuyakash.  
Sohibqiron – kunchiqish va kunbotish egasi, jahon egasi, jahongir,adolat sohibi.  
Sohibi jamoa – xosil miqdorini belgilovchi ma’mur uchun yig‘iladigan to‘lov.  
Sohibi muayyid – maktubot va ahborot vaziri.  
Sohibi shurot – harbiy vazir.  
Suvoriy – otliq askar.  
Suyurg‘ol – oliv tabaqa zodagonlariga in’om qilingan yer-mulk.  
Tavajjuhoti xorijiy – favqo‘loddagi xarajatlar solig‘i.  
Tamg‘a – savdo boji; savdogarlardan olinadigan soliq.  
Tanob – 200-250 kv m hajmdagi yer maydoni.  
Tarbiyat ul-jaysh – harbiy taktika.  
Tirkash – kamondan o‘q o‘zadigan nishon tuynugi.  
Totem – urug‘ yoki qabila jamoalari sig‘inadigan hayvon, o‘simlik yoki jism.  
Totemizm – totemlarga sig‘inish.  
Toq yoki Tim – usti yopiq bozor va hunarmandchilik rastasi.  
Tudun – turk hoqonligining viloyat hokimliklaridagi vakili, viloyat hokimi.  
Tuman – o‘n minglik harbiy qism.  
Tuman og‘asi – o‘n minglik askariy qism amiri, qo‘mondon.  
Tug‘ro – davlat nishonasi, ramzi, gerb.  
Usturlob – astranomiya asbobi.  
Ushr – hosildan 10% hisobida olinadigan dehqonchilik solig‘i.  
Farmondor – boshqaruvchi.  
Farna – Zardo‘shtiylardagi baxt va tole xudosi.  
Fulus – mayda mis chaqa.  
Xabargin – xabarchi, ayg‘oqchi, kuzatuvchi.  
Xazora – minglik askariy bo‘linma.  
Xandaq – mudofaa inshooti, zovur.  
Xaraju maraj – boshboshdoqlik, o‘zboshimchalik, beboshlik.  
Xatib – din peshvosi.  
Xattot – kitob va risolalar ko‘chiruvchi kotib.  
Xvabu – viloyat hokimi, yirik yer egasi.  
Xvatov – hokim.  
Xiroj – hosilning 25-33% hisobida olinadigan qishloq xo‘jalik solig‘i; XV asrda bu soliq “mol” deb yuritilgan.  
Xonashumor – har xonadondan olinadigan jonboshi solig‘i.  
Xonaqoh – g‘aribxona, musofirxona.  
Xonbandi (konbandi) – suv ombori, katta hovo‘z.  
Xoqon yoki qog‘on – hukumdor, podsho.  
Xubbi – Zardo‘shtiylardagi suv xudosi, suv ma‘budasi.  
Xushun – yuz nafarlik harbiy bo‘linma.  
Xushimboshi – yuzlik bo‘linma zobiti;  
CHilangar – temirchi.  
CHilangarlik – temirchilik.

CHiqir – tuya yoki ho‘kiz qo‘shib aylantiriladigan suv ko‘targich inshoot.  
CHokar – harbiy drujina, ko‘ngillilar to‘dasi.  
CHokardiza – chokarlar qal’asi, turar joyi.  
CHorikor – hosildan 25% olish hisobiga ishlovchi yollanma qo‘shchi ziroatkor.  
CHohpar – o‘ra.  
SHayxulisom – din va ilm peshvosi.  
SHahriston – ichki shahar.  
SHod – O‘n minglik lashkar boshlig‘i.  
SHulen – XIII asrda olingen oziq-ovqat solig‘i.  
Eloq – kichik yurt, kichik mulk.  
Etnogenez – xalq va elatlarning kelib chiqishi.  
Yabg‘u yoki jabg‘u – el-yurt hokimi, mahalliy hokim.  
Yasovul – soqchi.  
Yasoqlar – CHingizxon joriy etgan qonun-qoidalar to‘plami.  
O‘lpon – yer solig‘i.  
O‘rdugoh – qo‘shin lageri to‘xtaydigan qo‘noq; podsho qarorgohi.  
O‘tloq va suvloq – yaylovlardan olinadigan soliq.  
Qabo – ustki kiyim, yopinchiq.  
Qayr – daryo, anhor yoki shohariq bo‘ylaridagi tabiiy namli yerlar.  
Qam – shaman, ko‘k tangriga sig‘inuvchilar e’tiqodi.  
Qasr – saroy, oliv va hashamatli bino.  
Qopchur – mug‘ullar davrida chorvadan olinadigan soliq.  
Qoraxon – buyuk xoqon.  
Qutvol – davlat qurilishi boshlig‘i, sarkori, qal‘a va qo‘rg‘on soqchisi,  
qarorgoh nazoratchisi.  
Qo‘rg‘on, qo‘rg‘oncha – airofi baland paxsa devor bilan o‘ralgan darvozali istehkom.  
Qo‘sh – bir juft xo‘kiz bilan haydaladigan yer maydoni.  
G‘ozzi – din homiysi, din yo‘lida kurashuvchi.  
G‘oziy – g‘olib.  
G‘uvokor – savdogar (ilk o‘rta asrlar)  
G‘ul – muntazam qo‘shin.  
Haylboshi – suvoriyalar amiri, o‘nlik amiri.  
Hojib – harbiy boshliq.  
Hojib ul-bo‘zruk – qo‘mondon  
Hojib ul-hujob – bosh qo‘mondon.

---

## **1.Mavzu: Kirish. Davlatchilik tushunchasi va uning kelib chiqishi**

**Reja:**

### **1. Davlatchilik tushunchasi.**

**2.Davlatalar paydo bo‘lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan “Sharq yo‘li, mulkchilikka asoslangan “Yevropacha yo‘li”.**

### **3.Davlatning kelib chiqishi to‘g‘risidagi nazariyalar.**

### **1. Davlatchilik tushunchasi.**

Ilk davlatchilik tarixi bo‘yicha tadqiqotlar olib boruvchi aksariyat olimlarning e’tirof etishicha, O‘rta Osiyoda ilk davlatchilik asoslarini bronza (mil.avv. III-II m.y.) davridagi sug‘orma dehqonchilikning rivojlanishi va ixtisoslashgan hunarmandchilik xo‘jaliklari tashkil etgan edi. SHuningdek ilk davlatchilikning tarixiy ildizlari faqat ichki sabablargagina bog‘liq bo‘lmay, balki qadimgi Sharqdagi yuksak darajada rivojlangan an'anaviy tarixiy-madaniy aloqalarga ham bog‘liq bo‘lgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan yuqori sifatli moddiy madaniyat buyumlari o‘zaro aloqalardagi mavjud texnologik va iqtisodiy ta’sirni ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuzlab ming -yilliklarni o‘z ichiga qamragan insoniyat tarixida dastlabki davlatlarning paydo bo‘lishi – nisbatan ancha kech yuz bergen jarayondir. Davlatchilik tarixi insoniyat sivilizatsiyasining so‘nggi 5 ming -yili bilan bog‘lanadi. Ilk davlatlar o‘z rivojlanish bosqichlarida turli xususiyatlar va tarixiy qonuniyatlariga ega bo‘lib, ilk davlatlar xo‘jalikning ishlab chiqaruvchi shakllari – dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik qaerda oldinroq rivojlangan bo‘lsa, o‘sha erda paydo bo‘lgan. Xo‘jalik ishlab chiqaruvchi shakllarning taraqqiyoti aholi joylashuvi, hududlarning kengayishi va tashqi aloqalarning rivojlanishiga olib kelgan. Shu tariqa aholining aralash joylashuvi jarayoni boshlanib, bir hududda turli urug‘ vakillari yashaydigan bo‘lgan, ya’ni qarindosh-urug‘chilik jamoasi o‘rniga hududiy qo‘snilchilik jamoalari paydo bo‘lgan.

Bu jamoalar vakillari alohida qishloqlar, ekinzorlar va sug‘orish tarmoqlari bilan chegaralangan bo‘lib, ular to‘la o‘zlashtirilgan va doimiy xo‘jalik hamda ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanib kelingan voha-tumanlarda yashaganlar. Ular o‘z ichki va tashqi munosabatlarida kelib chiqadigan muammolarni hal qilishda birlashishga harakat qilganlar. Jamoalardagi ishlab chiqarish va ijtimoiy mehnat taqsimoti, tashqi harbiy bosqinlardan himoyalananish, diniy urf-odatlarni bajarish kabi masalalar ijtimoiy mansablar hamda boshqaruvning paydo bo‘lishiga asos solgan.

Olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, miloddan avvalgi 1 ming -yillikning boshlari O‘rta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlari (Baqtriya, Sug‘d, Xorazm) jamoalaridagi asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlar bir necha kichik oilalardan tashkil topgan uy jamoalari (katta oila vakillari)dan iborat bo‘lgan. Ushbu uy jamoalarining boshqaruv tartibida katta oilalar boshliqlar yoki uy egalari, shuningdek, alohida qishloq qo‘rg‘onlarini boshqaruvchi jamoalar muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu jarayonda alohida uylar o‘rtasidagi qarindoshchilik munosabatlari kabi belgilar ikkinchi darajali bo‘lib borgan. Bu shunda ko‘rinadiki,

har bir katta oila mumkin bo‘lgan qarindoshchilik aloqalariga qaramasdan, alohida xususiy mulkka, o‘z uy-joyiga, ishlab chiqarish qurollariga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorva mollariga ega bo‘lganlar, bir so‘z bilan aytganda, ular o‘zlarini iqtisodiy jihatdan ta’minlay oladigan xo‘jaliklarni aks ettirganlar.

Ushbu xo‘jaliklarda mansablarni egallash, jamoa ishlab chiqarish ishlari va ijtimoiy mehnat taqsimoti bilan bog‘liq bo‘lgan. Boshqaruv faoliyati zarurati ishlab chiqarishni takomillashtirish, ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish hamda jamoa mahsulotini taqsimlash kabi ishlar bilan maxsus shug‘ullanuvchi ayrim shaxslarni yuzaga chiqargan. SHu tariqa ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar taraqqiyoti jamiyatda o‘z obro‘-e’tiboriga ega bo‘lgan, faqat ijtimoiy ishlab chiqarish bilan shug‘ullanmasdan, ijtimoiy va xo‘jalik hayotini nazorat qiladigan hamda boshqaradigan shaxslarning saralanishiga olib kelgan. Bunday odamlar o‘zlarining shaxsiy axloqiy xislatlari, amaliy bilimlari va nufuzlari bilan boshqalardan ajralib turganlar. Aynan shu asosda ishlab chiqarish faoliyatidan tashkiliy-boshqaruv faoliyati ajralib chiqqan.

Qadimgi jamoalarda rahbar – yo‘lboshching nufuzi yuqori bo‘lsa-da, o‘sha davrlarda boshqaruv yutuqlariga asoslangan ijtimoiy hokimiyat siyosiy davlat maqomi darajasiga etmagan ijtimoiy tashkilot turini o‘zida ifoda etgan. Moddiy boyliklarni taqsimlash hamda jamoa mahsulotidan olinadigan ulush bunday tashkilot boshqaruvchisi lavozimidagi shaxslarning o‘rni va amaliga bog‘liq bo‘lgan. SHu tariqa yo‘lboshchi rahbarning dastlabki ijtimoiy foydali faoliyatni kasbiy boshqaruvchilikka aylangan.

A.S.Sagdullaev tadqiqotlariga ko‘ra, boshqaruvning paydo bo‘lish asoslari quyidagilardan iborat: ishlab chiqarish va ijtimoiy mehnat taqsimoti, tashqi harbiy bosqinlardan himoyalanish zarurati, jamoadagi mavjud urf-odatlarni bajarish, jamiyatning ijtimoiy-amaliy vazifalar jihatdan bo‘linishi. Olimning ta’kidlashicha, eng qadimgi davrlardan boshlab to bugungi kungacha quyidagi boshqaruv vazifalari ustivor bo‘lib kelmoqda: tashkil qilish, tartibga solish, nazorat, jamiyatning ichki va tashqi murakkabliklarini boshqarib turish. Qadimgi boshqaruv tizimining birinchi bosqichi quyidagi funksiyalar bilan bog‘liq holda amalga oshirilgan: iqtisodiy, jtimoiy, harbiy-siyosiy, hududiy.

**Iqtisodiy funksiyalar** tizimida ishlab chiqarish va ijtimoiy mehnat taqsimoti muhim o‘rin tutgan. Jumladan, dehqonchilik ishlari, ishlab chiqarishni tashkil etish, jamoa xo‘jaliklarida er va suvni taqsimlash, qurilish va sug‘orish irrigatsiya ishlarini yo‘lga qo‘yish, hishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, mahsulot ayirboshlash hamda savdo-sotiq aloqalari shular sirasiga kiradi. Ishlab chiqarish taraqqiyotining turli bosqichlarida rejlash-tirish, tashkil qilish, tartibga solish va nazorat qilish kabi ishlarni bajarish vazifalari ham yuzaga kelgan.

**Ijtimoiy funksiyalar** qadimgi jamoalardagi o‘zaro aloqalarni tartibga solish va muvofiqlashtirish, munozarali masalalarni hal qilish, jamoaning ichki va tashqi munosabatlarini huquqiy jihatdan boshqarib turish zaruratiga asoslangan.

**Harbiy-siyosiy funksiyalar** tashqi harbiy bosqinlardan himoyalanish, harbiy qo‘shinlarni tashkil etish, vohalar hududlarida mudofaa ishlarini amalga oshirish,

tuman va vohalar o'rtasida o'zaro aloqalarni o'rnatish hamda munozarali masalalarni hal qilish kabi vazifalar asosida shakllanib rivojlangan.

**Hududiy funksiyalar** voha, tuman, viloyat hududlarida joylashgan qishloq jamoalari, tuman aholisi (bir necha qishloq jamoalari) va viloyat (bir necha tuman) aholisining munosabatlarini nazorat qilish hamda boshqarib turish zarratidan kelib chiqqan.

Qadimgi davlat boshqaruvining ikkinchi bosqichi jamoalarda o'zini-o'z boshqaruv muassasalarining yo'lboshchi hokimiyatiga to'la bo'ysundirilishi bilan bog'liq bo'lib, bu jarayonda jamoa a'zolari o'rtasidagi ichki va tashqi aloqalar, huquqiy tartibot yanada takomil-lashib boradi. Bu holat esa davlat tizimidagi turli vazifalarning huquqiy tartibga solinishi va hokimiyatning huquqiy jihatdan rasmiylashtirilishiga olib keladi<sup>1</sup>.

Tadqiqotlarga ko'ra, jamiyatdagi inson faoliyati ta'sirida ro'y beradigan jarayonlar hamda voqeа-hodisalar bevosita boshqaruv faoliyati bilan bog'liq holda kechadi. Boshqaruv – bu muayyan jamoa yoki tashkilot a'zolarining faoliyat yo'nalishini ta'minlaydigan, butun tashkilot va uning bo'limlarini belgilangan maqsad doriasida ushlab turadigan, faoliyat turlariga ko'ra, jamiyatning barcha jahbalarida o'ziga xos tuzilmaga ega bo'lган, muayyan rahbar kadrlar tomonidan amalga oshiriladigan vazifadir.

Shuning uchun ham lotincha "adminis-tratio" atamasi rahbarlik qilishni (kimgadir, nimagadir), boshqaruvni anglatadi. Boshqaruv – tegishli ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lган maqsadlarga erishish yo'lida amalga oshiriladigan faoliyatlarni o'zida mujassam etadi.

Hozirgi kunda boshqaruv nafis san'at, shafqatsiz musobaqa, yuksak ilm-fan bilan barobar bo'lib, soha tadqiqotchilarining fikricha, zamonaviy boshqaruv vazifalari tizimi quyidagicha belgilanishi mumkin:

1. Tashkil etilgan tashkilot (jamoa, birlashma, idora va h.k.) rahbari va etakchisi sifatidagi faoliyati, a'zolarning birlashuvi.
2. O'zaro hamkorlik – muloqotni yo'lga qo'yish va doimiy muloqot.
3. Axborotni qabul qilish, saralash va tarqatish.
4. Yangi texnologiyalarni muntazam joriy etib borish.
5. Mavjud zahiralarni taqsimlash.
6. Qoida bo'zilishlarining oldini olish va kadrlar qunimsiz-ligini boshqarish.
7. Mo'zokaralar olib borish, shartnomalar tuzish.
8. Innovatsiyalar o'tkazish, raqobatbardosh loyihiborish ishlab chiqish.
9. Doimiy reja asosida ish olib borish (rejalashtirish).
10. Xodimlar faoliyatini nazorat qilish va ularni yo'naltirish bo'yicha mutaxassis amalga oshirishi mumkin va lozim bo'lган vazifalarning barchasi emas. Bulardan tashqari, boshqaruvchi reklama ishlari, qo'shimcha mablag'lar undirish, tashqi aloqalar (turli ko'rinishlarda) ni yo'lga qo'yish kabi faoliyat turlari bilan ham shug'ullanishlari lozim bo'lган vazifalarning barchasi emas. Bulardan tashqari, boshqaruvchi reklama ishlari, qo'shimcha mablag'lar undirish, tashqi

<sup>1</sup> Садуллаев А.С., Мавлонов ЎюМ. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. Тошкент, Академия, 2006. Б. 24-28, 35.

aloqalar (turli ko‘rinishlarda) ni yo‘lga qo‘yish kabi faliyat turlari bilan ham shug‘ullanishlari lozim bo‘ladi.

Tadqiqotchilar insonning hayotning turli jabhalariga ta’sir ko‘rsatish nuqtai nazaridan quyidagi boshqaruv turlarini ajratib ko‘rsatadilar:

1. Hayvonot va o‘simlik dunyosiga zarur shaklda ta’sir ko‘rsatish yo‘lini tanlash bilan bog‘liq bo‘lgan **biologik boshqaruv**.

2. Texnologik jarayonlar, mexanizmlar va shunga o‘xhash holatlarni boshqarish bilan bog‘liq **texnologik boshqaruv**.

3. Insonning insonga ta’sir qilish vositalarini shakllan-tiruvchi jamiyat boshqaruvini nazarda tutadigan **ijtimoiy boshqaruv**. Ijtimoiy boshqaruv o‘z xususiyatlari bilan qolgan ikkita boshqaruv turlaridan ajralib turadi.

Hozirgi kunda jahon xalqlari o‘rtasida integratsiya jarayon-larining tobora chuqurlashib borishi, iqtisodiy munosabatlar, axborot almashinuvi, yangi texnologiyalarning jadallik bilan kirib kelishi har bir to‘zum, jamiyat, tashkilot yoki jamoa oldiga o‘z faoliyatlarini ushbu hodisalarning buguni va kelajagini hisobga olgan holda tashkil etish vazifasini yuklamoqda. SHunga qaramasdan, boshqaruv organlarining faoliyat yuritishi hech qachon o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Davlatdagi boshqaruv organlari mavjud erda esa, tabiiyki rahbar kadrlar ish olib boradi.

Davlatning qonunlar asosida ish yuritishi va mehnatni samarali tashkil etishi ma’lum tashkilotlar, jamoalar, idoralarning yashovchan-ligini ta’minlovchi omillari sifatida maydonga chiqadi. Ushbu omillarga ajralmas darajada bog‘lanib ketgan uchinchi omil – bu davlat boshqaruvida rahbarlik faoliyatidir. Tashkilot taraqqiyoti va uning barcha munosabatlari, shu jumladan, tashkilotning ichki munosabatlari ham uni boshqarayotgan rahbar yoki tashkilot tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan turli darajadagi rahbarlar – rahbariyatning xatti-harakatlari natijasida amalga oshadi. SHuning uchun ham tashkilot samarali mehnat va uni rag‘batlantirishni yo‘lga qo‘ymasa, rahbar tashkilotga munosib faoliyat yuritmasa, u tanazzulga uchraydi.

Aynan mana shu sabablarga ko‘ra hozir biz yashayotgan jamiyatda rahbar kadrlar faoliyatini nazorat qilishda amaliy ish olib boruvchi tizimlar – **komissiya, reviziya, attestatsiya** kabi tuzilmalar mavjud bo‘lib, bu tuzilmalar ham davlat, ham nodavlat tashkilotlarga baravar xizmat ko‘rsatadi.

SHunday qilib, O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi – bu davlat va nodavlat idoralarining qonunlarni hamda bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat barpo etish vazifalarini bajarish yo‘lida o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiriladigan kundalik qonuniy ijrochilik va ma’muriy faoliyatidan iborat. Davlat boshqaruvi xo‘jalik, ijtimoiy-madaniy va ma’muriy-siyosiy qurilishga rahbarlik qilish jarayonida amalga oshirila borib, quyidagi masalalarni nazarda tutadi:

1. Ma’muriy ijro tizimining yuqorida pastga, pastdan yuqoriga qarab harakatlanishi.

2. Davlat boshqaruvi sub’ektlarining huquqiy-hokimiyat vakolat-larini ma’muriy tartibda amalga oshirish.

3. Boshqaruv sub'ektlari huquqiy me'yirlarni mustaqil o'rnata oladigan ma'muriy qonun ijodkorligi imkoniyatlarining mavjudligi.

## **2.Davlatlar paydo bo'lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan "Sharq yo'li, mulkchilikka asoslangan „Yevropacha yo'li“.**

Davlat boshqaruvining paydo bo'lishi insoniyat tarixida muhim muvaffaqiyat va sifatiy yangi bosqich bo'ldi. Dunyo tarixidagi qadimgi davlatlarning paydo bo'lishi va takomillashuvida O'rta Osiyo va unga qo'shni hududlarda yashagan xalqlarning ham hissasi katta bo'ldi.

Dunyo tarixida shaharlar, siyosiy birlashmalar, uyushmalar, keyinroq esa davlatning paydo bo'lishi uzoq davom etgan jarayondir. E.V.Rtveladzening fikricha, bu jarayon turli xalqlarda turli yo'llar bilan bo'lib o'tgan.

**Birinchidan**, davlatlar paydo bo'lishining osiyocha ishlab chiqarish usuliga asoslangan "SHarq yo'li" bo'lib, unda iqtisodiyotning asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etgan; dehqonchilik jamoasi jamiyatning birlamchi yachevkasi edi; aholining katta qismini safarbar etish zaruriyati prinsipial boshqaruvchilar tabaqasini taqozo etgan.

Ishlab chiqarishning osiyocha usuli miloddan avvalgi IV ming -yillikdan milodiy I asrgacha yirik daryolar vodiylarida joylashgan Misr, Bobil, Xitoy, Hindiston, O'rta Osiyo kabi mintaqalarda yoyilgan.

Davlat tuzilmasining **ikkinci**, «Evropa yo'li» Evropa mintaqasida mil.avv.V asrdan boshlab miloddiy III asrgacha qadimgi polislarida mavjud bo'lган. Ularda xususiy mulkchilik shakllanishi tufayli kelib chiqqan jamiyatning ijtimoiy mulkiy tabaqlanishuvi jarayoni (sinflar shakllanish jarayoni) asosiy omil bo'ldi.

Ma'lum bir qabila, elat va xalqqa xos hamda muayyan hudud bilan bog'liq bo'lган davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari boshqa xalq va hududlardagi davlatchilik jarayonlariga aslo mos tushmaydi. SHunga qaramay, Qadimgi SHarqdagi ilk davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi ko'pgina umumiyligi jihatlarga ega ekanligini ta'kidlash joizdir. Aynan mana shuning uchun ham O'rta Osiyoda ilk davlatlarning paydo bo'lishi Qadimgi SHarq davlatchiligi tarixi bilan o'zviy bog'liqdir.

Qadimgi SHarq turli hududlaridagi tabiiy sharoit o'ziga xos bo'lib, ko'pincha davlatlarning paydo bo'lishi ushbu holat bilan bevosita bog'liq edi. Ayniqsa, yirik daryolar - Nil, Dajla, Frot, Hind, Ganga, Xuanxe, Amudaryo va Sirdaryo Qadimgi Sharq xalqlari tarixiy taqdirida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Ijtimoiy va hududiy birlikning asosi hisoblangan jamoalar mavjudligi Qadimgi Sharq ijtimoiy tuzilmasining muhim o'ziga xos tomoni edi. Barcha Qadimgi Sharq davlatlari (ayrim shahar-davlatlar bundan mustasno) juda ko'plab qishloq jamoalaridan tashkil topgan bo'lib, ularning har birida boshqaruv tartibi mavjud edi. Yirik ishlar, ayniqsa sug'orish tartibi bilan bog'liq ishlar amalga oshirilganda ko'pgina jamoalar birlashuvi davlat hokimiyati rolining oshishini ta'minlar edi.

Ko'p hollarda tadqiqotchilar jamoalarning birlashuvi natijasida paydo bo'lган davlatchilik tizimini murakkab sug'orish tartibi tashkil etilishi, erlarni

sun’iy sug‘orilishi, daryo vohalari va tog‘ oldi hududlarining o‘zlashtirilishi hamda to‘g‘onlarning qurilishi bilan bog‘laydilar. YUqoridagi omillarning mavjud bo‘lganligi aniq. Lekin, fikrimizcha, ularni tashkil etish nazorat va boshqaruvni, hisob-kitobni talab etar edi. Demak, buning uchun yozuvchi mirzalar, hisob-kitobchilar va hukmdorlar zarurati tug‘ilgan. Mehnat qurollari tayyorlash uchun hunarmandlar faoliyat ko‘rsatgan. Ushbu murakkab tizim xavfsizligini ta’minalash uchun qurolli guruuhlar tuzish, hamda ma’lum hududlarni mudofaa inshootlari bilan o‘rab olish kerak bo‘lgan. SHu tariqa jamiyatda ikkita yangi tuzilma- shahar va davlat paydo bo‘la boshlaydi.

Davlat yoki shahar-davlat ma’lum hududlarni o‘z nazoratiga olishi va bu hududlarni kengaytirib borishi natijasida chegaralar paydo bo‘lgan. Hududlarning kengayishi va chegaralarning o‘zgarishi natijasida davlatlar o‘rtasida urushlar kelib chiqadi. Chegaralar masalasida ta’kidlash joizki, qadimgi davrlarda ular ko‘p hollarda tog‘lar va dasht hududlar orqali, ayrim hollarda esa daryolar orqali o‘tgan. SHuning uchun ham tarixiy yondashuv shuni talab etadiki, tarixning turli davrlarida davlatlar chegaralari o‘zgarib turgan va hozirgi chegaralarga mutlaqo mos tushmaydi.

O‘rta Osiyo, umuman O‘zbekiston hududlarida dastlabki davlatchilikning paydo bo‘lishi masalalari tadqiqotchilar orasida hamon bahslarga sabab bo‘lib kelmoqda Bu o‘rinda ushbu jarayonga asosiy turtki bo‘lib yanada jadallashtirgan omillarni aniqlash nihoyatda muhimdir<sup>1</sup>. Bronza davridayoq sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik O‘rta Osiyo xo‘jaligining asosini tashkil etgan. Sug‘orma dehqonchilikning yuqori unumdar shakllari jamiyatda hal qiluvchi o‘zgarishlarga olib keldi. Xususan, dehqonchilik rivoji natijasida qo‘sishma mahsulot va xususiy mulk ko‘rinishlari paydo bo‘ldi.

### **3.Davlating kelib chiqishi to‘g‘risidagi nazariyalar.**

Mustaqillik tufayli Vatanimiz davlatchilik tarixini anglash, tadqiq etish, o‘rganish sari katta yo‘l ochildi. Bunda Yurtboshimizning shaxsan o‘zi tomonidan o‘zbek davlatchiligi konsepsiyasini yaratish va shu asosda davlatchiligidan chin tarixini bunyod etish vazifasi qo‘yildi. Ana shu vazifani bajarish borasida tarixchilar, huquqshunoslar, siyosatshunoslar milliy g‘oya, mustaqillik mafkurasi ruhida yozilgan bir qator tadqiqot ishlarini nashr qildilar.

Bu o‘rinda Azamat Ziyoning monografik tadqiqotini ko‘rsatish mumkin. Asarda mavzuning o‘rganilganlik darjasini, manbaviy asosi umumlashtirilib berilgan. Kitob besh bobdan iborat bo‘lib, unda O‘rta Osiyodagi ilk davlatchilik, o‘rta asrlardagi o‘zbek davlatchiligi, jumladan, Amir Temur va Temuriylar davlati, Shay boniyalar, Ashtarxoniyalar davlatlari, o‘zbek xonliklari

<sup>1</sup> Давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланишига турлича ёндошувлар, назариялар, давлатчилик типлари ва шакллари масалалари бўйича батафсил маълумот олиш учун сўнгги йилларда қиёсий таҳлил этилган қўйидаги ишларга қаранг: Аскаров А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд: Институт археология АН РУз, 1993. – С. 132-140; Кашанина Т.В. Происхождение государства и права. Современные трактовки и новые подходы. – М.: Знание, 1999. – С. 51-103, 316-332; Ртвеладзе Э.В. ва бошк. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва хукуқ тарихидан лавҳалар. – Тошкент. Адолат, 2001. – 10-58 бб; Сагдуллаев А.С. ва бошк. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Тошкент. Академия, 2000. – 16-43 бб. Шайдуллаев Ш.Б. Илк давлатларнинг археологик белгилари // О‘zbekiston tarixi. Тошкент. 2002. №3, 3-10 бб. ва бошк.

tarixi umum lashtirilgan. Mualliflar jamoasi (A.Sagdullayev, B.Aminov, O‘Mavlonov, N.Norqulov)ning «O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. I qism» kitobida O‘zbekiston hududida davlatchilikning kelib chiqishi va uning rivojlanish bosqichlari, qadimgi va o‘rta asrlardagi o‘zbek davlatchiligi tizimidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot va uning o‘ziga xos xususiyatlari keng va katta hajmdagi arxeologik, etnologik, antrapologik va yozma manbalar asosida yoritilgan. Asarda davlatchilik mexanizmini, boshqaruv tizimini ochib beruvchi qator chizma (sxema)lar berilganki, ular orqali masala mohiyati, shakl-shamoili o‘quvchida yaxshi tushuncha hosil qiladi.

Taniqli davlatshunos, huquqshunos olim Halimboy Boboyevning «O‘zbek davlatchiligi tarixi» kitobida o‘zbek davlatchiligi tarixi eng qadimgi davrdan o‘rta asrlarga qadar mavjud turkiy, forsiy, arab, xitoy, rus tillaridagi manbalar asosida keng va chuqur yoritgan. Asarda o‘zbek xalqining davlatchilik tarixi dunyodagi qadimgi Misr, Hindiston, Xitoy kabi davlatlar tarixi bilan barobar bo‘lib, bundan taxminan uch-to‘rt ming -yillar avval shakllangan. Bugungi kunga kelib, davlatchilik tarixi masalasi turli yangi ilmiy adabiyotlarda ko‘rib chiqilgan (E. Rtveladze, A. Saidov, D. Alimova), jumladan, quiydagи muammolar: davlatchilik tushunchasi va uning kelib chiqishi, davlat kelib chiqishida nazariyalarning ko‘p xilliligi, O‘zbekistonda qadimgi davlatchilikning qaror topishi va rivojlanishi, davlatlar rivojlanishini davrlarga bo‘lish, O‘zbekiston hududidagi qadimgi davlat turlari tahlil qilingan B.Eshovning «O‘zbekiston davlatchiligi tarixi2

. I qism» o‘quv qo‘llanmasida O‘zbekistondagi eng qadimgi davlatlarning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, davlatchilik tushunchasi, qadimgi Baqtriya, Xorazm va Sug‘diyona, O‘rta Osiyodagi ahamoniylar davridagi boshqaruv, Qang‘, Davan, Kushon davlat lari, antik davr shaharsozlik an’analari, Avesto davlatchilik tarixini o‘rganishdagi muhim manba masalalari o‘z aksini topgan. Shuningdek, asarda Eftaliylar, Turk xoqonligi, Arab xalifaligi davridagi boshqaruv tizimi faktik materiallar asosida tahlil qilingan. Ayniqsa, Tohiriyalar, Safforiylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘az naviyalar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlatlari boshqaruv tizimlari va bu davlatlardagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot taraqqiyoti umumlashtirilgan.

Muallif davlatchilik tarixi masalalari bo‘yicha so‘nggi -yillarda nashr qilingan ilmiy adabiyotlar hamda yordamchi fanlar tadqiqotlaridan keng foydalangan. Qo‘llanmada ilk davlatlar paydo bo‘lishi va rivojlanishining davrlarga bo‘linishi, davlat boshqaruvida siyosiy, mulkchilik va harbiy tizim, shuningdek, boshqaruvda mansablar va xizmatlar chizma (sxema)lar orqali keng ko‘lamda yoritilgan.

B.Eshovning navbatdagi «Qadimgi O‘rta Osiyo shaharlari tarixi» o‘quv qo‘llanmasida ham o‘zbek davlatchilik tarixiga oid ma’lumotlar, tarixiy umumlashmalar berilgan. Ayniqsa, shahardavlat to‘g‘risidagi materiallar diqqatga sazovordir. Bu asarning ham metodik saviyasi talab darajasida. Unda tayanch so‘zlar, savol va topshiriqlar, foydalanish uchun adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan.

Vatanimiz hududidagi eng qadimgi davlatlar tarixini o‘rganishda bizga arxeologiyaga oid qazishmalar natijalari, mahalliy yozma adabiyotlar, masalan, «Avesto», Beruniyning «Osorulboqia» (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar) kabi asarlar, qadimgi fors yozuvlari, yunonlik, xitoylik mualliflar yozib qoldirgan meroslar, asarlar yordam beradi. Ana shu hujjatlarning guvohlik berishicha o‘tmish ajdodlar miloddan avvalgi 1-mingyillik boshlarida temirni kashf etdilar. Natijada har qanday taraqqiyotning turkisi bo‘lib kelgan mehnat qurollarining takomillashuvi uchun keng imkoniyat ochildi. Oqibatda inson faoliyati kengaydi va jadallahdi. O‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mi loddan avvalgi 1-mingyillikning birinchi yarmidayoq mintaqada tog‘ jismlarini (temir, qalay, qo‘rg‘oshin va h. k.) qayta ishslash, ulardan jang, mehnat qurollari yasash, kulolchilik to‘quvchilik, quruvchilik, zargarlik kabi sohalarda foydalanish keng yo‘lga qo‘yilgan. Bundan tashqari xuddi o‘sha davrda, ya’ni miloddan avvalgi IX–VIII asrlarda Xorazmda uzunligi bir necha kilometrni tashkil etgan sun’iy sug‘orish kanallari ishlab turgani tarixdan ma’lum. Bu hol sun’iy sug‘orish ishlari avlod-ajdodlarimizning qehqonchilik hayotida katta o‘rin tutganligini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, qadimdan Xorazm vohasi don, moy beruvchi o‘simliklarni yetishtiradigan, polizchilik, bog‘dorchilik, uzumchilik xo‘jaligi munosib ravishda rivoj topgan o‘lkalardan biri bo‘lgan. Bunday katta hajmdagi xo‘jalik-ijtimoiy ahamiyatga molik ishlarni e’tiborli va nufuzli kuchga ega bo‘lgan davlat tuzilmasi bo‘lmasa uni amalga oshirib bo‘lmasligi aniq. Zero miloddan avvalgi 1 minginchi -yilning birinchi yarmidayoq O‘zbekiston hududida dastlabki davlat tuzilmalari bo‘lganligiga hech qanday shubha yo‘q. Turli yozma manbalarda bu davrda bir necha qadimgi davlatlar bo‘lganligi tilga olinadi. Bular: Xorazm — Amudaryoning quyi oqimidagi shimoliy yerlar, Baqtriya — hozirgi Surxondaryo, Tojikistonning Amudaryoga yaqin yerlari va Shimoliy Afg‘oniston hududlari, Sug‘diyona — Zarafshon daryosidan suv ichgan yerlar va Qashqa vohasi hududlaridir. Quldorlik davlati O‘rta Osiyo sharoitida nisbiy xarakterga ega. Quldorlik davlati bo‘lib mintaqada tom ma’noda sodir bo‘Imagan. Xo‘sh, quldorlik jamiyati xususida qanday fikr bayon qilish mumkin?

Quldorlik jamiyati kishini kishi tomonidan eksplua tatsiya qilinishiga asoslangan jamiyatdir. Qadimgi Sharq, Yunoniston va Rim jamiyatlarida shunisi bilan tavsifga loyiqliki, quldorlar va qullar asosan qarama-qarshi sinflar bo‘lib kelgan. O‘tmishdan ma’lumki, eng qadimgi ilk davlatchilik birlashmalari bu miloddan avvalgi IV–III mingyilliklarda vujudga kelgan Mesopotamiya va Misr hisoblanib, qolgan hududlarda esa keyinroq, ya’ni miloddan avvalgi II–I mingyilliklarda vujudga kelgan va rivoj topgan.

O‘rta Osiyoda miloddan avvalgi I mingyillikning boshlarida vujudga kelgan Baqtriya, Xorazm kabi davlatlar Rim va Yunonistonga nisbatan birmuncha boshqacha yo‘ldan rivojlanib bordilar. Agar Yunoniston va Rimda qulchilik munosabatlari ijtimoiy taraqqiyotning eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilgan va ijtimoiy turmush tarzi to‘la tarzda belgilangan bo‘lsa, O‘rta Osiyoda uning aksini ko‘ramiz. Bu yerda qulchilikning ayrim elementlari ma’lum tarzda mavjud bo‘lsa-da, jamoa mavqeyi katta bo‘lganligidan u

taraqqiyotning yuqori darajasiga ko‘tarila olmagan.

### **Adabiyotlar**

- Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997.
- Каримов И.А. Тарихий хотирирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998
- Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Т.: Шарқ, 2000.
- Сагдулаев ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т., 2000.
- Сагдулаев А.С., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. - Т., 2006.
- Ртвеладзе Э.В. История государственности Узбекистана. – Т.: Узбекистан. 2009.
- Эшов Б.Ж. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи. (ўқув қўлланма). – Т.: Маърифат, 2009.
- Эшов Б.Ж. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012.

## **2.Mavzu: Boshqaruv asoslarining shakllanishi va davlatlarning tashkil topishi Reja:**

- 1. Qadimgi davlatatlarning rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar.**
- 2. Boshqaruv tizimidagi funktsiyalar.**
- 3. Davlat boshqaruvi tushunchasi va boshqaruv tasnifi**
- 4. Davlatning vazifalari va boshqaruv ko‘rinishlari.**

### **1.Qadimgi davlatatlarning rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar.**

Yuzlab mingyilliklarni o‘z ichiga olgan insoniyat tarixida dastlabki davlatlar va shaharlarning tashkil topishi, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi, yozuvning kelib chiqishi – nisbatan keyinroq yuzaga kelgan hodisalardir. Davlatchilik jahon tarixida miloddan avvalgi IV ming -yillikning oxirlarida vujudga kelgan bo‘lib, insoniyat tamaddudining sunggi 5 ming -yili bilan bog‘lanadi.

Qadimgi davlatlar o‘z rivojlanish bosqichlarida, turli xususiyatlar va tarixiy qonuniyatlarga ega bo‘lgan. Dastavval, ilk davlatlar xo‘jalikning ishlab chiqaruvchi shakllari – dehqonchilik va chorvachilik qasrda oldin rivoj topgan bo‘lsa, o‘sha erda vujudga keldi.

Ibtidoiyaning tarixda (paleolit – qadimgi tosh davri, mezolit – o‘rta tosh davri, neolit – yangi tosh davri) aholining joylashuvi qarindosh-qondoshlik aloqalari bilan belgilangan. U yoki bu hududda faqat bitta urug‘ a’zolarigina yashagan. Xo‘jalik ishlab chiqaruvchi shakllarining taraqqiyoti aholi joylashuvi hududlarning kengayishiga, tashqi aloqalarning uzlusiz rivojlanishiga olib kelgan. Ishlab chiqarish zarurati va boshqa iqtisodiy omillar shuni taqozo etgan. SHu tariqa aholining aralash joylashuvi jarayoni boshlangan. Bunda bir hududda turli urug‘ namoyandalari yashaydigan bo‘lgan. Ana shunday qilib, jamiyatning yangi hududiy tashkiloti vujudga kelgan. Qarindosh-urug‘chilik jamoasi o‘rniga hududiy qo‘shnichilik jamoasi paydo bo‘lgan.

Bu jamoalar vakillari alohida qishloqlar, ekinzorlar va sug‘orish tarmoklari bilan chegaralangan, ya’ni to‘la o‘zlashtirilgan va muttasil xo‘jalik va ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanimizdeklar, O‘rta Osiyoda ilk davlatchilik tuzumiga bronza, davridagi sug‘orma dehqonchilik rivojlanishi va ixtisoslashgan hunarmandchilik zamin yaratgandir. Alohida ta’kidlash joizki, O‘rta Osiyoda davlatchilik tuzumiga o‘tish jarayoni faqat ichki sabablarga bog‘liq bo‘lmay, SHarqdagi yuqori darajada rivojlangan an‘anaviy tarixiy-madaniy aloqalarga ham bog‘liq edi. Baqtriya

hududidan topilgan yuqori sifatli oltin, kumush va bronza buyumlari tashqi savdo va o‘zaro aloqalarning rivojlanganligidan dalolat beradi. Qadimgi SHarq davlat markazlari bilan madaniy munosabatlari muammosi dolzarb mavzu bo‘lib, arxeologik ma’lumotlar o‘zaro aloqalardagi mavjud texnologik va iqtisodiy ta’sirni ko‘rsatadi.

Arxeologik va yozma manbalarni o‘rganish shuni kursatadiki, ilk temir davri Xorazm, Baqtriya va So‘g‘d jamoalaridagi asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlarni bir necha kichik oilalardan iborat uy jamoalari (katta oila vakillari) tashkil etgan. Uy-qo‘rg‘onlar joylashuvinish tashqi belgilariyoq uy-jamoalari aftidan ancha yirik hududiy qo‘shti jamoalarni tashkil qilganiqan dalolat beradi. Boshqaruv tartibida katta oilalar (uy jamoasi) boshliqlari yoki uy egalari, shuningdek, alohida qishloq qo‘rg‘onlarini boshqaruvchi jamoalar katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Alohida uylar o‘rtasidagi qarindoshchilik munosabatlari kabi belgilar aftidan, ikkinchi darajali bo‘lib borgan. Bu shunda ko‘rinadiki, har bir katta oila mumkin bo‘lgan qarindoshchilik aloqalariga qaramasdan, alohida xususiy mulkka, o‘z uy-joyiga, ishlab chiqarish quollariga, shuningdek, qishloq xo‘jalik mahsulotlari va chorvalariga ega bo‘lishgan, bir so‘z bilan aytganda, ular o‘zini iqtisodiy jihatdan ta’minlay oladigan xo‘jalikni aks ettirganlar. Katta oilali jamoalar shakli jamoadagi ishlab chiqarish va xo‘jalik harakatiga bog‘liq bo‘lib, ular jamoaning iqtisodiy jihatdan mustahkamlanishiga olib keldi.

Ijtimoiy mansablarni egallash, jamoa ishlab chiqarish ishlari va ijtimoiy mehnat taqsimoti bilan bog‘liq bo‘lgan. Boshqaruv faoliyati zarurati ishlab chiqarishni tashkillashtirish, ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish va jamoa mahsulotini taqsimlash kabi ishlar bilan maxsus shug‘ullanuvchi ayrim shaxslarni yuzaga chiqargan.

SHu tarzda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar taraqqiyoti jamiyatda o‘z obro‘-e’tiboriga ega bo‘lgan, faqat ijtimoiy ishlab chiqarish bilan shug‘ullanmasdan, ijtimoiy va xo‘jalik hayotini nazorat qiladigan hamda boshqaradigan shaxslarning saralanishiga olib kelgan. Bunday odamlar o‘zlarining shaxsiy axloqiy xislatlari, amaliy bilimlari va nufuzlari bilan boshqaruvdan ajralib turgan. SHunday qilib, ishlab chiqarish faoliyatidan tashkiliy-boshqaruv faoliyati ajralib chiqqan.

Rahbar-yulboshching nufuzi yuqori bo‘lsa-da, jamiyatdagi ishlab chiqarish jarayoni boshqaruv yutuqlariga asoslangan ijtimoiy hokimiyat dastlab siyosiy davlat maqomi darajasiga etmagan ijtimoiy tashkilot turini o‘zida ifoda etgan. Bunday tashkilot boshqaruvchisi lavozimini bajaruvchi shaxslar o‘z mehnati evazi ga moddiy jihatdan rag‘batlantirilgan. Moddiy boyliklarni taqsimlash va jamoa mahsulotidan olinadigan ulush bunday kishilarning jamiyatdagи o‘rni va amaliga bog‘liq bo‘lgan. SHunday qilib, yulboshchi rahbarning dastlabki ijtimoiy foydali faoliyati kasbiy boshqaruvchilikka aylangan.

Boshqaruvning ilk bosqichlari qadimgi zamonlarga borib takdladi. Boshqaruv tamoyillari va vazifalari turli ko‘rinishlarda bo‘lib, ularning shakllanish va rivojlanish bosqichlariga jamiyat rivojining ichki qonuniyatları (ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yuqori darjasasi, xususiy mulkning paydo bo‘lishi, hunarmandchiliq tovar ayriboshlash va savdoning tez rivojlanishi kabilar) bilan birga, tashqi omillar – kuchayib borayotgan siyosiy qarama-qarshiliklar va harbiy

to‘qnashuvlar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Qadimgi SHarqning dastlabki davlatlari alohida makonlar yoki ilk shaharlar hamda ishlov beriladigan erlar sug‘orish tizimi maydoni bilan chegaralangan nisbatan kichik hududda, ya’ni zich o‘zlashtirilgan, xo‘jalik va ishlab chiqarish maqsadida keng foydalaniladigan qadimgi sug‘orma dehqonchilik vohalarida paydo bo‘lgan. Tarixshunoslikda bunday ilk davlatlar qadimgi Misr misolida “nom”- lar, ya’ni “viloyatlar” yoki shahar-davlatlar (Ikkidaryo oralig‘i) deb ataladi.

Eng qadimgi davlatlar bundan 5 ming -yil avval, Qadimgi Misr va Ikkidaryo oralig‘ida (Dajla va Frot) paydo bo‘lgan. Davlatchilik tizimi bundan 4-3,5 ming -yil avval YUnioniston, Kichik Osiyo, Eron, Kavkazorti, Hin- diston, Xitoy va O‘rta Osiyo hududlarida tarqalgan. Jahon tarixidagi ilk davlatlar yuqorida ta’kidlaganimizdeq dehqonchilik va chorvachilik kabi ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklar paydo bo‘lgan hududlarda shakllangan. Boshqaruvning paydo bulish asoslari quyidagilardan iborat: ishlab chiqarish va ijtimoiy mehnat taqsimoti, tashqi harbiy bosqinlardan himoyalanish zaruriyati, jamoadagi urf-odatlarni bajarish, jamiyatning ijgimoiy-amaliy vazifalar jihatdan bo‘linishi.

## **2.Boshqaruv tizimidagi funksiyalar.**

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, eng qadimgi davrlardan boshlab, bugungi kungacha quyidagi boshqarish vazifalari ustuvor bo‘lib kelmoqda: tashkil qilish, tartibga solish, nazorat, jamoatning ichki va tashai munosabatlarini boshqarib turish.

Qadimgi boshqaruv tizimi quyidagi funksiyalar bilan bog‘liq holda amalga oshirilgan: iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy-siyosiy, hududiy.

**Iqtisodiy funksiyalar** tizimida ishlab chiqarish va ijtimoiy mehnat taqsimoti muhim o‘rin to‘tgan. Jumladan, dehqonchilik ishlari, ishlab chiqarishni tashkil etish, jamoa xo‘jaliklarida er va suvni taqsimlash, qurilish va sug‘orish-irrigatsiya ishlarini yulga qo‘yish, kishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, tovar ayirboshlash va savdo-sotiq aloqalari. Ishlab chiqarishning turli bosqichlarda rejalashtirish, tashkil qilish, tartibga solishni nazorat qilish kabi ishlarni bajarish vazifalari ham paydo bo‘lgan.

**Ijtimoiy funksiyalar** jamoalardagi o‘zaro aloqalarni tartibga solish va muvofiqlashtirish, munozarali masalalarni hal qilish, jamoaning ichki va tashqi mumosabatlarini: huquqiy jihatdan boshqarib turish zaruririyatiga, asoslangan.

**Harbiy-siyosiy funksiyalar** tashqi harbiy bosqinlardan himoyalanish, harbiy qo‘shinlarni tashkil etish, makonlar va tumanlar hududlarida mudofaa ishlarini amalga oshirish, tuman va viloyatlar o‘rtasida o‘zaro aloqalarni o‘rnatish va munozarali masalalarni hal qilish kabi vazifalar asosida rivoj topgan.

Ilk davlatlarning hududiy asosini ularga aloqador bo‘lgan qo‘shni dehqonchilik tumanlari tashkil etgan. Xo‘jalik yuritish maqsadida o‘zlashtirilgan hududlarda aholi zich joylashgan bo‘lib, ular qadimgi “dehqonchilik tuman-vohalari” deb atalgan. Ularning har birida hosildor erlar va sug‘orish tizimidan tashqari uy-qo‘rg‘onlar va manzilgohlar (qishloqlar), ekin ekilmagan erlar va yaylovlar mavjud bo‘lgan. Qadimgi dehqonchilik tumanlarining tuzilishi tabiiy-geografiq ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy muhit bilan bog‘liq edi. Bir necha

tumanlar viloyatni tashkil etgan.

YUqorida ko‘rsatilgan omillar bilan bog‘liq holda boshqaruvning **hududiy funksiyalari** ham vujudga kelgan. Ushbu funksiyalar tuman, viloyat hududlarida joylashgan qishloq jamoalari, tuman aholisi (bir necha kishloq jamoalari) va viloyat (bir necha tuman) aholisining munosabatlarini nazorat qilish va boshqarib turish zaruriyatidan kelib chiqqan.

Shu tariqa ilk davlatchilikka o‘tish jarayoni boshlangan. Ikkinchisi bosqich jamoaning o‘zini-o‘zi boshqaruv muassasalarining yulboshchi hokimiyatiga to‘la buysundirilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu jarayonda jamoa a’zolari o‘rtasidagi ichki va tashqi aloqalar huquqiy tartibot yanada takomillashib boradi. Bu holat esa davlat tizimidagi turli vazifalarning huquqiy tartibga solinishi va hokimiyatning huquqiy jihatdan rasmiylashtirilishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, Qadimgi SHarqning ilk davlatlari tarixi dastlab jamiyatning qullar va quidorlarga bo‘linishidan boshlamagan ekan. Ushbu jarayonning muhim omillaridan biri mulkiy tabaqalanish bo‘lmashdan, sinfiy qarama-qarshilikka aloqasi bo‘lmagan jamiyatning ijtimoiy-amaliy vazifalar jihatidan bo‘linishidir. Bu hol, eng avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy va diniy omillarga bog‘liq bo‘lgan. Davlatchilikning asoslari, siyosiy institutlar shakllangandan keyingi chuqur ijtimoiy tabaqalanish jarayonining boshlanishi bilan xarakterlanadi.

### **3. Davlat boshqaruvi tushunchasi va boshqaruv tasnifi.**

Davlat o‘zining tarkibiy tuzilishi va aloqalariga ko‘ra ko‘ptizim-lilik xususiyatiga ega. Bu tizimda ko‘plab davlat idoralari va boshqa tuzilmalar, ko‘p sonli mansabdor shaxslar va boshqa xizmatchilar, millionlab kishilar ishga solinadi. Davlat boshqaruvida quyidagi tizimlar alohida ajratib ko‘rsatiladi:

1. Boshqaruvchi tizim – davlat boshqaruvi sub’ektini belgilovchi sifatida.
2. Boshqariladigan tizim – butun jamiyat va uning davlat ta’siriga tortilgan tarkibiy qismlari boshqaruv ob’ektlari sifatida.
3. O‘zaro hamkorlik tizimi – davlat va jamiyatning aloqalarini amalga oshiradigan turli institutlar.
3. O‘zaro hamkorlik tizimi – davlat va jamiyatning aloqalarini amalga oshiradigan turli institutlar.

Hokimiyatning markaziy idoralari va mintaqalarning o‘zaro aloqalarini xususiyatlariga ko‘ra boshqaruvning subordinatsiyali va muvofiqlashtiruvchi shakllari farqlanadi. **Muvofiqlashtiruvchi boshqaruv** hokimiyatning yagona markaziy idorasi bilan birga to‘liq yoki qisman mustaqillikka ega bo‘lgan joylardagi idoralar ham mavjud bo‘lgan federatsiya yoki konferensiya shaklida amalga oshiriladi. **Subordinatsiyali boshqaruv** unitar davlatlar uchun xos bo‘lgan joylardagi hokimiyatning markazga ma’muriy bo‘ysunishi, quyi boshqaruv idoralariiga ta’sir o’tkazish, yuqori boshqaruv idoralaridan keladigan buyruqlarga majburan bo‘ysundirishiga asoslanadi. Mulk shakllaridan foydalanish mezonlariga ko‘ra, quyidagi boshqaruv turlari: federal boshqaruv; mintaqaviy boshqaruv; munitsipal boshqaruv; xususiy (korporativ) boshqaruv kabilar farqlanadi.

Boshqariladigan ob'ektlarga ta'sir o'tkazishga ko'ra, quyidagi soha (fuksional) va hududlar boshqaruvi mavjud: 1) Soha boshqaruvi markazdan to korxonagacha bo'ysunish bo'lishini nazarda tutadi. Bunday holat tarmoqda yagona texnikaviy siyosatni joriy etadgan, tarmoq ichidagi va tarmoqlararo muvozanatni ta'minlaydigan tarmoq vazirliklari orqali amalga oshiriladi. 2) Hududiy boshqaruv ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish, ixtisoslashuvni chuqurlashtirish hamda mintaqalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning iqtisodiy va ijtimoiy darajasini tenglashtirishga qaratiladi.

Muvaqqat harakat me'yollarining miqyosiga bog'liq holda boshqaruv strategik, taktik va tezkor ko'rinishlarga bo'linadi. **Strategik boshqaruv** jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq masalalar yuzasidan to'liq yoki ayrim yo'alishlar, sohalar, ob'ektlar, hududlar bo'yicha uzoq muddatli mo'ljallarni belgiab beradi, jamiyat rivojining maqsad-lari, vazifalari, strategiyalarini aniqlaydi va boshqaruvning har bir bo'g'iniga faoliyat yo'nalishini beradi. **Taktik boshqaruv** – belgilan-gan maqsadlarni amalga oshirish bo'yicha aniq harakatlardir. Bu qisqa muddatli boshqaruv bo'lib, unda mavjud axborot negizidagi strategik mazmunga ega bo'lgan ko'rsatkichlar doimo ma'lum davrda erishilgan natijalar bilan qiyoslanadi. **Tezkor boshqaruv** joriy yoki tasodifiy chekinishlar natijasida paydo bo'ladigan vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lib, bunda aniq vazifalar qo'yiladi hamda vaziyatdan kelib chiqib, mavjud shart-sharoit asosida ma'qol variant tanlab olinadi.

#### **4.Davlatning vazifalari va boshqaruv ko'rinishlari.**

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining demokratik qadriyatları hukmron bo'lgan hozirgi davrda erkin va mas'uliyatli shaxslarni kamol toptirish uchun davlat boshqaruvining ijtimoiy munosabatlarini tartibga solish boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladi. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan boshqaruvga huquqiy hodisa sifatida qarash davlat boshqaruvining ijtimoiy munosabatlarini tartibga solishning asosiga aylanadi.

Tadqiqotlarga ko'ra, insonlar ijtimoiy hayoti faoliyatining turli ko'rinishlari huquq yordamida ularning shaxsiy, jamoaviy va jamoatchilik aloqalarida tartibga to'shamdi. Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish amaliy va bunyodkorlik ahamiyatiga ega bo'lib, shaxsiy va jamoaviy, xususiy va ijtimoiy, shaxsiy va jamoatchilik manfaatlarini o'zaro murosaga keltiradi. Davlat fuqarolikning huquqiy asoslari bilan bog'liq jamiyat shakli, insonlar hamjamiyati sifatida, hokimiyat va boshqaruv vazifalarini amalga oshirish bilan band professionallar apparati sifatida huquqiy majburlash mexanizmlaridan foydalangan holda ijtimoiy munosabatlarni normallashtirish va umumiy ehtiyojlar, manfaat va farovonlikka uyg'unlashtirish maqsadida o'zining boshqaruvchilik, tashkil etuvchilik va tartibga soluvchilik borasidagi ta'sirini o'tkazadi.

Davlat boshqaruvining huquqiy munosabatlari – bu davlat va jamiyat ishlarini boshqarish zarurati munosabati bilan davlat hokimiyatini amalga oshiradigan, huquq me'yolari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardir. Ushbu munosabatlardan huquqiy me'yor shakllanadi. Huquqiy me'yor – bu davlat tomonidan o'rnatilgan, davlat boshqaruvi sohasida vujudga keladigan, o'zgaradigan va barham topadigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish maqsadlarini

ko‘zlaydigan xatti-harakat qoidalariadir. Huquqiy me’yorning o‘ziga xos tomoni shundaki, sub’ektlarning davlat tomonidan belgilab qo‘yilgan xatti-harakat qoidalari ma’muriy choralar va tartib-intizom mas’uliyati bilan himoya qilinadi. Huquqiy munosabatlar sub’ektlari – bu ma’lum harakatlar sodir etish huquqi va majburiyatiga ega bo‘lgan shaxslardir.

O‘zining mazmun-mohiyatiga ko‘ra huquqiy munosabatlar **moddiy** (boshqaruv sohasida paydo bo‘ladigan) va **protsessual** (boshqaruv jarayonida uni amalga oshirish qoidalarni tartibga solgan holda shakllanadi) huquqiy munosabatlarga bo‘linadi. Moddiy munosabatlar protsessual munosabatlar vositasida tartibga solinadi.

Davlat boshqaruvida vakolatlarni belgilash va ularni amalga oshirish uchun tegishli shaxslarga davlat-hokimiyat vakolatlarini berish – davlat boshqaruvini huquqiy tartibga solishning muhim qismlaridan biri hisoblanadi. **Vakolatlar** – davlat organi yoki mansabdor shaxslarning belgilab qo‘yilgan vazifa-vakolatlarini bajarish uchun ularga berilgan huquq va majburiyatlar yig‘indisidir. **Vazifa-vakolatlar** - davlat organi yoki mansabdor shaxsning Konsti-tutsiya, qonun yoki me’yoriy hujjatlar bilan belgilab berilgan vakolatlar majmui bo‘lib, ular o‘z faoliyati davomida shundan tashqariga chiqishi mumkin emas. **Idoraviy vakolatlar** – konstitu-siyaviy tushuncha bo‘lib, davlat va jamiyat hayotining ma’lum sohalarida hokimiyat-boshqaruv faoliyatini amalga oshirish huquqini bildiradi.

Soha mutaxassislarining fikrlariga ko‘ra, davlat organining **huquqiy maqomi** quyidagilardir: davlat organining davlat apparati umumiyligi tuzilmasidagi holati va uning hokimiyat-boshqaruv faoliyat turiga (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati), maxsus ixtisoslashgan kichik tizimlarga (umumiyligi vakolatlar, huquq-tartibot, harbiy va h.k.) mansubligi; davlat organi vakolatlarining ma’lum faoliyat sohasida ular bajaradigan vazifa va vakolatlarning huquqiy ifodasi sifatidagi birligi; davlat organi faoliyatining tashkiliy tuzilmasi, tamoyillari, shakllari, usullari va tartib-qoidalari, ma’lum masalalarini hal etish tartibi va boshqalar.

Milliy qonunchilikning har qanday sohasi boshqaruv faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy imkoniyatlardan foydalanadi. Bu huquqiy imkoniyatlar – buyruq-ko‘rsatma, ta’qiqlash va ijozatdir. Buyruq-ko‘rsatma – ijobiy majburiyat bo‘lib, huquqiy me’yorda ko‘da tutilgan biror-bir harakatni sodir etish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri huquqiy majburiyat yuklashni bildiradi. **Ta’qiqlash** – huquqiy me’yorda ko‘zda tutilgan sharoitda biror-bir harakatni sodir etmaslik uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri huquqiy majburiyat yuklashni bildiradi. **Ijozat** - huquqiy me’yorda ko‘zda tutilgan sharoitda muayyan harakatlarni sodir etish va o‘z ixtiyori bilan ularni sodir etishdan tiyilishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-qism, 16-moddasiga binoan, davlat, uning idoralari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlar asosida faoliyat yuritadi. Ushbu qonun quyidagi holatlarga ko‘ra, boshqaruv sohasida alohida ahamiyatga ega: boshqaruv davlat va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatining ko‘pgina sohalarini qamrab oladi; boshqaruv sub’ektlari o‘z vazifa va vakolatlarini huquq qo‘llanadigan

faoliyatni amalga oshirish orqali bajaradi; boshqaruv idoralari o‘z vakolatlari doirasida Konstitutsiya va qonunlarga asoslangan holda ularni bajarishga qaratilgan qonun ijodkorligi faoliyatini amalga oshiradi; o‘zini-o‘zi boshqarish idoralari faqat qonunda belgilab qo‘yilgan vaziyatlarda fuqarolarning huquq va erkinliklarini cheklashga olib keladigan ma’muriy majburlov choralarini qo‘llash sohasida keng vakolatlarga ega.

Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta’minlash bu sohadagi qonunlar va qonuniy hujjatlarning aniq va so‘zsiz bajarilishi, qo‘llanilishi, ularga rioya etilishi bo‘yicha shaxs va tashkilotlarning birgalikdagi faoliyatidan iboratdir. Bunday faoliyat quyidagi masalalarga qaratiladi: ijro hokimiysi va ularning mansabdor shaxslari faoliyatida amaldagi qonun va qonun hujjatlarida mustahkamlab qo‘yilgan talab va ko‘rsatmalarni bo‘zishga yo‘l qo‘ymaslik; bunday holatlarni o‘z vaqtida va tezkor aniqlash; ularni oldini olish va sabablarini aniqlash; ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish; aybdorlarni tegishli javobgarlikka tortish.

O‘zbekistonda qonuniylikni ta’minlash usullari quyidagilardan iborat:

1. Tashkiliy-tarkibiy tuzilmalar (davlat idoralari va jamoat birlashmalari).
2. Tashkiliy-huquqiy usullar (alohida faoliyat turlari, amaliy usul va vositalar). Bu usullar ko‘zatish va nazoratdan iborat.

### **Adabiyotlar**

Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997.

Каримов И.А. Тарихийхотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998

Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Т.: Шарқ. 2000.

Сагдуллаев ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т., 2000.

Сагдуллаев А.С., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. - Т., 2006.

Ртвеладзе Э.В. История государственности Узбекистана. – Т.: Узбекистан. 2009.

Эшов Б.Ж. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи. (ўқув қўлланма). – Т.: Маърифат, 2009.

Эшов Б.Ж. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012.

### **3.Mavzu: O‘zbekistonda qadimgi davlatchilikning turlari va boshqaruv shakli Reja:**

- 1. O‘zbekiston hududlarida ilk shaharlarning paydo bo‘lishi jarayonlari.**
- 2. Ilk davlatlar paydo bo‘lishining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy asoslari.**
- 3. Qadimgi Baqtriya, Xorazm va Sug‘diyona davlatlari.**
- 4. O‘rta Osiyoda Ahamoniylar davrida boshqaruv (mil.avv. VI-IV asrlar).**
- 5. Aleksandr Makedonskiy, Salavkiylar, hamda Yunon-Baqtriya davrida davlat boshqaruvi.**
- 6. Qang‘ davlati, Davan davlati, Kushonlar davlatchiligi.**

#### **1. O‘zbekiston hududlarida ilk shaharlarning paydo bo‘lishi jarayonlari.**

O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab O‘zbekistonning bronza davriga oid yodgorliklarni keng miqqosda tadqiq etilishi natijasida ushbu hududlarning qadimgi tarixi va madaniyati to‘g‘risida boy ma’lumotlar olindi. Turli -yillarda janubiy O‘zbekiston hududlarida ilk, rivojlangan va so‘nggi bronza davri ilk dehqonchilikning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, urbanizatsiya jarayonlari hamda ilk davlatchilik masalalari, madaniy va iqtisodiy aloqalar, hunarmandchilikning taraqqiy etishi masalalari bo‘yicha A.Asqarov, E.Rtveladze, A.Sagdullaev, T.Shirinov, B.Abdullaev, U.Raxmonov, E.Sayko, Sh.Shaydullaev kabi olimlar tadqiqot ishlari olib bordilar. Ushbu tadqiqotlar natijasida bronza va ilk temir davri o‘lkamiz janubiy hududlarida bo‘lib o‘tgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyot masalalari va ayniqsa, ushbu hududlarda ilk shaharlarning paydo bo‘lish asoslari va rivojlanish bosqichlari, ilk davlatchilikning paydo bo‘lishi jarayonlariga ko‘plab aniqliklar kiritildi. Ushbu masalalar bo‘yicha juda ko‘p yangi ma’lumotlar fanga joriy etildi va etilmoqda.

Zamonaviy tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra Baqtriya erlari bu -Afg‘onistonning shimoliy-sharqi qismini, Janubiy-G‘arbiy Tojikiston va O‘zbekistonning janubidagi (Surxon vohasi) erlarni o‘z ichiga olgan. Undan tashqari zamonaviy tarixiy adabiyotlarning barchasi hozirgi kunda Surxondaryo viloyati, Tojikistonning Ko‘lob va Qo‘rg‘ontepa viloyatlarini o‘z ichiga olgan erlarni shimoliy Baqtriya sifatida e’tirof etadilar.

Ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, neolit davriga kelib «hisorlik» ovchilar kichik va yirik daryolar vohalarini, Boysuntog‘ va Kuhitanggacha bo‘lgan tog‘ va tog‘ oldi hududlarini o‘zlashtiradilar. Bronza davriga kelib esa bu hududlarda boshqa ko‘rinishga ega bo‘lgan hamda o‘ziga xos xo‘jalik shaklidagi yangi madaniyatlar shakllana boshlaydi.

Ushbu madaniyat sohiblari yashagan maskanlardan biri Sopollitepa bo‘lib, bu yodgorlik Surxondaryo viloyati SHerobod tumani hududida, Kuhitangtog‘dan oqib tushuvchi kichik daryoning qadimgi irmog‘i bo‘yida joylashgan. Sopollitepa paydo bo‘lgan soy mahalliy aholi orasida O‘lanbuluoqsoy deb ataladi. Janubiy O‘zbekiston hududlarida hozirgi kunga qadar aniq bo‘lgan eng qadimgi o‘troq

dehqonchilik jarayonlari, tadqiqotchilarning fikricha, quyidagi beshta asosiy bosqichga bo‘linadi:

1. Sopolli bosqichi -mil. avv. 1700-1500 yy.
2. Jarqo‘ton bosqichi -mil. avv. 1500-1350 yy.
3. Ko‘zali bosqichi -mil. avv. 1350-1200 yy.
4. Molali bosqichi - mil. avv. 1200-1050 yy.
5. Bo‘ston bosqichi – mil.avv. 1050-900 yy.

Ushbu bosqichlarning sanalari taddiqotchilar tomonidan maxsus tahlil etilib ilmiy jihatdan asoslangan (A.Asqarov).

Tadqiqotlar tahlilidan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, SHimoliy Baqtrianing qadimgi shaharlari uzoq davom etgan tarixiy jarayonlar va turli: ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va tabiiy-geografik omillarning ta’siri natijasida shakllanib kelgan. Qadimgi SHarq va mahalliy ko‘rinishdagi urbanistik madaniyatning uyg‘unlashuvi qadimgi Baqtriya shaharsozligining asosini tashkil etadi. Keyinroq esa o‘ziga xos bo‘lgan shahar madaniyati mustaqil ravishda rivojlanadi.

Mil. avv. II ming -yillikning ikkinchi choragida Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida, aniqrog‘i, uning g‘arbiy qismida Sopollitepa ko‘rinishidagi dastlabki mustahkam qishloqlar paydo bo‘ladi. Ushbu qishloqlar bu hududlarda rivojlangan butunlay yangi ko‘rinishdagi qishloqlar bo‘lib, neolit davri (Hisor madaniyati) makonlaridan ajralib turadi.

Sopollitepada uzoq -yillar tadqiqotlar olib borgan A.Asqarovning fikricha, yodgorlik mustahkam asosda qad ko‘targan bo‘lib, quyidagi ajralib turuvchi belgilarga ega: ikki qismli tuzilish - mustahkam markaziy qism va uning atrofida mustahkamlanmagan maskan, uncha katta bo‘lman maydon, asosiy qismning aniq rejaviy tuzilishi, sakkizta ko‘p xonali turar-joylar qismlarining markazlashuvi va ularning yo‘laklar bilan ajralib turishi, bo‘lma (otsek)lari bo‘lgan himoya devorlari. Undan tashqari, kulolchilik va metallga ishlov berish hunarmandchiligi hamda dehqonchilikning etakchi mavqega ega bo‘lishi ham Sopollitepa uchun xosdir.

Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Sopollitepa aholisining asosiy mashg‘uloti sun’iy sug‘orishga asoslangan o‘troq dehqonchilikdan iborat edi. Qazishmalar paytida katta xum ko‘rinishidagi idishlardan va omborxona vazifasini bajaruvchi xonalar sathidan topilgan arpa, bug‘doy, tariq donlari hamda butun Sopollitepa majmuida ko‘plab uchraydigan don yanchgich, kulisop, ketmon va o‘roqlar aynan dehqonchilik xo‘jaligidan dalolat beradi. Undan tashqari, turar-joy qoldiqlari, qishloqning tuzilishi va umuman arxeologik topilmalarning ko‘rinishi ham manzilgoh aholisining qadimgi dehqonchilik madaniyatiga xos bo‘lgan o‘troq turmush tarzini ifoda etadi.

Sopollitepa qishlog‘i aholisining yana bir muhim xo‘jalik tarmog‘i chorvachilik edi. Qazishmalar paytida juda ko‘plab topilgan uy va yovvoyi hayvonlarning suyaklari aynan mana shu jarayondan dalolat beradi. Umuman olganda, Sopolli madaniyati sohiblari xo‘jaligida sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik va uy chorvachiligi manzilgohdagi iqtisodiy hayotning asosini tashkil etgan. Undan tashqari ushbu madaniyatga xos bo‘lgan kulolchilik ishlab

chiqarishning yuqori darajasi, metallga ishlov berishning jadal rivojlanishi, to‘qimachilik sohasining taraqqiyoti kabi omillar manzilgohning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hayotida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Sopolli madaniyati hukm surgan davr tarixiy-madaniy jarayonlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mil. avv. II ming -yillikda Amudaryoning o‘ng va chap qirg‘og‘ida ko‘pchilik tadqiqotchilarining fikricha ikkita: Sopolli madaniyati va Dashli madaniyati yoki Sopolli-Dashli madaniyatining ikki xil ko‘rinishi keng tarqaladi.

Sopolli - Dashli madaniyatining kelib chiqishini tahlil etar ekan A. Asqarov va T. Shirinovlar O‘rtta Osiyoning janubi, shimoli-sharqiy Eron, sharqiy Eron va shimoliy Afg‘oniston hududlaridagi o‘troq dehqonchilik shaklidagi arxeologik majmualarni umumiy madaniy jamoalar sifatida Namozgoh tarixiy-madaniy birligi (NIKO - Namazginskaya istoriko-kulturnaya obshchnost) deb atashni taklif etadilar. Shuningdek ular NIKOda mahalliy ko‘rinishlar va hatto, alohida madaniyatlar bo‘lishi mumkinligini inkor etmaydilar. Agar ma’lum hududlardagi tarixiy-madaniy jarayonlarning o‘ziga xosligini, geografik joylashuv va shart-sharoitlarni hisobga oladigan bo‘lsak, bu fikrga qo‘shilish mumkin.

Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida shakllangan Sopollitepa-bronza davridagi dastlabki o‘troq dehqonchilik qishlog‘i hisoblanadi. Ammo, keyinchalik, o‘troq dehqonchilik jamoalari shimoliy chegaralarining kengayishi munosabati bilan Sopollitepa o‘zining ilgarigi ahamiyatini yo‘qota boshlaydi va bo‘shab qoladi hamda asosiy markaz vazifasi esa, tog‘ darasidan chiquvchi yo‘l ustidagi mustahkam qal‘a sifatida paydo bo‘lgan Jarqo‘tonga o‘tadi.

Jarqo‘ton yodgorligi Surxondaryo viloyati SHerobod tumanidagi SHerobod daryosining ko‘hna o‘zani Bo‘stonsoy yoqasida joylashgan. Ushbu yodgorlikda 1973 -yildan boshlab o‘zluksiz olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida bu hududlarda ro‘y bergen urbanizatsiya jarayonlariga ko‘plab aniqliklar kiritish imkoniyati paydo bo‘ldi. Xususan, Jarqo‘tondag 100 getkardan kam bo‘lmagan hududdan arki a’lo, shahriston, ulkan ibodatxona qoldiqlari, metall erituvchi pechlar, 20 gettarli qabriston, ko‘plab moddiy madaniyat buyumlari topib o‘rganildi. Undan tashqari Jarqo‘ton hududida olib borilgan tadqiqotlar ko‘hna shaharning paydo bo‘lib rivojlangan sanasini aniqlash hamda ushbu hududlarda yuz bergen tarixiy-madaniy jarayonlarni bir necha bosqichlarga ajratib o‘rganish imkoniyatini berdi.

Ushbu tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Jarqo‘tondag qadimgi shahar hayoti dastlab uch bosqichga, ya’ni, Jarqo‘ton (mil. avv. 1500-1350 -yillar), Ko‘zali (mil. avv. 1350-1200 -yillar) va Molali (mil. avv. 1200-1000 -yillar) bosqichlariga bo‘lindi. Keyinroq, Jarqo‘tonning qarama-qarshisida, Bo‘stonsoyning o‘ng sohilida o‘rganilgan yodgorliklardagi tadqiqotlar natijasida Molali bosqichini ikki fazaga, ya’ni Molali (mil. avv. 1200-1000 -yillar) va Bo‘ston (mil. avv. 1000-900 -yillar) fazalariga bo‘lib o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Olib borilgan tadqiqotlar tahlilidan shunday xulosa chiqarish mumkinki, mil. avv. II ming -yillikning o‘rtalariga kelib Jarqo‘ton o‘scha hududlardagi dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholi qabilalari uyushmalarining mustahkam istehkomiga aylanadi. Aftidan, aynan mana shu istehkom orqali Hisor tog‘ oldi vohalari va

janubiy Tojikistonning g‘arbiy hududlariga shimoldagi aholining ko‘chishlari bo‘lib o‘tadi. Aynan mana shu hududlardan topilgan yodgorliklar topografiyasi va ularni davrlashtirish ushbu jarayon izchillik bilan bo‘lib o‘tganligini ko‘rsatadi. Undan tashqari yana shu narsa ham ma’lumki, bu jarayonning rivojlanishi mil. avv. II ming -yillikning ikkinchi yarmi Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi o‘troq dehqonchilik turmush tarzi kechiruvchi aholi manzilgohlarida aholi sonining o‘sishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti uchun ham keng imkoniyatlar yaratdi.

Bronza davri Janubiy O‘zbekiston shaharlari haqida gap ketar ekan shuni ta’kidlash joizki, bu davr yodgorliklari faqat arxeologik tadqiqotlar orqaligina o‘rganilib, bu davrdagi siyosiy-ma’muriy tuzilmalar hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar esa yozma manbalarsiz, qiyosiy taqqoslash asosida o‘rganiladi. Aynan mana shuning uchun ham tadqiqotchilarining ushbu jarayonlar xususidagi xulosalari ko‘p hollarda taxminlardan iborat. Masalan, A.Asqarov va B.Abdullaevlar bronza davri rivojlanishining Jarqo‘ton bosqichini (mil. avv. II ming -yillik o‘rtalari) ibridoiy jamoa tuzumi emirilish davriga, Ko‘zali va Molali bosqichlarini (mil. avv. II ming -yillikning oxirlari) esa mulkiy tengsizlik munosabatlari paydo bo‘lishi davriga oid deb hisoblaydilar. V.I.Sarianidi esa, aksincha, mil. avv. II ming -yillikning oxiri I ming -yillikning boshlarida davlatchilik munosabatlari shakllana boshlagan Baqtriyaning umumiyligi ijtimoiy rivojlanish darajasini oshirib yubormaslikni taklif etadi.

T.SH. SHirinovning fikricha, Jarqo‘tonni Mesopotamiyadagi «chifdom» va «nom» ga o‘xhash kichik davlatning ma’muriy markazi bo‘lgan deb taxmin qilish mumkin. Ammo, Mesopotamiyadagi davlatlardan farqli o‘laroq, u beqaror siyosiy birlashma bo‘lgan. Mil. avv. II ming -yillikning oxiri – I ming -yillikning boshlarida O‘rta Osiyoning janubida bir necha kichik davlat uyushmalari vujudga kelgan bo‘lib Dashli 3, Gonur 1, To‘g‘oloq1, Ulug‘tepa, Namozgohdepa, Oltindepa kabi Jarqo‘ton ham ulardan birining markazi bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Ko‘philik olimlarning e’tirof etishlaricha, O‘rta Osiyoning janubida ilk shaharlar va davlat uyushmalarining paydo bo‘lishi jarayoni V.M.Masson tomonidan nisbatan aniqroq izohlangan. Tadqiqotchi bu jarayonda ikkita asosiy bosqichni ajratadi: 1) ma’lum vohalarda shahar-davlatlarning paydo bo‘lishi: 2) ular asosida yirik ijtimoiy-siyosiy tizimning shakllanishi.

So‘nggi -yillardagi tadqiqotlar natijalarini umumlashtirgan A.Asqarov Jarqo‘tonni, umumiyligi maydoni 100 gettardan kam bo‘lmasligi shahar-davlat sifatida izohlaydi. SHuningdek, E.V.Rtveladze o‘zining so‘nggi -yillardagi ishlaridan birida O‘zbekiston hududidagi ilk davlatchilik masalalariga to‘xtalib, mil. avv. II ming -yillikning ikkinchi yarmi-O‘zbekiston janubida embrional shakldagi davlatga o‘xhash tuzilma qaror topadi, davlatning bunday namunasi Jarqo‘tonda o‘z aksini topgan deyish mumkin, degan fikrni ilgari suradi.

O‘tgan asrdayoq fanda ishlab chiqilgan tipologiyaga asosan, ilk davlatlarning nisbatan qadimgi shakli (Mesopotamiyada) shahar-davlatlar, «nomlar» hisoblanadi. Umuman olganda nom davlatlar, shahar-davlatlar, jamoalar va vohalar markazlarini Jarqo‘ton misolida qiyosiy tahlil qilish mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Jarqo'ton ko'rinishidagi manzilgohlar majmuini nom davlatlar bilan qiyoslash uchun etarli qator umumiy belgilar bor. Jumladan, Mesopotamiyadagi nom davlatlar uchun xos bo'lган yozuv namunalari Jarqo'tondan ham topilganligi katta ilmiy ahamiyatga ega bo'ldi. Xususan, yaqinda Sh.Shaydullaev O'zbekistonning janubidan topilgan piktografik belgi - yozuvlar haqidagi maqolasini matbuotda e'lon qildi. Tadqiqotchining ma'lumotlariga ko'ra, Jarqo'ton yodgorligidan sopollarga bitilgan 47 belgidan iborat yozuvning topilishi ajdodlarimizning bronza davrida piktografik yozuvni yaratgani va o'z fikrini turli belgilarda ifodalaganini ko'rsatadi. SHuningdek, SHeroboddagi G'oz qishlog'i yonidagi ilk temir asriga oid yodgorlikdan tosh o'g'ir (keli) topilgan bo'lib uning sirtida umumiy soni 14 ta bo'lган piktografik belgi-yozuv mavjud. Tadqiqotchi bu belgini Misr ieroglifikasi bilan solishtirib ulardan biri "haqiqat", yana biri esa dunyoning aylanishi ya'ni, "charxpalak" deb o'qilishi mumkinligini taxmin qiladi.

Bronza davri Janubiy O'zbekistonning o'troq jamoalari dehqonchilik madaniyati rivojining yangi darajasiga o'tadilar. Agar Sopollitepada avvaldan o'yangan reja bo'yicha qurilgan shaharmonand (protogorod)ning belgilari ko'zga tashlansa, Jarqo'ton esa, O'zbekiston hududlaridagi ilk shahar rivojining boshqacharoq namunasini aks ettiradi. E.V.Rtveladzening fikricha, Jarqo'ton bir nechta qishloqdan iborat bo'lib, uning hududi aholining turli guruhlari tomonidan bosqichma-bosqich o'zlashtirilgan. Olimning hisoblashicha, shahar tizimining rivoji ma'lum sxemada bo'lib o'tgan: ilk qishloq, yoki qishloqlar guruhi – shaharmonand.

Yuqoridagilardan xulosa yasab aytish mumkinki, bronza davri Janubiy O'zbekiston hududlarida yashagan o'troq dehqonchilik jamoalari jamiyat taraqqiyotining yuqori pog'onasida bo'lib, ibtidoiylikning so'nggi bosqichidan sivilizatsiyaga o'tadilar. Ushbu sivilizatsiyaning boshlanishi shaharmonand (protogorod) belgilarni o'zida aks ettirgan Sopollitepa bo'lган bo'lsa, Jarqo'ton O'zbekiston hududlaridagi ilk shaharlarning yorqin misoli edi. Sherobod vohasidagi shu davrga oid Jarqo'ton majmuiga kiruvchi maskanlar guruhini esa shahar-davlat yoki nom davlatlar bilan qiyosiy solishtirish mumkin. Yoki hech bo'Imaganda, mil. avv. II ming -yillikning so'nggi choragida Shimoliy Baqtriya hududlarida yirik va mustahkamlangan markazlarga ega bo'lган, nom yoki voha ko'rinishidagi davlatlarning boshlanish bosqichida bo'lган **hududiy-siyosiy birlashmalar** shakllana boshlagan degan g'oyani ilgari surishimiz mumkin.

Shunday qilib, Surxon vohasi nafaqat O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyo hududlarida ilk urbanistik markazlardan biri hisoblanib, ushbu hududlarda urbanizatsiya jarayonlarining boshlanish sanasi 4000 -yildan kam emas deyishga jiddiy ilmiy asoslar bor.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, o'ziga xos taraqqiyot bosqichini bosib o'tgan ilk shaharsozlik madaniyati zanjiriga Farg'ona vodiysi ham kiradi<sup>2</sup>. Vodiydagagi o'zida ilk shaharsozlik belgilarini aks ettiruvchi (katta maydon, murakkab tuzilishi va mudofaa tartibi, alohida ark, hunarmandchilik markazi va

<sup>2</sup> Фаргона водийси қадимги шаҳарлари ҳакида ёзишда ФА Археология институти катта илмий ходими т.ф.д. Б.Х.Матбобоевнинг илмий маслаҳатлари ва сўнгги йилларда чоп этилган ишларидан фойдаланганлигимиз боис ҳамкасбимизга чукур миннатдорчилик билдирамиз.

boshq.) arxeologik yodgorliklar haqidagi kotsepsiya 1973 -yildayoq YU.A. Zadneprovskiy tomonidan ishlab chiqilgan edi. SHundan so'ng ushbu masala yuzasidan ayrim mulohazalar bildirilgan bo'lishiga qaramay, yuqoridagi konsepsiya hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qtGANI yo'q.

So'nggi -yillarda olib borilgan arxeologik-paleogeografik tadqiqotlar natijasida Farg'ona vodiysining qadimgi davrining inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlari ko'pgina aniqliklar kiritildi. Farg'onalik qadimgi bobodehqonlar sug'oriladigan erlarni o'zlashtira borib, qator sifatlari bilan, avvalo, tuproq ekologik sharoitlari bilan farqlanib turadigan hududlarda joylashadilar. Ular tabiiy landshaftlardan to'g'ri va oqilona foydalanishlari natijasida o'zlariga zarur bo'lган qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirganlar. Sun'iy sug'orish va erga ishlov berish bilan birga suv cho'kindilari ham hosildorlikni oshirib borgan.

Farg'ona vodiysidagi ilk shaharsozlik madaniyati ko'hna ildizlarga ega bo'lib, bu jarayonning ildizlari qadimgi dehqonchilik madaniyati zaminida ko'zatiladi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra vodiyyda qadimgi dehqonchilik madaniyati mil. avv. II ming -yillikning oxirgi choragidan boshlanadi. Bu madaniyat fanda birinchi topib o'r ganilgan joy nomi bilan «CHust madaniyati» deb nomlanib ushbu madaniyat asosan dehqonchilik bilan shug'ullangan qadimgi aholiga mansubdir. Davriy jihatdan CHust madaniyati yodgorliklari ikkiga bo'linadi va birinchi bosqich - mil. avv. XII-IX asrlar, ikkinchi bosqich mil.avv. VIII-VII asrlar bilan sanalanadi.

Qadimgi Farg'ona dehqonlari ko'p hollarda suv manbaalari atroflarida o'z makonlarini bunyod etganlar. So'nggi -yillarda Farg'ona dagi bronza davri aholisining erni haydar dehqonchilik qilganliklari haqida arxeologik ma'lumotlar olindi. Xususan, Farg'ona tog' tizmalaridagi Soymalitosh va So'x yaqinidagi Yangiariqsoy qoyatosh suratlarida qo'sh haydayotgan inson tasviri aniqlangan. Qadimgi dehqonlar faqat tabiiy suv bo'yalarini o'zlashtiribgina qolmasdan, balki obihayot chiqarish oson bo'lgan daryo va soy bo'yalaridan kichkina kanallar chiqarish yo'li bilan ham xo'jalik yuritganlar. Buning isboti sifatida Andijon viloyatida joylashgan Dalvarzintepa va Ashqoltepi yirik suv manbasi - Qoradaryo havzasida (3-4 km. masofada) joylashganligini keltirishimiz mumkin. CHust yodgorligi esa kichkina soy yaqinidagi qadimgi buloq bo'yida joylashgan. Umuman olganda Farg'ona dagi ilk dehqonchilik madaniyatining 80 dan ortiq yodgorliklari aniqlangan. Ular maydoni va o'lchamlariga qarab uchga bo'linadilar: yirik yodgorliklar (Dalvarzin, Ashqoltepa), o'rtacha kattalikdagi yodgorliklar (Chust, Dehqontepa, O'sh, Xojambog') va kichik yodgorliklar.

Farg'ona vodiysidagi qadimgi ziroatchilarning makonlari suvgaga yaqin joylardagi unumdar erlarning o'zlashtirilishiga qarab alohida voha yoki guruh tarzida (ikki va undan ortiq yodgorlik) joylashgan. Buning isboti sifatida keyingi 50 -yil ichida vodiyyda o'r ganilgan CHust madaniyati yodgorliklari tartibiga kiruvchi manzilgohlarning joylashish tizimini keltirib o'tish mumkin. Ana shunday vohalar Farg'ona vodiysidagi 15 ta geografik rayonda topib o'r ganilgan. Bular G'ovasoy, Kosonsoy, Aravansoy, CHortoqsoy, Moylisuv, Oqburasoy va boshqalardir. Qadimgi dehqonchilik vohalarini har biridagi yodgorliklar o'lchamlari hamda joylashishiga ko'ra ma'lum o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi tadqiqotchilar

tomonidan aniqlangan. Ushbu vohalarda istiqomat qilgan aholi o‘ziga xos dehqonchilik jamoalarini tashkil etgan. Har bir voha ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan hamda ularning birlashuvidan dehqonchilik markazlari paydo bo‘lgan.

O‘rta Osiyoning boshqa hududlari bilan qiyosiy tahlil etgan YU.A. Zadneprovskiyning fikricha, qadimgi Farg‘ona dehqonchilik markazlari bilan bir vaqtida O‘rta Osiyoning o‘nta joyida ham ana shunday markazlar paydo bo‘ladi. Bularga YOz, YAshilli (Turkmaniston), Kuchuktepa, CHiroqchi, Burg‘uluk; CHust (O‘zbekiston), Shahriston (Tojikiston) va boshqa dehqonchilik markazlari kiradi. Ushbu bir-biriga o‘xshash dehqonchilik markazlari orasida davriy jihatdan nisbatan qadimgisi CHust yodgorliklari hisoblanadi.

CHust madaniyati yodgorliklari tarkibiga kiruvchi asosiy katta manzilgohlar Dalvarzintepa, CHust, Ashqoltepalar Farg‘ona vodiysidagi o‘zida ilk shaharsozlik belgilarini aks ettiruvchi yodgorliklar xisoblanadi. Aynan Dalvarzintepa va CHustning atrofi himoya devorlari bilan o‘rab olingen bo‘lib, ularda hukmdor yashaydigan ark ajralib turadi.

Bu o‘rinda ta’kidlash joizki, shahar madaniyati va davlatchilikning paydo bo‘lishi doimo tadqiqotchilar bahs-munozaralarining diqqat markazida turgan masalalar hisobida turadi. Bu jarayon asrlar davomida o‘ziga yangi jihatlar va vazifalarni qo‘sib, murakkablashib va mukammallahib borgan. SHaharsozlik madaniyatining rivojlanishida himoya inshootlari asosiy omillardan biri bo‘lib, jamiyatda kechgan urbanizatsiya jarayonlarida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘rta Osiyo mintaqasining turli hududlaridagi mudofaa inshootlari o‘ziga xos bo‘lib, bu yo‘nalish alohida mavzudir.

Farg‘ona vodiysi qadimgi davridagi barcha mudofaa inshootlari guvala, xom g‘isht va paxsadan qad ko‘targan. Himoya inshootlari tarixiy topografiyasini tadqiq etish shuni ko‘rsatadiki, ular paydo bo‘lishi va rivojlanishining asosiy mezoni o‘troq dehqonchilik manzilgohlarining uzoq vaqt mavjud bo‘lishi va ularning ko‘chmanchi qabilalar bilan qo‘schnichiligi edi. Bu qo‘schnichilik har doim ham tinch-totuvlikka asoslanmagan bo‘lib, ayrim hollarda harbiy to‘qnashuvlar bilan tugar edi.

Ko‘p -yillik tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlandiki, Dalvarzintepada yashaydigan aholi uni uch qismdan iborat qilib qurban. Har bir qism alohida mudofaa devorlari bilan o‘ralgan hamda ularning o‘z vazifasi bo‘lgan. Dalvarzintepa hududining 18 getktari turar-joylar, 5 getktari xavf tug‘ilgan paytda atrof aholi jon saqlaydigan boshipana qism, 2 getktari esa maxsus alohida ajratilgan qism bo‘lib, bu erda hukmdorlar yashaganlar. Ko‘hna shaharning devorlari paxsa va xom g‘ishtlardan foydalanib tiklangan. Demak, Dalvarzintepa puxta o‘ylangan reja asosida qurilgan aholi puknti bo‘lib, ushbu yodgorlikda ilk shaharsozlikning deyarli barcha belgilari aniqlangan.

Dalvarzintepada olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

1. Dalvarzintepaning maydoni katta, ya’ni 25 gettar bo‘lib, bu o‘lcham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot natijasi hisoblanadi.

2. Ko‘hna shaharda murakkab rejaviy tuzilish, uchga bo‘lingan tarkibiy qism hamda ark mavjud edi.

3. YOdgorlikda mukammal mudofaa tartibi mavjud bo‘lib, ko‘hna shaharning har bir qismi alohida himoyalangan edi. Bular orasida arkka alohida e’tibor berilib, u ancha puxta o‘ylangan reja asosida mudofaa etilgan.

4. Dalvarzintepada hunarmandchilikning turli sohalari-kulolchilik, metall, tosh va suyakka ishlov berish kabilar nisbatan yaxshi rivojlangan.

YUqorida keltirib o‘elgilarga ko‘ra, Dalvarzintepani ilk shahar ko‘rinishidagi yodgorlik deb ta’riflash uchun etarli asos bor deb hisoblash mumkin. Bu yo‘nalishda ilmiy baxslar davom etayotgan bo‘lsada, Dalvarzintepa mil. avv. II ming -yillikning so‘nggi choragidan bshlab ma’lum muddat Farg‘ona vodiysining yirik madaniy va iqtisodiy markaz bo‘lib xizmat qilgan, degan fikrni ilgari surish mumkin. Undan tashqari, vodiya sug‘orma dehonchilikning jadallik bilan rivojlanishi urbanizatsiya jarayonlarining tezlashuvia olib keldi va natijada o‘troq dehqonchilik madaniyati yoyilgan chegaralar kengayib bodi.

Demak, ma’lum boshqaruv tizimiga ega bo‘lga dastlabki shahar markazlari – paydo bo‘lgan davridan boshlaboq davlatchilik xususiyatiga ega bo‘lib, ular ilk davlatchilikning asosiy belgisi hamda davlatchilik an’analari bilano‘zviy bog‘liq holda taraqqiy etadi.

## **2. Ilk davlatlar paydo bo‘lishiningijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy asoslari.**

Boshqaruv jamiyatning ichki jabhasiga xos ususiyat hisoblanadi. Tarixga nazar tashlaydian bo‘lsak, insoniyat o‘z rivojlanish jarayoni davomida eng oddiy boshqaruv shakllini barpo etib uni rivojlantirib va takomillashtirib borganligi ko‘zatiladi. Dunyo tarixidagi dastlabki davlatlar mil. avv. III ming -yillikdayoq Misrda (nom davlatlarning birlashuv), Mesopotomiyada (Akkadning kuchayuvi) paydo bo‘ladi va SHarqdagi boshqa huudlarga ham (Hindiston, Xett davlati, Elam va boshq.) o‘z ta’sirini o‘tkazib sifatiy angi xususiyatlar kasb eta boradi.

Davlat boshqaruvi degnda biz bosh siyosiy hokimiyat va unga bo‘ysunuvchi boshqaruv tizimini tushuamiz. Boshqaruv tizimi jamiyatning barcha jabhalarini-siyosiy, iqtisodiy, ijtimiy, madaniy va boshqalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Binobarin, boshqaruv tizimini har tomonlama va jiddiy o‘rganmasdan turib jahon xalqlari tarixiy-madaniy rivojlanishi, ularning o‘zaro aloqalari va ta’siri, mahalliy va umumbashariy madaniyatlar integratsiyasining o‘ziga xos tomonlari va qonuniyatlariga aniqliklar kiritish mumkin emas.

Davlat boshqaruvining paydo bo‘lishi insoniyat tarixida muhim muvaffaqiyat va sifatiy yangi bosqich bo‘ldi. Dunyo tarixidagi qadimgi davlatlarning paydo bo‘lishi va takomillashuvida O‘rtta Osiyo va unga qo‘shni hududlarda yashagan xalqlarning ham hissasi katta bo‘ldi.

Dunyo tarixida shaharlar, siyosiy birlashmalar, uyushmalar, keyinroq esa davlatning paydo bo‘lishi uzoq davom etgan jarayondir. E.V.Rveladzening fikricha, bu jarayon turli xalqlarda turli yo‘llar bilan bo‘lib o‘tgani.

**Birinchidan**, davlatlar paydo bo‘lishining osiyoCHA ishlab chiqarish usuliga asoslangan “SHarq yo‘li” bo‘lib, unda iqtisodiyotning asosini sug‘orma dehqonchilik tashkil etgan; dehqonchilik jamoasi jamiyatning birlamchi yacheykasi

edi; aholining katta qismini safarbar etish zaruriyati prinsipial boshqaruvchilar tabaqasini taqozo etgan.

Ishlab chiqarishning osiyocha usuli miloddan avvalgi IV ming -yillikdan milodiy I asrgacha yirik daryolar vodiylarida joylashgan Misr, Bobil, Xitoy, Hindiston, O'rta Osiyo kabi mintaqalarda yoyilgan.

Davlat tuzilmasining **ikkinci**, «Evropa yo'li» Evropa mintaqasida mil.avv.V asrdan boshlab miloddiy III asrgacha qadimgi polislarda mavjud bo'lган. Ularda xususiy mulkchilik shakllanishi tufayli kelib chiqqan jamiyatning ijtimoiy mulkiy tabaqlanishuvi jarayoni (sinflar shakllanish jarayoni) asosiy omil bo'ldi.

Ma'lum bir qabila, elat va xalqqa xos hamda muayyan hudud bilan bog'liq bo'lган davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari boshqa xalq va hududlardagi davlatchilik jarayonlariga aslo mos tushmaydi. SHunga qaramay, Qadimgi SHarqdagi ilk davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi ko'pgina umumiyligi jihatlarga ega ekanligini ta'kidlash joizdir. Aynan mana shuning uchun ham O'rta Osiyoda ilk davlatlarning paydo bo'lishi Qadimgi SHarq davlatchiligi tarixi bilan o'zviy bog'liqdir.

Qadimgi SHarq turli hududlaridagi tabiiy sharoit o'ziga xos bo'lib, ko'pincha davlatlarning paydo bo'lishi ushbu holat bilan bevosita bog'liq edi. Ayniqsa, yirik daryolar - Nil, Dajla, Frot, Hind, Ganga, Xuanxe, Amudaryo va Sirdaryo Qadimgi SHarq xalqlari tarixiy taqdirida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Ijtimoiy va hududiy birlikning asosi hisoblangan jamoalar mavjudligi Qadimgi SHarq ijtimoiy tuzilmasining muhim o'ziga xos tomoni edi. Barcha Qadimgi SHarq davlatlari (ayrim shahar-davlatlar bundan mustasno) juda ko'plab qishloq jamoalaridan tashkil topgan bo'lib, ularning har birida boshqaruv tartibi mavjud edi. Yirik ishlar, ayniqsa sug'orish tartibi bilan bog'liq ishlar amalga oshirilganda ko'pgina jamoalar birlashuvi davlat hokimiyati rolining oshishini ta'minlar edi.

Ko'p hollarda tadqiqotchilar jamoalarning birlashuvi natijasida paydo bo'lган davlatchilik tizimini murakkab sug'orish tartibi tashkil etilishi, erlarni sun'iy sug'orilishi, daryo vohalari va tog' oldi hududlarining o'zlashtirilishi hamda to'g'onlarning qurilishi bilan bog'laydilar. YUqoridagi omillarning mavjud bo'lganligi aniq. Lekin, fikrimizcha, ularni tashkil etish nazorat va boshqaruvni, hisob-kitobni talab etar edi. Demak, buning uchun yozuvchi mirzalar, hisob-kitobchilar va hukmdorlar zarurati tug'ilgan. Mehnat qurollari tayyorlash uchun hunarmandlar faoliyat ko'rsatgan. Ushbu murakkab tizim xavfsizligini ta'minlash uchun qurolli guruuhlar tuzish, hamda ma'lum hududlarni mudofaa inshootlari bilan o'rab olish kerak bo'lган. SHu tariqa jamiyatda ikkita yangi tuzilma- shahar va davlat paydo bo'la boshlaydi.

Davlat yoki shahar-davlat ma'lum hududlarni o'z nazoratiga olishi va bu hududlarni kengaytirib borishi natijasida chegaralar paydo bo'lган. Hududlarning kengayishi va chegaralarning o'zgarishi natijasida davlatlar o'rtasida urushlar kelib chiqadi. CHegaralar masalasida ta'kidlash joizki, qadimgi davrlarda ular ko'p hollarda tog'lar va dasht hududlar orqali, ayrim hollarda esa daryolar orqali o'tgan. SHuning uchun ham tarixiy yondashuv shuni talab etadiki, tarixning turli davrlarida

davlatlar chegaralari o‘zgarib turgan va hozirgi chegaralarga mutlaqo mos tushmaydi.

O‘rta Osiyo, umuman O‘zbekiston hududlarida dastlabki davlatchilikning paydo bo‘lishi masalalari tadqiqotchilar orasida hamon bahslarga sabab bo‘lib kelmoqda Bu o‘rinda ushbu jarayonga asosiy turtki bo‘lib yanada jadallashtirgan omillarni aniqlash nihoyatda muhimdir<sup>3</sup>. Bronza davridayoq sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik O‘rta Osiyo xo‘jaligining asosini tashkil etgan. Sug‘orma dehqonchilikning yuqori unumdar shakllari jamiyatda hal qiluvchi o‘zgarishlarga olib keldi. Xususan, dehqonchilik rivoji natijasida qo‘srimcha mahsulot va xususiy mulk ko‘rinishlari paydo bo‘ldi.

O‘rta Osiyoda ilk davlat uyushmalari sun’iy sug‘orish birmuncha qo‘lay bo‘lgan Amudaryo (yuqori, o‘rta, quyi) oqimlari bo‘ylarida, Murg‘ob vohasida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida shakllanib rivojlanadi. Bunday holatni dunyo tarixidagi dastlabki davlatlar – Misr (Nil) va Mesopotamiya (Dajla va Frot) misolida ham ko‘zatishimiz mumkin.

YUqorida ta’kidlaganimizdek, dastlabki yirik shahar markazlarining paydo bo‘lish muammolari davlatlar paydo bo‘lishi masalalari bilan o‘zviy bog‘liq muammo hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, bizga qadar etib kelgan yozma manbalar O‘rta Osiyo hududlarida ilk davlatlar paydo bo‘lishi haqida nisbatan aniq ma’lumotlar bermaydi. Bu o‘rinda arxeologik ma’lumotlarning ahamiyati beqiyosdir.

Jamiyat hayotida metallning keng yoyilishi – dastlabki shaharlar va davlatchilikning asosiy omillardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib O‘rta Osyoning juda ko‘plab bronza va ilk temir davri yodgorliklaridan (Anov,Sopolli, Jarqo‘ton, Qiziltepa, Ko‘zaliqir, Afrosiyob, Daratepa, CHust, Dalvarzin va boshq.) ishlab chiqaruvchi xo‘jalik bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan metall quollar topib o‘rganilgan. Mehnat quollarining metalldan ishlanishi mehnat unumdarligining yanada oshishiga keng imkoniyatlar yaratdi.

So‘nggi bronza davriga kelib hunarmandchilikning ixtisoslashuvi va alohida xo‘jalik tarmog‘i sifatida shakllanib rivojlanishi jamiyatdagi iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, asosini ilk shaharlar tashkil etgan davlatchilikning paydo bo‘lishi uchun muhim bo‘lgan qo‘srimcha mahsulot ko‘payishiga turtki bo‘ldi. Ilk davlatlarning paydo bo‘lishida ilk shaharlardagi o‘zaro ayirboshlash, savdo-sotiq va madaniy aloqalarning ham ahamiyati nihoyatda katta bo‘lgan. So‘nggi bronza davriga kelib shimoldagi ko‘chmanchi chorvador qabilalar va janubdagisi o‘troq dehqonchilik aholisi o‘rtasida o‘zaro mol ayirboshlash va madaniy aloqalar yanada jadallahashi. Janubiy va shimoliy hududlardan topilgan topilmalaridagi juda ko‘pgina o‘xshashliklar bu hududlar

<sup>3</sup> Давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланишига турлича ёндошувлар, назариялар, давлатчилик типлари ва шакллари масалалари бўйича батафсил маълумот олиш учун сўнгги йилларда қиёсий таҳлил этилган қўйидаги ишларга қаранг: Аскаров А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд: Институт археология АН РУз, 1993. – С. 132-140; Кашанина Т.В. Происхождение государства и права. Современные трактовки и новые подходы. – М.: Знание, 1999. – С. 51-103, 316-332; Ртвеладзе Э.В. ва бошқ. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва хукуқ тарихидан лавҳалар. – Тошкент. Адолат, 2001. – 10-58 бб; Садгуллаев А.С. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Тошкент. Академия, 2000. – 16-43 бб. Шайдуллаев Ш.Б. Илк давлатларнинг археологик белгилари // О‘zbekiston tarixi. Тошкент. 2002. №3, 3-10 бб. ва бошқ.

o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy va madaniy aloqalardan, qadimgi yo‘llarning taraqqiy etganligidan dalolat beradiki, bu jarayonlar ham dastlabki shaharlar bilan birga ilk davlatchilikning asosiy omillaridan hisoblanadi.

Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, turli tarixiy viloyatlarda joylashgan yirik mustahkam maskanlar o‘rni va atroflarida (Sopolli, Jarqo‘ton, Namozgoh, Dalvarzin, Qiziltepa, Erqo‘rg‘on, Bandixon, O‘zunqir) dastlabki shahar markazlari shakllanib rivojiana boshlaydi. Ilk shaharlar qishloqlardan iqtisodiy, siyosiy va madaniy mavqeい bilan ajralib turgan. Bunday shaharlar o‘zлari joylashgan vohalarning siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diniy va harbiy markazlari vazifalarini bajargan bo‘lishi shubhasizdir.

Davlatning dastlabki bosqichlarini o‘rganishda Zardo‘shtiylarning muqaddas diniy kitobi Avestoning ahamiyati beqiyosdir. Olimlarning e’tirof etishlaricha, Avesto SHarq xalqlari qadimgi davrini tadqiq etishda hozircha muhim manba bo‘lib, u o‘zining bu ahamiyatini bundan buyon ham saqlab qoladi. Bu kitob dastavval, e’tiqodlar, tillar va dinlar, bir so‘z bilan aytganda, ma’naviy hayot rivojlanishi bosqichlari haqidagi ilk to‘plam hisoblanadi. Ta’kidlash lozimki, bu jarayonlar davlatchilik va iqtisodiy rivojlanishning umumiy doirasida bo‘lib o‘tgan.

Avesto davri turli qabila va elatlar, jamoalar e’tiqodlarining mukammal jahon dini darajasidagi din bilan almashayotgan davr edi. SHuningdek bu davr tub iqtisodiy o‘zgarishlar va ishlab chiqarishda sifatiy olg‘a siljishlar davri bo‘lganligi bilan ham izohlanadi-ki, bu holat ierarxik to‘zumga ega bo‘lgan davlatchilik hamda urbanizatsiyaning yangi bosqichga ko‘tarilishiga, kasbiy hunarmandchilik, birinchi galda, metallurgiyaning rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratgan edi. Mis, bronza keyinroq esa temirning paydo bo‘lishi ishlab chiqarishdagi katta o‘zgarishlarga, jumladan, hunarmandchilikning maxsus tarmoqlarga ajratilishiga va mahsulot ayirboshlashga olib keldi-ki, bu jarayon shaharlarning shakllanishi hamda rivojlanishiga, dehqonchilik va chorvador aholi turmush tarzida tub o‘zgarishlar bo‘lishiga imkon yaratdi.

Avestoda ilk davlat uyushmalari hisoblangan bir qator tarixiy-madaniy viloyatlar sanab o‘tiladi. Ular orasida Aryanam Vayjo (oriylar tekisligi), Gava Sug‘da, Mouru, Bahdi, Nisaya kabilalar bo‘lib, fikrimizcha, ular O‘rta Osiyo, Janubiy Uraloldi va Markaziy Qozog‘iston hududlarida joylashgan. Bu ulkan mintaqada muhim polimetallar makonlari, Amudaryo va Sirdaryo quyi oqimlarida keng yaylov hududlar, Baqtra, Mavr, Niso va Sug‘dda urbanizatsiyalashgan markazlar mavjud edi.

Avesto madhiyalarida ma’lum ijtimoiy bosqichlardagi izchillik va ierarxiyani ko‘zatish mumkin. SHuningdek, Avestoda ilk shaharlar shakllanishi bosqichlari Axuramazda farmoni bilan dastlabki odam Yima tomonidan mustahkamlangan «vara» bunyod etishi misolida ko‘zatiladi. Bunday «vara»lardan biri arxeologlar tomonidan Janubiy Ural-Qozog‘iston «shaharlar o‘lkasi»dan topilgan bronza davriga oid Arkaim yodgorligida bo‘lishi mumkin. Arkaim yodgorligi bir necha mustahkamlangan manzilgohlardan iborat bo‘lib, handaqlar va ko‘p qatorli mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan, kirish qismi himoyalangan. YOdgorlik murakkab va aniq tuzilishga ega. YOdgorlik hududlaridan hunarmandchilikning

avvalo, metall eritish va unga ishlov berishning izlari, bronzadan yasalgan buyumlar topilgan. Avesto madhiyalarida eslatilgan «vara» shaklidagi himoyalangan inshootlar buniyod etilishi shahar madaniyati belgilarini, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning yuqori darajasini, nom davlatlar ko‘rinishidagi shaharlar shakllanishini o‘zida aks ettiradi. Bu jarayonning bosqichma-bosqich rivojlanishi esa O‘rta Osiyoning janubiy va markaziy hududlarida ko‘zatiladi.

Ko‘pchilik tadqiqotchilarining fikrlariga qaraganda, O‘rta Osiyoda eng qadimgi davlatlarning shakllanish jarayoni dehqon-chorvachilik iqtisodiyoti, ixtisoslashgan hunarmandchilik va shahar markazlarining paydo bo‘lishi bilan o‘zviy bog‘liqdir. Hozirgi kunga qadar olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari bu hududlarda ilk temir davridagi ijtimoiy-siyosiy rivojlanishning ayrim muhim masalalarini yangi asosda izohlashga imkoniyat yaratadi. Ammo, shunga qaramasdan bu masala to‘liq echimini topmagan bo‘lib, xususan, O‘rta Osiyo eng qadimgi davlatlari tipologiyasi va xronologiyasi, davlatchilik taraqqiyotida ilk shaharlarning ahamiyati muammosi shular jumlasidandir.

XIX asrning oxirlaridan boshlab hozirgi kunga qadar olib borilgan Avesto ma’lumotlari (viloyatlarning Aryoshayona bo‘yicha birlashishi), Gerodot va Gekatey asarlari («Katta Xorazm»), shuningdek, Ktesiyning Qadimgi Baqtriya podsholigi haqidagi ma’lumotlari va nihoyat, arxeologik tadqiqotlar natijalari O‘rta Osiyoda ilk davlat uyushmalarining paydo bo‘lishi muammolarini o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotchilar O‘rta Osiyoda ilk davlatlarning shakllanish va rivojlanish jarayonini ahamoniylargacha bo‘lgan davrda deb hisoblaydilar va miloddan avvalgi IX-VII asrlar bilan belgilaydilar hamda bu jarayonda shaharlarning ahamiyatini alohida ta’kidlaydilar. (M.Dunker, V.Tomashek, F.Altxaym, S.P.Tolstov, M.M. Dyakonov, I.M.Dyakonov, V.M.Masson, M.Dandamaev, B.G‘.G‘ofurov, B.A.Litvinskiy, A.A. Asqarov, E.V.Rtveladze, M.V.Pyankov, A.S.Sagdullaev, T.SH. SHirinov va boshqalar).

So‘nggi bronza va ilk temir davriga kelib aholi soni va zichligining o‘sib borishi, hosildor er maydonlarining o‘zlashtirilishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning jadallik bilan rivojlanishi aholi joylashuvining hayotiy zarur hududlarga bo‘linib ketishiga olib keladi. Bunday sharoitda chorvador aholining ma’lum qismi xo‘jalikning yarim o‘troq va chorvachilik shakliga o‘tishga majbur bo‘ladilar. SHuning uchun ham O‘rta Osiyodagi miloddan avvalgi VI-IV asrlarga oid ko‘chmanchilar yodgorliklari o‘troq aholi hududlari chegaralarida (Orolbo‘yi, shimoliy Turkmaniston, Zarafshonning quyi oqimi, Pomir va boshq.) joylashganligi tasodifiy hol emas.

A.Sagdullaevning fikricha, Aryoshayona kabi viloyatlar uyushmasi vaqtinchalik va qoloq bo‘lib, Qadimgi Baqtriya kabi nisbatan yirik siyosiy uyushmalarining paydo bo‘lishiga O‘rta Osiyo o‘troq va ko‘chmanchi aholi o‘rtasidagi doimiy siyosiy qarama-qarshiliklar sabab bo‘ladi.

Aholi aralash joylashuvi hududlarida o‘troq viloyatlar siyosiy uyushmalarining shakllanishiga turtki bo‘lgan omillardan biri – O‘rta Osiyoning janubidagi dasht hududlarda joylashgan ko‘chmanchi qabilalar hujumi xavfi edi. Miloddan avvalgi VII-VI asrlarga kelib bunday hujumlar tez-tez bo‘lishi muqarrar

edi. CHunki, O‘rta Osiyoning ko‘pgina tog‘ va dasht hududlarida -yilqichilik va chorvachilikning keng tarqalib, ko‘chmanchilar ning o‘zлari esa jangovar qurollanishda katta muvaffaqiyatlarga erishib, jiddiy harbiy xavf tug‘dira boshlaydilar.

Miloddan oldingi VIII asrning oxiri – VII asrga kelib O‘rta Osiyoning janubidagi qishloqlar rivojlanishida jadallik bilan o‘zgarishlar boshlanib Baqtriya va Sug‘diyona hududlarida o‘zida shaharsozlik belgilarini (mustahkam devorlar, saroylar, burjlar, xandaqlar, devorlardagi o‘q otish yo‘laklari va boshq.) aks ettiruvchi manzilgohlar paydo bo‘ladi. Ilk temir davriga oid bunday manzilgohlarning soni Baqtriya, Marg‘iyona va Sug‘diyonada 20 tadan ziyodroq. Asosiy manzilgohlar esa (maydoni 5 getkardan kam) qishloq qo‘rg‘onlari, uncha katta bo‘lмаган alohida qal’alar va dehqonchilik qishloqlaridan iborat. SHaharlar turiga kiritish mumkin bo‘lgan, kattagina qo‘rg‘onli mustahkamlangan manzilgohlar ayrim qadimgi dehqonchilik viloyatlarida (Surxon, Qashqadaryo, Zarafshon havzalari va boshq.) bitta yoki ikkitadan ko‘p bo‘lмаган.

Belgilari unchalik to‘liq bo‘lмаганligi uchun ham O‘rta Osiyodagi barcha yirik qishloqlarni shaharlar safiga kiritib bo‘lmaydi. Faqatgina shuni qayd etish mumkinki, ularning barchasi harbiy to‘qnashuvlar paytida qal’a-qo‘rg‘on vazifasini o‘tagan. A.M.Belinitskiyning fikricha, harbiy-ma’muriy markazlar sifatida paydo bo‘lgan qadimgi shaharlar savdo-hunarmandchilik markazlariga aylanib boradi.

Ilk temir davri O‘rta Osiyoning janubida xususan Sug‘diyonada, alohida hududiy tartib guruhida bo‘lib, markaziy vazifani bajargan bir nechta manzilgohlar turlari mavjud edi. Bular maydoni 5 getkardan 15 getkargacha bo‘lib, tuman-voha markazi vazifasini bajaruvchi Daratepa, Konimex, CHordara kabilardir. Maydoni 20 getkardan 80 getkargacha bo‘lgan viloyat markazlari vazifasini bajarishi mumkin bo‘lgan O‘zunqir, Erqo‘rg‘on, Xo‘ja Bo‘ston kabilar hamda bir necha viloyatlar markazi vazifasini bajaruvchi va maydoni 100 getkardan ziyod bo‘lgan Afrosiyob, Buxoro shular jumlasidandir.

Arxeologik ma’lumotlarga qaraganda, hunarmandchilik muassasalari yirik manzilgohlar ichida markazlashib qolmasdan, ularning atrofida ham to‘planib boradi. Bu manzarani Afrosiyob topilmalari tasdiqlaydi. Bunday manzilgohlar astasekinlik bilan hunarmandchilik, savdo va madaniy markazlarga aylanib boradiki, bu jarayonda qadimgi yo‘llar nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘lganligini ta’kidlab o‘tishimiz joizdir. Afrosiyob, O‘zunqir, Erqo‘rg‘on kabi qo‘hna shaharlar O‘rta Osiyoning qadimgi yo‘llari ustida joylashgan.

Arxeologik manbalarning ma’lumot berishicha miloddan avvalgi VII-VI asrlarga kelib O‘rta Osiyoning janubida ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy munosabatlar anchagina murakkablashadi. Bu o‘rinda Qadimgi Baqtriya ma’lumotlarini keltirib o‘tish joizdir. YOzma manbalarda Baqtriya O‘rta SHarqdagi muhim viloyat – «o‘lka» (Ktesiyda) sifatida Ossuriya podshosi Ninning va Kir II ning (Gerodotda) harbiy rejalariga qarshi chiqqanligi hamda Aleksandr Makedonskiy qo‘sishinlariga qattiq qarshilik ko‘rsatganligi ta’kidlanadi.

Kir II ning O‘rta Osiyoga yurishi – Ahamoniylarning Baqtriya va sakmassaget uyushmasi kabi jiddiy raqiblari mavjud bo‘lganligining dalilidir. Forslar O‘rta Osiyo janubiy viloyatlarini bosib olganlaridan keyingina miloddan avvalgi

530 -yilda sak-massagetlar ustiga yurish boshlaydilar. Demak, bu paytga kelib Baqtriya harbiy-siyosiy uyushmasi tarkibida Baqtriyadan tashqari Marg‘iyona va Sug‘diyona ham mavjud edi.

Bizning nazarimizda, O‘rta Osiyo hududlarida ilk davlat uyushmalarining paydo bo‘lishida ilk shaharlar va harbiy-siyosiy omillardan tashqari ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar ham katta ahamiyatga ega edi. CHunki, siyosiy jihatdan shakllangan davlat yoki uyushma boshqaruva tartibi va iqtisodiyotsiz taraqqiyot bosqichiga ko‘tarila olmaydi.

### **3. Qadimgi Baqtriya, Xorazm va Sug‘diyona davlatlari.**

#### **Qadimgi Baqtriya podsholigi.**

Hozirgi Afg‘onistonning shimoli-sharqi, O‘zbekistonning janubi va Tojikistonning janubi-g‘arbida joylashgan hududlar turli yozma manbalarda Bahdi, Baqtrish, Baqtriyona, Baqtriya, Baxli, Baxlika, Tuxolo kabi nomlar bilan eslatib o‘tiladi. Zamonaviy adabiyotlarda uni Baqtriya deb atash e’tirof etilgan (“SHohnoma”da Baxtar zamin, qadimgi turkiylarda Bahodirlar yurti).

Arxeologik ma’lumotlarning guvohlik berishicha, milloddan avvalgi II ming -yillik o‘rtalariga kelib Surxon vohasida qadimgi dehqonchilik madaniyatining jadallik bilan rivojlanishi asosida ilk davlatchilikka o‘tish jarayoni boshlanadi. Bu jarayon bosqichma-bosqich rivojlanishning o‘ziga xos xususiyat va qonunlariga ega edi. Agar davlatchilik asosini shahar madaniyatni tashkil etilishini hisobga oldigan bo‘lsak, bu jarayon O‘zbekistonning janubida, Baqtriya hududida milloddan avvalgi II ming -yillik birinchi yarmidayoq shaharmonand qishloq Sopollitepa misolida boshlangan edi. A. Asqarovning fikricha, agar Sopollitepa o‘zining qadimgi shaharsozlik madaniyatiga xos barcha alomatlari bilan protoshahar, ya’ni, Avestoda tilga olingan “vara” inshootini eslatса, Jarqo‘ton yodgorligi O‘zbekiston hududida birinchi bor shakllangan tom ma’nodagi shahar edi. Jarqo‘ton qadimgi SHarq shaharlaridan tarkibiy jihatidan farq qilmaydi.

Tadqiqotchilarning fikricha, Jarqo‘ton ko‘rinishidagi ko‘hna shaharlarni qadimgi SHarqdagi nom-davlatlar shakllari bilan qiyoslash uchun dalillar etarli. Ammo, Mesopotamiya nom-davlatlarining asosiy belgilaridan bo‘lgan yozuv Jarqo‘tonda mavjudligi hozircha bahslarga sabab bo‘lmoqda. Umuman olganda, milloddan avvalgi II ming -yillikning so‘nggi choragiga kelib qadimgi Baqtriya hududlarida davlatchilikning nom yoki voha tipidagi siyosiy uyushmalar shakllana boshlaganligiga ilmiy asoslar bor.

Milloddan avvalgi I ming -yillikning birinchi yarmi Baqtriya hududlarida ko‘pgina tarixiy-madaniy o‘zgarishlar bo‘lib o‘tadi. Bu o‘zgarishlar quyidagi jarayonlar bilan bog‘liq edi:

1. Temir buyumlarning paydo bo‘lishi va keng tarqalishi.
2. Qal’alari bo‘lgan qishloqlarning paydo bo‘lishi va keyin ularning shaharlarga aylanish.
3. Moddiy madaniyatning sezilarli darajada o‘zgarishi.
4. SHarqiy Eron qabilalarining migratsiyasi.

Arxeologik nuqtai nazardan, yuqoridagi davr Marg‘iyona tipidagi YOz I madaniyati mavjud bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi. Tadqiqotchilar YOz I madaniyati davrini milloddan avvalgi II-I ming -yillik bo‘sag‘asi – VIII-VII asrlar bilan

belgilaydilar. Surxon vohasidan aynan mana shu madaniyatga o‘xhash yodgorliklar ko‘plab ochib o‘rganilgan. Bu davrda Baqtriyaning to‘rtta-Ulonbuloqsoy, Bo‘stonsoy, Urgul va Halqajar vohalari o‘zlashtirilgan bo‘lib, arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Kuchuktepa, Jarqo‘ton, Bandixon va Qiziltepa ularning marakazlari edi. YUqoridagi vohalar o‘troq ziroatkorlar va chorvador-sastarlar harbiy boshliqlarining mulklari, markazlar esa ularning qarorgohlari bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Milloddan avvalgi I ming -yillikning birinchi yarmida Qadimgi Baqtriya davlati tarkibiga Marg‘iyona va Sug‘diyona ham kirganligi taxmin qilinadi. Bu haqda turli hal ma’lumotlar mavjud bo‘lib, qadimgi fors podshosi Doro I Marg‘iyonada bo‘lib o‘tgan Frada boshchiligidagi qo‘zg‘oltonni (milloddan avvalgi 521 -yil) bostirgani haqidagi Behistun yozuvlarini “mana men nimalarni qildim Baqtriyada” deb, hulosalaydi. Doro III davrida Baqtriya va Sug‘diyona birlashtirilgan o‘lka bo‘lib, unda Bess nomli satrap hokimlik qilgan davrda Baqtriya, Marg‘iyona hamda Sug‘diyona aholisining urf-odatlari va madaniyati bir-biriga ancha o‘xhash bo‘lgan.

Tarixning otasi Gerodotning “Tarix” asarida Baqtriya xalqi Misr va Bobil kabi yirik davlatlar qatorida tilga olnadi. YUnion tarixchisi Ktesiy Knidskiy Baqtriya haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Tarixchi davlatdagi ko‘plab shaharlar, mustahkam poytaxt shahar Baqtra (Balx), Baqtriya podshosi Oksiart, uning bitmas-tuganmas boyliklari haqida hikoya qiladi. Tadqiqotchilarning fikrlarga qaraganda Qadimgi Baqtriya podsholigi qudratliligi jihatdan qo‘suni viloyatlardan ancha ustun bo‘lib, ular orasida alohida mavqega ega bo‘lgan. Baqtriyaning tabiiy boyliklari undan tashqari hududda ham Old Osiyoga qadar mashhur edi. Ayniqsa, Badaxshon lojuardi (lazurit) va la’li juda qadrlangan.

Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, milloddan avvalgi VIII-VI asrning o‘rtalari qadimgi Baqtriya davlatining (aynan Baqtriya, Marg‘iyona va Sug‘diyona viloyatlarining ma’lum qismlari sifatida taxmin qilinadi) rivojlangan davri bo‘lib, bu yirik davlatning hududiy chegaralari: Murg‘ob vohasi, Hindiqush tizmasi, Badaxshon, Nurota tizmasi va Buxoro hududlariga taqalgan bo‘lishi mumkin. Bu davrda Baqtriya viloyatlariga qadimgi Xorazm davlati va sak-masagetlarning harbiy-siyosiy uyushmasiga tegishli o‘lkalar chegaradosh bo‘lgan.

Avestoning eski qismlarida Axuramazda yaratgan “eng yaxshi o‘lkalar va mamlakatlar orasida to‘rtinch bo‘lib go‘zal va bayroqlari baland ko‘tarilgan **Bahdi** mamlakati” atamasi uchraydi. Ayrim olimlarning fikricha bu “baxtar” atamasiga mos kelsa kerak. Baqtriya haqidagi keyingi qadimgi ma’lumotlar Axamoniylar podsholarining mixxatlarida va bo‘rtma tasvirlarida uchraydi. Misol uchun, Axamoniylar podsholarining markazlaridan biri Persepol shahridagi saroy devorlarida bo‘rtma rasmlarda baqtriyaliklar idishlar ko‘targan va ikki urkachli Baqtriya tuyalari bilan tasvirlanadi. Demak, Baqtriya mustaqil satraplik sifatida Axamoniylar davlatining iqtisodiy va madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

A.Sagdullaevning tadqiqotlariga ko‘ra, Baqtriya haqidagi turli ma’lumotlar qadimgi yunon tarixchilari-Gerodot, Ktesiy, Arrian, Strabon, Kursiy Ruf, Diador, Pliniy kabilarning asarlarida ham mavjud bo‘lib, ular bu podsholikning

qadimiyligi va yuksak madaniyati haqida ma'lumotlar beradi. Xususan, Ktesiy Knidskiy Ossuriya podshosi Nin Belidning Baqtriyaga qilgan yurishi, uning baqtriyalik ayol Semiramidaga uylanganligi, Baqtriya podshosi Oksiart va uning boy xazinasi haqida ma'lumot beradi. Ktesiyning Baqtriya chegaralari haqidagi ma'lumotlari ham qiziqarlidir. Uning xabar berishicha: g'arb tomondan Baqtriya tekisligiga boradigan yo'lni tog'lar to'sib turadilar, ulardan faqat dovonlar orqali o'tib borish mumkin. Baqtriya Tanaisdan Hind daryosiga cho'zilgan bo'lib, Tanais uni Evropadan, Hind daryosi esa Hindistondan ajratib turadi.

Gerodot o'zining "Tarix" asrarida Baqtriya va baqtriyaliklarni 45 marta tilga oladi. "Baqtriya" atamasi Esxilning milloddan avvalgi V asrda sahnaga qo'yilgan "Fors"lar tragediyasida ham uchraydi. YAna bir qadimgi tarixchi Strabon Baqtriyani "oriylar o'lkasining javohiri" sifatida ta'riflaydi.

YOzma manbalar ma'lumotlari ko'p hollarda arxeologik ma'lumotlar bilan tasdiqlanadi. Arxeolgiya ma'lumotlarining guvohlik berishicha, milloddan avvalgi VII-VI asrlarda Baqtriyada shaharlar shakllanib bo'lgan edi. Oltindilyortepa (Aorn), Baqtriya (Boloi Hisor) va Qiziltepa kabi ko'hna shaharlar mustahkam himoya devorlar bilan o'rabi olinadiki, ular bu hududlarda davlatchilik rivojlanishining assosi edi.

Baqtrianing Ahamoniylar davlati tarkibiga kirganligi haqida yozma va arxeologik ma'lumotlar nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi. Arxeologiya ma'lumotlariga ko'ra, milloddan avvalgi I ming -yillikning o'rtalariga kelib, Amudaryodan kechuv joyida va daryo yoqalab yo'llar bo'yida qal'alar (SHo'rtepa, Talashqon, Termiz, Xirmontepa) bunyod etiladi. Bu holatni olimlar Ahamoniylar ma'muriyatining Baqtiriyadan Sug'dga o'tuvchi yo'llarni qattiq nazoratda tutgan bo'lishi mumkinligi bilan izohlaydilar. Bu davrga kelib Baqtriya aholisi joylashuvida ham sezilarli o'zgarishlar bo'lib o'tadi. Bronza davrida o'troq dehqonchilik manzilgohlari asosan Baqtrianing shimoli-g'arbida markazlashgan bo'lsa, keyinroq bu ko'lam kengayib shimoli-sharqiy qismlarni ham qamrab oladi. Tog' oldi hududlaridagi vohalarda aholi turmush tarzi yanada qizg'inlashib borgan bo'lsa, Surxondaryo, Konfirnihon, Vaxsh, YAvansuv atroflarda yangi vohalar o'zlashtiriladi.

E.V.Rtveladze Baqtriyadagi bu davrga oid tadqiqotlarni umumlashtirib, ushbu hududlardagi aholi joylashuvining quyidagi o'nta vohasini ajratadi:

1. Ulanbuloqsoy-Amudaryoning irmog'i bo'lgan Ulanbuloqsoy vohasini egallagan bo'lib, uning hududlarida Kuchuktepa va Dabilqo'rg'on joylashgan.
2. SHerobod-Amudaryoning irmog'i bo'lgan SHeroboddaryoning o'rta oqimida joylashgan. Bronza davrida o'ng qirg'oq SHeroboddaryoda manzilgohlari paydo bo'ladi va keyinchalik chap qirg'oq hududlari o'zlashtirilib vohaning chegarasi Angorgacha cho'ziladi.
3. Urgul (Bandixon)-Bandixonsoyning o'rta oqimida joylashgan. Ilgarigi o'ng qirg'oqdagi Bandixon I va II inqirozga uchrab, chap qirg'oqda yangi manzilgoh – G'ozimullatepa I paydo bo'ladi.
4. Halqajar-Surxondaryoning o'ng irmog'i Halqajar vohasi hudularini egallaydi. Bronza davrida bu erdag'i irmoqlar havzalari o'zlashtirilgan

- bo‘lsa, milloddan avvalgi VII asrdan boshlab daryoning chap qirg‘og‘ida manzilgohlar paydo bo‘ladi. Bu vohadagi eng yirik yodgorlik Qiziltepa ko‘hna shahri hisoblanadi.
5. YUqori Surhon-Surxondaryoning o‘rta oqimi havzasida joylashgan bo‘lib bu vohada ham ikkita manzilgoh aniqlangan. Ulardan biri SHerobodsoyning o‘ng qirg‘og‘ida, ikkinchisi esa Dashnobodsoyning o‘rta oqimida joylashagan.
  6. O‘rta Surxon-Surxondaryoning o‘rta oqimi havzasida joylashgan bo‘lib, bu vohadan ham ikkita manzilgoh-Hayitobodtepa va Bandixonsoyning Surxondaryoga quyilishi joyida joylashgan Nomsiztepa aniqlangan.
  7. Amudaryo-Termizdan Boldirgacha bo‘lgan Amudaryoning o‘rta oqimi havzasida joylashagan. Bu vohada Termizning pastki qatlamlari va Kampirtepadagi 0,5 km. g‘arbda joylashgan Nomsiztepa milloddan avvalgi I ming -yillik o‘rtalariga oiddir.
  8. Vaxsh – YAvan – Vaxsh va YAvansuv daryolarining o‘rta oqimida joylashagan. Bu vohadan uchta manzilgoh – Tomoshatepa, Boldaytepa va SHo‘rchi yaqinidan Nomsiztepa aniqlangan.
  9. Quyi Kofirnihon – Kofirnihon daryosining quyi oqimlarini egallaydi. Bu vohadan uchta – Qalaimir, Munchoqtepa va Xirmontepa manzilgohlari aniqlangan.
  10. Boytudasht-Panj vohasining yuqori qismidagi Boytudasht mavzesida joylashgan. Bu vohadan unchalik katta bo‘lman sakkizta manzilgoh aniqlangan.

SHunday qilib, milloddan avvalgi I ming -yilikning o‘rtalariga kelib qadimgi O‘zbekistonning janubida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan bog‘liq ko‘plab o‘zgarishlar bo‘lib o‘tadi. YUqoridagi sanab o‘tilgan vohalarning har biri ma’lum hududiy-siyosiy birlashmani tashkil etgan bo‘lib, o‘z nomiga, ma’muriy markazlariga, yirik shaharlariga ega bo‘lgan bo‘lishi mumkin edi. Misol uchun, Surxondaryodagi Qiziltepa ko‘hna shahri atrofida to‘rburchak shaklda qurilgan qadimgi uy-qo‘rg‘onlari (Qizilcha) 3-4 ta qo‘shni uylardan iborat bo‘lib, alohida joylashgan qishloq jamoasini tashkil etganlar. Har bir katta oila jamoasini ma’lum uy-joy, chorva va erga egalik qilib, ma’lum darajada iqtisodiy mustaqil bo‘lgan. Qishloq jamoalarining hududiy, iqtisodiy va ijtimoiy birlashuvni, ibridoiy davrlarga oid urug‘-qabilaviy birlashuvdan tubdan farq qilib, ilk davlatchilik shakllari paydo bo‘lganligidan dalolat beradi.

Milloddan avvalgi VII-VI asrlar Baqtriya jamiyatida hududiy bo‘linish shakllanib, alohining o‘troqlashuv jarayonlari yanada kuchayadi. Ko‘hna shaharlar qishloq xo‘jalik atroflariga ega bo‘lib, qal’alar paydo bo‘ladi, muhim savdo yo‘llari bo‘ylarida tayanch istehkomlar barpo etiladi. Turli binolar bunyod etishda mudofaa inshootlarining ahamiyati etakchi o‘rin egallaydi.

Qadimgi Baqtriya dehqonchilik rayonlarining tuzilishi tabiiy-geografik joylashuv va shart-sharoitlarga qarab turlicha bo‘lgan. Manzilgohlarning soni va o‘zlashtirilgan erlarning umumiyligi maydoniga qarab madaniy-xo‘jalik vohalar bir nechta guruhlariga bo‘lingan. Vohalarning chegaralari sug‘orma dehqonchilik hududlari va sug‘orish tarmoqlarning chegaralari bilan o‘zviy bog‘liq edi.

Tarixiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, davlatchilik jamiyatning ichida, o‘z ichki qonuniyatlari asosida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. SHakllana boshlagani 3,5 ming -yildan kam emasligi ilmiy jihatdan asoslangan Baqtriya davlatchiligi buning yorqin misolidir.

### **Qadimgi Xorazm davlati**

O‘rta Osiyodagi yana bir yirik davlat uyushmasi-Qadimgi Xorazm davlati hisoblanadi. “Katta Xorazm” va “Qadimgi Xorazm” masalasi bo‘yicha o‘zbekistonlik va xorijlik ko‘plab olimlar turli-tuman tadqiqotlar olib borgan bo‘lsalarda bu masalalar hamon tadqiqotchilarining bahs-munozaralariga sabab bo‘lib kelmoqda. Avesto va yunon-rim tarixchilari ma’lumotlari bu munozaralarining asosini tashkil etadi. Undan tashqari, o‘tgan asrning 50-60 -- yillaridan boshlab bugunga qadar olib borilgan arxeolgik tadqiqotlar natijalari ham Xorazm davlatchiligi tarixi bo‘yicha boy materiallari berdi.

Avvalo so‘ngi -yillardagi ibridoiy davr yodgorliklarining qiyosiy tadqiqotlaridan (X.Matyakubov) xulosa chiqaradigan bo‘lsak, Xorazm mil.avv IV-III m.y. dayoq O‘rta SHarqning qadimgi sivilizatsiyalar olami bilan uzoq SHimolni bevosita bog‘lovchi xalqa rolini o‘tay boshlagan. Bronza davri Suvyorgan va Tozabog‘yob madaniyatlari qadimgi Xorazm erlarini o‘zlashtirib bir-biri bilan qizg‘in aloqada bo‘lgan, SHimol va Janubdan ta’sir qabul qilib, yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilgan qabilalar madaniyati edi.

Ularning urug‘ jamoalari yarim erto‘la uy -joylarda istiqomat qilib motiga dehqonchiligi va chorvachilik bilan shug‘ullanib, ibridoiy ishlab chiqarish xo‘jaligi sari ilk qadam tashlaganlar. Ammo, ularning moddiy xo‘jalik taraqqiyoti darajasi O‘rta Osiyoning janubiy mintaqalari (Baqtriya, Marg‘iyona) dagi qabilalarga nisbatan ancha orqada edi.

Amirobod madaniyati (mil.avv IX-VIII asrlar) davrida Amudaryo quyi havzasida yashovchi aholi hali davlatchilikdan bexabar bo‘lib, irrigatsiya xususiyati ibridoiy urug‘-qabilachilik an‘analarini saqlab qolgan aholi jamiyatiga xos edi. O‘rta Osiyoning Janubiy mintaqalariga qaraganda Xorazm vohasi aholisi uzoq vaqt beqaror suv oqimi sharoitida, noqo‘lay tabiat injiqliklari girdobida qolib kelgan. Qadimgi yozma manbalar ma’lumotlari va mavjud arxeologik yodgorliklarning qiyosiy tahliliga ko‘ra, Xorazmda davlatchilik ildizlarining paydo bo‘lishigan asos bo‘lgan ilk shaharsozlik madaniyati sohiblari-Xorazmiylar ko‘chib kelgach tarkib topdi va rivojlandi.

“Xorazm” atamasining kelib chiqishi haqida ko‘plab fikrlar mavjud. Olimlarning katta guruhi “Xorazm” atamasining ikkinchi komponenti –zmi, -zamni hind-evropa tillariga mansub – zemo – er, o‘lka, mamlakat ma’nosini beradi degan xulosaga kelganlar. So‘zning birinchi komponentiga kelganda olimlar fikrlaridagi yakdillik yo‘qoladi va u turlichcha – “Ozuqaga boy mamlakat”, “Unumdor er” (E.Byurnuf, E.Zaxau, U.Geyger, U.Tomashek), “Go‘zal mamlakat” (F.YUSTI), “Unumsiz, yomon er” (F.SHpigel), “Pastlik er” (P.Lerx, N.Veselovskiy, X.Klipert), “Quyoshli yoki SHarqiylar o‘lka” (S.Tolstov, P.Savelev, F.Sulaymonova), “SHarqiylar zamin”, “Kunchiqar mamalakat” (I.Mo‘minov) tarzida talqin etiladi.

YAna bir guruh olimlar “Xorazm” atamasi uch leksima asosida (Uvarizami, u – “yaxshi”+ vara – “qal‘a”, “qo‘rg‘on”+zimi-“er”) paydo bo‘lgan deb hisoblab,

mazkur tarixiy atamaning ma’nosini “yaxshi qo‘rali er”, “Ajoyib qal’ali o‘lka” yoki “Mustahkam qo‘rg‘onli diyor”(Bogolyubov, A.Muhammadjonov) tarjima qiladilar. So‘ngi tadqiqodlarda “Xorazm” atamasining o‘zagi qadimgi turkiy asoslarga ega bo‘lishi mumkin degan fikrlar ilgari surilib (“Xuar” (“Suvar”) – “suv”(“xu”) – suv, “Ar”-er, odam, “m”- birinchi shaxs qo‘shimchasi) va u “Suv(daryo) odamlari” yoki “suv egalari” (M.Zakiev, SH.Kamoliddin, O’.Nosirov) deb tarjima qilingan.

Olimlarning ta’kidlashicha, Avestoda tilga olingan Aryoshayona yoki Aryanam Vaychax shu manbada eslatilgan Kavi Vishtaspning podsholigi bo‘lib, milloddan avvalgi IX-VIII asrlarda Drang‘iyona, Satagadiya, Ariya, Marg‘yona va Amudaryoning o‘rta oqimidagi viloyatlarni birlashtirgan. G‘arb tadqoqtchilari V.Xenning va I.Gershevichlar Avestodagi Kavi Vishtapsning davlati Marv va Xirot atrofida joylashgan “Katta Xorazm” deb hisoblaydilar. “Katta Xorazm” muammosi Gerodot ma’lumotlaridan boshlangan. U “Tarix” asarining uchinchi kitobida quyidagicha ma’lumot beradi: “Osiyoda bir vodiy bor. Uning barcha tomoni tog‘ bilan o‘ralgan, tog‘ni esa beshta dara kesib turadi. Bir vaqlar bu vodiy xorasmiylarga tegishli bo‘lib, xorasmiylar, parfiyaliklar, saranglar va tamaneylarga chegaradosh erlarda joylashgan. Vodiyni o‘rab turgan tog‘dan Akes nomli yirik daryo boshlanadi”.

Gerodotdan sal oldinroq yashab o‘tgan Gekatey parfiyaliklarning sharqiy tomonida joylashgan “Xorasmiya”ni, “bir qismi tekisliklarda, bir qismi tog‘larda yashovchi xorazmliklarni” eslatib o‘tadi. Tadqiqotchi V.A.Livitsits ham bu “Katta Xorazm”ni Marv va Hirotning to‘rtta rayoniga joylashtiradi. Agar “Katta Xorazm” davlati Marv va Hirot atroflarida joylashgan taxmin rost bo‘lsa, A.S.Sagdullaevning fikricha, bu davlat forslar podshosi Kir II tamonidan bo‘ysundirilganidan so‘ng xorasmiylar Quyi Amudaryoning Xorazm hududlariga ko‘chib borganlar deb faraz qilinadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, miloddan avvalgi VI asr qadimgi forslar xorasmiylarni janubdan quyi Amudaryo erlariga siqib chiqargan.

S.P.Tolstov va YA.G‘ulomovlar bu nazariyaga qarshi bo‘lib, xorazmliklar O‘rta Osiyoning janubidan ko‘chib kelmaganlar balki, Xorazm davlati Quyi Amudaryoda qadimgi zamonaldayoq vujudga kelgan deb xulosa qilganlar. Ammo bu davlatning chegaralari hozirgi Xorazm viloyati hududlaridan ancha keng bo‘lgan.

O‘rta Osiyoning tarixiy geografiyasi bilan shug‘ullanuvchi olim I.N.Xlopin “Katta Xorazm”ning yirik siyosiy birlashma sifatida Ahamoniylardan oldingi davrda mavjud bo‘lganligi va Akesning Tajan-Xerirud daryosi bilan bir ekanligi haqidagi fikrlarni asossiz deb hisoblaydi. Olimning ta’kidlashicha, “Ahamoniylardan oldingi davrda O‘rta Osiyo hududida xalqlarning xorasmiylar boshchiligidagi hech qanday ilk davlat birlashmalari yo‘q edi”. SHu bilan birga u Ahamoniylardan oldingi davrda O‘rta Osiyoning janubida, “bir necha uncha katta bo‘lmagan markazlar” mavjud bo‘lgan bo‘lishi mumkinligini e’tirof etadi.

O‘rta Osiyo janubidagi dexqonchilik madaniyati va ilk shaharlar bo‘yicha mutaxassis hisoblangan A.A.Asqarov so‘nggi -yillarda Qadimgi Xorazm masalalariga o‘z e’tiborini qaratdi. Olimning e’tirof etishicha, Xorazm vohasining qadimgi davri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu hududiy kenglik Amudaryoning

quyi havzasini hisoblanib, O‘rtalik Osiyoning bu yirik daryosi bir necha yuz -yillar davomida yuqori oqimlardan quyiga unumdar loyqa oqizib kelib, janubiy Orol bo‘ylarida sug‘orma dehqonchilik madaniyatining rivojlanishi uchun zamin yaratgan. Ammo, bu zamin eng qadimgi davrlarda ajdodlarimiz tomonidan o‘zlashtirilib, sug‘orma dehqonchilik madaniyatining Marg‘iyona va Baqtriya singari makoni bo‘la olmadi.

Arxeologik manbalarning ma’lumot berishicha, ilk temir davriga kelib Xorazm hududlarida paydo bo‘lgan Amirobod madaniyati davrida janubiy Xorazm aholisi Amudaryo quyi havzasining o‘zanlari bo‘ylab barpo etilgan keng va sayoz kanallar yordamida ziroatchilikka qo‘lay joylarda dehqonchilik qila boshlaydilar hamda o‘troq hayot asta-sekin ularning turmush tarziga aylana boshlaydi. Ammo, Amudaryoning quyi havzalari, uning to‘qayzor va qamishzor keng maydonlari, serunum yaylovlari chorvachilik xo‘jaligining taraqqiy etishi uchun juda qo‘lay edi. SHuning uchun ham qadimgi Xorazmda Quyi Sirdaryo sak-chorvadorlarning Quysisoy madaniyati keng rivojlangan.

YUNON geografi Strabon xorazmiylarning ajdodlari massagetlarga borib taqalishi haqida ma’lumotlar beradi. S.P.Tolstovning fikricha, Xorazm tarixining massagetlargacha bo‘lgan davrida bu zaminda Suvyorgan va Tozabog‘yob madaniyatlari aralashuvidan tarkib topgan Qovunchi (Qaundi) qabilalari yashar edilar. Ular milloddan avvalgi II ming -yillikning so‘nggi choragida qadimgi Xorazmnинг massaget nomi ostida yuritilgan ko‘chmanchi qabilalarining asosini tashkil etgan.

Arxeologik ma’lumotlar, yozma manbalar va ularni etnogeografik tahlillaridan xulosa chiqargan A.A.Asqarov, xorazmiylarning dastlabki vatani Baqtriyadan junubda, hozirgi Hirot vodiysida bo‘lganligini e’tirof etadi. Olimning ta’kidlashicha, Ahamoniy podsholari tazyiq o‘tkazish orqali sharqiy Eron qabilalaridan -yiliga katta boj olish maqsadida Hilmend tog‘ daralaridan oqib chiqadigan soylarga to‘g‘onlar qurdirib, suv yo‘llarini qadimgi Hilmend, hozirgi Hirot vodiysiga-xorazimiylar yurtiga burib yuborganlar. Natijada, vodiya ko‘l hosil bo‘lib, xorasmiylar noiloqlikdan vatanlarini tark etib, Amudaryoning quyi havzalariga ko‘chishga majbur bo‘lganlar. A.Asqarovning xulosalariga ko‘ra, Amudaryoning quyi havzalarida uzoq asrlar davomida Amu suvlari oqizib kelgan loyqa yotqiziqlari tufayli hosil bo‘lgan dehqonchilikka qo‘lay, tekis va unumdar erlar hamda havza irmoqlari suvlaridan dehqonchilikda foydalanishning qo‘layligi, ziroatchilikda boy tajribaga ega bo‘lgan xorasmiy qabilalarining yangi joyga moslashishini tezlashtirgan.

Qadimgi Xorazm xo‘jalik tartibining tuzilishi janubiy hududlardagi sug‘orish tizimini eslatsa-da, o‘lchamlari jihatdan ancha kichik. M.A.Itinaning fikricha, bu davrda urug‘doshlarning qishloqlari bo‘lishi mumkin bo‘lgan manzilgochlarning maydonlari kengayganligi ko‘zatiladi. Bu manzilgochlarda katta oilalar yashagan bo‘lib, ular bir vaqtning o‘zida xo‘jalik vazifalari, jumladan, sug‘orish tarmoqlarini saqlash va rivojlantirish bilan shug‘ullanganlar.

So‘nggi bronza davrida ham qadimgi Xorazm xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri chorvachilik xo‘jaligi edi. Bu davrga oid makonlardan juda ko‘plab turli hayvonlarning suyak qoldiqlari topib o‘rganilgan. CHorvachilik

xo‘jaligida ot asosiy o‘rinda bo‘lib ulardan yuk tashish va safarga chiqishda foydalanilgan. Ayrim manzilgohlardan ot anjomlarining topilishi shu jarayondan dalolat beradi. Bu o‘rinda ta‘kidlash joizki, olimlar orasida massaget qabilalari totemlarida ot kulti markaziy o‘rinda turishi haqidagi fikrlar ham bor.

O‘troq dehqonchilik qabilalarining chorvachiligi uy chorvachiligi xususiyatiga ega edi. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, mil. avv. I ming -yillikning boshlariga kelib Orol bo‘yidagi xo‘jaligi asosini dehqonchilik va chorvachilik tashkil etgan qabilalar o‘rtasida farqlar shakllana boshlaydi. Mil. avv. VII-VI asrlarga kelib esa, ular madaniyati o‘rtasidagi farqlanish yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Fikrimizcha, aynan mana shu davrdan boshlab, SHarqi Orol bo‘yida yarim ko‘chmanchi chorvador xo‘jalik madaniy shakli ustunlik qilgan bo‘lsa, Amudaryoning janubiy o‘zanlarida esa yuqori darajadagi sun’iy sug‘orishga asoslangan o‘troq dehqonchilik xo‘jaliklarining ahamiyati ortib boradi.

Mil. avv. I ming -yillikning ikkinchi choragiga kelib Orol bo‘yida hunarmandchilik ajralib chiqishining dastlabki belgilari ko‘zatiladi. Ortiqcha mahsulotning ko‘payishi esa mulkiy va ijtimoiy tabaqalanish uchun imkoniyatlар yaratadi.

Mil. avv. I ming -yillikning o‘rtalariga kelib qadimgi Xorazm hududlarida sug‘orma dehqonchilikning taraqqiy etishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi natijasida ibridoiy jamoa munosabatlari o‘rniga davlatchilik tizimi shakllana boshlaydi. Ushbu tizimning shakllanishida qadimgi shaharlarning ahamiyati nihoyatda katta bo‘ldi. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, qadimgi Xorazm shaharlarning rejaviy uslublari – ichki va tashqi tuzilishi, himoya inshootlari, tabiiy joylashuvi nuqtai nazaridan ko‘p hollarda bir-biri bilan o‘xhashlik topadi.

Tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etilgan Xorazmning eng qadimgi shahar-qal’alaridan biri bo‘lgan Ko‘zaliqirning quyi madaniy qatlamlarini S.P.Tolstov mil.avv VII-VI asrlar bilan, V. Masson esa mil. avv. V-IV asrlar boshlari bilan belgilagan edi. So‘ngi tadqiqotlarda esa Ko‘zaliqirda hayot butun mil.avv VI va V asrning birinchi yarmida mavjud bulgan degan xulosalar ustunlik qilmoqda.

Ko‘zaliqir ko‘hna shahri ilgari tahmin qilinganidek, “Katta xorazm” davlatining poytaxti emas, balki, yangi tadqiqotlarga ko‘ra, mil avv VI asrda CHirmanyob dehqonchilik markazini hosil qilgan kichik vohaning bosh shahri sifatida ushbu hududlarning siyosiy-ma’muriy va diniy markazi vazifasini o‘tagan. Fanda Xorazm sivilizatsiyasi va shaharsozlik madaniyati aynan Ko‘zaliqirdan boshlangan, degan xulosa ustunlik qilar edi. Ammo, so‘nggi -yillardagi tadqiqotlar vohaning boshlanish qismida joylashgan Xazorasp shahri ham Ko‘zaliqirga zamondosh yodgorlik deb hisoblashgan asos bo‘lmoqda. Xusan, Xazorasp yaqinida mil. avv VI asrga oid sopol ishlab chiqarish markazi Xumbo‘ztepaning mavjudligi ko‘hna shaharning qadimiyligidan dalolat beradi.

Ko‘zaliqir qadimgi Xorazmdagi dastlabki tuzilishi ancha aniq bo‘lgan, himoya devorlari bilan o‘rab olinib diniy-topinish xususiyatiga ega bo‘lgan me’moriy yodgorlikni o‘zida aks ettiradi. Uning atroflaridagi keng maydon, aftidan keyingi qurilishlarga mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin. Ta‘kidlash joizki, mil. avv. VI-V asrlarga kelib O‘rta Osiyo shaharsozlik madaniyatida ibodatxonalar qurilishi muhim bo‘lib, asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ko‘zaliqir O‘rta Osiyoning

boshqa shaharlari kabi vohaning mustahkamlangan harbiy-siyosiy va ma'muriy markazi hisoblanib, rivojlangan sug'orma dehqonchilik bilan ta'minlangan edi.

Ko'zaliqir haqida yanada batafsilroq to'xtaladigan bo'lsak, ushbu yodgorlikda o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm ekspeditsiyasi ko'plab tadqiqot ishlari olib borgan. Orolbo'yi vohasidagi qadimgi CHirmanyob kanalining birining yaqinida joylashgan ushbu yodgorlik topilmalari mil. avv. VII asrdan V-IV asrlargacha sanalangan. Qadimgi Xorazm tadqiqotchilari «ko'hna shahar» va «qal'a» deb ta'riflagan ushbu yodgorlikdagi turar joylar asosan paxsa va xom g'ishtdan qad ko'targan. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, qal'a ikkita qurilish davrini boshdan o'tkazgan. Mil. avv. VI-V asrlarga oid pastki qatlamlardagi g'ishtlarning o'lchamlari mil. avv. V-IV asrlarga oid yuqori qatlam g'ishtlaridan farqlanadi. Undan tashqari sopollarning xususiyati va bronza o'q uchlarining yasalishida ham ayrim farqlarni ko'zatish mumkin.

Ko'zaliqirning markazidan yirik bino qoldiqlari ochilgan bo'lib, bu erda yarim metrga yaqin madaniy qatlam saqlangan. Har ikkala qurilish davrida mavjud bo'lgan ushbu bino 285 kv.metrni egallaydi. Qat'iy rejaviy tuzilish va binoning qat'iy maydoni butun majmuaga salobat baxsh etgan. Markaziy binoning shimol tomonidan uchta minoraning qoldig'i qazib o'rganilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, ular diniy marosimlar bilan bog'liq inshootlardir.

Ko'zaliqir tadqiqotchilar tomonidan Ahamoniylargacha bo'lgan davr bilan sanalanishiga qaraganda Orolbo'yi hududlarida paydo bo'lgan birinchi shahar bo'lishi mumkin. O'rta Osiyo o'troq aholi vohalarining Ahamoniylar davlati tarkibiga kiritilishi bilan hududlarning ichki siyosati satrapliklar markazlarida jamlangan edi. Satrapliklar markazlari mustamlakachilik va boshqaruvning asosi bo'lib, bu o'rinda urbanistik markazlarning mudofaasi alohida ahamiyatga ega bo'lib boradi. Eskilari ta'mirlanib, yangilari shakllanayotgan ushbu mil. avv. VI-IV asrlarga oid shaharlar mudofaasiga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotlar tahliliga ko'ra, Ko'zaliqir ham aynan shu toifaga kiruvchi ko'hna shaharlardan biri edi. Boshqacha qilib aytganda, mil. avv. I ming -yillikning o'rtalaridagi shaharlarning shakllanishida siyosiy-harbiy omil asosiy hisoblangan. Butun qadimgi dunyoda bo'lganidek, Xorazmda ham shaharlar iqtisodiy, siyosiy va diniy-mafkuraviy markazlar hisoblangan. O'z vaqtida S.P.Tolstov ta'kidlaganidek, agar Xorazmning eng qadimgi shaharlari markazlarida jamoat-diniy inshootlar joylashgan bo'lsa, milodning boshlariga kelib shaharlarning markaziy qismini qal'a egallaydi.

Qizilqum cho'llarining ichkarisida, Jonidaryo qadimgi irmog'inining o'rta oqimida CHirikrabot ko'hna shahri xarobalari joylashgan. YOdgorlik 1946 -yilda S.P.Tolstov tomonidan ochilib, 1948-49 -yillarda unda tadqiqot ishlari olib borilgan. 1957-58 -yillardagi YU.A.Rapoport va S.A.Trudnovskayalarning tadqiqotlari tufayli yodgorlik haqidagi tasavvurlarning ilmiy asoslash imkoniyatlari yanada kengaydi.

Qizilqumdagagi yarim ko'chmanchi apasiak qabilalar ittifoqining poytaxt shahri deb taxmin etilgan CHirikrabot ko'hna shahri balandligi 15 metrli tepe ustida bunyod etilgan. Ko'hna shahar hududidan turli davrlarda barpo etilgan himoya inshootlarining izlari aniqlangan. Tarhiy tuzilishi tuxumsimon – (oval) bo'lgan ko'hna shahar ikki qator himoya devorlari bilan o'rab olingan (42,6

gektar). Ko‘hna shahar markazida (12,4 gektar) qal'a joylashgan. Ko‘hna shahar enliligi 40 metr, chuqurligi 4,5 metr bo‘lgan xandaq bilan o‘rab olinganligi mudofaa ishlariga alohida e’tibor berilganligidan dalolat beradi. CHirikrabortdan bir nechta mozor-qo‘rg‘onlar ochib tadqiq etilgan bo‘lib ulardagi topilmalar mil. avv. V-IV asrlarga oiddir.

Xorazmdagi arxaik davr madaniyatining kelib chiqishi va ashyolarining yoshini aniqlash maqsadida tadqiqotchi B.I.Vaynberg maxsus tadqiqotlar olib borib bu hududlardagi dastlabki to‘rtburchak shakldagi xom g‘ishtlarning tarqalishi va sopollar ko‘rinishidagi o‘zgarishlar O‘zboy irmog‘i va Kaspiy orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri Eron bilan aloqalar tufayli yuz bergen bo‘lib, mil. avv. IV asrning ikkinchi choragi yoki o‘rtalaridan Eron moddiy madaniyatining ba’zi ko‘rinishlari yoyilishiga olib keldi degan xulosa chiqaradi.

Fanda ma’lum bo‘lgan “Katta Xorazm” masalasi bugungi kunda o‘z echimini topgan deb bo‘lmaydi. Avvalo, o‘tgan asrning boshlarida mavjud yozma manbalarning qisqa ma’lumotlariga tayangan I.Markwart tomonidan ushbu masala ko‘tarilgan edi. U Avestodagi “Aryanam Vayjo”ni Xorazm deb hisoblab, Ahamoniylarga qadar SHimoliy –SHarqiy Eron qabilalarining xorasmiylar boshchiligidagi katta davlat birlashmasi “Katta Xorazm”, degan taxminni ilgari surgan edi. Mazkur g‘oya V.Bartold, V.Tarnlar tomonidan qabul qilinib, S.Tolstov, V.Xenning, F.Altxaym va I.Gershevichlar tomonidan rivojlantirildi.

S.Tolstov Amudaryoning quyi havzalari “Katta Xorazm” tarkibiga kirganligi haqidagi konsepsiyanı ilgari surib, Xorazmda mil.avv VIII-VII asrlarda dastlab qabilalarning harbiy konfederatsiyasi paydo bo‘lib, undan davlat uyushmasi o‘sib chiqdi degan fikrga kelgan bo‘lsa, V.Masson bu fikrga qarshi chiqib, arxeologik materiallar tahlili Xorazmda Ahamoniylarga qadar markazlashgan davlat tashkil topganligini tasdiqlamaydi, degan fikrga keldi.

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga tayangan V.T.Vorobeva, o‘tgan asrning 70-yillarda “Katta Xorazm”ning janubiy chegarasi Amudaryoning o‘rtalari havzalari (Qo‘shqal'a, Odoytepa atroflari)dan o‘tgan va uning shimoliy chegaralari Amudaryoning quyi havzalarini qamrab olganligi hamda qadimgi Xorazm davlati “Katta Xorazm” davlat konfederatsiyasining tarkibiga kirganligi haqidagi g‘oyani ilgari surdi. B.Vaynberg va S.Baratovlar ham V.Vorobeva g‘oyalariga yaqin fikr bildirganlar.

R.Fray “Katta Xorazm” davlatining hududi Marv – Hirot atroflarini qamrab olib, Ahamoniylar bosqinidan so‘ng bu hudud aholisi Oks (Amudaryo)ning shimoliga ko‘chganligi haqida fikr bildirgan bo‘lsa, I.Xlopin va I.Pyankovlar Xorazmdagi ahamoniylargacha bo‘lgan davlatchilikni inkor etadilar. A.Asqarov esa, xorasmiylarning Tajan (gerirud) va Xilmend daryolari havzalaridan shimolga, quyi Amudaryo havzalariga ko‘chishi mil.avv VI asrda ro‘y bergen bo‘lib, “Katta Xorazm” davlati konfederatsiyasining shimoliy chegarasi Amudaryoning o‘rtalari chegarasigacha bo‘lgan hududlarni o‘z ichiga olganligi haqidagi fikrlarni ilgari suradi.

YUqorida eslatib o‘tganimizdek, ahamoniylargacha mavjud bo‘lgan Xorazm davlatining poytaxti masalasi fanda aniq echimini topmagan. X.Matyakubovning fikricha, qadimgi Xorazm davlatining poytaxtini aniqlash borasidagi izlanishlar

o‘tgan asrning 80-yillarida o‘z samarasini bera boshladi va **Aqchaxonqal’**a qadimgi Xorazm davlatining poytaxti bo‘lishi mumkinligi haqidagi ilk fikrlar aytildi. Tadqiqotlarga ko‘ra, umumiy maydoni 50 dan ziyod bo‘lgan Aqchaxonqal’ ichki va tashqi qal’adan iborat to‘g‘ri to‘rtburchak shaklga ega. Ular alohida himoya devorlari bilan o‘rab olingan. So‘ngi tadqiqotlarga ko‘ra, ushbu ko‘hna shaharda saroy marosimlari va diniy e’tiqodlar bilan bog‘liq devoriy rasmlarning qayd etilishi, ular orasida shohona kiyimda boshiga toj kiygan hukmdor suratining mavjudligi, shoh boshiga ilohiy qush (Humo) qunib turganligi Aqchaxonqal’ a qadimgi Xorazm davlatining poytaxt shahri ekanligining ramziy belgisi sifatida e’tirof etildi.

Fikrimizcha, Xorazm qadimgi shahar madaniyati va davlatchiligining shakllanishida butun O‘rta Osiyo hududlarida bo‘lgani kabi tashqi ta’sir va madaniy aloqalarni inkor etmagan holda, bu hududlarda o‘troq dehqonchilikka o‘tish, sug‘orish tartibining shakllanishi, o‘troq aholi xo‘jaliklarining taraqqiy etishi keyingi davrlardagi davlatchilik an’analari shakllanishi uchun asos bo‘lganligini ta’kidlash maqsadga muvofiqdir. SHuningdek, butun O‘rta Osiyo mintaqasida bo‘lgani kabi qadimgi Xorazm shahar madaniyati va davlatchiligi asoslari hisoblangan ilg‘or xo‘jalik tizimi yuritish, sug‘orish tarmoqlarini saqlash va rivojlantirish, xunarmandchilik va savdo-sotiq kabilalar – o‘zaro tarixiy-madaniy aloqalar bilan bog‘liq edi. Bu jarayonlar ayniqsa, mil.avv.VI-V asrlarda ancha taraqqiy etgan bo‘lib, bu holat Xorazm davlatchiligining o‘ziga hos xususiyatlarida ham namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mil.avv. V-IV asrlarda Xorazm va unga qo‘shni bo‘lgan hududlarni urbanizatsiya jarayonlari qamrab olgan edi. Natijada bu hududlarda tarixiy-madaniy dehqonchilik vohalari paydo bo‘ladi va ular ilk davlatchilikning asosi edi. Mil.avv. VI asrdan boshlab esa hozirgi Xorazm vohasida davlatchilik shakllanib u qadimgi SHarq sivilizatsiyasi markazlaridan birga aylanib bordi.

### **Qadimgi Sug‘diyona**

Ko‘pchilik tadqiqotchilarining fikrlariga qaraganda, O‘rta Osiyoda eng qadimgi davlatning shakllanish jarayoni dehqon-chorvachilik iqtisodiyoti, ixtisoslashgan xunarmandchilik va shahar markazlarining paydo bo‘lishi bilan o‘zviy bog‘liqdir. Hozirgi kunga qadar olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari bu hududlarda ilk temir davridagi ijtimoiy-siyosiy rivojlanishning ayrim muhim masalalarini yangicha yondashuv asosida izohlashga imkoniyat yaratadi. Ammo, shunga qaramasdan bu masala to‘liq echimini topmagan bo‘lib, xususan, O‘rta Osiyodagi eng qadimgi davlatlar shakllari va sanasi bilan bog‘liq bo‘lgan mavzular shular jumlasidandir.

Ilk temir davri O‘rta Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim o‘rin egallagan Sug‘diyona o‘lkasi turli qadimgi manbalarda Sug‘da, Sug‘uda, Sug‘diyona nomlari ostida eslatib o‘tiladi. Bu nomlarning kelib chiqishi va ularning ma’nosi haqida hozirchi aniq fikr yo‘q. Ayrim tadqiqotchilar (V.Tomashek) bu nomni eroncha “SUS” – “yonmoq, yaltiramoq, nur taratmoq” so‘zidan olingan desa, ayrimlari (O.Smirnova) bu “Gava sug‘uda” atamasi “hosildor vohalar

o‘lkasi” degan ma’noni beradi deb hisoblaydilar. Avestoning YAsht kitobida tilga olingan “Sug‘d makoni Gava” – Sug‘diyonaning eng qadimgi viloyati bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra (A.Sagdullaev), Gava (Gau) – “buqa”, “poda”, Qashqadaryo vohasi bilan bog‘lanadi. Bu so‘z viloyatning juda ko‘p geografik nomlarida takrorlanib saqlangan (Gavdara, Gauxona, Gaumurda, tog‘lar Gau, cho‘qqi Gau va boshqalar).

Hozirgi Qashqadaryo va Zarafshon vohalarini (Buxoro, Navoiy, Samarcand, Qashqardaryo viloyatlari, Tojikistonning Panjikent atroflari) o‘z ichiga oluvchi Qadimgi Sug‘diyona va Sug‘diylar haqida ilk yozma manbalarda ma’lumotlar deyarli kam. Avestoda viloyatlarning nomi ikki xilda ko‘rsatilgan – Gava Sug‘da va alohida Sug‘da. Gerodot esa Sug‘diylarni ikki marotaba – Ahamoniylar davlatining XVI satrap o‘lkasidagi xalqlarni sanab o‘tganda va forslarning qo‘shinlari safida jangchi – sug‘diylarning o‘rnini ko‘rsatib berganda tilgan olgan. Ammo tarixchi Sug‘d shaharlari, daryolari, tog‘lari, hududiy chegaralari haqida bizga hech qanday ma’lumotlar qoldirmagan. Ahamoniylar mixxatlari Sug‘diyona haqida asosan rasmiy darajada e’lon qiladilar va turli xil tarixiy muammolarni o‘rganishda ulardan foydalanish og‘ir kechadi. Gekatey, Ktesiy va Ksenofont asarlarida Sug‘diylar haqida ma’lumotlar yo‘q.

Aleksandr Makedonskiy davri va so‘nggi yunon-rim tarixshunoslari asarlarida tarixiy-geografik ma’lumotlar ancha keng berilgan. Sug‘diyonadagi alohida joylarda, viloyatlar, qal’alar – Nautaka, Ksenippa, Maroqanda, Bagi, Basileya – “podsho shahri”, Politemet-Zarafshon, “Oksiart, Sug‘d qoyasi” va boshqa xabarlar shular jumlasidandir.

Bu ma’lumotlar asosida turli fikrlarga ega bo‘lishi mumkin. Dastavval, mill. avv. IV asrga kelib, sug‘diylarning hududiy joylashuvi, ularning yashash uchun foydalangan asosiy erlarining chegaralari, daryo vohalari va viloyatlari aniqroq ko‘rinadi. Ammo, bu jarayonning tarixiy an’analari – sug‘diylarning yoyilishi, o‘troq vohalarining paydo bo‘lishi va shu joylarda yirik shahar markazlariga asos solinishi yanada qadimgi davrlarga borib taqaladi.

Qadimgi viloyatlarning joylashuv hududlari anchagina muammoli masala bo‘lib, tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, O‘rta Osiyoning janubiy viloyatlariga (jumladan, Sug‘diyonaga ham) ko‘chmanchilarning hujumi-bu hududlarda davlat uyushmalari paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin edi.

Arxeologik topilmalarning ma’lumot berishicha, Qashqadaryo havzasi, Surxon vohasi va SHimoliy Afg‘oniston hududlarida mil. avv. X-VIII asrlarga oid uncha katta bo‘limgan va mustahkamlangan o‘troq dehqonchilik manzilgohlari haqiqatdan ham ko‘chmanchilarning otliq kamonchilari hujumlariga dosh berolmas edilar. Ammo, bunday manzilgohlardan kuchli harbiy to‘qnashuvlar va siyosiy qarama-qarshiliklardan dalolat beruvchi yong‘in hamda vayrongarchilik izlari aniqlanmagan. Undan tashqari, bu hududlarda yangi erlar jadallik bilan o‘zlashtirilgan va o‘troq aholi bilan chorvador ko‘chmanchi aholi qo‘shnichilikda yashashgan (Zarafshon va Qashqadaryo quyi oqimlari).

SHuni alohida ta’kidlash lozimki, aholi soni va zichligining o‘sib borishi, hosildor er maydonlarining o‘zlashtirilishi va o‘troq manzilgohlar sonining oshib

borishi natijasida yaylovlar qisqarib, chorva emishiga talab ortib boradi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning jadallik bilan rivojlanishi aholi joylashuvining hayotiy zarur hududlarga bo‘linib ketishiga olib keladi. Bunday sharoitda chorvador aholining ma’lum qismi xo‘jalikning yarim o‘troq va haydama chorvachilik shakliga o‘tishga majbur bo‘ladilar. SHuning uchun ham O‘rtta Osiyodagi mill. avv. VI-IV asrlarga oid ko‘chmanchilar yodgorliklari o‘troq aholi hududlari chegaralarida (Orolbo‘yi, shimoliy Turkmaniston, Zarfshonning quyi oqimi, Pomir va boshqa) joylashganligi tasodifiy hol emas. A.Sagdullaevning fikricha, nisbatan yirik siyosiy uyushmalarning paydo bo‘lishiga O‘rtta Osiyo o‘troq va ko‘chmanchi aholisi o‘rtasidagi doimiy siyosiy qarama-qarshiliklar sabab bo‘ladi.

Aholi aralash joylashuvi hududlarida o‘troq viloyatlar siyosiy uyushmalarining shakllanishiga turtki bo‘lgan omillardan biri, O‘zbekiston janubidagi dasht hududlarda joylashgan ko‘chmanchi qabilalar hujumi xavfi edi. Mil. avv. VII-VI asrlarga kelib bunday hujumlar tez-tez bo‘lishi muqarrar edi. CHunki, O‘rtta Osyoning ko‘pgina tog‘ va dasht hududlarida -yilqichilik va chorvachilik keng tarqalib, ko‘chmanchilarning o‘zлari esa jangovar quronanishda katta muvaffaqiyatlarga erishib, jiddiy harbiy xavf tug‘dira boshlaydilar.

O‘rtta Osiyodagi eng qadimgi davlat uyushmalari haqida so‘z borar ekan, eng qadimgi shaharlarni ifodalovchi mustahkamlangan markazlarga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. CHunki, eng qadimgi shaharlar dastlabki davlatlarning markazlari sifatida shakllanadi va bu masala ko‘pgina tadqiqotchilar tomonidan maxsus ko‘rib chiqilgan, hamda rivojlanish taraqqiyotining turli davrlari bilan belgilangan.

Hozirgi kunga kelib olingan yangi ma’lumotlar asosida bu masalaga birmuncha aniqliklar kiritildi. Hususan, shuni alohida ta’kidlash lozimki, Qadimgi Baqtiriya va Sug‘diyona hududlarida I ming -yillikning boshlariga oid eng qadimgi rivojlangan shahar harobalari uchramaydi, ilk temir davri shaharlarining rivojlanishi esa mil. avv. VII-II asrlarga oiddir.

Mil. avv. VIII asrning oxiri – VII asrga kelib qadimgi O‘zbekiston hududidagi manzilgohlar rivojlanishida jadallik bilan o‘zgarishlar boshlanib, Baqtriya, Marg‘iyona va Sug‘diyona hududlarida o‘zida shaharsozlik belgilarini (mustahkam devorlar, saroylar, burjlar, xandaqlar, devorlardagi o‘q otish yo‘lklari va boshqa) aks ettiruvchi manzilgohlarning soni 20 tadan ziyodroq. Asosiy manzilgohlar esa (maydoni 5 gektardan kam) qishloq qo‘rg‘onlari, uncha katta bo‘lmagan alohida qal’alar va dehqonchilik qishloqlaridan iborat. SHaharlar turiga kiritish mumkin bo‘lgan, kattagina qo‘rg‘onli mustahkamlangan manzilgohlar ayrim qadimgi dehqonchilik vohalarida (Surhon, Qashqadaryo, Zarafshon havzalari va boshqa) bitta yoki ikktadan ko‘p bo‘lmagan.

Ilk temir davri Sug‘diyonada, alohida hududiy tartib guruhida bo‘lib markaz vazifasini bajargan bir necha manzilgohlar turlari mavjud edi. Bular maydoni 5 gektardan 15 gektargacha bo‘lib, tuman – voha markazi vazifasini bajaruvchi markazlar – Daratepa, Konimex, CHordara; maydoni 20 gektardan 80 gektargacha bo‘lgan viloyat markazlari vazifasini bajarishi mumkin bo‘lgan shaharlar – O‘zunqir, Erqurg‘on, Xo‘ja Bo‘ston; bir necha viloyatlar markazi vazifasini bajaruvchi shaharlar – Afrosiyob (Maroqanda) va Buxoro kabilardir.

Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda, hunarmandchilik muassasalari yirik manzilgohlar ichida markazlashib boradi. Bu manzarani Afrosiyob topilmalari tasdiqlaydi. Bunday manzilgohlar asta – sekinlik bilan hunarmandchilik, savdo va madaniy markazlarga aylanib boradi. Bu jarayonda qadimgi yo'llar nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlab o'tishimiz joizdir. Afrosiyob, O'zunqir, Erqurg'on kabi ko'hna shaharlar O'rta Osiyo shimoliy dasht hududlardan keluvchi yo'llar ustida joylashgan.

Tadqiqotchi SH.Odilov Sug'diyonada, xususan Buxoro va Zarafshon vohalarida topib tekshirilgan ilk temir davriga oid arxeologik ma'lumotlarni boshqa hududlar bilan solishtirib chuqur tahlili etadi. Buxoro hududlaridan topilgan "ahamoniylar davri" yodgorliklari uncha katta bo'limgan hududlarda joylashgan bo'lib, bu erlarning keng hududlarga yoyilgan etno-madaniy viloyat tarkibiga kiritish lozimki, ilk temir davrida bu hududlarda tashqi ko'rinishi bir xil bo'lgan dehqonchilik madaniyati shakllanadi. Bu etno-madaniy viloyat dastavval Amudaryo vohasi (Xorazm, Marg'iyona, Baqtriya), Janubiy Sug'd, markaziy Sug'dning bir qismi, Buxoro Sug'dining shimoli – g'arbiy va shimoliy – sharqiy hududlari, shuningdek, Ustrushona kabi tarixiy viloyatlarini o'z ichiga olgan.

Qadimgi Baqtriya hududlaridan ko'chib borish bevosita Amudaryo, Surxon, Qashqadaryo suv havzalari va ularning irmoqlari orqali bo'lib o'tgan. So'nggi bronza davridayoq Qashqadaryo yuqori oqimlarida mavjud bo'lgan madaniyat sohiblari tog'lar orqali Markaziy Sug'd (Samarqand) hududlariga etib keladilar. Zarafshon vohasiga kelsak, SH.Odilovning fikricha, Markaziy Sug'dning kattagina, qismi (bir tomondan Afrosiyob qo'hna shahri atroflari va Ko'ktepa, ikkinchi tomondan, Sarmishsoy va Konimex yodgorliklarigacha) so'nggi bronza va "ahamoniylar davri"da (mil. avv. IV asrning boshlarigacha) umuman o'zlashtirilmagan edi. Ammo, bizning fikrimizcha, aynan mana shu davrda Janubiy Sug'dning kattagina qismi o'troq dehqonchilik aholisi tomonidan egallanib, daryo vohalari va tekisliklar xaydama dehqonchilik aholisi tomonidan o'zlashtirilib, bu hududlar haydama dehqonchilikka ixtisoslashgan edi. Qo'shni Qadimgi Baqtriyaning kattagina hududlarida ham aynan mana shu jarayonni ko'zatishimiz mumkin.

SH.Odilov, G'arbiy Sug'dda mil. avv. VI-V asrlardagi qishloqlar paydo bo'lishini O'rta Amudaryo tomonidan aholining kirib kelishi bilan bog'laydi. Ko'pchilik tadqiqotchilar O'rta Osiyoda davlatchilik tarixining boshlanishi janubiy hududlarda boshlanib markaziy va shimoliy hududlarga yoyilgan deb hisoblanadi.

Arxeologik manbalarning ma'lumot berishicha, mil. avv. VII-VI asrlarga kelib O'rta Osyoning janubida ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy munosabatlar anchagina murakkablashadi. Bu o'rinda Qadimgi Baqtriya ma'lumotlarini keltirib o'tish joizdir.

Agar Midiya sultanatining sharqiy chegaralari SHimoliy Parfiya va Ariyani o'z ichiga olganligini hisobga oladigan bo'lsak, midiyaliklarning Baqtriyaga harbiy xavf tug'dirishi aniq edi va yana bir harbiy hujum havfi shimoldagi ko'chmanchi qabilalar bo'lib, bu holat Baqtriyada davlat uyushmasi paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin edi. Kir II ning O'rta Osiyoga yurishi-Ahamoniylarning Baqtriyada sak-massaget uyushmasi kabi jiddiy raqiblari mavjud bo'lganligining dalilidir. Forslar

O‘rta Osiyo janubiy vloyatlarini bosib olganlaridan keyingina, ya’ni, mil.avv. 530 -yilda sak – masagetlar ustiga yurish boshlaydilar. Demak, bu paytga kelib Baqtriya harbiy – siyosiy uyushmasi tarkibiga Baqtriyadan tashqari Marg‘iyona va Sug‘diyona ham kirgan edi.

Bizning fikrimizcha, O‘rta Osiyo hududlarida ilk davlat uyushmalarining paydo bo‘lishida harbiy-siyosiy omillardan tashqari ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar ham katta ahamiyatga ega edi. CHunki, siyosiy jihatdan shakllangan davlat yoki uyushma iqtisodiyotsiz taraqqiyot bosqichiga ko‘tarila olmaydi.

Eng so‘nggi arxeologik tadqiqotlar natijalarini tahlil etar ekanmiz, Qiziltepa (Surxondaryo), YOztepa (Turkmaniston), O‘zunqir, Erqo‘rg‘on (Qashqadaryo), Afrosiyob, Ko‘ktepa (Samarqand) kabi ko‘hna shahar va manzilgohlar sopol buyumlari va qurilish usullari bir-biriga nihoyatda o‘hshash ekanligining guvohi bo‘lamiz. Ammo, Erqo‘rg‘on, Kuchuktepa, Qiziltepa, YOztepadan topilgan mil. avv. IX-VII asrlarga oid buyumlarga o‘xshash buyumlar Xorazm hududlaridan shu paytga qadar topilmagan.

Demak, qurilish usullari va moddiy madaniyatdagi o‘zaro o‘xshashlik, mil. avv. I ming -yillikning boshlari Baqtriya, Marg‘iyona va Sug‘diyona hududlari o‘rtasida hech bo‘lmaganda etnik tarixiy – madaniy birlik mavjud bo‘lganligidan dalolat berib, bu o‘xshashlik savdo-sotiq munosabatlari, o‘zaro almashinuv va qadimgi savdo-tranzit yo‘llariga ham bog‘liq edi. Mil. avv. VI asrga kelib esa, Xorazm mustaqil davlat sifatida tashkil topadi. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, o‘zaro almashinuvda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Xorazmdagi ilk temir davri savdo-tranzit yo‘llari voha ichidagi ichki yoki ikkinchi darajadagi yo‘llar vazifasini o‘tar edi. Asosiy savdo yo‘llari esa Baqtriyadan Janubiy Sug‘d (Qashqadaryo), Markaziy Sug‘d (Samarqand) orqali Toshkent vohasi va Farg‘ona vodiysiga o‘tib ketardi.

Arxeologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, sug‘orma dehqonchilikning rivojlanishi va ixtisoslashgan hunarmandchilik natijasida bronza davridayoq O‘rta Osiyo hududlarida ijtimoiy tabaqlanish va mulkiy tengsizlik paydo bo‘ladi. Bu jarayon faqat ichki sabablarga bog‘liq bo‘lmay, YAqin SHarqdagi yuqori darajada rivojlangan an‘anaviy tarixiy-madaniy aloqalarga ham bog‘liq edi. Har bir jamoaning rivojlanishi uning ichki qonuniyatlaridan kelib chiqsa ham, dastlabki markazlardan bo‘ladigan tashqi ta’sir chetdagi viloyatlarning taqdirida katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin edi.

O‘zbekiston hududlaridan yangi arxeologik ma’lumotlar ilk davlat uyushmalari paydo bo‘lishini yanadi kengroq izohlash imkonini yaratadi. Bu ma’lumotlarga qaraganda, ilk temir davri umumiy jamoalardagi asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlarni bir necha kichik oiladan iborat uy jamoalari tashkil etgan. Manzilgohlar joylashuvining tashqi belgilariyoq katta oilali uy jamoalari ancha yirik uyushmalarga kirganligidan dalolat beradi. Boshqaruv tartibida katta oilalar jamoasi boshliqlari yoki uy hujayinlari, shuningdek, alohida qishloq qo‘rg‘onlarini boshqaruvchi eski jamoalar katta o‘rin tutgan. Har bir katta oila mumkin bo‘lgan qarindoshlik aloqalariga qaramasdan alohida uyg‘a, ishlab chiqarish buyumlariga ega bo‘lishgan, o‘zining qishloq hujalik mahsulotlari zahiralari va chorvalari bo‘lgan yoki o‘zining iqtisodiy jihatdan ta’minlay oladigan xo‘jalikni aks ettirgan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalarini solishtirib va umumlashtirib shunday xulosaga kelish mumkinki, Sug'diyona hududlariga odamlar eng qadimgi davrlardayoq kirib kelib, tog'oldi hududlari, daryo vohalari, keyinchalik esa, dasht hududlariga tarqaladilar. Bu hududlarda mavjud bo'lgan qo'lay tabiiy sharoit – ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratgan.

#### **4. O'rta Osiyoda Ahamoniylar davrida boshqaruv (mil.avv. VI-IV asrlar).**

Mil.avv. VI asrning o'rtalariga kelib shafqatsiz kurashlar natijasida Midiya podsholigi o'rnida Ahamoniylar davlati tashkil topadi. Ko'pchilik ilmiy – tarixiy adabiyotlarda Kir II Ahamoniylar davlatining asoschisi sifatida e'tirof etiladi. Ahamoniylarning Kir II, Kambiz, Doro I, Kserks kabi hukmdorlari qadimgi SHarqdagi juda ko'plab mamlakatlar ustidan o'z hokimiyatini o'rnatishni rejalashtirilganlar va shunday siyosat olib borganlar. Qadimgi dunyo mualliflari Gerodot, Ksenofont, Ktesiy, YUstin kabilarning ma'lumotlaridan xulosa chiqaradigan bo'lsak, Kir II mil.avv. 545-539 -yillarda SHarqiylar Eron va O'rta Osiyo viloyatlarini bosib oladi. Doro I davrida (mil.avv. 522-486 yy. ) Ahamoniylar sulolasi Hind vodiysidan O'rta Er dengiziga qadar bo'lgan keng hududga o'z hukmronligini o'rnatgan. Juda ko'p sonli davlatlar, viloyatlar, shaharlar va xalqlarni birlashtirgan Ahamoniylar sultanati tarixda birinchi yirik dunyo davlati hisoblanadi.

Ahamoniylar hukmdorlarining O'rta Osiy viloyatlarini bosib olishi ilmiy-tarixiy adabiyotlarda keng yoritilgan va alohida mavzu hisoblanadi. SHuning uchun ham ushbu bo'limda davlatchilik tarixi bilan bevosita bog'liq bo'lgan Ahamoniylar davlatining tuzilishi, boshqaruv tartibi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot, bu davr shaharlari masalalariga batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

**Markaziy boshqaruv organlari.** Ahamoniylar davlatining oliy hokimiyati tepasida **shohlar shohi-shahanshoh** turgan. Hokimiyat ierarxiyasida fors zodagonlarining oila boshliqlari, asosiy o'rin egallaganlar. SHahanshoh saroyida Kengash mavjud bo'lib, bu kengashga fors zodagonlarining oila boshliqlari, yuqori martabali amaldorlar, noiblar, saroy amaldorlari kirganlar. Davlat ahamiyatiga molik bo'lgan barcha masalalar ushbu kengashda ko'rib chiqilsada, hal qiluvchi qarorni shahanshoh qabul qilgan.

SHohlar shohidan keyingi o'rindagi ikkinchi shaxs **xazarpat (mingboshi)** deb atalan. U podsho gvardiyasi va davlat boshqaruvida shahanshohning asosiy yordamchisi hisoblangan.

Ahamoniylar davlatining bosh ma'muriy markazi So'za shahri edi. Bu erda shoh devonxonasi mavjud bo'lib, unda barcha davlat hujjatlari-shahanshoh farmonlari, nomalar, farmoyishlar, ijtimoiy-iqtisodiy hayotga doir hujjatlar saqlangan. SHoh devonxonasi boshlig'i **dapirpant (mirzo boshi)** deb atalan. Uning qo'l ostidagi devonxonada bosh xazinachilar, hisobchilar, huquqshunoslar, mirzalar kabilar xizmat qilganlar.

**Hududiy bo'linish.** Mil.avv VI asrlarning o'rtalarida tashkil topgan ulkan ahamoniylar davlati tarkibiga hozirgi Eron, Afg'oniston, O'rta Osiyoning katta qismi, SHimoliy Hindiston, YAqin SHarq, Kichik Osiyo, Misr kabi hududlar kirgan edi. Bu ulkan davlat ma'muriy-qaram o'lkalar- satrapiyalarga bo'lingan edi.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, bu an'ana Midiya davlatidan qabul qilingan bo'lib, Doro I davrida ma'mariy boshqaruvda islohatlar o'tkazilib, butun davlat 20 ta ma'muriy-qaram satrapiyalarga bo'linadi. Ularni **satraplar** (shahanshoh noiblari) boshqargan. Satrapiyalar ancha yirik bo'lib, ayrim hollardi bir necha o'lka va viloyatlarni birlashtirgan. Misol uchun, Parfiya, Girkaniya, Oriylar o'lkasi, Xorazm va Sug'diyona bitta satrapiya hisoblangan.

Satrapiyalarning chegaralari doimiy o'zgarib turgan. Ta'kidlash lozimki, satrapiyalar hududlardagi xalqlarning etnik kelib chiqishiga qarab emas, balki hududlarning iqtisodiy salohiyatiga qarab tashkil etilgan. Satraplar asosan forslardan shahanshoh tomonidan tayinlangan.

Satrapning saroyi va boshqaruv apparati qisqartirilgan ko'rinishda shahanshoh saroyi va markaziy boshqaruv apparatini takrorlagan. Satrapning ikkita yordamchisi, devonxonasi va mirzalari bo'lган. Satrap o'ziga berilgan hududlarning bosh qozisi ham hisoblangan. Satraplarning faoliyati doimiy ravishda markazdan nazorat qilib turilgan.

**Qo'shinlar.** Ahamoniylarda asosini 10 ming qo'shindan iborat polk tashkil etuvchi muntazam "o'lmas" armiya mavjud bo'lган. Armiyaning oliy bosh qo'mondoni shahanshoh hisoblangan. Undan kiyungi o'rinda xazarpat-mingboshi turgan, Qo'shinlar quyidagi qismlardan iborat bo'lган: 1- "o'lmas" polk; 2- piyoda qushinlar; 3-otliq suvoriylar; 4-satrapiyalar qo'shinlari; 5-yunon yollanma qo'shinlari; 6-ko'ngillilar qo'shinlari. Qo'shinlar 10,100, 1000 va 10000 kishilik qismlarga bo'lingan bo'lib, har bir qismning o'z boshlig'i bo'lган. Shahanshohning shaxsan o'zi har -yili bir marta qo'shnlarni ko'rikdan o'tkazib turgan.

Butun davlat hududi 4 ta harbiy okrugga bo'lingan. Har bir okrugning harbiy boshlig'i bo'lib, u bevosita shahanshohga bo'ysungan. Bo'ysundirilgan o'lklar va chegara tumanlarida harbiy garnizonlar joylashtirilgan. Harbiy boshliqlarning deyarli barchasi forslardan tayinlangan.

**Soliqlar va majburiyatlar.** Gerodot ma'lumotlariga ko'ra, ulkan Ahamoniylar sultanati alohida viloyatlar (o'lklar) – satrapiyalarga bo'lingan bo'lib, ularning soni 20 ta edi. Har bir satrapiya har -yili ma'lum miqdorda soliq to'lab turishi shart edi. Soliqlarning miqdori ko'p hollarda kumush talant (talant – pul birligi, bir talant 30 kg kumushga teng bo'lган) bilan belgilangan. Soliqlar kelib tushishini tizimga solish uchun Doro I yagona tanga tartibini joriy etadi. Bu tartibning asosini og'irligi 8,4 g keladigan oltin darik tashkil etardi. Oltin darikni bir donasini og'irligi 5,6 g bo'lган 20 ta kumush tangaga almashtirish mumkin bo'lган. Oltin darik faqat podsho tomonidan, kumush tangalar esa ayrim viloyatlar hukmdorlari tomonidan zarb etilgan.

Qaram o'lklar pul solig'idan tashqari mahsulot bilan ham soliqlar to'laganlar. Ushbu soliqlar hisobidan Persepolda, So'zada va Ekkatanda fors podsholarining hashamatli saroylari qad ko'targan. Misol uchun, So'zadagi saroyni qurish haqida Doro I yozuvlarida shunday xabar beriladi: «Bu erda ishlatalgan oltin Lidiya va Baqtridan keltirilgan. Ko'k tosh «kapa-utaka» (lojuvard) va «sinkabrush» (yarim qimmatbaho tosh-serdolik) Sug'ddan keltirilgan. «Axshayna» toshi (fero'za) Xorazmdan keltirilgan». SHuningdek, Gerodot Ahamoniylar davridagi yana bir

soliq turi – sun’iy ko‘llardan dalalar uchun olinadigan suv puli haqida ham ma’lumot beradi. Tarixchining ta’kidlashicha, ko‘llarning to‘g‘onini ochgani uchun fors podshosi «odatdagi soliqdan tashqari katta pul oladi».

Ahamoniylar davlatida majburiy harbiy xizmat ham muhim ahamiyatga ega edi. Elefantin orolidagi (Misrning janubiy chegaralari yaqinida) garnizon arxividan ma’lumki, bu erda mil.avv. V asr oxirida xorazmlik jangchi Dargamon xizmat qilgan. Sak jangchilar haykalchalarining topilishi Misrdagi yirik harbiy bazalardan biri bo‘lgan forslarning Memfis garnizoni tarkibida sak otliqlari ham bo‘lganligidan guvohlik beradi. larga qarshi chiqqan Kserks qo‘sishlari tarkibini sanab o‘tar ekan Gerodot, baqtriylar, sak-amorglar, parfiyonlar, xorazmiylar, Sug‘diylar va saklarni ham tilga oladi.

**Dehqonchilik. Sun’iy sug‘orish.** Juda ko‘pchilik tadqiqotchilar O‘rta Osiyoning o‘troq vohalaridagi sug‘orish tartibida mil.avv. VI-IV asrlarda sezilarli o‘zgarishlar bo‘lib o‘tganligini e’tirof etadilar. Bu davrda ko‘p joylardagi to‘planib qolgan suvlardan foydalaniladigan mavsumiy tabiiy sug‘orish o‘rnini keng hududlarni sug‘orish imkoniyatini beruvchi yirik magistral kanallar tartibi egallaydi. Bunday o‘zgarishlar natijasida nisbatan kengroq hududlarni o‘zlashtirish imkoniyatlari paydo bo‘ladi. O‘rta Osiyoning deyarli barcha tarixiy-madaniy viloyatlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida o‘troq aholi tomonidan yangi erlarning o‘zlashtirilganligi ko‘zatiladi.

SHimoliy Baqtriya hududlarida bu davrda Surxon va Kobadiyon vohalari keng miqyosda o‘zlashtirilib, o‘ng qirg‘oq Amudaryo irmoqlaridan magistral kanallar o‘tkaziladi. Vaxsh vohasida Bolday kanali qazilib, uning atroflarida mil.avv. V-IV asrlarga oid manzilgoh aniqlangan. Xorazm hududlarida, chap qirg‘oq Amudaryodagi Sariqamish havzasida joylashgan Ko‘zaliqir yaqinida Ahamoniylar davriga oid yirik dehqonchilik vohasi aniqlangan. Bu erdan o‘sha davrga oid bir nechta kanallar aniqlangan.

Ta’kidlash joizki, Ahamoniy podsholari va satraplari qishloq xo‘jaligining rivojlanishiga, avvalo, dehqonchilikka katta e’tibor berib turganlar. Ksenofontning xabar berishicha, «podsho o‘z mamlakatining ayrim qismlarini o‘zi aylanib chiqadi, ayrim qismlariga o‘z ishonchli odamini yuboradi. Agar hokimlar o‘zlashtirilib obod etilgan, bog‘-rog‘lar barpo etilib ekinlar ekilgan erlarni ko‘rsatsalar ularga yana yangi erlar qo‘sib berilib, turli mukofotlar in’om etiladi». O‘rta Osiyodagi dastlabki korizlar er osti sug‘orish kanallari ham Ahamoniylar davrida paydo bo‘ladi. Polibiy salavkiylar hukmdori Antiox III ning Parfiya dashtlari orqali yurishini ta’riflar ekan, bu erda sug‘orish ishlari quduqlari bo‘lgan bir nechta er osti kanallari orqali amalga oshirilib ular «forslar davrida» bunyod etilgani haqida ma’lumot beradi.

Mil.avv. VI-IV asrlar sug‘orish inshootlari takomillashuvi bilan birga O‘rta Osyo qishloq xo‘jaligida dehqonchilik taraqqiyotiga sezilarli turtki bergen temir buyumlardan foydalanish ham keng tarqaladi. SHimoliy Baqtriyadagi Qizilcha 6, Xorazmdagi Ding‘ilja va Ko‘zaliqir, Sug‘diyonadagi Afrosiyob va Daratepa hamda boshqalardan topilgan temir buyumlar shu jarayondan dalolat beradi.

Bu davrda O‘rta Osyo o‘troq tarixiy-madaniy viloyatlari xo‘jaligi doirasida chorvachilik ham taraqqiy etadi. Xo‘jalikning bu turi katta va kichik daryolar

havzalari hududlarida, tog‘ va tog‘ oldilarida, dasht chegara hududlarida ayniqsa jadallik bilan rivojlanadi. Qadimgi Xorazmdagi Ko‘zaliqirdan mil.avv. VI-IV asrlarga oid hayvonlar suyaklarining topib tadqiq etilishi bu erda xo‘jalikning asosini chorvachilik tashkil etganligidan dalolat beradi. Persepol tasvirlarida ham ko‘pgina O‘rta Osiyo halqlari fors podsholariga soliq sifatida turli hayvonlarni etaklab kelayotganligining tasvirlanishi ham tasodifiy hol emas.

**Hunarmandchilik.** Mil.avv. VI-IV asrlar O‘rta Osiyo viloyatlarida hunarmandchilik ishlab chiqarish, xususan, sopol hunarmandchiligi yuqori darajada rivojlanadi. Kulolchilik charxida tayyorlanib maxsus xumdonlarda pishirilgan sopol idishlar ko‘pchilik O‘rta Osiyo viloyatlariga xos shakllarga ega edi. Bu o‘rinda silindrsimon va silindr konussimon idishlarning keng tarqaganligini ta’kidlash joizdir. Bunday ko‘rinishdagi idishlar Baqtriyadagi Balx, Kobadiyon, Boldaytepa, Talashkan, Qiziltepa, Sug‘diyonadigi Afrosiyob, Xo‘ja Bo‘ston, O‘zunqir, Sarmish, Xorazmdagi Ko‘zaliqir, Qal’aliqir, Ding‘ilja, Marg‘iyodagi YOzdepa va Govurqal’alardan topib o‘rganilgan. Metallarni badiiy jihatdan qayta ishslash uslublari yuqori darajada bo‘lganligi haqida Amudaryo xazinasi buyumlari hamda «yovvoyi skif uslubi» ga oid yodgorliklar qimmatli ma’lumotlar beradi. Kam sonli bo‘lsa-da, hunarmandchilikning boshqa turlari – to‘qimachilik, toshga ishlov berish, suyakni qayta ishslashga oid bo‘lgan topilmalar topib o‘rganilgan.

O‘troq dehqonchilik va ko‘chmanchi chorvador turmush tarzining yonmayon yoki birgalikda kechishi bilan bog‘liq mil.avv. I ming -yillik O‘rta Osiyo uchun xos bo‘lgan mehnat taqsimoti – savdo-sotiqning rivojlanishiga olib kelgan hamda mahsulot xususiyatiga ega bo‘lgan hunarmandchilik ishlab chiqarishning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Ko‘pgina davlatlarning ulkan Ahamoniylar saltanati tarkibiga kirishi, avvalo, tashqi savdoning taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatdi. Ammo, Ahamoniylar davri O‘rta Osiyoga keltirilgan yoki bu hududlardan olib chiqilgan mahsulotlar haqida juda kam ma’lumotlar saqlangan. SHunga qaramasdan, Kichik Osiyodagi Efes shahridan Baqtriyaga, undan Hindistonga ketuvchi yo‘l haqidagi ma’lumotlar O‘rta Osiyoning Ahamoniylar davlatining g‘arbiy viloyatlari bilan savdo aloqalari olib borganligi tasdiqlaydi. Sug‘diyonadan va ayniqsa Baqtriyadan topilgan tangalarga qarab xulosa chiqaradigan bo‘lsak, mil.avv. VI-IV asrlar O‘rta Osiyoga nafaqat markaziy ahamoniylar hokimiyati hukmdorlari zarb etgan tangalar balki, Kichik Osiyo va yunon tangalari ham muomalada bo‘lgan.

**Manzilgohlar va me’morchilik.** O‘tgan asrning 30-yillarida Ahamoniylar davri madaniy qatlamlari faqat Janubiy Tojikiston hududlaridagina ma’lum edi. Ikkinci jahon urushidan so‘ng mil.avv. VI-IV asrlarga oid yodgorliklar ko‘pgina hududlarda aniqlanib, tadqiqotlar ko‘لامи kengaydi. Hozirgi kunda bu davrga oid manzilgohlar nafaqat Janubiy Turkmaniston, balki SHimoliy va Janubiy Baqtriyadan, Sug‘diyonadan, Parfiya va Marg‘iyonadan, Xorazmdan topib o‘rganilgan bo‘lsa, Farg‘onadan, Oloydan, SHarqiy Pomirdan hamda Orolbo‘yidan ko‘mish marosimiga oid yodgorliklar topib tekshirilgan.

Bu davrga oid manzilgoh va ko‘hna shaharlar me’morchiligi Janubiy Turkmanistonda nisbatan ko‘proq o‘rganilgan. Bu hududlardagi eng yirik ko‘hna shahar Marvdagi Govurqal’a hisoblanadi. Govurqala o‘lchamlarining yig‘indisi 7,5 km. ga teng. Ahamoniylar davri Marvning markazi Govurqala shimoliy tomonining

markazida joylashgan Erkqala istehkomi bo‘lgan. Mil.avv. I ming -yillik o‘rtalarida ushbu istehkom baland loy devor bilan o‘rab olinadi. Erkqal’aning markazida yirik me’moriy inshootlar – hukmdor saroyi va diniy majmua qad ko‘taradi. Istehkom xom g‘ishtdan bunyod etilgan mustahkam poydevor ustiga qurilib, yagona darvozasi shahar tomonga qaratilgan.

Marv vohasining qadimgi markazida Ahamoniylar davriga oid YOzdepa manzilgohi ochib o‘rganilgan. YOzdepa birmuncha ilgariroq davrda paydo bo‘lgan bo‘lib, mil.avv. I ming -yillik o‘rtalarida o‘zining avvalgi harbiy-ma’muriy ahamiyatini yo‘qota boshlaydi. Ammo, YOzdepa manzilgohi butunlay yo‘qolib ketmaydi va qazishmalar natijasida bu erdan to‘g‘ri burchakli g‘ishtlardan qad ko‘targan devorlar, inshootlar qoldiqlari aniqlangan.

#### **4.Aleksandr Makedonskiy, Salavkiylar, hamda Yunon-Baqtriya davrida davlat boshqaruvi.**

Ulkan Ahamoniylar sultanati o‘zining g‘arbga qilgan ekspansiyasi natijasida yunon davlatlari bilan to‘qnashadi va buning natijasida mil.avv. V asrning birinchi choragida yunon-fors urushlari boshlanadi. Mil.avv. V asr davomida betinim urushlar, saroydagi fitnalar, bosib olingan xalqlarning ozodlik uchun kurashlari Ahamoniylar davlatini ancha zaiflashtirib qo‘ygan edi. Mil.avv. IV asrining o‘rtalaridan boshlab esa, Bolqon yarim orolidagi shahar-davlatlar kuchaya boshlaydi. Bu davrda Makedoniya podshosi Filipp II Bolqon yarim orolida o‘z mavqeini mustahkamlab olib Ahamoniylarga qarshi kurashga tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi.

Filipp II o‘z davriga mos harbiy islohotlar o‘tkazib tartibli va yaxshi qurollangan qo‘shin tuzishga muvaffaq bo‘ldi. Mil.avv. 336 -yilda Ahamoniylar davlatiga qarshi kurash boshlandi. Ammo, Filipp II ning o‘ldirilishi tufayli bu kurash to‘xtab qoldi. O‘sha -yili taxtga Filipp II ning o‘g‘li 20 yoshli Aleksandr o‘tirdi. U Ahamoniylarga qarshi urushga jiddiy kirishib Kichik Osiyodan Parmenion boshliq qo‘shinlarni chaqirtirdi. Harbiy kengash to‘zib quruqlikda va suvda harakat qilayotgan qo‘shinlar oldiga aniq vazifalar qo‘ydi.

Mil.avv. 334 -yil mayida (Graniq daryosi yonida), 333 -yil oktyabrida (Gavgamela, SHimoli-sharqiy Mesopotamiyada) bo‘lgan janglarda fors qo‘shinlari to‘la mag‘lubiyatga uchradi. SHundan so‘ng Aleksandr uchun Ahamoniylar davlatining markazlariga yo‘l ochilgan edi. Aleksandr dastavval Bobilni, so‘ngra So‘za, Persepol, Pasargada shaharlarini egallab fors podsholarining xazinalarini qo‘lga kiritdi. So‘nggi Ahamoniy hukmdori Doro III avval Midiyaga, keyin esa Baqtriyada qochib ketdi. Kursiy Rufning ma’lumotlariga ko‘ra Baqtriyaga Doro III ga qarshi fitna uyushtirilib u o‘ldiriladi va fitnaga boshchilik qilgan Bess o‘zini Ahamoniylar podshosi deb e’lon qiladi. Ammo, Bess Aleksandrga harbiy qo‘shinlarni qarshi qo‘ya olmadi.

Mil.avv. 329 -yilning bahoriga qadar Aleksandr Ariya, Drang‘iyona, Araxosiya kabi viloyatlarni egallab Oks-Amudaryo bo‘ylariga chiqib keladi. Arrian va Kursiy ma’lumotlariga ko‘ra bu paytda daryo juda sersuv bo‘lib, to‘lib oqardi. Amudaryodan kechuv joyini tadqiqotchilar Kelif atroflari, CHushqago‘zar, Termez atroflari va SHo‘rob deb hisoblaydilar. Nima bo‘lganda ham, Aleksandr qo‘shinlari

qoplarga somon-xashak to‘ldirib, ular orqali besh kun davomida Amudaryodan kechib o‘tganligi haqida yozma manbalarda ma’lumotlar saqlangan.

Aleksandr qo‘shinlari daryodan o‘tgach Bessni ta’qib etib «Sug‘d viloyati Navtakaga» yo‘l oladilar (Avval Ptolomey Lag boshchiligidagi ilg‘or qism, keyin asosiy kuchlar). Sug‘d erlarida Spitaman boshliq mahalliy sarkardalar Aleksandrni to‘xtatib qolish maqsadida Bessni asir olib unga topshiradilar. Ammo, Aleksandrda harbiy yurishlarni to‘xtatish niyati yo‘q edi. Navtakadan so‘ng yunon-makedon qo‘shinlari Sug‘diyonaning poytaxti Smarakandaga yurish qilib uni egallaydilar. Kursiy Ruf ma’lumotlariga ko‘ra yunon-makedonlar «shaharda o‘zlarining kichik gornizonlarini qoldirib, yaqin atrofdagi qishloqlarni yondirib va vayron etib», shimoli-sharqqa tomon harakat qila boshlaydilar. Jizzax va O‘ratepa oralig‘idagi tog‘li hududlarda yunon-makedon qo‘shinlari qattiq talofat ko‘radilar. Aleksandrning o‘zi ham og‘ir yarador bo‘ladi. SHunga qaramasdan tog‘li hudud aholisini qiyinchilik bilan mag‘lub etgan yunon-makedonlar dasht ko‘chmanchilari saklar va Sug‘diylar o‘rtasida chegara bo‘lgan YAksart-Sirdaryoga tomon harakat qiladilar.

Yunon-makedonlar Yaksart bo‘yida to‘xtab bu erdagiga shaharlarga o‘z harbiy qismlarini joylashtira boshladilar. Ko‘p o‘tmay bu shaharlar aholisi Aleksandrga qarshi qo‘zg‘alon ko‘taradilar. Daryoning o‘ng qirg‘og‘idagi saklar ham o‘z qo‘shinlarini bir erga to‘play boshlaydilar. Xuddi shu paytda Baqtriya va Sug‘diyona hududlarida ham Aleksandrga qarshi qo‘zg‘olonlar boshlanib ketadi.

Aleksandr dastlab Yaksart bo‘yida o‘z mavqeini mustahkamlashga qaror qilib, bu erdagiga qo‘zg‘olonlarni bostirdi. Sug‘diyonada mil.avv. 329 -yil ko‘zida Spitaman boshchiligidagi qo‘zg‘oloni (Maroqandda) bostirish uchun sarkarda Farnux boshchiligidagi qo‘shinlarni jo‘natdi. O‘zi asosiy kuchlar bilan saklar ustiga yurish qildi. Ammo, bu yurish muvafaqiyatsiz tugadi.

Farnux boshchiligidagi Maroqandaga jo‘natilgan qo‘shinlar Spitaman tomonidan mag‘lubiyatga uchradi. Aleksandrning o‘zi asosiy kuchlari bilan Sug‘diyonaga qaytishga majbur bo‘ldi. O‘rta Osiyo hududlarida ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlar yunon-makedon zulmidan ozod bo‘lishga qaratilgan bo‘lib, Aleksandrning «varvar» larni osonlikcha bosib olmoqchi bo‘lgan rejalarini puchga chiqardi.

Sug‘diyonaning tog‘li hududlaridagi bosqinchilar qadami etmagan joylarda qo‘zg‘olonchilar yashirinib olgan edilar. Sug‘diyonaning deyarli barcha aholisi Spitaman tomonida bo‘lib, uning g‘alabalariga katta umid bog‘lagan edilar. Aleksandr esa, mil.avv. 329-28 -yillar qishlovinci Baqtriyada (ba’zi manbalarda Navtakada deyiladi) o‘tkazar ekan vaqtini behuda ketkazmadidi. U bu erda Xorazm hukmdori Farasman bilan mo‘zokaralar olib bordi. Natijada Aleksandrning Xorazmga yurish rejasi to‘xtatildi.

Mil.avv. 328 -yilning bahoridan yunon-makedonlarga qarshi kurash yana avj oldi. Mahalliy aholi yirik shaharlar, qal’alar, tog‘li hududlarda kurashni davom ettirdilar. Ahvol jiddiy lashganidan xavotirga tushgan Aleksandr 30 ming qo‘shinini 5 guruhga bo‘lib, bu guruhlarga ishonchli sarkardalar – Gefestion, Ptolemey Lag, Perdikka, Ken va Artabozlarni boshliq etib tayinladi.

Yunon-makedonlarning shafqatsiz urushlari natijasida ko‘pgina mahalliy aholi qirilib ketdi. Qolganlari ham tog‘li hududlarda kurashni davom ettirdilar. Bu o‘rinda Spitamanning jasorati haqida to‘xtalish joizdir. U doimo raqiblarining zaif joylarini izlar va ularga aynan o‘sha joylardan zARBalar berar edi. Spitaman Sug‘diy va baqtriyalik zodagonlar, hamda saklar bilan ittifoqlikda dushmanga qarshi kurashishga harakat qildi. Manbalarning ma’lumot berishicha mil.avv. 328 -yilning oxirida Spitaman o‘z vatandoshlari xiyonatining qurboni bo‘ladi. Spitaman tajribali davlat arbobi va sarkarda bo‘lib, u bosqinchilarni Ona – yurtidan haydab chiqarishi uchun imkoniyati bo‘lgan barcha tadbirni ko‘rdi, chorallardan unumli foydalanishga harakat qildi. U mohir sarkarda bo‘lib dushmanning kichik hatosidan ham unumli foydalanar va uning zaif tomonlarini topishga harakat qilardi. Ammo, Aleksandr harbiy kuch-qudrati jihatdan Spitamandan ustun edi.

Spitaman halok bo‘lganidan so‘ng asosan tog‘ qal’alari qo‘zg‘olon o‘choqlariga aylanadi. YOzma manbalarda eslatilgan «Sug‘d qoyasi» (yoki «Arimaz qoyasi»), «Xorien qoyasi» shular jumlasidandir.

Aleksandr Makedonskiy mahalliy aholini kuch bilan engish nihoyatda og‘ir ekanligini anglab etganidan so‘ng turli yo‘llar bilan ularga yaqinlashishga qaror qildi. Mahalliy xalq vakillariga nisbatan siyosatini tubdan o‘zgartirdi. Xususan, zardushtiy qohinlariga birmuncha erkinliklar berib o‘zi ham bu dinni qabul qildi. Qo‘zg‘olon boshliqlari Oksiart, Sisimir, Xorien kabilarni avf etib, mol-mulklarini qaytarib berdi. Hatto, qo‘zg‘olonga qatnashganlarga mukofotlar tarqata boshladi. Mahalliy aholi bilan qarindoshlik munosabatlarini o‘rnatib Oksiartning qizi go‘zal Roksanaga (Rohshanak) uylandi. Natijada mahalliy zodagonlarning deyarli barchasi Aleksandr hokimiyatini tan olib uning xizmatiga o‘tib ketdilar. Mil.avv. 327 -yilning oxirida Sug‘diyonadagi qo‘zg‘oloning so‘nggi o‘choqlari ham bostirildi.

Yunon-makedon bosqinchilariga qarshi uch -yil davomida kurash olib borar ekan, O‘rtal Osiyo xalqlari mislsiz jasorat namunalarini ko‘rsatdilar. Ular yunonlar o‘ylaganidek, «varvarlar» va madaniyatdan orqaga qolgan emas, balki o‘z davrining yuksak harbiy san‘ati va madaniyatiga ega ekanliklarini namoyish etdilar. Aleksandr qo‘sishnlari butun SHarq davlatlarini o‘zlariga bo‘ysundirganlarida Sug‘diyona va Baqtriyadagi kabi qattiq qarshilikka uchramagan edilar. Bu holni Aleksandr tarixini yozgan ko‘pgina qadimgi davr tarixchilari ham e’tirof etadilar.

O‘zbekiston hududlarida yashagan mahalliy aholi o‘z ozodligi va mustaqilligi yo‘lida bir tan-bir jon bo‘lib harakat qilganlar. Ammo, kuchlar nisbati va harbiy texnikaning teng emasligi ko‘p hollarda bosqinchilar ustunligini ta’milagan. SHunga qaramasdan bunday holatlar davlatchilik tarixida muhim iz qoldirgan.

Shunday qilib Xorazm, Choch (Toshkent vohasi), Farg‘ona va saklar yurti Aleksandrdan mustaqil bo‘lib qoladi. Sug‘diyona, Baqtriya, Marg‘iyona va Parfiya Aleksandrning davlatiga qo‘silib, keyinchalik ularning hududida ayrim yunon-makedon davlatlari vujudga keladi.

Aleksandr bosib olgan hududlarda uning **boshqaruv faoliyati** dastlab Gretsiyaning ayrim demokratik an‘analariga (harbiy yo‘dboshchilar kengashi, qo‘sishlar yig‘ini) asoslangan edi. Qo‘sishlar yig‘inida sud ishlari ko‘rib chiqilib,

jinoyat va jazo masalalari qat'iy muhokama qilingan. Jinoyat turlari ichida eng og'irlari-podshoga qarshi fitna, xiyonat, isyonga da'vat etish hisoblanib, ushbu harkatlar uchun yagona jazo – o'lim jazosi belgilangan. Qatl etish haqidagi qaror qo'shinlar yig'inida qabul qilingan. SHarqqa qilgan yurishlari tugaganidan so'ng Aleksandr bu hududlarda barpo etgan o'z sultanatida Ahamoniylar davlat boshqaruvidagi idora-tartib usullarini o'zgartirmagan. YA'ni, satraplik boshqaruvi va soliqlar yig'ib olish tizimi o'zining ilgarigi ahamiyatini saqlab qolgan.

O'rta Osiyoda istilo etilgan viloyatlar va shaharlarni boshqarish uchun yunon-makedon sarkardalari bilan birga mahalliy hokimlar ham jalb etilgan. YOzma manbalarning ma'lumot berishicha, Aleksandr davrida mahalliy aholi vakillaridan Fratafarn-Girkaniyada, Artaboz-Baqtriyada, Oksiart va Xorien-Sug'diyona viloyatlariga hokimlik qilganlar. Mil.avv. 325 -yilda Oksiart qo'l ostiga Paropamis-Hindiqush viloyati topshiriladi.

Mil.avv. 325-324 -yillarda makedonlar yaroq-aslahalari bilan qurollangan mahalliy aholi qo'shinlari yunon-makedon armiyasi safiga jalb etiladi. Aleksandr mahalliy hokimiyat vakillariga nisbatan maqsadli siyosat olib borgan. Mil. avv 324 -yilda So'za shahrida o'n mingta yunon-makedon askarlari mahalliy ayollarga uylanadilar. Aleksandrning o'zi va sarkarda Gefestion Doro III ning qizlarini hamda sarkarda Salavka Spitamanning qizi Apamani xotinlikka oladilar.

A. Sagdullaevning fikricha, bunday yondoshuv aniq siyosiy maqsad – yangi davlatchilik barpo etish g'oyasi bilan bog'langan edi. Bu davlat nafaqat turli halqlarning siyosiy birlashmasi bo'libgina qolmay, balki uning kelajakda makedonlar va SHarq zodagonlari qon-qarindoshligi vorisligiga tayangan davlatga aylanishi rejalashtirilgan edi.

Ko'plab xalqlar va mamlakatlarni birlashtirib yagona davlat barpo etish g'oyasi, insonlarni umumiyl ong va yagona tafakkurga bo'ysundirish g'oyasi yangilik emas edi. Bunday g'oyani qadimgi fors podsholari ham o'z oldilariga maqsad qilib qo'yganlar va oqibatda mil.avv. 490 -yilda yunon-fors urushlari boshlangan.

Aleksandrning harbiy yurishlari SHarq va G'arb o'rtasidagi keng savdo-sotiq va madaniy aloqalarning rivojlanishiga olib keldi. Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi natijasida mahalliy va yunon madaniyatining qo'shilish jarayoni boshlanadi. Bu jarayonning ta'sirini moddiy madaniyatning rivojlanishida, qurilish va me'morchilik, kulolchilik va tasviriy san'at, yangi yozuvlarning tarqalishi, tangashunoslik hamda diniy e'tiqodlarda ko'rish mumkin. YUnionlar o'z navbatida qadimgi SHarqning juda ko'plab madaniy yutuqlarini qabul qiladilar hamda mahalliy aholi madaniyatiga ham ta'sir o'tkazadilar. Aleksandr davridan boshlab, bir necha asrlar davomida, SHarqning siyosiy tarixi (davlat tizimi, boshqaruv usullari, qonunlar va huquq) da turli an'analarning qo'shilib rivojlanganligini ko'zatishimiz mumkin.

### **Salavkiylar davlati**

Mil.avv. 323 -yilda Aleksandr Bobilda to'satdan vafot etdi. Uning vafot etishi bilanoq davlatdagи markazdan qochuvchi kuchlarning harakatlari faollashuvi natijasida Aleksandr to'zgan davlat parchalanib uning o'rniga nisbatan barqarorroq

bo‘lgan davlat uyushmalari paydo bo‘ladi. Ta’kidlash lozimki, Aleksandr davlatining parchalanishi va uning xarobalarida yangi davlatlar tizimining paydo bo‘lishi tinchlik yo‘li bilan emas balki, Aleksandrning Makedonskiyning yaqin sarkardalari – diadoxlar o‘rtasidagi tinimsiz urushlar tufayli bo‘lib o‘tdi. Diadoxlar o‘rtasida 40 -yildan ziyodroq davom etgan jangu-jadallar natijasida Aleksandr mulklari bo‘lib olinadi.

Aleksandr Makedonskiy mulklariga egalik qilish shu bilan yakunlandiki, mil.avv. 306 -yilda nisbatan kuchli bo‘lgan diadoxlar – Antigon Birko‘zli (Odnoglaziy), Demetriy Poliorket, Ptolomey Lag, Lazimax, Salavka, Kassandrlar o‘zlarini podsho deb e’lon qildilar hamda bu bilan Aleksandr davlati xarobalarida o‘z davlatlarini barpo etishni ma’lum qildilar. SHu tariqa tarix sahnasida G‘arb va SHarq an’analarni uyg‘unlashtirgan ellistik davlatlar paydo bo‘ldi. Ana shunday yirik davlatlardan biri-Salavkiylar davlati edi.

O‘zining eng gullab – yashnagan davrida bu davlat ilgari Aleksandr sultanatiga kirgan katta hududlarni egallab, g‘arba Egey dengizidan SHarqda Hind subkontinentigacha cho‘zilgan hamda Kichik Osiyoning janubiy qismini, Suriya, SHimoliy Mesopotamiya, Bobil, Eron, O‘rta Osiyoning janubiy viloyatlari va Afg‘onistonning katta qismini o‘z ichiga olgan edi. Bu ulkan davlatning asoschisi – dastavval Aleksandrning tansoqchisi, keyinroq yirik sarkardasi bo‘lgan Salavka edi.

YUNon tarixchisi Pompey Trogning yozishicha, «Salavka ba’zi bir o‘lkalarni mo‘zokaralar yo‘li bilan egalladi, ammo Baqtriya, Parfiya, Sug‘d erlarida u qattiq qarshilikka uchradi va og‘ir janglar olib borishiga to‘g‘ri keldi». Bu ma’lumotni qadimgi tarixchi Arrian ham tasdiqlaydi. Ya’ni u shunday xabar beradi: «Salavka I baqtriyaliklar, Sug‘diylar, parfiyaliklar va girkaniyaliklar bilan ko‘p urushlar olib borgach, ular erlariga hukmronlik qila boshladi». Tadqiqotchilarning fikricha, O‘rta Osiyo erlarining Salavka tomonidan bosib olinishi mil.avv. 306-301 -yillarga to‘g‘ri keladi.

Mil.avv. 293 -yilda Salavka o‘g‘li Antiox I ni SHarqiy satraplarga ya’ni, O‘rta Osiyo viloyatlariga o‘zining noibi etib tayinlaydi. Salavka I va Antiox I (mil.avv. 281-261 -yillar mustaqil) hukmronligi davrida Salavkiylar davlati siyosatining asosiy yo‘nalishlari shakllanadi. Salavkiylar uchta mintaqada – Janubiy Suriya, Kichik Osiyo va SHarqda faol tashqi siyosat olib borishga majbur bo‘lgan edilar. Janubiy Suriya va Kichik Osiyo uchun Ptolemeylar (Ptolomey Lag asos solgan O‘rta er dengizining sharqidagi davlat sulolasi) bilan tinimsiz urushlar bo‘lib turgan. CHunki bu hududlarda muhim savdo yo‘llari tugab, gullab-yashnagan port-shaharlar mavjud edi. Kichik Osiyoning yunon shaharlari ham muhim ahamiyatga ega edi.

Sharqiy viloyatlarda xususan, O‘rta Osiyodagi ahvol birmuncha murakkabroq vaziyatda edi. Birinchidan, bu hudud boshqaruv markazlaridan ancha uzoqda joylashgan bo‘lib, bu viloyatlar bilan aloqa qilishda qiyinchiliklar mavjud edi. Ikkinchidan, Salavkiylar davlatining chegaralarida joylashgan ko‘chmanchilarning doimiy xavfi mavjud edi. Mil.avv. III asrdan boshlab ko‘chmanchilarning ko‘chishlari boshlanishi natijasida chegaralardagi bu xavf yanada kuchayadi.

Salavkiylar davlatida ichki **siyosiy boshqaru**v masalalari ham ancha murakkab edi. Katta hududlarni qamrab olgan bu davlatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va jamiyat siyosiy tashkiloti turlicha bo‘lgan ko‘plab viloyatlar mavjud bo‘lib, bu holat ushbu kuchlarni yagona davlatga birlashtirib turishni ancha qiyinlashtirar edi. Bu davlatning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri u faqat harbiy yurishlar natijasida, kuch ishlatish yo‘li bilan paydo bo‘lgan edi. SHuning uchun ham davlatning asosiy vazifalaridan biri qaram etilgan xalqlarni zo‘ravonlik bilan ushlab turish yoki birlashtirib turish edi. SHarq xalqlari mahalliy zodagonlaridan bir qismi yoki ayrimlari boshqaruva tizimiga jalb etilgan bo‘lsa-da, asosiy boshqaruvchilar makedonlar va yunonlardan iborat bo‘lgan.

Salavkiylar sulolasida davlat boshlig‘i **podsho** bo‘lib, uning hokimiysi mutlaq edi. Podsho bir vaqtning o‘zida fuqarolar ma’muriyati oliy boshlig‘i, qo‘shinlarning bosh qo‘mondoni, oliy sudya va hatto, bosh qonun chiqaruvchi vazifalarini bajargan. Manbalarning ma’lumot berishicha, sulola asoschisi Salavka I, «Podsho tomonidan buyurilgan barcha narsalar doimo adolatlidir», degan tamoyilga qat’iy amal qilgan. Salavkiylar sulolasi podsholari qo‘yidagi ikkita huquqiy asosga ega edilar: 1. Bosib olish huquqi. 2. Hokimiyatni otadan bolaga meros qoldirish huquqi. Ko‘p hollarda salavkiylar podsholari ilohiyashtirilgan. Masalan, tangashunoslik ma’lumotlari Soter-Qutqaruvchi, Dikayos-Adolatparvar, Everget-Ezgulik kabi podsholar bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Davlatning nihoyatda katta hududlarni qamrab olganligi ayrim hollarda ma’muriy nazoratning susayib ketishiga olib kelgan. Manbalarning guvohlik berishicha, bir nechta mahalliy siyosiy uyushmalar (alohida qabilalar, yunon polislari, ibodatxona jamoalari, mahalliy sulolalar) ichki ishlarda mustaqil siyosat olib borishga harakat qilganlar.

Manbalarning ma’lumot berishicha, Salavka I Ptolomeylar bilan hokimiyat talashib SHarqiy hududlar va Kichik Osiyo uchun kurash olib borish jarayonidayoq o‘z hokimiyatida boshqaruva tartibini joriy eta boshlagan edi. U Aleksandr an’analariga sodiq qolganligini ko‘rsatish maqsadida satrapiyalarni yirik viloyat uyushmalari sifatida saqlab qoldi. Tangashunoslik ma’lumotlariga qaraganda, Salavka I davlati Ahamoniylar va Aleksandr davlatiga nisbatan ancha kichik bo‘lib, hokimiyat 27-28 ta satrapiyaga bo‘lingan.

Har qaysi satrapiyani podsho tomonidan tayinlanib qo‘yilgan **satrap** yoki **strateg** mansabidagi shaxs boshqargan. Fors satraplaridan farq qilgan holda ular ham ma’muriy, ham harbiy boshqaruvni qo‘lga olganlar. Satrap-strateg ma’muriy boshqaruvda eng yaqin odamlaridan o‘ziga yordamchi tanlagan. Bu yordamchi soliq yig‘uvchilar faoliyati, ichki va tashqi savdo, xo‘jalik hayotini nazorat qilib borgan.

Tarixiy manbalarda salavkiylar satrap-strateglari yunoncha nomda (Stratonik, Aleksandr, Gieraks, Antiox va boshqalar) tilga olinadi. Demak, salavkiylar hukmdorlari asosan yunonlardan va ayrim hollarda ellinlashgan mahalliy zodagonlardan tayinlangan. Tadqiqotchilarning fikricha, O‘rta Osiyoda yunon hokimlari va ular atrofida to‘plangan yunon zodagonlari bilan birga mahalliy zodagonlar ham hokimlik qilar edilar. Salavkiylar hokimiysi O‘rta Osiyodagi harbiy punktlarda (katoykiylar) joylashgan harbiy kuchlarga tayangan edi.

Salavkiylar davri Baqtriya, Marg‘iyona, Sug‘diyona va Parfiya hududlarida ko‘p aholili shaharlar ko‘p edi. Maroqand, Baqtra, Niso kabi ko‘plab qadimgi shahar xarobalarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan topilmalar bu hududlarda hunarmandchilik, savdo-sotiq va xo‘jalik ishlari rivojlanganligidan dalolat beradi.

Salavkiylar davlati ma’lum bir xalq yoki elatlardan iborat bo‘lmay, ko‘pdan ko‘p etnik guruhlarni harbiy yo‘l bilan birlashtirishdan tashkil topgan uyushma edi. Davlat boshqaruving barcha siyosiy, huquqiy va ijtimoiy yo‘nalishlari podsho saroyi bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat davlat boshqaruvida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Ahamoniylar davlatida bo‘lgani kabi salavkiylar davlatida ham ko‘pgina davlat ishlarini olib boruvchi devonxona mavjud bo‘lgan. Ayrim manbalar salavkiylar saroyidagi xat-hujjat ishlarining boshlig‘i lavozimi haqida ma’lumotlar beradi.

Tadqiqotchilarning fikricha, salavkiylar davrida anchagina murakab soliq tartibi joriy qilingan bo‘lib, salavkiylar hukmdorlari o‘zlarigacha mavjud bo‘lgan soliq tartibini o‘zlashtirgan holda unga o‘zgartirishlar kiritib, mukammallashtirganlar. Dehqonlardan er solig‘ini yig‘ib olish satrap-strateglarning vazifasi bo‘lgan. Bunday soliqlarning miqdori aniq belgilangan bo‘lib, viloyatlardan keladigan soliqlarning umumiyligi miqdori qishloq jamoalaridan to‘shadigan soliqlarga bog‘liq bo‘lgan.

Mil.avv. III asrning 60-50-yillariga kelib Kichik Osiyo va Bolqon yarim orolida Salavkiy hukmdorlari o‘rtasida hokimiyat uchun kurashlar avj oldi. Natijada salavkiylar davlatining sharqiy viloyatlarida siyosiy vaziyat o‘zgarib markazdan qochuvchi kuchlarning harakatlari faollandi. Mil.avv. 250 -yilda kelib dastlab Parfiya, keyin esa YUnion-Baqtriya davlatlari salavkiylar davlatidan ajralib chiqib o‘zlarini mustaqil deb e’lon qiladilar.

### **Yunon-Baqtriya davlati**

Ko‘pchilik tadqiqotchilarning e’tirof etishlaricha, YUnion-Baqtriya davlatining salavkiylardan ajralib chiqishi yunon zodagonlarining qo‘zg‘oloni xususiyatiga ega bo‘lib, unga Baqtriya aholisi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan Diodot boshchilik qiladi. Tadqiqotchilar Yunon-Baqtriya davlati paydo bo‘lgan turli sanalarni belgilaydilar (mil.avv. 256, 250, 248 va 246-145 yy). Bu davlatning asosi Baqtriya bo‘lib, ba’zi hukmdorlar davrida (Evtidem, Demetriy, Evkratid) Hindistonning shimoli-g‘arbiy qismi, Amudaryo va Sirdaryo o‘rtasidagi katta erlar qo‘shib olinadi.

Baqtrianing salavkiylar davlatidan ajralib chiqishi xususida rimlik tarixchilar Pompey Trog va Yustinda uzuq-yuluq ma’lumotlar saqlangan bo‘lsa-da bu haqda bataysil ma’lumotlar uchramaydi. SHunga qaramasdan mavjud tangashunoslik, ayrim xo‘jalik hujjatlari, san’at yodgorliklari, sug‘orish inshootlari va imoratlar qoldiqlari bergan ma’lumotlar asosida bu davlatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot haqida ma’lum tasavvurlarga ega bo‘lish mumkin. Ammo, Yunon-Baqtriya davlatining siyosiy tarixi ko‘p hollarda qiyosiy solishtirish va taxminlarga asoslanadi.

Yunon-Baqtriyada davlat podsho tomonidan boshqarilgan bo‘lib, tangashunoslik ma’lumotlari Diodot I,II,III, Evtidem I,II, Demetriy, Geliokl, Platon

kabi podsholari haqida xabar beradi. Salavkiylar kabi YUnion-Baqtriya podsholari ham davlatni satrapliklarga bo‘lib idora etganlar.

Ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikricha, YUnion-Baqtriya mulkularining chegaralar doimiy mustahkam bo‘lmasdan, harbiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqib o‘zgarib turgan. Mil.avv. III asrning oxirlari O‘rtta Osiyo janubidagi harbiy-siyosiy vaziyat haqida Polibiy ma’lumotlar beradi. Uning yozishicha, salavkiylar tomonidan Baqtrada qamal qilingan Evtidem ularning hukmdori Antiox III ga «chegarada ko‘chmanchi qabilalar turganligi va ular chegaradan o‘tadigan bo‘lsa har ikkala tomonning ham ahvoli og‘ir bo‘lishi mumkinligini» bildiradi. Polibiy ma’lumot bergen ushbu ko‘chmanchilar mil.avv. III asrning oxirlarida Zarafshon daryosiga qadar deyarli butun Sug‘dni egallagan bo‘lib, bu hududlar YUnion-Baqtriya davlatining vaqtinchalik shimoliy chegarasi bo‘lib qoladi. SHuningdek, g‘arbiy Hisor tog‘lari ham shimoliy chegaralar bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

YUnion-Baqtriya davlatining gullab yashnagan davri III asrning ikkinchi yarmi va mil.avv. II asrning birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Janubiy hududlardan bu davrga oid Jondavlattepa, Dalvarzin (pastki qatlamlar), Oyxonim, Qorabog‘tepa kabi yodgorliklardan hokimlar saroylari, ibodatxonalar, turar-joylar, mehnat va jangovar qurollar, turli hunarmandchilik buyumlari hamda ko‘plab tanga pullarning topilishi bu hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi rivojlanish jarayonlaridan dalolat beradi.

YUnion-Baqtriya markazlashgan davlat bo‘lib, hokimiyatni podsho boshqarar edi. Davlat bir nechta viloyat (satrapiya) larga bo‘lingan bo‘lib, bu viloyatlar boshqaruvchilari yoki hokimlari podshoga bo‘ysunar edilar. Ammo, bu davrda davlat nechta satrapiyalar bo‘lganligi va ular qanday nomlanganligi ma’lum emas. Strabon ma’lumotlariga ko‘ra, satrapiyalarga noib satraplarni tayinlashda qarindoshchilik an‘analariga amal qilingan bo‘lishi mumkin.

YUnion-Baqtriya podsholigi davlat tuzilishining muhim tomoni – qo‘sishin va uni tashkil etish edi. Avvalo, ta’kidlash lozimki, yunon-baqtriya qo‘sishinlarining katta qismini baqtriyaliklar va boshqa mahalliy aholi tashkil etgan. Qo‘sishining asosiy harakatlantiruvchi kuchlari otliq-suvoriylardan iborat bo‘lgan. Qo‘sishlar tarkibida harbiy fillar ham bo‘lgan.

O‘z vaqtida V. V. Grigorev Baqtriyadagi yunon hokimiyati yagona monarxiya tomonidan amalga oshirilmay davlatlar uyushmasi (ittifoqi) tomonidan amalga oshirilgani dastavval, nisbatan kuchlilar, ular orasidan «baqtriyaliklar», keyin esa «kularga tobe bo‘lganlar» haqidagi konsepsiyanı ilgari surgan edi. Hozirgi vaqtida ko‘pchilik tadqiqotchilar YUnion-Baqtriya podsholarining boshqargan hududlari SHimoliy Afg‘oniston, Janubiy O‘zbekiston va Hindiqushdan janubdagisi ayrim viloyatlar bo‘lganligini e’tirof etadilar. Bu hududlardagi markazlashagn davlatda Diodot I, keyin esa Evtidem I (ya’ni, mil.avv. III asrning ikkinchi yarmi) davrlarida kuchli podsho hokimiyati mavjud edi. Mil.avv. II asrning ikkinchi choragidan boshlab YUnion-Baqtriya podsholigining inqiroziga qadar davlatda mutlaq birlik va barqarorlik bo‘lmasligi.

So‘nggi -yillarda olib borilgan qazishmalar natijasida topilgan juda ko‘plab arxeologik topilmalar Amudaryo o‘rtta oqimining o‘ng va chap qirg‘og‘i aholisining mil.avv. III-II asrlardagi o‘zaro aloqalaridan darak beribgina qolmay, bu erlarni

YUnion-Baqtriya davlati tarkibiga kirganligidan dalolat beradi. E.V.Rtveladzening fikricha, mil.avv. 250-140/130 -yillar davomida YUnion-Baqtriya davlati mustaqil davlat sifatida mavjud bo‘lib, bu davrda Diodot, Evtidem, Evkratid, Geliokl kabi podsholar hokimiyatni boshqarganlar. Mil.avv. II asrning ikkinchi yarmiga kelib ko‘chmanchilar zarbalari va o‘zaro taxt uchun kurashlar natijasida YUnion-Baqtriya davlati inqirozga uchradi.

## **6. Qang‘ davlati, Davan davlati, Kushonlar davlatchiligi.**

O‘zbekiston hududlarida tarqqiy etgan davlatlardan biri – Qang‘ davlatidir. Qadimgi Xitoy manbalarida Qang‘ davlati mavjud bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlar mil.avv. III asr oxiri – II asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Ammo, Qang‘ davlati va qang‘arlar tarixining mashhur bilimdoni K. SH. SHoniyofovning fikricha, bu davlat mil. avv III asrning boshlarida paydo bo‘ladi. Keyinroq esa, YUnion-Baqtriya davlati va qo‘shti ko‘chmanchi qabilalar bilan bo‘lgan kurashlar natijasida Qang‘ davlati yanada mustahkamlanadi hamda manbalarda O‘rta Osiyodagi yirik davlatlardan biri sifatida tilga olinadi.

Qang‘ davlati asosini tashkil etgan qabilalar Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimlarida istiqomat qilganlar. Davlat tashkil topgan dastlabki davrda uning hududiy asosini Toshkent vohasi tashkil etgan. Tashqi harbiy hujumlar tufayli Qang‘ davlati nafaqat mustahkamlanib oladi, balki o‘z chegaralarini ham kengaytirib boradi. YA’ni, mil.avv. II va milodiy I asrda Qang‘ davlatining hududi ancha kengayib Toshkent vohasi, O‘rta Sirdaryo erlari, Talas vodiysi va CHu daryosining quyi oqimidagi erlarni o‘z ichiga olar edi.

Qang‘ davlati haqida bizgacha etib kelgan manbalarda bu davlat hokimiyati qanday idora qilingani, boshqaruva tartibi va shakllari haqida aniq ma’lumotlar saqlanib qolmagan. Katta Xan sulolasiga tarixida (mil.avv. 202-mil. 25 yy) Qang‘ podshosi o‘z **oqsoqollari** bilan maslahatlashib ish tutganligi haqida ma’lumot beriladi. Bundan xulosa chiqargan tadqiqotchilar o‘sha davrda tashkil topgan Qang‘ davlatida **kengash** muhim rol o‘ynaganligini, davlat kengashida qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol qatnashganliklarini hamda ularning fikri hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lganligini ta’kidlaydilar. Demak, o‘sha davrlarda podsho saroyi qoshida kengash mavjud bo‘lib, podshoning ichki hamda tashqi siyosati va boshqa barcha davlat ishlari va boshqaruvi bilan bog‘liq masalalar ana shu kengash yig‘ilishida hal qilingan.

Qang‘ davlatiga qarashli erlar bir nechta viloyatlarga (yoki mulklarga) bo‘lingan bo‘lib, ularning har birini **jobg‘u** yoki **yobg‘u** (qad. Xitoy manbalarida – chjaovu) deb nomlangan xokimlar boshqargan. Jobg‘ular mamlakat boshqaruvida Qang‘ podsholarining asosiy tayanchi hisoblangan. Jobg‘ular podsholarga yaqin kishilardan, ularning qarindoshlaridan, yirik urug‘-qabila boshliqlaridan tayinlangan.

M.I. Filanovichning fikricha, siyosiy tuzilma sifatida Qang‘, ehtimol, mil. avv II asrgacha shakllangan ko‘chmanchi va yarim o‘troq qabilalarning Qang‘ yo‘lboshchilari qo‘1 ostida birlashtirilgan turli-tuman ittifoqlaridan iborat bo‘lgan. Dastlab u uncha katta bo‘lmagan qabilalar ittifoqidan iborat bo‘lib, janubda yuechjilar hokimiyatiga bo‘ysunsa, sharqda xunnlarga qaram edi. Ammo, mil.avv. II-mil. II asrda asta-sekinlik bilan u qudratli davlatga aylanadi. Bu davrda Qang‘

davlati manbalarda 120 ming deb ko‘rsatiluvchi kuchli qo‘shinga ega bo‘lgan va qo‘shni Xitoyga nisbatan g‘oyatda mustaqil siyosat olib borgan.

Arxeologik manbalarning guvohlik berishicha, Qang‘ qo‘shinlaridagi otliq suvoriyalar yuechji suvoriylari kabi yubka shaklidagi burmali sovut, ko‘krakka taqiladigan qalqon kiyishgan. Baland po‘lat yoqalar ularning bo‘ynini himoya qilsa, dubulg‘alar boshni omon saqlagan. Qurollardan qilichlar, nayzalar, jangovar boltalar, kamon va o‘qlar keng tarqalgan edi. Har bir bo‘linma ajdar shaklidagi o‘zining maxsus tug‘iga ega bo‘lgan. Demak, Qang‘ davlati qo‘shinlarida qurollanish va harbiy san’atga alohida e’tibor berilgan.

Katta Xan sulolasi tarixida «qang‘lilar mamlakati podshosining turar joyi Loyuenidagi Bityan shahrida» deb ma’lumot beriladi. Boshqa tarixiy manbalarda Loyueni nomi uchramaydi. Binobarin, uning qaerda joylashganligi aniqlanmagan. K. SHoniyo佐 Bityan shahrini Toshkent vohasida joylashgan deb hisoblaydi. CHunki tarixiy manbalarda aytishicha, YAksart-Sirdaryo bo‘yida qadimgi Kanha – Kanka shahri xarobalari joylashgan. YU.Buryakov uzoq -yillik arxeologik tadqiqotlar olib borish natijasida Kanxa shahri mil.avv. III-II asrlarda paydo bo‘lganligini aniqladi. Demak, manbalarda eslatilgan Bityanning tashkil topgan vaqt Kanka shahri paydo bo‘lgan davrga mos keladi. Bu nomlar bitta shaharning ikki xil nomlanishidir. Ushbu shahar Sirdaryoning o‘ng irmoqlaridan biri Ohangaronning quyi oqimida (hozirgi Toshkent vil. Oqqo‘rg‘on tumani hududida) joylashgan.

Kanka haqida dastlabki ma’lumotlar Avestoning eng eski qismlari bo‘lgan YAsttlarda Turon qabilalarining turar-joylari sifatida eslatiladi. Sosoniylar davri (224-651 yy. ) manbalarida bu shahar «Qandesh» yoki «Qandiz» shaklida tilga olinadi. SHuningdek, Firdavsiyning «SHohnoma» asarida ham Kanka shahri bir nechta marta tilga olinadi. Undan tashqari o‘rtalashtirishlari geograflari asarlarida bu ko‘hna shahar «Kenkrak», «Xarashkent», «Tarband» nomlari bilan eslatib o‘tiladi.

YUqorida eslatilgan Katta Xan sulolasi tarixida «Qang‘ podshosining yozgi qarorgohi Loyuenidan etti kun yo‘l yurib boriladigan erda joylashgan» degan ma’lumot beriladi. SHi-gu solnomalarida ta’kidlanishicha «Qang‘ hokimi qishda (sovut), yozda (issiq paytlarda) bir erda yashamas edi». Bu bilan bu fasllarda ularning turar-joylari boshqa –boshqa erda bo‘lishi o‘qtirib o‘tiladi. K. SHoniyo佐 fikricha, keltirilgan axborotdan Qang‘ davlati o‘sha davrlarda (mil.avv. III-I, mil. I-Vasrlar) asosan yarim o‘troq qabilalar davlati ekanligini tushunib olish qiyin emas. O‘troq aholidan tashqari Qang‘ davlatining chegarasida bir qancha qabilalar mavjud bo‘lib, ular dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik bilan ham shug‘ullanib kelganlar. Ular bahor va yoz oylarida o‘z chorvalari bilan ko‘chib yozgi yaylovlarda yashaganlar. Qishda esa an‘anaviy qishlov joylariga ko‘chganlar.

da Qang‘ podsholarining yozgi qarorgohlari an‘anaviy qishlov joylaridan shimolda o‘rtalashtirishlari O‘tror shahri o‘rnida hozirgi Qozog‘istonning Aris va Turkiston shaharlari o‘rtasida joylashgan. Keyinroq, ya’ni, ilk o‘rtalashtirishlari davriga kelib yarim mustaqil CHoch hukmdorlari O‘trorni o‘z qo‘llarida saqlab qolganlar. Bu shahar ularning yozgi qarorgohi hisoblangan.

Mil.avv. II-I asrlarga kelib Qang‘ davlati kuchayishi natijasida bir qancha viloyatlar unga tobe etiladi. N. YA. Bichurin, Xitoy solnomalarida qang‘lilarga tegishli qo‘yidagi beshta viloyatlar haqida ma’lumotlar borligini ta’kidlaydi: Suse (Susye), Fumu, YUni, Gi, YUegyan. Ushbu viloyatlarning qaysi hududlarda joylashganligi haqida tadqiqotchilar orasida yagona fikr yo‘q. Ayrim tadqiqotchilar (V. V. Bartold, M. E. Mason, S. P. Tolstov) Suseni-Kesh (SHaxrisabz), Fumuni-Zarafshondagi Kushoniya, YUnini-Toshkent, Gini-Buxoro, YUegyanni-Urganch va uning atroflari bilan aynan bir deb hisoblaydilar. Ammo, Qang‘ga tobe viloyatlarning bunday joylashtirish to‘la holda ilmiy asoslanmagan bo‘lib, munozarali hisoblanadi.

Qang‘ davlatining etnik tarkibi xilma-xil bo‘lib, uning anchagina katta hududlarida Sug‘diyona, Xorazm va Toshkent vohasida yashovchi dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullanib kelgan o‘troq aholi bilan bиргаликда ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvadar qabilalar (saklar, massagetlar, toharlar, alanlar va boshqalar) istiqomat qilganlar. Sirdaryoning o‘rta oqimida yashagan qang‘lilar Qang‘ davlati tashkil topishida asosiy o‘rinni egallagan bo‘lib, Qang‘ podsholari asosan qang‘lilar bo‘lgan.

Mil.avv. II - mil. II asrlarda Qang‘ davlati o‘z rivojlanishining yuqori cho‘qqisiga ko‘tariladi. Qang‘ podsholariga bo‘ysunuvchi yarim mustaqil viloyatlarni birlashtirgan bu davlat o‘z vaqtida anchagina kuchli bo‘lib, o‘zbek davlatchiligi tarixida o‘z o‘rniga egadir. Agarda antik davrda O‘rta Osiyonning janubida shakllangan Kushon va Parfiya davlatlari Ahamoniylar, Aleksandr Makedonskiy, Salavkiylar asos solgan davlatlar an’analarini o‘zlashtirib taraqqiy etgan bo‘lsa, Qang‘ davlati taraqqiyotida ko‘chmanchilar davlatchiligi belgilari borligi bilan ajralib turadi.

Bizga qadar etib kelgan yozma manbalar va bugunga qadar olingan arxeologik ma’lumotlarga asoslangan tadqiqotchilar Qang‘ davlati, uning tarkibi, siyosiy, madaniy va iqtisodiy tarixini yoritishga, mazkur siyosiy birlashmada davlatchilik boshqaruvining shakllanishi va rivojlanishi xususida o‘z munosabatlarini bildiradilar.

Manbalar Qang‘ podsholarining nomlari haqida ma’lumotlar bermaydi. Faqat shu narsa ma’lumki, ular o‘z nomlari bilan bиргаликда urug‘ nomini ham qo‘llaganlar va «Qang‘ xonadoni hukmdori» deb atalganlar. Qang‘da saylangan hukmdorning hokimiyyati oqsoqollar kengashiga tayangani va ayni paytda kengash tomonidan cheklab qo‘yilganini ko‘zatish mumkin. Qang‘ hukmdorlarining qanday unvon bilan atalganligi ma’lum. Ammo, kengashdagi zodagonlar vakillari qanday atalganligi turli bahslarga sabab bo‘lgan. Antik davrdagi usunlar, yuechjilar va qang‘larning hukmdorlari **yabg‘u** unvoni bilan atalgan.

Qang‘ davlati olib borgan tashqi siyosat qo‘shti davlatlar bilan savdo-sotiq aloqalarini o‘rnatish, keskinlashgan vaziyatning oldini olish va o‘z chegarasida osoyishtalik o‘rnatishga qaratilgan edi. SHu bilan bиргаликда, payti kelganda atrofdagi kuchsizlanib qolgan qabilalarga, vohalarga, viloyatlar ustiga hujum qilib, ularni o‘ziga qaram qilish ayrim hollarda tashqi siyosatni belgilab berar edi.

Tadqiqotchilarning fikricha, qang‘larning eng ashaddiy dushmanlaridan biri – usunlar edi. Qang‘ davlati hokimiyyat boshliqlari usunlarning bosqinchilik

siyosatini cheklash maqsadida xunnlar bilan yaqinlashib, ular bilan do'stona munosabatlar o'rnatadilar. Mil. avv II-I va mil. I asrda usunlar Xitoy hukmdorlari bilan yaqin munosabatlar o'rnatib xunlar va qang'lilarga qarshi kurash olib boradilar. O'z navbatida Xitoy imperatorlari ko'chmanchilarning o'zaro kurashlaridan foydalanib, o'z erlarini kengaytirish maqsadida Qashg'ar, YOrkent va Davan erlariga hujumlar uyushtiradilar. Qang'lilar xitoyliklarning harbiy va siyosiy maqsadlarini tushunib, ularni o'z chegaralariga yaqinlashtirmaslikka harakat qiladilar. CHunonchi, Xitoy qo'shinlari mil.avv. 104,102,65 -yillar va milodiy I asrda Davan, YOrkent va Qashg'ar viloyatlariga bosqinchilik yurishlari uyushtirgan vaqtarda qang'lilar yordamga kelib xitoyliklarning bosqinchilik yurishlarini bartaraf etishda faol ishtirok etadilar.

Qang' davlatining janubdag'i qo'shnisi – antik davrdagi ulkan va qudratli sultanatlardan biri Kushon davlati edi. Qang'lilar bu davlat bilan do'stona munosabat o'rnatishga harakat qilishlariga qaramasdan mil. I asrda kushonlar qang'larning mulklari hisoblangan ayrim viloyatlarni o'z chegaralariga qo'shib oladilar.

Qang' davlatining asosiy aholisi o'troq va yarim o'troq turmush tarzi kechirganlar va ularning atrofida ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanuvchi aholi yashagan. O'troq aholi asosan vodiyya, daryo vohalarida yashab, dehqonchilik, bog'dorchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Qang'lilar dehqonchiligida arpa, bug'doy, tariq, no'xot, sholi va boshqa donli mahsulotlar etishtirish asosiy o'rinda turgan.

Mil. avv IX-III asrlarda, ya'ni, Burg'ulik (Burkanlik) madaniyati rivojlangan davrda mehnat qurollarining barchasi asosan tosh va bronzadan yasalgan bo'lsa, qang'lilar davriga kelib temir buyumlar keng tarqaladi. Mil.avv. II-mil. - VI asrlarda Toshkent vohasida chorva qo'shib, omoch bilan er haydash keng rivojlangan edi. SHuningdek, bu davrda erni sun'iy sug'orib ekin ekish, katta va kichik kanallar qazish, suv inshootlarini bunyod etish ham tarqqiy topadi.

Vohalarda yashovchi o'troq aholi dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik bilan ham shug'ullanganlar. YOzma manbalarda bu aholining sut-qatiqlari va zoddor otlari borligi haqida ma'lumotlar beriladi. CHorva mollarining ko'pchilik qismi ko'chmanchi va yarim o'troq aholi ixtiyorida bo'lgan. Ko'p sonli chorva mollarini esa mavsumga qarab, bir joydan ikkinchi joyga haydab boqqanlar. Qang' podsholari va ularga yaqin bo'lgan kishilar nihoyatda boy chorvadorlar bo'lganlar. Ular bahor kelishi bilan yaqinlari, qarindosh urug'lari bilan birgalikda yozgi qarorgohda, ya'ni O'trorga borib yozni o'tkazganlar. Ko'zda esa qishlovnii o'tkazish uchun Kankaga qaytib ketganlar.

Tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, qang'larning ko'pchiligi shaharlarda va katta-kichik qishloqlarda yashaganlar. SHaharlar mustahkam himoya inshootlari bilan o'rab olinib, ularda qal'alar ham mavjud bo'lgan. Ko'pchilik shaharlarning avvaldan o'yangan rejaviy to'zum asosida qurilganligi Qang' davlatida shaharsozlik madaniyati rivojlanganligidan dalolat beradi.

Mustahkam himoya inshootlari va qal'alarga ega bo'lgan shaharlarda hamda yirik qishloq va qo'rg'onlarda yirik qabila boshliqlari, urug' yoki jamoa oqsoqollari, boy-badavlat oilalar va qisman hunarmandlar yashaganlar. Turar-joylar

asosan paxsa va xom g‘ishtdan qad ko‘targan. Qang‘ davlati aholisining ko‘pchilik qismi tarqoq holda kichik-kichik qishloqlarda, erto‘lalarda, kapa uylarda va o‘tovlarda yashab, yarim o‘troq va ko‘chmanchi turmush tarzi yuritganlar.

SHahar va qishloqlarda hunarmandchilikning ko‘plab sohalari – kulolchilik, temirchilik, teriga ishlov berish, zargarlik, toshtaroshlik, to‘qimachilik kabi o‘nlab turlari rivojlangan edi. Arxeologik ma’lumotlarning guvohlik berishicha, yirik shaharlarda hunarmandchilikning ma’lum sohasiga ixtisoslashgan ustalarning mahallalari mavjud bo‘lgan. Tadqiqotlar natijasida topilgan rangdor sopol idishlar, turli matolar qoldiqlari, charm buyumlar, ot-ulov anjomlari hamda turli zebziyatlar Qang‘ davlati madaniyati nihoyatda rivojlanganligidan dalolat beradi. SHuningdek, Kanka harobalaridan, Jo‘nariq atroflaridagi tepaliklardan, Qovunchitepa, CHoshtepa va Toshkent vohasining ko‘pgina hududlaridan mil.avv. III – milodiy V asrga oid arxeologik topilmalar ham Qang‘ madaniyati rivojining namunasidir.

Qang‘ tadqiqotchilarining e’tirof etishlaricha, bu davlat madaniyatining yuqori darajasi tasodifiy hol emas. YAksart-Sirdaryoning o‘rta oqimida yashovchi qang‘larning Sug‘diyona, Farg‘ona hamda daryoning quyi oqimida yashovchi ko‘plab xalqlar bilan o‘zaro madaniy va iqtisodiy aloqalari Qang‘ davlati madaniyati taraqqiyotiga asos bo‘lgan edi. SHuning uchun ham ko‘p hollarda ular madaniyatidagi umumiylilik ko‘zga tashlanadi. Undan tashqari Qang‘ davlati hududlaridan Buyuk ipak yo‘li tarmoqlarining o‘tganligi ham davlatning iqtisodiy va madaniy rivojiga, qo‘shni davlatlar bilan siyosiy va diplomatik aloqalarning taraqqiy etishi uchun omil bo‘lib xizmat qilgan edi.

### Davan davlati.

O‘rta Osiyoning SHarqida, Sirdaryoning yuqori havzasida joylashgan qadimgi Farg‘ona antik davr o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan edi. Farg‘ona haqida yunon-rim mualliflari ma’lumotlar bermaydilar. Bu davlat haqidagi yozma ma’lumotlar asosan Xitoy manbalarida – CHjan Syan ma’lumotlarida, Sima Syanning «Tarixiy xotiralar», Ban Gunning «Birinchi xan sulolasи tarixi» asarlarida beriladi. Bu manbalarda ushbu davlat «Dayuan» yoki «Da-van» nomi ostida eslatiladi. Farg‘ona so‘zi Sug‘d manbalarida «Fragonik» shaklida yozilib «tog‘lar orasidagi vodiy, atrofi berk soylik» ma’nosini beradi. Xitoy manbalaridagi Dayyuan ham «tog‘lar orasidagi vodiy» ma’nosini beradi.

Davan davlati tarixi bo‘yicha uzoq -yillardan buyon tadqiqot ishlari olib borilib, so‘nggi -yillarda o‘zbek olimlaridan A.Asqarov, A.Xo‘jaev, B.Matboboev, A.Anorboev, S.Qudratov, B.Abulg‘ozieva, B.Abdullaev, Abduholiq Abdurasul o‘g‘li kabilar arxeologik ma’lumotlarni yozma manbalar bilan qiyosiy o‘rganish asosida samarali ishlar olib borayotgan bo‘lishlariga qaramay, bu yo‘nalishda hali ko‘pgina masalalar o‘z echimini topmagan. Davan davlati shaharlarining aniq joylashuvi, davlat tizimi va boshqaruvi, davlatning chegaralari, qo‘shni davlatlar bilan munosabatlar, mahalliy madaniyatning qo‘shni madaniyatlar bilan munosabatlari masalalari shular jumlasidandir.

Qadimgi Farg‘ona aholisi bronza davridayoq buloq suvlari birlashuvidan paydo bo‘lgan Qoradaryo tarmoqlari havzalarida o‘ziga xos sug‘orma dehqonchilik madaniyatini yaratadilar. Avvalo o‘troq dehqonchilik, keyinchalik ilk shaharsozlik

va nihoyat ilk davlatchilikka asos bo‘lgan bu madaniyat fanda «CHust madaniyati» nomi bilan mashhur bo‘lib, qadimgi Farg‘onaning shimoli-sharqiy hududlaridan bu madaniyatga oid 80 dan ortiq yodgorliklar majmui aniqlanib o‘rganilgan. Ulardan ilk shahar madaniyati belgilari Dalvarzintepada (Andijon viloyati) va Buonomozorda (Namangan viloyati) aniqlangan. Undan tashqari CHust madaniyatini SHo‘rabashot va Eylaton madaniyatlari davom ettiradi.

Ilk temir va antik davrga kelib Farg‘onada mahalliy madaniyatlar an’analari asosida taraqqiy etayotgan qadimgi dehqonchilik madaniyatlari butun vodiyni qamrab oladi va aholining o‘troq hayot tarzi jamiyat iqtisodiy asosini tashkil etadi. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, mil.avv. III asrdan boshlab butun Farg‘ona vodiysida shaharsozlik madaniyati keng yoyiladi. Aynan mana shu davrda Farg‘ona vodiysi orqali o‘tgan Buyuk ipak yo‘li tarmoqlari bo‘ylab Axsikent, Marhamat, Kubo, Marg‘ilon, Bob (Pop) kabi ko‘hna shaharlar paydo bo‘ladi. SHuning uchun ham mil.avv. II asrga oid Xitoy manbalari Farg‘onada 70 ta katta-kichik shaharlar borligi haqida ma’lumot beradi.

Sima Syanning «Tarixiy xotiralar» asarida Davanning ikkita poytaxti – Ershi va YUchen bo‘lganligi haqida xabar beriladi. Bu shaharlarning joylashuvi masalasida olimlar orasida yagona fikr yo‘q. Ular O‘zgan, Mingtepa (Marhamat), Qo‘qon, Koson, Axsikent, O‘ratepa yoki Jizzax o‘rnida joylashtiriladi.

Eng qadimgi yozma manbalar O‘rtta Osiyodagi ayrim ilk davlat uyushmalari haqida ma’lumotlar bersada, Farg‘ona haqida bunday ma’lumotlar uchramaydi. SHunga qaramasdan YU.A.Zadneprovskiy Qadimgi Farg‘ona (Davan) podsholigining mavjud bo‘lganligining taxmin qiladi. A. Asqarovning fikricha, mil.avv. I ming -yillikning o‘rtalaridan oldingi davrdagi Farg‘ona haqida so‘z yuritilganda odatda faqat «chifdom» (voha) shaklidagi qadimgi davlat asoslarining paydo bo‘lishi anglashiladi. Olimning fikricha, mana shu holatni hisobga olib Farg‘onada davlatchilik, aftidan, mil. avv V-IV asrlarda paydo bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

B.Matboboevning fikricha, A. Asqarovning bu xulosasi ikkita tarixiy dalilga asoslangan. Birinchisi, aynan mana shu davrga oid arxeologik topilmalar (SHo‘rabashot madaniyati) ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganligi (mahsulot ishlab chiqarish va savdo sotiqning o‘sishi) haqidagi taxminlarni ilgari surish imkonini beradi. Ikkinchisi, mil.avv. II asrdayoq Farg‘onada ko‘p sonli shaharlar mavjudligi haqida ma’lumotlar bor.

Mil. avv II asrdan boshlab Qashg‘ardan Davanga shimoliy yo‘ldan karvon yo‘li harakati boshlanadi. Bu yo‘ldan ipak va boshqa mahsulotlarning xalqaro tranzit savdosи amalga osha boshlaydi. Bu paytga kelib Davan aholisi ko‘paya boshlaydi va ko‘plab mustahkamlangan aholi manzilgohlari paydo bo‘ladi. Savdo yo‘lida Davan muhim ahamiyatga ega bo‘lib boradi. Tadqiqotchilarining fikricha, YAssa va Qoradaryo vohalarida ko‘pgina qal’alar savdo yo‘lini qo‘riqlash maqsadida barpo etiladi.

Mil.avv. 125 -yilda Davanga kelgan Xitoy elchisi CHjan Syan bu erda qishloq va shaharlari obod, sug‘orma dehqonchilik va hunarmandchilik xo‘jaliklari yuksak rivojlangan, kuchli harbiy kuchlarga ega davlatni ko‘radi. CHjan Syan Davanning qishloq xo‘jaligi haqida ma’lumot berib, shunday yozadi: «O‘troq aholi

er haydaydi, g‘alla va sholi ekadi, ularda musallas navli o‘zum, juda ko‘plab yaxshi otlar bor. Davanning barcha joylarida o‘zum vinosi tayyorlaydilar. Boy xonadonlar uni katta miqdorda tayyorlaydi, bu ichimlik xumlarda bir necha o‘n -yillarda ham bo‘zilmay saqlanadi». SHuningdek bu elchi, bu davlat aholisi juda xushmuomala, mehmondo‘st, ko‘ngli ochiq odamlar ekanligi haqida ma’lumot beradi.

Xitoy manbalari qadimgi Farg‘onada dehqonchilik madaniyati yuqori darajada rivojlanganligini isbotlaydi. Xitoyliklarni ayniqsa, o‘zлari uchun notanish bo‘lgan beda va o‘zum hayratga solgan. Manbalarda yana shunday ma’lumot bor: «Xitoy elchisi urug‘ keltirdi, shunda osmon farzandi(Xitoy imperatori) unumdar erga beda va o‘zum ekdi». Davanliklarning bog‘larida o‘zumdan taшqari anor, o‘rik va boshqa mevali daraxtlar ko‘p bo‘lgan. Xitoy tarixchilari bu mevalarning Xitoyda paydo bo‘lishini Davan bilan bog‘laydilar.

Xitoy manbalari, shuningdek, qadimgi Farg‘ona chorvachiligining o‘ziga xos tomoni bo‘lgan -yilqichilikning yuqori darajada rovojlanganligi haqida ham ma’lumotlar beradi. Davan davlati antik davrda mashhur zotdor otlari bilan shuhrat qozongan edi. Manbalardan ma’lum bo‘lishicha, ularni etishtirish bilan o‘troq aholi shug‘ullangan. «Davanda yaxshi otlar bo‘lib, ular Ershi shahridadir, otlarni yashiradilar va Xan elchisiga berishga rozi bo‘lmaydilar». Davanning mashhur «samoviy otlari» tasvirlari tushirilgan qoyatosh suratlari bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan.

Xususan, O‘shdan 8 km uzoqlikdagi Ayrimchatovning qoya adirlarida 30ta chiroyli zotdor otlarning tasvirlari bor. Xuddi shunga o‘xhash tasvirlar Marhamat yaqinidagi Aravon qoyasidan, Navqat vohasi va Obishirsoydan ham topilgan. Bu tasvirlar Davan o‘zining samoviy otlari bilan qadimdan mashhur bo‘lganligini tasdiqlabgina qolmay, farg‘onaliklarning yuksak san’at sohiblari bo‘lganliklaridan ham dalolat beradi. Manbalarning guvohlik berishicha, qo‘shni davlatlar, xususan, Xitoy imperatorlari Davan otlarini nihoyatda qadrlaganlar.

Davan davlati ma’lum bir siyosiy uyushmani tashkil etgan bo‘lib, davlatni boshqaruvchi hukmdor manbalarda «Van» (podsho) unvoni bilan ish yuritgani eslatiladi. Manbalarda «Van» unvoniga ega bo‘lgan Motsay, CHan Fin, Mug‘ua, YAn’lyu kabi hukmdorlarning nomlari saqlanib qolgan. YAgona hukmdor bo‘lgan podsho, ya’ni, «Van» davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan ishlarni oqsoqollar kengashiga suyangan holda olib borgan. Manbalarning ma’lumot berishicha, podshoga yaqin kishilar (odatda uning qarindoshlari) orasidan yordamchilar – bita katta yordamchi (Fu van) va bitta kichik yordamchi (Fu-go-van), tayinlangan. Davlat hukmdori yoki podsho mamlakatning siyosiy va diniy hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu jarayonda oqsoqollar kengashining ham ahamiyati kam bo‘Imagan. Oqsoqollar urush va sulk tuzish masalalarini hal etishda ishtirok etganlar, ba’zan ular hukmdorning taqdirini ham hal qilganlar. Misol uchun, manbalarda qayd etilishicha, urushda mag‘lubiyatga uchraganligi uchun hukmdor Van Motsay oqsoqollar kengashidagi umumiy ovoz berishda aybdor deb topilgan va qatl qilingan.

Davan davlati hududlari shaharlar va vohalarga bo‘lingan holda idora etilgan bo‘lishi mumkin. CHunki manbalarning ma’lumot berishicha, YUchen shahrining hokimi Xitoy qo‘shiniga oziq-ovqat etkazib berishdan bosh tortgan. Tadqiqotchi N.

Gorbunova har bir shaharning, ehtimol, vohaning o‘z hokimi bo‘lganligi haqidagi taxminni ilgari suradi. Olimaning fikricha, aynan mana shu hokimlar oqsoqollar kengashi tarkibiga kirgan va unda hal qiluvchi mavqega ega bo‘lgan. A. Asqarovning fikricha, oqsoqollar kengashi oldida podsho-hukmdorning huquqlari cheklangan edi. Ayniqsa, urush va tinchlik, diplomatik masalalarda hal etuvchi kuch va huquq oqsoqollar kengashi qo‘lida edi.

So‘nggi -yillarda Davan davlati tarixi bo‘yicha samarali ish olib borayotgan B.X.Matboboevning yozishicha, ichki tartibni saqlash va mamlakatni tashqi dushmanidan himoya qilish uchun Davan davlatida asosan piyoda askarlar va otliq suvoriylardan iborat bo‘lgan 60 ming kishilik qo‘shin mavjud edi. Manbalarning ma’lumot berishicha, davonliklar «otda ketayotib o‘q otishda mohir bo‘lganlar». Jangchilarining qurollari o‘q-yoy va nayzadan iborat bo‘lgan. Davan qo‘shinlari ochiq jangga kirishga ham, uzoq muddatli mudofaa urushlari olib borishga ham qodir bo‘lgan.

Davanning «samoviy otlari» va davlatning serunum erlari uchun mil. avv II asrning oxirlarida Xitoy va Davan o‘rtasida harbiy to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tadi. Chjan Syan va Sima Syanlarning bergen ma’lumotlariga ko‘ra, Xitoy imperatorlari Davanga ikki marta yurish qiladilar. Birinchi yurish mil.avv. 104 -yilda uyushtirilib, xitoyliklar Davanning markazi Ershiga etib kela olmay Lobnorda qattiq qarshilikka uchraydilar. Undan tashqari O‘zganda katta talofat ko‘rgan Xitoy qo‘shinlari o‘z yurtlariga qaytib ketishga majbur bo‘ladilar. Ammo, qang‘lilardan yordam kelayotganini eshitgan imperator qo‘shinlari davonliklardan 3 mingta «samoviy tulpor» ni olib Xitoyga qaytishga majbur bo‘ladilar. SHunday qilib Davan davlati xitoyliklardan o‘z mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgan.

O‘zining butun tarixi davomida Davan davlati yirik imperatorlar va kuchli davlatlar ta’siri ostiga tushmasdan o‘z siyosiy erkinligini saqlab qolgan. Arxeologik topilmalar ham qadimgi Davanning o‘ziga xos rivojlanish yo‘liga ega bo‘lganligidan dalolat beradi. Misol uchun, Farg‘ona vodiysi mil.avv. VI-IV asrlarda Eron Ahamoniylari va Aleksandr Makedonskiy bosqinlaridan chetga qolgan. Aleksandr faqat Xo‘jand shahrigacha kelganligi taxmin qilinadi. Salavkiylarning ham Farg‘ona vodiysiga kirib borganlari haqida ma’lumotlar yo‘q.

Milodning I-II asrlariga kelib qadimgi Farg‘ona aholisining o‘troq dehqonchilik madaniyati yuqori darajaga ko‘tariladi. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Farg‘ona vodiysida bu davrga oid ko‘p sonli aholi manzilgohlari, qal’alar, qo‘rg‘onlar, ko‘hna shaharlar xarobalari aniqlangan. Aholi manzilgohlarni vodiyning turli hududlarida keng yoyilish sug‘orma dehqonchilik va irrigatsiya ishlarining yuqori darajada rivojlanishi natijasi edi. Davlatning siyosiy va madaniy rivojlanishida hunarmandchilikning markazi bo‘lgan qadimgi shaharlar ayniqsa katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bu davrga oid arxeologik topilmalar dehqonchilikdan ixtisoslashgan hunarmandchilikning ajralib chiqqanligidan dalolat beradi. Bu jarayon o‘z navbatida hunarmandchilik va tog‘-kon sanoatining (turli ma’danlar qazib olish) yanada rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Xitoy manbalarida Davanda qo‘rg‘oshin, oltin, temir rudalari qazib olinganligi haqida ma’lumotlar bor. Qo‘rg‘oshin Haydarkondan, temir, kumush va

zumrad esa Farg‘onaning janubidan, shimolidan va shimoli-g‘arbidan qazib olingan. Ushbu hududlardan ko‘plab aniqlangan qadimgi konlar qoldiqlari ham yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi.

Hunarmandchilikning rivojlanishi va qadimgi yo‘llarning mavjudligi tufayli Farg‘ona vodiysida SHarqiy Turkiston bilan olib borilgan tashqi savdo bilan bir qatorda, atrofdagi tog‘ vodiylarda yashovchi chorvador – ko‘chmanchi aholi bilan ham o‘zaro almashinuv rivojlanadi. Antik davr Farg‘ona yodgorliklarining ayimlarida Xitoy tangalari (u-shi) uchrasa ham mahalliy tangalar uchramaydi. Bu hol natural xo‘jalik (mahsulot ayrboshlash) ustunlik qilganligidan dalolat beradi.

Tadqiqotchilarining fikricha, Davan davlati mil.avv. III – milodiy III asrlarda mavjud bo‘lgan bo‘lib, boshqaruvin tizimiga ko‘ra podsholik hisoblangan. Aholining ko‘pchiligi shaharlarda istiqomat qilgan. Buyuk Ipak yo‘lining paydo bo‘lishi ham ushbu davlatning gullab-yashnagan davriga to‘g‘ri keladi. Xitoydan O‘rta er dengizigacha cho‘zilgan bu yo‘ldagi qit’alararo savdoda sharqiy Sug‘diyona chegaralaridan to Tan davridagi Xitoy imperiyasigacha bo‘lgan yo‘lning xavsizligini ta’minlashda, oziq-ovqat, yo‘l ko‘rsatuvchilar va tarjimonlar etkazib berishda Davan davlati asosiy rol o‘ynagan.

Demak, podsholik boshqaruvin tizimi va oqsoqollar kengashiga asoslangan Davan davlati – o‘z davrida qadimgi o‘zbek xalqi davlatchiligi taraqqiyoti an’analarini davom ettirgan davlat bo‘lib, davlatchiligidan tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. Keyingi olib borilajak tadqiqotlar Davan davlati tarixi muammolari bilan bog‘liq ko‘pgina masalalarga anqlik kiritishi shubhasizdir.

### **Kushonlar davlatchiligi.**

Tarixiy manbalar YUnion-Baqtriya davlati ko‘chmanchi qabilalar tomonidan tor-mor etilganligi haqida ma’lumot beradi. Strabon ma’lumotlariga ko‘ra, Baqtriyani assiylar, passianlar, toxarlar, saklar qabilalari bosib oladilar. Pompey Trog xabar berishicha, – “Baqtriya va Sug‘diyonaning skif qabilalari saraukalar va assianlar bosib oladilar”. Tadqiqotchilarining fikricha, har ikkala tarixchi bitta qabila haqida ma’lumot bergen.

Qadimgi Xitoy manbaları Baqtriyani yuechji qabilalari bosib olganligi haqida ma’lumot beradi. Mil.avv. II asrning ikkinchi choragida (tadqiqotchilar bu sanani mil.avv. 172-161 -yillar oraliq‘ida deb belgilaydilar) yuechjilar xunlardan mag‘lubiyatga uchraganidan so‘ng O‘rta Osiyoning shimoliy hududlarida ko‘chib yuradilar. Bu qabilalar Xitoy manbalarida **“Da-yuechji”** – **“Buyuk”** yoki **“Katta yuechji”** deb eslatiladi. CHjan Szyan ma’lumotlariga ko‘ra, yuechjilar xunn qabilalaridan mag‘lubiyatga uchragach O‘rta Osiyoning janubiga tomon harakat qilib, Dahya (Baqtriyani) bosib oladilar va Guyshuy (Amudaryo)ning shimoliy tomonida joylashadilar. Katta Xan uyi tarixida ham yuechjilar Guyshuy daryosining shimoliy tomonidan o‘z poytaxtlariga asos solganliklari ta’kidlanadi.

Tadqiqotchilarining fikrlariga ko‘ra, yuechjilar mil.avv. 140-130 -yillar oraliq‘ida Baqtriyaga bostirib kirganlar. Oradan ko‘p o‘tmay Baqtriyada Katta yuechji davlati tashkil topadi. Kichik Xan uyi tarixi ma’lumotlariga ko‘ra, Katta yuechji hukmdorlari qo‘l ostida beshta xokimlik (Xi-xeu) bor bo‘lib, ular Xyumi, SHAUNMI, Guyshuan, Xise va Dumillardan iborat edi. Xitoy manbalaridan xulosa

chiqargan ko‘pchilik tadqiqotchilar Baqtriya tarixidagi butun yuechji davrini uch bosqichga bo‘ladilar:

1. Mil.avv. 139-125 -yillar – Katta yuechji Dahya viloyatini bosib oladi, ammo ularning asosiy mulklari Amudaryodan shimol tomonda edi.
2. Mil.avv. 25 -yilga qadar – Katta yuechji davlatining shakllanishi va keyingi rivojlanishi. Davlatning poytaxti Amudaryodan shimol tomonda bo‘lib, janubiy chegarasi Gibin atroflarida (Kashmir yoki Qandahor) edi. Yuechjilar bo‘ysundirgan hududlar Xise, Shaunmi, Guyshuan, Xyumi, Dumi mulklaridan iborat bo‘lib, ular xi-xou (yabg‘u) tomonidan birlashtirilgan.
3. Mil.avv. 25 -yildan keyin Katta yuechji davlatining inqirozi va yuqorida eslatilgan mulklarning mustaqil bo‘lishi. Kushon (Guyshuan) yabg‘usi Kiotszyukyu (Kujula Kadfiz) qolgan to‘rtta mulkni birlashtirib Kushon davlatiga asos soldi.

Ta’kidlash lozimki, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixga nisbatan Kushon davlatining siyosiy tarixi kam o‘rganilgan masala hisoblanadi. Kushonlarning hokimiyat tepasiga kelish sanasi, ushbu davlat tarixini davrlashtirish ayrim kushon yozuvlari, tangashunoslik ma’lumotlari, qisman Xitoy manbalari, buddaviy ma’lumotlar va ilk o‘rta asrlar manbalariga asoslanadi. Tadqiqotchilar Kushon davlati tarixini quyidagi uchta bosqichga ajratadilar:

1. YUnion-Baqtriya podsholari hukmronligining tugatilishi hamda O‘rta Osiyo va SHimoliy Afg‘oniston hududlarida bir nechta alohida davlat uyushmalarining tashkil topishi (mil.avv. II asrning oxiri – I asr).
2. Buyuk Kushon davlatining paydo bo‘lishi va gullab yashnashi (milodiy I-III asrlar).
3. Ko‘chmanchilarning tinimsiz urushlari natijasida Kushon davlatining inqirozi va qo‘lashi (III asr oxiri – IV asr).

Kushon davlatining paydo bo‘lishi haqida ko‘proq Xitoy manbalari va tangashunoslik ma’lumotlari xabar beradi. Umuman, Kushonlar sultanatining paydo bo‘lishi va rivojlanishi uzoq vaqt tadqiqotchilar orasida bahslarga sabab bo‘lgan bo‘lsada, o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu masalaga juda ko‘plab aniqliklar kiritish imkonini bergen tadqiqotlar olib borildi. Ayniqsa, 1961 - yil Londonda o‘tkazilgan xalqaro simpozium, 1968 -yil Do‘shanbeda YUNESKOning konferensiyasi, 1970 -yil Qobuldag‘i xalqaro anjuman Kushon davlati masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, undan keyin ham bu masala bo‘yicha ko‘plab xalqaro anjumanlar bo‘lib o‘tdi.

Mil.avv. I asrning oxiri – mil. I asrning boshlariga kelib, Guyshuan hokimi Kiotszyukyu barcha mulklarni birlashtirib Qobuliston va Qandahorni zabt etadi. Natijada bu davrga kelib dastlabki poytaxti Surxon vohasidagi Dalvarzin ko‘hna shahri harobalari bo‘lgan Kushon davlati o‘z ahamiyatiga ko‘ra antik davr Xitoydagi Xan davlati, Parfiya podsholigi, Rim sultanati bilan raqobatlasha oladigan qadimgi dunyoning eng qudratli va zabardast davlatlaridan biri sifatida tashkil topdi. Xitoy manbalaridagi “**Guyshuan hokimi Kiotszyukyu**”, ilk Kushon davriga oid topilma tangalar aks ettirilgan “**Kushon podshosi Kujula Kadfiz**”ga aynan mos to‘shadi.

Tangashunoslik ma'lumotlariga tayangan tadqiqotchilarning fikricha, Kujula Kadfiz yoki Kadfiz I 80 -yildan ziyodroq umr ko'rib 50-60 -yil davlatni boshqarib, taxminan milodiy 35 -yilda vafot etadi. O'zining hukmronligi davrida Kadfiz I Baqtriyadagi uncha katta bo'lman yuechji mulklari hukmdoridan Baqtriyadan tashqari G'arbiy va Janubiy Afg'oniston va SHimoliy Hindistonni o'z tarkibiga olgan qudratli davlatning podshosi darajasiga ko'tariladi. Ammo, manbalarning guvohlik berishicha Kadfiz I davrida Kushon davlati to'la shakllanib bo'lman edi. Har holda, bu davrida Kushonlar o'z tangalariga ega bo'lmay, Kadfiz I Rim imperatorlariga (Avgust va Tiberiyga) taqlid qilib tanga zarb ettirgan.

Manbalarning dalolat berishicha, Kujuladan keyin taxtga uning o'g'li Vima (Gima) Kadfiz (Kadfiz II) o'tiradi. Xitoy mualliflari Kadfiz II taxtga o'tirganidan so'ng "Tyanchju (Markaziy Hindiston)ni zabit etdi va u erga o'z sarkardalaridan birini boshqarish uchun qoldirdi. SHu davrdan boshlab yuechji kuchli va boy davlatga aylandi", deb xabar beradilar. Bu xabarni tangashunoslik ma'lumotlari ham ta'kidlaydi. Kadfiz II zarb ettirgan tangalarning o'ng qirg'oq Baqtriyadan, Tojikiston va O'zbekistonning janubiy tumanlaridan topilishi bu hududlarning Kushon davlati tarkibiga kirganligidan dalolat beradi. Tangashunoslarning so'nggi -yillardagi tadqiqotlariga ko'ra, Kadfiz II zarb ettirgan "**SHohlar shohi – buyuk xaloskor**" degan yozuv bor tangalar Hindiston, Afg'oniston va O'rta Osiyoda keng tarqalgan. Bunday tangalar Ashxobod, Xorazm, Toshkent vohasi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Panjikent hududlaridan ham topilgan. Kadfiz II ning Rim sultanati bilan aloqalar o'rnatganligi haqida ma'lumotlar bor.

Kushon podsholari ichida eng mashhuri Kanishka hisoblanadi. Uning hukmronligi davrida Kushonlar sultanati gullab-yashnashining yuqori cho'qqisiga ko'tariladi. Kanishka davrida Panjob, Kashmir viloyatlari mamlakatga qo'shib olinadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, davlatning poytaxti Dalvarzindan Peshovar (Afg'oniston) atroflariga ko'chiriladi. Bu davrda (mil. II asr) mamlakatning hududi SHimoliy Hindiston, Afg'oniston, O'rta Osiyoning katta qismi, SHarqiy Turkmanistondan iborat edi. Syuan Szyanning yozishicha, "Kanishka podsholik qilgan davrda uning shon shuxrati qo'shni mamlakatlarga yoyildi. Mamlakatning harbiy qudrati ko'pchilik tomonidan tan olindi. Xitoyning g'arb tomonidagilar ham Kanishkaning hokimiyatini tan olib, unga o'z garovga qo'ygan odamlarini yuborar edilar".

Kushonlar sulolasi yozma manbalar asosida va tangashunoslik tadqiqotlari orqali o'rganilgan. Kushonlar davrida chiqarilgan ilk tangalarning bir tomonida YUNon-Baqtriyaning so'nggi podshosi Germey tasviri, ikkinchi tomonida esa "kushonlar yabg'usi Kujula Kadfiz" degan so'zlar bor. Demak, dastlab Kushon hokimlari o'z nomlarini "podsho", "shoh" tushunchalari bilan bog'lamaganlar. Ammo, Kushon davlati hududining kengayishi va siyosiy-harbiy ahamiyatining ortib borishi bilan birga tanga pullarda "shoh", "shohlar shohi" atamasi ko'plab uchraydi. Bunday o'zgarishlar Xitoy muallifi bergen ma'lumotlarni ya'ni, davlatning harbiy qudrati ko'pchilik mamlakatlar tomonidan tan olinganligini isbotlaydi.

Podsho Kanishka I o'zidan oldingi davlat boshqaruvi an'analarini saqlab qoldi va davom ettirdi. Ma'lum viloyatlar va shaharlar davlat tepasida turuvchi oliy

hukmdor noiblari tomonidan boshqarilar edi. Bunday noiblar podsho tomonidan tayinlanib, uning eng yaqin va ishonchli vakillari hisoblangan. Ular oliy hukmdorga, ya’ni, podshoga so‘zsiz itoat etib, doimiy ravishda davlat xazinasiga o‘lponlar tulab turganlar. Kushonlar davrida mahalliy aholidan yig‘iladigan soliq tartibi haqida ma’lumotlar bizgacha saqlanmagan bo‘lsa-da, bunday tartib mavjud bo‘lganligi aniq.

Kushon podsholigi ruhoniylar qo‘lidagi davlat bo‘lib bu davlatda podsho hokimiyatini boshqarish bilan birga bosh kohin ham hisoblangan. Podsholik satrapiyalarga bo‘lingan bo‘lib, ularning noiblari podsho tomonidan tayinlangan. Kushon podsholigi markazlashgan davlat hisoblanib, davlatda qishloq jamoalarining ahamiyati nihoyatda katta bo‘lgan.

So‘nggi -yillarda olib borilgan ko‘plab arxeologik tadqiqotlar Kushon davri O‘rtal Osiyo xalqlarining moddiy madaniyatini o‘rganish bo‘yicha boy materiallar berib, keng imkoniyatlar yaratdi. Ushbu tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, mil.avv. I ming -yillikning oxiri-milodning dastlabki asrlari O‘rtal Osiyoda xo‘jalik va madaniy hayot darajasining ko‘tarilgan davri bo‘ldi. Janubiy Turkmaniston va Xorazm, Buxoro va Samarcand, Surxon vohasi, Vaxsh, Qashqadaryo va Farg‘ona vodiysidan topilgan shu davrga oid arxeologik topilmalar sug‘orma dehqonchilikning anchagina rivojlanganligidan dalolat beradi. Dehqonchilikning rivoji tufayli keng hududlar o‘troq aholi tomonidan jadallik bilan rivojlanadi. Misol uchun, E.V.Rtveladzening tadqiqotlariga ko‘ra, faqatgina SHimoliy Baqtriyada (Surxon vohasi) 120 dan ziyod kushon davriga oid aholi shahar va qishloqlari aniqlangan. Bu davrda dehqonchilik nafaqat tekisliklarda balki tog‘li hududlarga yoyiladi. Zarafshon va Qashqadaryoning yuqori oqimidagi tog‘li hududlardan dehqonchilik manzilgohlari topib o‘rganilgan. Bu davrda shuningdek, Xorazmda, Zarafshonda, Surxon vohasida ilgarigi davrdagiga nisbatan anchagina murakkablashgan sug‘orish inshootlari barpo etiladi. Dehqonchilik qurollarida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Samarcand yaqinidagi Talibarzu yodkorligidan II-III asrlarga oid er haydaydigan omochning temir uchi topilgan.

Bu davrda O‘rtal Osiyo shaharlari ham yuqori darajada rivoj topadi. Kushon davri ko‘pgina viloyatlar va vohalarda o‘tgan davrlarga nisbatan yirik shahar markazlari, kichik shaharchalar va shahar tipidagi manzilgohlar soning ancha ko‘payganligi ko‘zatiladi. Kushon davri shaharlari viloyatlar, ayrim vohalar va tumanlarning ma’muriy-siyosiy markazlari hisoblanib, ularning saqlanib qolgan xarobalarida qal’alar alohida ajalib turadi..

SHuningdek, Kushon davri shaharlari diniy-mafkuraviy markazlar vazifasini ham bajarib, ularda yirik-yirik topinish joylari va diniy marosimlar o‘tkaziladigan inshootlar joylashgan. Xorazmdagi Tuproqqal’a, Balxdagi budda majmuasi, Termizdagi budda ibodatxonalar, Quvadagi budda saroyi shular jumlasidandir.

Kushon davri shaharlari hunarmandchilik va savdo-sotiqning ham markazi edi. O‘rtal Osiyoning barcha hdudlaridan juda ko‘p sonli hunarmandchilik buyumlari, sopolchilik xumdonlari, metalni qayta ishlashning izlari, zargarlik buyumlari, harbiy va xo‘jalik qurol-yarog‘lari topib o‘rganilgan.

Kushon davlatida tashqi va ichki savdo ham taraqqiy etadi. Kushonlar buyuk ipak yo‘lining sharqiy qismi nazoratini o‘z qo‘llariga olgan edilar. CHetdan

keltirilgan ipak, mo‘yna, bronza ko‘zgular, muhrlar, shisha idishlar, haykalchalar tashqi savdo taraqqiyotidan dalolat bersa, ko‘plab hunarmandchilik buyumlari hamda kumush va bronza tetradraxmlar (tangalar) ichki savdo rivojlanganligini isbotlaydi.

O‘z gullab-yashnagan davrida Kushon davlati ko‘plab xalqlar va elatlar yashab turgan hududlarni egallagan edi. Ushbu xalqlar va elatlar turli tillarda gaplashganlar, yozuvning turli tartibidan foydalanganlar hamda turli diniy e’tiqodlarda bo‘lganlar. Moddiy madaniyat buyumlarida ham ayrim farqlar ko‘zatiladi. SHunga qaramasdan Kushonlar davri madaniyatiga ko‘pgina umumiylit seziladi. Ammo, butun Kushon davlatida yagona madaniyat hukm surganligi haqida fikr aytib bo‘lmaydi. Bu ulkan davlatning har bir viloyati qaysidir tomonlari bilan o‘ziga xos bo‘lgan madaniyatga ega bo‘lgan.

Avvalambor, SHimoliy Baqtriya (Surxon vohasi) haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, bu viloyat Kushon davlatining eng yirik viloyatlaridan biri bo‘lib, madaniyati yuksak darajada rivojlangan edi. Ta’kidlash lozimki, O‘rta Osiyoda buddizmning yoyilishi milodning birinchi asridan boshlab aynan Baqtriya-Toxariston hududlaridan boshlangan. Hozirgi kunda bu hududlardan undan ziyod budda ibodatxonalar, yuzdan ortiq budda haykallari aniqlanib o‘rganilgan. Ulardan eng mashhurlari Termiz yaqinidagi Qoratepa ibodatxonalar, Zartepa va Ayritom topilmalari, Dalvarzintepa ibodatxonalar hisoblanadi. SHimoliy Baqtriyaning o‘ziga xos madaniyati me’morchilik sana’tida (binolar ustunlari va peshtoqlarining bezatilishi), shaharsozlik madaniyatida, kulolchilik va zargarlik buyumlarida ham o‘z aksini topadi.

Kushon davri Xorazm madaniyati ham o‘ziga xos edi. Bu hududlarda buddizmning izlari aniq ko‘zatilmasa-da, ayol xudolarga sig‘inish aniqlangan va ko‘plab terrakota haykalchalar topilgan. Kushon davriga oid Xorazmdagi nafaqat me’morchilik, balki moddiy va badiiy madaniyat namunasi mashhur Tuproqqa’ a hisoblanadi. Bu erda ikkita yirik saroy majmuasi, sig‘inish, harbiylar va podshohlar zallari hamda ko‘plab moddiy madaniyat buyumlari ochib o‘rganilgan. Xorazm kulolchilik buyumlarida ham ko‘pgina o‘ziga hosliklar aniqlangan. Kushonlar davrida Sug‘d kichik mulklarga bo‘lingan edi. Madaniy jihatdan bu viloyatni uch qismga – Samarqand Sug‘di (Zarafshonning yuqori va o‘rta oqimi), Buxoro Sug‘di (Zarafshonning quyi oqimi) va Qashqadaryo Sug‘di (Qashqadaryo vohasi)ga ajratiladi. Bu hududlardagi diniy inshootlar Sangzor daryosi vohasidan, Kindikli tepa va Erqo‘rg‘ondan, Setalk I (Buxoro)dan, Samarqand yaqinidagi Qo‘rg‘ontepadan topib tadqiq etilgan.

Umuman, Kushonlar davrida madaniy hayotning yanada yuksalganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, Kanishka davrida Hindistondan tarqalgan budda dini davlat diniga aylandi. Oromiy va yunon yozuvlari asosida kushon yozuvi mavjud bo‘lgan. SHuningdek, bu davrda Sug‘dcha va xorazmiycha yozuvlar ham bor edi. Ushbu yozuvlar yodgorliklarida o‘sma davrdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotni aks ettiruvchi ayrim ma’lumotlar saqlanib qolgan. SHuningdek, Kushonlar davrida O‘rta Osiyo xalqlari madaniy hayotining quruvchilik, haykaltaroshlik, rassomlik, naqqoshlik kabi sohalarida ham katta yutuqlarga erishilgan. Xorazm, Sug‘diyona, Baqtriya, Farg‘ona, CHoch, SHarqiy

Turkiston va SHimoliy Hindistondan ochilgan ko‘plab madaniy yodgorliklar yuqoridagi hudadlardagi madaniy hayot o‘zining yuqori cho‘qqisiga chiqqanligidan dalolat beradi.

Kushonlar davrida binokorlik va me’morchilik ham shaklan ham mazmunan rivoj topganligi ko‘zatiladi. CHunki, bu davrdagi ma’muriy, diniy, ishlab chiqarish, turar-joy, mudofaa inshootlari, SHarq me’morchiligi bilan ayrim o‘xshashliklar topsada, o‘ziga hos tomonlari ustunlik qiladi. Me’morchilikning o‘ziga hos namunalari Dalvarzin, Xolchayon, Eski Termiz, Kampirtepa, Fayoztepa, Qoratepa kabilardan o‘rganilgan bo‘lib, ular jahon miqyosida mashhur bo‘lgan obidalardir.

Kushon davlatining inqirozga uchrashi Gerk-Baqtriya va Rim sultanati tarixiy taqdiriga ancha o‘xshab ketadi. Bu davlatlarning barchasi qo‘lash arafasida tinimsiz yurishlar olib borishga majbur bo‘lganlar. Tashqi harbiy bosqinlardan himoyalanish uchun ichki va tashqi sabablarga ko‘ra, zaiflashgan yirik davatlarda etarli harbiy imkoniyat topilmadi. Milodiy IV asrga kelib Kushon podsholigi o‘zining asosiy hududlaridan mahrum bo‘ldi. Bu podsholikning ayrim mulklari SHimoliy Hindistonda saqlanib qoldi.

SHunday qilib, Kushon podsholigi o‘z tarkibiga ko‘pgina hududlar va ko‘plab xalqlar va elatlarni birlashtirgan bo‘lsada, uning tarixi o‘zbek xalqi davlatchiligi tarixi bilan o‘zviy bog‘liq bo‘lgan. O‘zbek xalqi davlatchiligi tarixida Kushon davri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ayniqsa, madaniy hayot va tashqi aloqalar sohasida ulkan yutuqlarga erishilgan davr bo‘lib kirdi

### **Adabiyotlar**

Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997.

Каримов И.А. Тарихийхотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998

Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Т.: Шарқ. 2000.

Сагдулаев ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т., 2000.

Сагдулаев А.С., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. - Т., 2006.

Ртвеладзе Э.В. История государственности Узбекистана. – Т.: Узбекистан. 2009.

Эшов Б.Ж. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи. (ўқув қўлланма). – Т.: Маърифат, 2009.

Эшов Б.Ж. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012.

#### **4.Mavzu: Ilk o‘rta asrlarda davlatchilik va boshqaruv (V-VIII asr o‘rtalarigacha). Eftaliylar davlati**

**Reja:**

- 1.Kidariylar, xioniylar va eftalitlarning siyosiy hamda etnik tarixi.**
- 2. Eftaliylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy tarixi.**
- 3. Eftaliylar davlatida madaniy hayot.**

**Kidariylar, xioniylar va eftalitlarning siyosiy hamda etnik tarixi.**

Milodning IV-V asrlari O‘rta osiyo qadimgi tarixining muhim bosqichlaridan hisoblanadi. Ulkan Kushonlar davlati ichki va tashqi kurashlar natijasida bir qancha mustaqil davlatlarga bo‘linib ketadi. O‘rta Osiyoning janubida uning tarixidan Toxariston va Marv ajralib chiqadi. Ulardan shimolda esa Sug‘d alohida bo‘lsa, uning sharqiy tomonida Ustrushona joylashadi. Ustrushonaga tutash hududlarda Farg‘ona, O‘rta Osiyoning shimoliy hududlarida CHoch va Xorazm mulklari mustaqil edi.

Bu davrda O‘rta Osiyoda bo‘lib o‘tgan siyosiy jarayonlar ko‘p sonli ichki va tashqi urushlar bilan bog‘liq edi. SHuningdek, milodiy IV-V asrlar o‘rta Osiyo hududlariga ko‘chmanchi qabilalarning kirib kelishi, qabilalar ittifoqi yuzaga kelishi, yangi siyosiy kuchlardan biri **Kidariylar** bo‘lib, ular haqidagi asosiy ma’lumotlar Xitoyning Beyshi Solnomasida hamda g‘arb muallif tarixchilaridan biri Prisk Paniyskiy ma’lumotlarida uchraydi.

Tadqiqotchilarining fikricha, **kidariylarning** dastlabki, vatani **SHarqiy Turkiston** edi. Beyshi solnomasida berilishi, yuechjilar humdori Sidolo jujanlar hujumi tufayli o‘z qarorgohini Bolo (Balxga) ga ko‘chirgan. YAna shu manba xabar berishicha, Kidar SHimoliy Hindistonga yurish qilib Gandardan shimoldagi 5 ta davlatni o‘ziga bo‘ysundirgan. Ayrim tadqiqotchilar, kidariylar SHarqiy Turkistondan ko‘chishni boshlangan so‘ng ular ikki qismga bo‘linib, katta qismi shimoli-g‘arbiy Hindistonga, kichik qismi esa O‘rta Osiyoga joylashadilar, degan fikrni ilgari suradilar. Kidariylarning O‘rta Osiyoga joylashuvi masalalari bilan shug‘ullangan. S.K.Kabanovning fikricha, ularning markazi Balx emas balki Qarshi atroflaridagi Erqo‘rg‘on ko‘hna shahri bo‘lgan. Bu fikrni L.N.Gumilyov ham qo‘llab-quvvatlaydi. Ammo, bu fikrni ko‘pchilik olimlar e’tirof etmaydilar va balki Qarshi atroflarida kidariylarning kandaydir kichik guruhlari joylashgan bo‘lishi mumkin degan fikrni bildirdilar.

Tadqiqotchilar Kidar hukmronlik qilgan davrni IV asrning ikkinchi yarmi va V asrning birinchi choragi bilan belgilaydilar. Kidar (yoki Kidara) avval boshda Eron shohi SHopur II ga bo‘ysungan. Oq xunlar bostirib kelishi bilan o‘z o‘g‘li Pironi Peshovarda qoldirib SHimolga yo‘l olgan. Oq xunlar bilan kurash manbalarda 400-yillarga to‘g‘ri kelishi ta’kidlangan. Kidar SHopur II (309-379 yy)ning zamondoshi bo‘lib, avvalambor kushonlar hokimiyatining davomchisi sifatida ularga bo‘ysunib kelgan hamda xioniylar yordamida Baqtriyada kushonlar hokimiyatiga chek qo‘yan.

Kidariylar tez orada Amudaryo o‘ng va chap qirg‘oq havzasi hamda Sug‘dning katta qismini egallaydilar. Manbalarning guvohlik berishicha, kidariylar Eron sosoniylari Bilan ko‘pmartalab urushlar olib boradilar. Bu urushlar ayniqsa sosoniy podsholari Varaxran V (420-438 yy.) va YOzdigard II (438-457 yy.)

davrlarida ayniqsa avjiga chiqadi. 456 -yilda bo‘lib o‘tgan navbatdagi harbiy to‘qnashuvlardan so‘ng katta talofatga uchragan kidariylar qayta o‘zlarini o‘nglab ololmadilar. Bu voqeadan keyin kidariylar haqida ma’lumotlar deyarli yo‘q. Faqatgina ular Hindistonda Gupta davlatini egallab bu erda 75 -yil hukumronlik qilgani, 477 -yilda Gandxardan Xitoyga elchilar yuborgani ma’lum xolos.

IV asr o‘rtalarida O‘rta Osiyo erlariga shimoli sharqdan xion qabilalari bostirib kiradilar. Tarixda **xioniylar** nomi Bilan mashhur bo‘lgan bu qabilalarning asli vatanini ayrim tadqiqotchilar Orol bo‘yida deb hisoblaydilar. Xioniylar xun qabilalariga qon-qarindosh bo‘lganliklaridan bo‘lsa kerak, g‘arb tarixchilari ularni “oq xunlar” deb ataydilar. IV asrning o‘rtalarida ancha kuchaygan xioniylar janubga tomon harakat qilib sosoniylar bilan to‘qnashadilar. Bu to‘qnashuvlar hamda xioniylar yo‘lboshchisi Grumbat, ularning Suriyadagi Umda shahrini qamal qilganliklari haqida Ammian Marsellin ma’lumotlar beradi. Dastlabki harakatlarda xioniylar mag‘lubiyatga uchrasalarda, keyinroq ular sharqqa tomon yurishlar qilgan sosoniylar shohi SHopur II ga qattiq zARBalar beradilar. K.Treverning fikricha, xioniylar IV asrning 70-yillarida o‘zining kuchaygan pallasiga kiradi. O‘rta Osiyoda kidariylar va eftalitlar hukmronligi o‘rnatilgach xioniylarning siyosiy ahvoli o‘zgaradi va ular eftalitlarga tobe bo‘lib qoladi. Afsuski, xioniylar va kidariylarning davlat boshqaruvi tizimi haqidagi ma’lumotlar bizgacha etib kelmagan.

Xioniylar va kidariylarga nisbatan **eftalitlar** haqidagi ma’lumotlar nisbatan ko‘proq saqlangan. SHunga qaramadan eftalitlarning kelib chiqishi haqidagi olimlarning fikrlari turlicha. Misol uchun, S.P. Tolstov, A.N.Bernshtom, K.V.Trever kabi olimlar eftalitlarning ilk vatani Sirdaryoning quyi oqimi deb hisoblasalar, A.Mandelshtam, R.Grishman, L.Gumilyov, K.Enoki kabi olimlar esa eftalitlar vatanini Badaxshon deb hisoblaydilar. B.Litvinskiy va K.Inostransevlar eftalitlarning ilk vatani Farg‘onaning tog‘ oldi hududlari bo‘lganligi haqidagi fikrni ilgari suradilar. Ularning turkiy halqlar bo‘lganligi haqidagi masala o‘zilkesil echimini topmagan.

Eftalitlar turli manbalarda turlicha nomlanadilar. Misol uchun, xitoy manbalarida ular “ida, ieda, idan, idyan” deb, suriya va lotin manbalarida esa “eplalit, eftalit, abdal” arab va fors mualliflarida “haytal, yaftal, eftal” degan nomlar bilan eslatiladi.

Xitoy manbalari eftalitlarni turklar (tukyue) bilan bog‘liq ravishda ta’riflaydilar. Vizantiyalik tarixchilar, masalan, Prokopy (VI asr) eftalitlarni xunlardan deb ko‘rsatar ekan, “ular (ya’ni eftalitlar) **xunlardandir**, tanalari esa oq” deb eslatadi. Eftalitlarning kuchaygan davri V asrning o‘rtalariga (456-457 yy.) ya’ni ular Xitoyga birinchi marta elchi yuborgan davrga to‘g‘ri keladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, shu davrdan to 531 -yilga qadar eftalitlar Xitoyga 13 marta elchi jo‘natadilar. Kuch-qudrat jihatdan mustahkamlanib olgan eftalitlar O‘rta Osiyo va SHimoliy Hindistondagi kata erlarni ishg‘ol etishga kirishadilar.

Eftalitlarning janubdagisi asosiy raqiblari Eron sosoniylari edi. Eftalitlar astasekin janubiy hududlarni o‘zlariga bo‘ysundirar ekanlar, ularning sosoniylar Bilan munosabatlari keskinlasha boradi. Eftalitlar va sosoniylar o‘rtasidagi kurashlar podsho Pero‘z (459-484 yy.) davriga to‘g‘ri keladi. 484 -yilda eftalitlar va

sosoniylar o‘rtasida Marv yaqinida bo‘lib o‘tgan jangda sosoniylar mag‘lubiyatga uchraydilar. Eftalitlar 467-473 -yillarda Sug‘dda mustahkam o‘rnashib olgan bo‘lsalar, 477-520 -yillar mobaynida Gandxarni ishg‘ol etib, u erdan kidariylarni siqib chiqaradilar. 490 -yilda eftalitlar Urumchini, 497-509 -yillar orasida Qashg‘arni bosib, deyarli butun SHarqiy Turkistonda o‘z hukmronliklarini o‘rnatadilar.

SHunday qilib, VI asrning boshlariga kelib, eftalitlar anchagina katta hududlarni egallagan edilar, ko‘pchilik manbalar eftalitlarning dastavval ko‘chmanchi xalqlar bo‘lib, keyinchalik o‘troqlashganligi haqida ma’lumot beradi. SHuning uchun ham ayrim tadqiqotchilar ularni ko‘chmanchilar deb hisoblasa, ayrimlari ularni shahar va qishloqlarda yashaganligini ta’kidlaydilar. Eftalitlarning poytaxti **Balx shahri edi**. Ko‘pchilik tadqiqotchilarning e’tirof etishlaricha, eftalitlar davlati unchalik ham mustahkam emas edi va shuning uchun ham uzoq yashamadi.

Ta’kidlash joizki, eftalitlar o‘zlariga tobe bo‘lgan xalqlar hayotiga juda chuqur ta’sir etmasdan, o‘lpon va soliqlar undirish bilan cheklanganlar. Eftalitlarning O‘rtta Osiyodagi hukumronligi asosan harbiy kuchlarga tayanar edi. SHuning uchun ham O‘rtta Osiyo xalqlari ularning turklar bilan bo‘lgan kurashda qo‘llab-quvvatlamaganlar. Eftalitlar davlati yarim asrga yaqin yashagan bo‘lsada O‘rtta Osiyo xalqlari tarixida muhim rol o‘ynadi.

Eftalitlarning etnik kelib chiqishi masalalari ancha murakkab hisoblanadi. Bu murakkablik shu bilan izohlanadiki, arab manbalari va tangashunoslik ma’lumotlarida eftalitlar podsholari faqat turklarga xos bo‘lgan unvon-**tegin**, **xoqon** unvonlari bilan tilga olinadi. SHu bilan birgalikda tangalarda aks etgan podsholar aniq evropoid irqini beradi. Bu holatlar ayrim tadqiqotchilarning eftalitlarni turkiy xalqlar deb hisoblashlariga sabab bo‘ldi.

Prokopiyan Kesarskiy eftalitlar haqida shunday ma’lumot beradi: “eftalitlar xun xalqlari qabilasi bo‘lib, barcha xunlar ichida ular yagona oq tanlidir. Turmush tarzi jihatidan ham ular boshqa xunlarga o‘xshamaydilar va boshqa xunlarga o‘xhab xayvonlardek yashamaydilar. Ular bitta podsho boshqaruvida turadilar. Bu podsho rimliklar yoki boshqalardan qolishmaydigan holda aholiga g‘amxo‘rlik ko‘rsatadi, o‘zaro va qo‘shnilar bilan bo‘lgan munosabatlardaadolat mezonlariga amal qiladi.”

V asrda yashagan Lazar Parbskiy eftalitlarni etti qabiladan iborat massagetlarning etakchi urug‘laridan biri ekanligi haqida ma’lumot beradi. Xitoy manbalarida eftalitlar yuechjilarning boshqa bir ko‘rinishi yoki gaogyuy qabilasining tarmog‘i yoki ularning qang‘lilarning avlodlari sifatida talqin qilinadi. Undan tashqari, o‘zlarini **alxonlar** deb atagan eftalitlar Baqtriya-Toxariston erlarida yashab o‘tgan azaliy baqtr qabilalaridan chiqqan etnik guruh ekanligi haqidagi fikrlar ham bor. **Umuman olganda eftalitlarning turkiy** xalqlar ekanligi hamda ularning haqiqiy vatani Baqtriya-Toxariston ekanligini e’tirof etuvchi olimlar ko‘pchilikni tashkil etadi.

Xullas, o‘z davrida eftalitlar yirik davlat tizimini vujudga keltirdilar. Ular O‘rtta Osiyo, SHimoliy Hindiston, SHarqiy Turkiston, SHarqiy Eronni birlashtirgan ulkan davlatga asos solib, Kushon davlati o‘rnida undan ham kattaroq hududlarni

birlashtirdilar. Eftalitlar Eronning sosoniylar davlatiga, uning harbiy harakatlariga qarshi tura oldilar hamda sosoniylarning O‘rta SHarqdagи hukmronligiga chek qo‘ydilar. Eftalitlar sosoniylarning ichki ishlariga ham aralashib turdilar, hatto shohlardan qaysi birini saylash va tayinlash masalasini hal qilish ularning qo‘lida edi. Eron davlati har -yili ularga katta miqdorda o‘lpox to‘lab turgan.

### **Eftaliylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy tarixi.**

Eftalitlar yuqorida eslatilgan ulkan hududda boshqaruvni qo‘lga kiritgach obod dehqonchilik vohalariga, rivojlangan shahar va qishloqlarga, savdo yo‘llariga ega bo‘ladilar. Vaqt o‘tishi bilan esa mahalliy aholi bilan aralashib ketadilar. Natijada bevosita mahalliy aholining vorisiga aylanadilar. SHu boisdan 568-569 -yillarda Vizantiya imperatori YUstin II huzurida bo‘lgan turk elchisi imperatorning “eftalitlar shaharlarda yashaydilarmi yoki qishloqlardami?” degan savolga «ular shaharlik sulolalar, oliv hazratlari» deb javob bergan.

Darhaqiqat, olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ilk o‘rta asrlar O‘rta Osiyoda shahar madaniyati taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Jumladan, V asrda **Panjikentda** nisbatan qadimgiroq bo‘lgan qishloq o‘rniga yangi shahar barpo etiladi. Umumiy maydoni 18 hektar bo‘lgan bu shahar VI asrning boshlariga kelib mustahkam himoya tartibiga, ibodatxona, saroy va ijtimoiy jihatdan ajralib turadigan turar-joylarga ega edi. Sug‘d shaharlaridan yana biri **Poykandda** ham qizg‘in tadqiqot ishlari olib borilgan. YAnada qadimgiroq davrda (antik) asos solingen ushbu ko‘hna shahar ilk o‘rta asrlar davriga kelib kengayib boradi va V-VI asrning boshlariga kelganda uch qismli yirik markazga aylanadi hamda umumiy maydoni 18 hektarga etadi. Poykand qazishmalarida ilk o‘rta asrlarga oid ko‘plab moddiy madaniyat buyumlari topilgan bo‘lib, ular haqiqatdan ham Poykand bu davrda arab manbalarida ta’riflanganidek, “**Madina-at-tujjor**”-“Savdogarlar shahri” bo‘lganligidan dalolat beradi.

Ilk o‘rta asrlar davri ijtimoiy-iqtisodiy hayotda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yirik markazlardan (ehtimol, poytaxt shaharlardan) biri **Buxoro** edi. To‘g‘ri to‘rtburchak shakldagi ushbu shaharning asosi 21 hektar bo‘lib, bu erda mustahkam himoya inshootlari, hukmdor saroyi, mafkuraviy inshootlar, turar-joy qoldiqlari ochib o‘rganilgan. Topilgan moddiy madaniyat buyumlari Buxoro ilk o‘rta asrlardan boshlab O‘rta Osiyoning yirik madaniy va iqtisodiy markazlaridan biri bo‘lganligidan dalolat beradi. SHuningdek bu davrda shaharning ettita darvozasi bo‘lib, bu holat uning muhim savdot-ranzit yo‘li ustida joylashganligidan dalolat beradi. Bu davrda **Termiz** va uning atroflarida ham shaharsozlik madaniyatining jadallik bilan rivojlanganligini ko‘zatishimiz mumkin. Termiz atrofidagi **Zartepa** shahri ana shunday shaharlardan biridir. Antik davrda kichik manzilgoh paydo bo‘lgan Zartepa ilk o‘rta asrlarga kelib maydoni 17 hektar bo‘lgan yirik shaharga aylanadi.

Bu davrda sug‘orish inshootlari takomillashib yangi-yangi erlar o‘zlashtiriladi O‘zlashtirilgan erlarda, yirik sug‘orish inshootlari boshida, markazi shaharlarning atroflarida, dehqonchilik vohalarining chegaralarida qo‘rg‘onlar, qasrlar va istehkomlar qad ko‘taradi. Istehkomlarning to‘rt burchagi baland mutahkamlanib, devoru-mo‘rilari bir necha qator kamondan o‘q o‘zgich nishon tuynuklari va istehkomlar bilan ta’minlangan. Qalin mudofali zodagonlar

qo‘rg‘onlari ilk o‘rta asrlarning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot taqozosi bilan bunyod etilgan bo‘lib, asosan tashqi dushman hujumiga qarshi mudofa inshoati, harbiy garnizon to‘planadigan joy, ma‘muriy markaz, hamda oziq-ovqat va qurol-yarog‘ saqlanadigan ombor vazifasini o‘tagan. Umuman, kal’a, qo‘rg‘on va istehkomlar ilk o‘rta asrlar davrining o‘ziga xos me’morchilik namunalaridan bo‘lib, Naxshab vohasidagi Zahoki Maron, Buxorodagi SHahri Vayron, Xorazmdagi Fir qal’asi shular jumlasidandir.

Vohalarni tashqi dushmanidan himoya qilish maqsadida bir necha chaqirimlab qalin devorlar barpo etilgan. Samarqand vohasidagi 12 ta darvozaga ega bo‘lgan Devori qiyomat, Buxoro vohasidagi 336 kilometri Kampirak, Toshkent vohasidagi Kampirdevor istehkom devorlari shular jumlasiga kiradi. Bu davr me’morchiligida qasrlar qurilishi ayniqsa ahamiyatli bo‘lgan. Qasrlar odatda 2 qavatli, shipi tekis, gumbazsimon va ravoqsimon yopilgan bir necha xonalardan iborat bo‘lgan. V asrdan boshlab saroy, qasrlar qurilishida xom g‘isht bilan bir qatorda pishiq g‘ishtlar ham ishlatila boshlangan.

Eftalitlar davrida hunarmandchilik ham rivojlangan. Ayniqsa, kulolchilik, shishasozlik, chilangarlik, bo‘zchilik, zargarlik, qurolosovlik kasb-hunarlari ravnaq topgan. CHochda yasalgan o‘q va yoy “kamoni chochii” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Katta-kichik shaharlar soni ko‘paygan. Birgina Zarafshon vohasida Rivdad, Kushoniya, Xariman, Arqud, Romitan, Varaxsha, Poykand kabi savdo-hunarmandchilik shaharlari mavjud edi. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra Poykand shahri eftalitlarning poytaxti bo‘lgan.

Eftalitlar davrida dexqonchilik asosan sug‘orma dexqonchilikka asoslangan edi. Qadimgi ziroatkorlar katta va kichik daryolar, jilg‘alar suvlaridan foydalanganlar. Bunday sharoitda kanallar qazish va ularni mavsumiy tozalab turish muhim ahamiyat kasb etgan. Vaxsh vohasidan, Ustrushonadan, Sug‘ddan, Xorazmdan va Toshkent vohalaridan shunday kanallarning izlari topib o‘rganilgan.

V-VI asrlarda dehqonchilik vohalarida eftalitlarning o‘troqlashuvi kuchayadi va buning natijasida sug‘orma erlarga bo‘lgan ehtiyoj ortadi. Kichik-kichik sug‘orish kanallari qazib chiqarilib, minglab gektar yangi er maydonlari o‘zlashtiriladi. Sug‘orish uslubi takomillashadi, shohariqlar chuqurlashib, sersuv sug‘orish tarmoqlariga aylanadi. Xozirgi vaqtida ham mavjud bo‘lgan Zahariq, Bo‘zsuv, Darg‘om kanallari V asrda barpo etilgan eng yirik sug‘orish tarmoqlaridan bo‘lgan. SHuningdek, tog‘ oldilariga suv chiqarish uchun suv chiqarish asboblaridan keng foydalilanilgan. Yangi o‘zlashtirilgan erlarda zodagon dehqonlarning qalin xom g‘ishtdan urib chiqilgan hamda baland poydevor ustiga qurilgan ulkan qo‘rg‘onlari, istehkomlar yuzaga kela boshlagan.

Tohariston va Sug‘dda dehqonchilik bilan birgalikda bog‘dorchilik ham rivojlangan. Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarida g‘alladan tashqari sholi ham etishtirilgan. Xitoy manbalarining malumot berishicha, V-VI asrlarda SHarqiy Turkiston va O‘rta Osiyo ikkidaryo oralig‘i erlarida ko‘plab paxta etishtirilar edi. O‘rta Osiyoning paxta tolasi Xitoyda ham mashhur bo‘lgan. Bu davrga kelib er egaligi munosabatlarining takomillashuvi natijasida sug‘oriladigan er maydonlarining malum bir qismi mulkdor zodagon tabaqa vakillari – “dehqonlar” qo‘lida to‘plana boshlangan edi. Buning natijasida qishloq

jamoasining erkin dehqonlari ma'lum darajada zodagon dehqonlar asoratiga tushib, ularga qaram bo'lgan "**kadivar**" larga aylanib boradi.

IV-V asrlar O'rta Osiyoning pul muomalasida sezilarli o'zgarishlar bo'lib o'tadi. Bu o'zgarishlar tangalar zARB etishning markazlashuvi hamda mintaqaning turli hududlarida zarbxonalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq edi. Bu davrning boshlarida E.Rtveladzening tadqiqotlariga ko'ra, shimoliy Toxaristonda kushon tangalari va ularga taqlid qilib zARB etilgan tangalar muomalada bo'lgan. Butun V asr davomida Termizda mahalliy hukmdor tasviri tushirilgan mis tangalar zARB etilgan. CHag'aniyonda shaxanshoh Pero'z (459-448yy) davridan boshlab juda ko'plab sosoniylarning kumush tangalari kirib keladi.

Buxoro Sug'dida o'ng tomonida soqoldor hukmdorlar tasviri tushirilgan kumush va mis tangalar zARB etilgan bo'lsa, Samarqand Sug'dida V-VI asrlarda ters tomonida tik turgan kamonchi tasviri tushirilgan kumush tangalar zARB etilgan. Qarshi vohasida o'ng tomonida podsho boshini tasviri tushirilgan mahalliy kumush va mis tangalar muomalada bo'lgan. Xorazmda esa o'ng tomonida hukmdor boshi, ters tomonida otliq chavandoz tasviri tushirilgan kumush va mis tangalar zARB etilgan.

Evrosiyo mintaqasidagi umumiy vaziyat va kushon davlatining inqirozi xalqaro savdoga birmuncha salbiy tasir ko'rsatgan edi. Sosoniylar Eroni bilin munosabatlar ko'p hollarda urushlarga aylanib ketishi tufayli o'zaro savdo aloqalariga putur etgan edi. Buddaviylikning inqirozi tufayli O'rta Osiyoning Hindiston bilan munosabatlari ham yomonlashgan edi. Ammo, Xitoy bilan savdo munosabatlari avvalgidek yaxshi edi. Ilgari bo'lganidek, V-VI asrlarda ham Xitoya rangdor shishalar, qimmatbaho toshlar olib ketilgan bo'lsa, Xitoydan asosan ipak va atir-upa keltirilgan. Bu davrda Vizantiya bilan ham savdo aloqalari taraqqiy etadi. Xalqaro savdoda ayniqla sug'diylnarning ahamiyati katta edi. Manbalarning malumot berishicha, SHarqiy Turkistonda sug'diylnarning qishloqlari ham bo'lgan. YUrtlaridan uzoqda yashagan sug'diylar o'z vatanlari bilan doimiy aloqa qilib turganlar.

Arxeologik tadqiqotlar (tangashunoslik malumotlari, hunarmandchilik buyumlari) bu davrda O'rta Osiyoda xalqaro savdo bilan bir qatorda ichki savdo ham taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Bu davrda O'rta Osiyo shahar va qishloqlarida oltin, kumush, Badaxshon lalisi, hunarmandchilik buyumlari, harbiy qurol-yaroqlar, turli taqinchoqlar, rangli shisha va shisha buyumlar, turli xil mevalar, ip-gazlama, qorako'l, zotdor otlar bilan savdo qilinardi. Termiz, Naxshab, Kesh Samarqand, Poykand, Buxoro, CHoch, Varaxsha kabilalar o'sha davrdagi yirik savdo-sotiq markazlari edi.

### **Eftaliylar davlatida madaniy hayot.**

Ilk o'rta asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar O'rta Osiyo madaniyatiga ham tasir etmasdan qolmadidi. Bu davrdagi madaniy hayot dastavval antik davr madaniy ananalari asosida rivojlangan bo'lsada, Kushon davlati xarobalarida bir nechta mustaqil davlatlar va mulklarning paydo bo'lishi o'ziga xos mahalliy madaniyatlarning paydo bo'lishiga imkon yaratgan edi. Ilk o'rta asrlarda madaniyatining shakllanishiga shuningdek, qo'shni davlatlar avvalo, Hindiston,

Eron, Afg'oniston, Xitoy bilan hamda ko'chmanchi chorvadorlar bilan bo'lgan aloqalar ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan edi.

Bu davr memorchiligi O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. SHakllanayotgan mulkdorlar toifasi O'rta Osiyoning turli hududlarida yirik qalalar qurib, ular atrofini ximoya inshootlari bilan o'rab oladilar. Bunday qalalar vohalarda ko'pincha tabiiy tepaliklar ustiga buniyod etilgan. Bunday qalalar Xorazm, Toxariston, Sug'd, Ustrushona, Marv hududlaridan topib o'rganilgan. Memorchilikda asosan tosh, paxsa, xom g'isht va yog'och qurilish materiali sifatida ishlataladi.

Mil.IV-VI asrlar O'rta Osiyo xalqlarining diniy qarashlari zardo'shiylik, buddaviylik, xristianlik va moniylik diniy etiqodlari bilan bog'liq edi. IV-V asrlarga oid zardo'shiylik ananalari bilan bog'liq bo'lgan otashkadalar Qashqadaryodagi Erqo'rg'ondan, Panjikent atroflaridan, Buxoro vohasidan topib o'rganilgan. Ularning barchasida zardo'shiylik bilan bog'liq bo'lgan ossuariy (astadon) lar uchraydi. Tadqiqotchilarning fikricha,bu davrda zardo'shiylik diniga O'rta Osiyoning markaziy va shimoliy hududlarida sig'inishgan bo'lsa,mintaqaning janubiy hududlarida buddaviylik dini tarqalgan edi. Buddaviylik dinining ibodatxonalari Qoratepa, Fayoztepa (Termiz), Ushturmullo (Kobadiyon), Ajinatepa, G'ishttepa, Qalaikofirnihon (Toxariston), Marv kabilardan topib tadqiq etilgan.

O'rta Osiyodagi xristianlikning markazi Marv shahri edi. Beruniy malumotlariga ko'ra, Iso payg'ambar tug'ilganidan 200 -yil o'tgach xristianlar Marvda paydo bo'lgan edilar. "Tojik xalqi tarixi" kitobida berilishicha, 334 -yildayoq Marvda episkoplik, keyinroq esa Mitropoliya mavjud edi. Govurqaladan xristianlik ibodatxonasi qoldiqlari va xristianlar dafn etilgan qabriston ochib o'rganilgan. Sug'dning ayrim hududlarida (Samarqand va Panjikent) ham xristianlik tarqalganligi haqida malumotlar bor.

III asrning ikkinchi yarmidan boshlab O'rta Osiyoda moniylik dini tarqala boshlaydi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha,Moniylik diniga asosan SHarqiy Turkiston va qisman CHag'aniyon hamda Sug'd aholisi etiqod qilgan.

Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo xalqlari sanati devoriy suratlar,haykaltaroshlik,turli taqinchoq buyumlari orqali izohlanadi. Devoriy suratlar Dilbarjin (Avg'oniston), Varaxsha, Afrosiyob, Panjikentdan topib o'rganilgan bo'lsa, Quyovqo'rg'on, Vaxshi vohasi, Afg'onistondagi CHaqaloqtepa, Erqo'rg'ondan turli hajmdagi haykallar,zargarlik buyumlari topib o'rganilgan. Umuman olganda, boy bezaklar, sopol, metall idishlar, devoriy suratlar, hatto kiyimlardagi tasvirlar bu davrda O'rta Osiyodagi tasviriy sanatning rivojidan dalolat beradi.

Eftalitlar davrida chorvador aholi turkiycha so'zlashganligi sababli,turkiy til tobora ko'proq yoyila boshlaydi. Bu davrda o'troq aholining katta qismi sug'diy tilda so'zlashar edilar. Sug'd tili va yozuvi Ettisuv,Farg'onadan o'tib SHarqiy Turkistonga qadar etib boradi. Uning "Samarqand usuli"keng yoyilgan edi. Bundan tashqari Xorazm, Kxaroshtiy, Buxoro yozuvlari ham mavjud bo'lgan. Bunday yozuv yodgorliklari Zangtepa,Qoratepa, Afrosiyob xarobalaridan, Kofirqaladan topib o'rganilgan.

## **Adabiyotlar**

Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997.

Каримов И.А. Тарихийхотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998

Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Т.: Шарқ. 2000.

Сагдулаев ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т., 2000.

Сагдулаев А.С., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. - Т., 2006.

Ртвеладзе Э.В. История государственности Узбекистана. – Т.: Узбекистан. 2009.

Эшов Б.Ж. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи. (ўқув қўлланма). – Т.: Маърифат, 2009.

Эшов Б.Ж. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012.

## **5.Mavzu: Ilk o'rta asrlarda davlatchilik va boshqaruv Turk xoqonligi**

**Reja:**

- 1.Turk xoqonligining tashkil topishi.**
- 2. G'arbiy Turk xoqonligi.**
- 3.Turk hoqonligida davlat boshqaruvi.**

### **Turk xoqonligining tashkil topishi.**

VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Janubiy Sibir va SHimoliy Mongoliya ya'ni, Oltoy hududlarida turkiy qabilalar ittifoqi shakllana boshlaydi. Xalklarimiz davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan Turk hoqonligi xususida talaygina manbalar bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan bo'lsa-da, ularning ayrimlari bir-birini inkor etadi. Ushbu manbalar VI asrning oxirlarida yashagan vizantiyalik tarixchilar Menandr Protektor, Feofan Vizantiyskiy, suriyalik tarixchi Ionna Efessiylarning tarixiy asarlari, epigrafik yodgorliklar - Urxo'n-Enisey, runiy yozuvlari, Xitoyning "Tan xonadoni tarixi" qabilardir. Undan tashqari o'rta asrlar mualliflari at-Tabariy, Denovariy, Beruniy, Narshaxiylar asarlarida ham Turk xoqonligi to'g'risida ma'lumotlar uchraydi.

Ta'kidlash joizki turk atamasining ilk marotaba tilga olinishi 542 -yilga to'g'ri keladi. Turli manbalarda turklar "turk el", "turk", "turkash", "tukdus", "tukyu", "tuk-yut" kabi nomlar bilan tilga olinadi. **Kuchli, baquvvat, botir** kabi ma'nolarni anglatuvchi "turk" atamasi dastavval etnik xususiyatga ega bo'lmay ijtimoiy ma'noga ega bo'lgan. Turkarning kelib chiqishi xususida ko'plab afsonalar mavjuddir. Ayrim afsonalarda turklarning kelib chiqishi Nuh paygambarga borib taqalsa, ayrimlarida ular o'n yashar bola va ona bo'ridan tarqalganligi ta'kidlanadi. YAna boshqa bir afsonaga ko'ra, turk qabilasining ajdodlari Oltoyning shimoliy yon bag'irlarida joylashgan So viloyatidan kelib chiqqan bo'lib, bu erdag'i qabila boshlig'i Abanbu ularning ilk yo'lboshchisi bo'lgan.

Tarixiy manbalar ma'lumotlariga ko'ra, Turk xoqonligining paydo bo'lishi 551-552 -yillarga to'g'ri keladi. Dastavval, turklarning Ashin urug'idan bo'lgan Asan (Asyan, Asyan-shod) va Tuu turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar. Tuuning ug'li Bumin (Xitoycha Tumin) qo'shni Tele qabilasini o'ziga bo'yo'ndirib ancha kuchayishga muvaffaq bo'ladi. Bu paytga kelib anchagina mustahkamlangan Bumin boshchiligidagi qabilalar ittifoqi Oltoydagi o'zlar qaram bo'lib turgan jujan (juan-juan)lar qabilalariga qarshi kurash boshlab 551 -yilda (ayrim adabiyotlarda 552 -yilda) ularni tor-mor etadilar. Mana shu davrdan boshlab turkiy hukmdorlar o'zlarini jujanlar egallab turgan erlarning xakikiy egalari hamda jujanlarning mavqeい va kuch-qudratining vorislari sifatida Anaguy xoqon (kag'an) unvonini kabul qiladilar. Jujanlar hukmdori Anaguy joniga qasd qilib o'zini o'ldiradi.

551 -yilda Bumin Turk elining xoqoni sifatida oq kigizga o'tkazilib ko'tariladi. Ammo, 552 -yilda Bumin to'satdan vafot etib uning o'rniga ukasi Istami taxtga utiradi. Istami xoqon O'rta Osiyo, Volga va SHimoliy Kavkaz erlari uchun kurash olib borgan bo'lsa, uning o'g'illari Mug'an hoqon va Taspar

xoqonlar Markaziy Osiyo va Janubiy Sibirda o‘z hukmronliklarini o‘rnatadilar. Bu paytga kelib turklarning ashaddiy dushmani bo‘lgan jujanlarning kichik bir qismi Koreya va SHimoliy Xitoyga joylashadi, yana bir kismi esa g‘arbgan joylashib avarlar nomini oladi.

SHunday qilib, manbalarning ma’lumot berishicha, Bumin hoqonning vorisi bo‘lgan Mug‘an hoqon janubi-g‘arbiy Manchjuriyadagi Mug‘ul qabilalari bo‘lgan kidanlarni va Enisey kirg‘izlarini bo‘ysundirib Markaziy Osiyo va Janubiy Sibirda Turk eli hukmronligini o‘rnatadi. Turklarning g‘arbiy yurishlari ayniksa muvaffaqiyatli edi. VI asrning 60-yillari oxirlariga kelib Turk xoqonligi o‘sha davrdagi yirik davlatlar bo‘lgan Vizantiya, Sosoniylar Eroni, Xitoy kabilarning siyosiy va iqtisodiy munosabatlar tartibiga qo‘silib, Uzoq SHarqni O‘rtal er dengizi mamlakatlari bilan bog‘lovchi savdo yo‘li nazorati uchun kurash olib bordi.

VIII asr turk mualliflari o‘zlarining ajdodlari bo‘lgan ilk hoqonlarning harbiy yurishlari haqida shunday yozgan edilar: "Ular (hoqonlar - E.B.) sharqda Qodirkon adirlarigacha, g‘arbda Temir darvozagacha o‘z xalqlarini joylashtirdilar". Qodirkon adirlari bu - Katta Xingan toglari, Temir darvoza esa Boysun tog‘dagi Bo‘zgalaxona dovonida joylashgan.

576 -yilga kelib Turk hoqonligi Manchjuriyadan Kimmeriy Bosporigacha, Enisey yuqori oqimlaridan Amudaryo yuqori oqimlarigacha cho‘zilgan edi. SHu tariqa turk xoqonlari siyosiy va madaniy merosi O‘rtal Osiyo va Janubi-SHariq Evropa tarixiga sezilarli ta’sir kursatgan dastlabki Evrosiyo imperiyasiga asos solgan edilar.

VI asr 50-yillarining oxirlarida Istami xoqonga eftalitlarga qarshi harbiy harakatlar olib borish uchun qo‘lay imkoniyat paydo bo‘ladi. Eroy shohi Xusrav I Anushervon (531-579 yy.) eftalitlarga ulpon to‘lashni to‘xtatib qo‘yadi va ularga qarshi urushga tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi hamda Vizantiya bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yadi. Xusrav I siyosiy jixatdan biroz o‘nglanib olgach Turk xoqonligiga eftalitlarga qarshi ittifoq taklif etadi. Ayni vaqtida Vizantiyadan foydalangan Eron eftalitlardan Tohariston, CHag‘aniyon, Qobul atrofidagi erlarni tortib oladi.

563 -yilda eftalitlarga qarshi shimoldan turklar CHoch vodiysiga bostirib kiradilar. Tez orada ular tomonidan Samarqand, Kesh, Naxshab egallanadi. "SHohnoma"da ma’lumot berilishicha, hal qiluvchi jang Buxoro atroflarida bo‘lib o‘tadi va eftalitlarning Gatifar boshchiligidagi qo‘sishnari tor-mor etiladi. SHundan so‘ng turklar tezlik bilan xarakat qilib iloji boricha eftalitlarning ko‘proq erlarini o‘z qo‘llariga olishga harakat qiladilar. Amudaryoning janubiy sohilgacha bo‘lgan erlar, Eron, uning shimoldan Kaspiy sohillarigacha bo‘lgan erlar turklar qo‘liga utadi. Eftalitlarning mag‘lubiyatidan so‘ng bevosita ittifoqchilar o‘rtasida kelishmovchiliklar paydo bo‘la boshlaydiki, bu holat savdo yo‘li nazorati bilan bog‘liq edi.

Turklar O‘rtal Osiyo erlarini bosib olgach Buyuk ipak yo‘li katta qismining nazoratini o‘z qo‘llariga oladilar. Bu yo‘lning O‘rtal Osiyo hududlaridan o‘tuvchi qismida asosan Sug‘diylar ipak bilan savdo qilishni nazorat qilar edilar. Ipak matolarning asosiy xaridori Vizantiya bo‘lib, ipak savdosi Sug‘d savdogarlari va turk xoqonlariga katta daromad keltirar edi. IV asrning oxirlaridan boshlab

Sug‘dda, VI asrda Eron va Vizantiyada o‘z ipakchilik ishlab chiqarishining paydo bo‘lishi bu mahsulot sotilishini yanada kiyinlashtiradi.

Hoqonlikning bevosita g‘arbiy kismini boshqarib turgan Istami va bosh hoqon Muqan xoqon ipak savdosi mojarosini tinchlik bilan xal qilishga harakat kila boshlaydilar. Istami hoqon o‘z qo‘l ostidagi Sug‘d ixshidiga bu masalani hal etish vazifasini topshiradi. Eronga Turk hoqoni nomidan mashhur Sug‘d savdogari va diplomati Maniax boshchiligida elchilar guruhi jo‘natiladi. Xusravshoh o‘z atrofidagi amaldorlarning maslahatiga kirib, Sug‘diylar olib kelgan ipak matolarni sotib olib uni elchilar ko‘z o‘ngida yoqib tashlaydi. SHundan so‘ng Maniax boshqa xaridor -Vizantiya bilan kelishishga xarakat kiladi. 567 -yilda u Turk hoqonligining Konstantinopolga yuborgan elchiligiga boshchilik kiladi. Vizantiya ham Eron kabi Sug‘d ipak matolariga unchalik extiyoj sezmas edi. Ammo, eroniylarga qarshi turklar bilan ittifoqchilik tarafdori edi. SHu tufayli Turk hoqonligi elchilari imperator saroyida izzat-hurmat bilan ko‘tib olinadi.

Ushbu elchilik davomida Turk hoqonligi bilan Vizantiya o‘rtasida Eronga qarshi ittifoq tuziladi. Maniax orqaga qaytishda u bilan birga Vizantiya imperatorining elchisi, kilikiyalik Zemarx Turk hoqoni qarorgohiga keladi. Hoqon Zemarxni Tyan-SHandagi "Oltin tog" yaknidagi qarorgohida qabo‘l qiladi va turk qo‘sishlarining Eronga yurishida yo‘lboshlovchilik qilishni taklif etadi. Eron shohining turklar hujumini diplomatik yo‘l bilan ko‘statishga urinishi hech kanday natija bermadi. SHiddatli hujumlar bilan turklar Gurgонни va bir necha boy shaharlarni egallab, 569 -yilda Sug‘dga qaytadilar.

Turklarning Eronga ikkinchi marotaba yurishlari 588-589 -yillarga to‘g‘ri keladi. Turklarning CHur Bag‘a hoqon (ayrim adabiyotlarda Savg‘ yoki SHaba deyiladi) boshchiligidagi qo‘sini Xurosonga bostirib kiradi. Hirot yonida turk qo‘sishlari eroniylarning mashxur Baxrom CHubin boshchiligidagi qo‘sishlari bilan to‘qnashadi. Bu jangda Baxrom CHubin turk qo‘sishlarini tor-mor etib, turklar yo‘lboshchisini kamon o‘qi bilan xalok etadi. Qayta qarshilik kursatish foydasiz ekanligini anglagan turklar eroniylar bilan sulk, tuzishga majbur bo‘ladilar.

Arablar O‘rtal Osiyon bosib olgunlariga qadar turklarning O‘rtal Osiyodagi mulklari bilan Eron o‘rtasidagi chegaralar o‘zgarmadi. Arab bosqiniga qadar ipak va boshqa mahsulotlar ortgan karvonlar u yoki bu darajadagi barqarorlik bilan Eron, Xorazm va Volgabuyi orqali g‘arba qatnab turdi.

576 -yilda Muqan xoqon vafotidan so‘ng xoqonlik taxtiga uning ukasi Arslon To‘ba utiradi. U mamlakatning kuch-qudratini mustahkamlash maqsadida Xitoyning Si sultanati bilan shartnoma to‘zadi. Bundan tashqari u mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish choralarini ham ko‘radi. Ammo, 581 -yilda Arslon To‘ba vafotidan so‘ng Turk xoqonlari o‘rtasida o‘zar ichki kurashlar avj olib, natijada mamlakat ichida ahvol keskinlashib, iqtisodiy tanazzul boshlanib ketdi.

Aynan mana shunday keskin vaziyat sharoitida turkiy shahzoda Abruy boshchiligidida 585-586 -yillarda xalq harakati bo‘lib o‘tdi. Muhammad Narshaxiyning ma’lumot berishicha, Abruyning qarorgohi Poykand atrofida bo‘lib, u boy zodagonlar va savdogarlar ustidan qattiq nazorat o‘rnatganligi bois bu toifa aholisni Buxoro viloyatidan kuchib, Turkiston va Taroz atrofiga borib o‘rnashadilar.

Qochib borganlar Turk hoqonidan yordam so‘raganlar. Natijada turk sarkardasi SHeri Kishvar boshchiligidagi qo‘sishinlar qo‘zg‘oltonni bostiradilar va Abruyni o‘ldiradilar.

### **G‘arbiy Turk xoqonligi.**

Turk xoqonlari o‘rtasidagi o‘zaro kurashlar 20 -yildan ziyodrok, davom etib 603 -yilda davlatning 2 ta: G‘arbiy va SHarqiyligini kismlariga bo‘linib ketishi bilan yakunlandi. SHarqiyligini Turk hoqonligi Mug‘uliston hududlarini, G‘arbiy Turk hoqonligi esa, Ettisuv, CHu vodiysi, Volga, Kubanning quyisi qismi, Irtish, Ishim daryosi bo‘yidagi erlar, O‘rta Osiyo va SHarqiyligini Turkistonning bir kismini o‘z ichiga olgan. Hoqonlar SHeguy va To‘n yabg‘u davrlarida G‘arbiy Turk xoqonligi vaqtinchalik rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirdi. Bu davrda hoqonlikning hududlari kengaydi, davlat boyidi va harbiy qabila zodagonlarining mavqeい kuchayib ular hoqonlar hokimiyatidagi harbiy muvaffaqiyatlarni ta’minlab turdilar. SHaguy G‘arbiy hoqonlikning sharqiyligini chegaralarini Oltoy qilib belgiladi va o‘z hokimiyatini Tarim havzasini va sharqiyligini Pomir oldigacha cho‘zishga muvaffaq bo‘ldi. To‘n yabg‘u (To‘n Baxodir) hoqonlikning g‘arbiy hududlarida faol siyosat olib borib xoqonlikning kishki qarorgohini CHu daryosi vohasidagi yirik savdo hunarmandchilik markazi bo‘lgan Suyobga (xozirga To‘qmoq yakinidagi Oqbeshim ko‘hna shahri), yozgi qarorgohini esa Isfijob yaqinidagi Mingbuluoqqa, hozirgi Turkiston shahri yaqinida) ko‘chiradi. To‘n yabg‘uning yangi yurishlari tufayli hoqonlik chegarasi Amudaryoning yukori okimlaridan Hindiqushgacha cho‘ziladi.

To‘n yabg‘u hukmronligi davrida amalda mustaqil bo‘lgan O‘rta Osiyo davlatlari ustidan nisbatan qattiq siyosiy nazorat o‘rnataladi. CHunki bu davlatlarning vassalligi faqat o‘lpon to‘lash bilan chegaralanar edi. Isfijobdan Toshkent vohasigacha, shimolda Janubiy Afg‘oniston va shimoli-g‘arbiy Pokistongacha bo‘lgan hududlarga hoqon To‘n yabg‘uning ishonchli vakillari - tudunlar yuborilib, ular soliqlar yig‘ish va hoqon qarorgohiga yuboriladigan o‘lponlarni qattiq nazoratga oldilar. Mahalliy hokimlarga ularni hoqonlik ma’muriy boshqaruviga qo‘silganlik ramzi sifatida turk unvonlari berildi. SHu bilan birgalikda To‘n yabg‘u nisbatan kuchli bo‘lgan mahalliy hukmdorlar bilan shaxsiy munosabatlarini mustahkamlashga harakat qildi. Manbalarda To‘n yabguning Samarqand hokimiga o‘z qizini xotinlikka bergenligi xaqida ma’lumot bor. Xitoy manbasi To‘n yabg‘u haqida ma’lumot berar ekan shunday xabar beradi: ‘G‘arb varvarlari hali hech qachon bunchalik qudratli bo‘lgan emas’.

O‘ta yakkaxokimlik xususiyatiga ega bo‘lgan To‘n yabg‘u boshqaruvi - talon- tarojchilik urushlari natijasida boyib ketgan qabila zodagonlari orasida norozilik harakatlarini kuchaytirib yubordi. Boshlanib ketgan o‘zaro kurashlarni bartaraf etishga harakat qilgan To‘n yabg‘uning tog‘asi Qo‘l Baxodir jiyani o‘ldirib o‘zini Qo‘l Elbilga hoqon deb e’lon qiladi. Ammo, qabila boshliqlarining ayrimlari boshqa da‘vogarni qo‘llab-quvvatlaganlari tufayli yana qabilalararo kurashlar boshlanib ketadi. 630-634 -yillarga kelib hoqonlik o‘zining Sirdaryoning g‘arbidagi O‘rta Osiyo mulkalaridan mahrum bo‘ldi. G‘arbiy turk hoqonligining asosi bo‘lgan dulu va nushibi qabilalari o‘rtasida o‘zaro kurashlar avj olib ketdi.

634 -yilda nushibi qabilasi tomonidan qo'llab-quvvatlangan Ishbara Elterish SHer hoqon xokimiyat tepasiga keldi. U harbiy ma'muriy tartib bo'lgan "**o'n o'q eli**" boshqaruvini qayta tiklashga harakat qilib, qabila boshliqlarini o'ziga shaxsan tobe qilish maqsadida islohotlar o'tkazdi. Undan tashqari, amaldagi nazoratni amalga oshirish maqsadida Ishbara har bir mulkka xoqon urug'i a'zosi - **shodni** jo'natadi. SHodlar qabila zodagonlari bilan hech qanday aloqada bo'lmay, ularning markaziy hokimiyatga intilishini ko'zatib borgan. Bu mahalliy hokimlarning siyosiy tashabbuslarini nihoyatda chegaralab qo'yari edi. Ammo, Ishbara Elterish SHer boshchiligidagi hoqonlik hokimiyatining harbiy-siyosiy layokati qaram mulklar va qabilalarni ushlab turishga kodir emas edi. 638 -yilda dulu qabilasi o'zlariga jo'natilan shodni hoqon deb e'lon qildilar. SHundan so'ng dulu va nushibi qabilalari o'rtasida og'ir va qonli urushlar bo'lib o'tib g'arbiy hoqonlik ikki qismga bo'linib ketdi. SHunday bo'lsada, hoqonlikdagi qabilalararo va sulolalararo urushlar 17 -yil (640-657 yy.) davom etdi.

SHunday qilib, VII asrning o'rtalarida G'arbiy turk hoqonligi zaiflashib bir necha qismlarga bo'linib ketdi. Vaziyatdan foydalangan Xitoyning Tan imperiyasi qo'shnlari 657-659 -yillarda Ettisuvga bostirib kirdilar. Xitoy bosqinchilariga qarshi kurashlar uzoq -yillar davom etdi. Faqtgina VII asrning oxirlariga kelib hoqonlik o'z mustaqilligini tiklashga muvaffaq bo'ldi va xitoyliklar vakili Xusrav Bo'rishod mamlakatdan xaydab yuborildi.

### Turk hoqonligida davlat boshqaruvi.

Turk hoqonligida davlatning oliv hukmdori "**hoqon**" unvoniga ega bo'lgan. Xitoy manbalari ma'lumotlariga ko'ra, turkiylar xonni taxtga o'tqazishda maxsus marosim o'tkazishgan. YA'ni, amaldorlar bo'lajak xonni kigizga o'tqazib, quyosh yurishi buylab 9 marotaba aylantirganlar, ishtirokchilar esa uni qutlab va ulug'lab turganlar. So'ngra xonni otga o'tqazib, bo'yniga ipak mato bog'laganlar va undan "Siz necha -yil xon bo'lmoqchisiz?" deb so'raganlar. U necha -yil xon bo'lishini aytgan va shu muddat tugagach taxtdan ketgan.

Qadimgi turkiy afsonalarda berilishicha, turklarning tasavvuriga ko'ra, davlatchilikning markazi, davlatni o'z qo'lida birlashtiruvchi shaxs hoqon hisoblangan. Boshqaruvda hoqonlarning hukmron sulolasi asosiy bo'lib u uchta kuch - osmon (tangri), er-suvning kuch va irodasi hamda turk xalqining yaratuvchanlik faoliyatini tufayli yuzaga keltiriladi.

Hoqondan keyingi shaxs, birinchi amaldor "**YAbg'u**" (**Bahodir**) bo'lib, u bosh sarkarda hisoblangan. Ammo, yabg'u taxtga merosxo'rlik qila olmas edi. Turk xoqonligi taxtiga vorislik tartibi turk davlatchiligi tuzilishi uchun xos bo'lgan uluslarga bo'linish tizimiga asoslanib belgilanar edi. Ushbu tizimga ko'ra taxt aksariyat hollarda otadan o'g'ilga emas, akadan ukaga, amakidan jiyanga meros qolar edi. Taxt merosxo'ri tegin (shahzoda) deb yuritilgan. SHahzodalar to taxtga o'tirgunlariga qadar o'zlariga berilgan uluslarni boshqarib turganlar. O'rta Osiyodagi mahalliy hokimlarning faoliyatini nazorat qiluvchi amaldor, hoqonning nazoratchisi - "**tudun**" deb atalgan. Turk hoqonligi konfederativ davlat bo'lgan. Turkiylar o'z yurti va davlatini "**el**" deb atashgan. Birinchi turk hoqoni Buminxon **elxon** unvoniga ega bo'lganligi bejiz emas.

Xoqonlik tarkibidagi ko‘plab qabila va elatlarni birlashtirish va boshqarib turish, ulardan ma’lum miqdordagi soliqlar va o‘lponlarni o‘z vaqtida yig‘ib olish maqsadida hoqonlikda maxsus ma’muriy va harbiy-siyosiy boshqaruv tizimi joriy etilgan edi. Davlatni boshqarishda oliy hukmdorga uning yakin qarindoshlari, avvalo, hukmron sulola a’zolari hamda ular tomonidan barpo etilgan boshqaruv tizimi yordam berar edi. Manbalarning ma’lumot berishicha, u to‘rtga bo‘lingan. YA’ni, qarindoshlar, hoqonga ittifoqdosh bo‘lgan qabila va xalklar; hoqonning o‘ng tomonida o‘tiruvchi amaldorlar va ma’muriy xodimlar; hoqonning chap tomonida o‘tiruvchi amaldorlar va xodimlardan iborat bo‘lgan. Hoqonning qarindoshlari - o‘g‘illari, amakisi, jiyanlari va aka-ukalariga “**tegin**” unvoni berilgan. Xitoy manbalarida ma’lumot berilishicha, hoqonlikda beshta oliy mansab - **exu (yabg‘u)**, **she (shod)**, **dele (tegin)**, **silifa (eltabar)** va **tutunfa (tudun)** qabilar mavjud bo‘lib, ularning barchasi meros qilib qoldirilgan.

Turk hoqonligi davlatining asosini er bilan birga xalq tashkil etar edi. O‘z davrida O‘rta Osiyoda davlatchilikning mustaqil va an’anaviy shakllarini rivojlantirgan turkiylar davlati mavjud jamiyatning muayyan ijtimoiy tuzilmalariga va qadimgi turklarning davlat tomonidan tashkil etilgan hamda nazorat qilinadigan xo‘jalik faoliyatiga tayanar edi. Tarixiy adabiyotlarda berilishicha, bu faoliyatning asosini ko‘chmanchi chorvachilik tashkil etgan. CHorvador turklarda urug‘-qabilachilik an’analari nihoyatda kuchli bo‘lib, qabila va urug jamoalarining asosi katta oilalardan iborat bo‘lgan. Ko‘chmanchi chorvadorlar xalq ommasini turklar “**budun**” yoki “**kora budun**”deb atashgan.

Hoqonlikda keng mikyosda dehqonchilik ham qilinar edi. Xitoy manbalarini, “garchi turklar doimiy yashash joylariga ega bo‘lmasa ham, lekin ularning har birining ajratib berilgan eri bor”ligi haqida ma’lumot beradi. Aynan mana shunday “ajratib berilgan er”larda dehqonlar mavjud suv manbalarini hamda lalmikor erlar imkoniyatdan foydalaniib asosan donli ekinlar etishtirganlar. Mevali daraxtlardan bog‘-rog‘lar etishtirishga alohida ahamiyat bergenlar. Manba tili bilan aytganda, “(mevali) daraxtlar savlat to‘kib turgan”.

Turklardagi qabila va urug jamoalarining katta oilalarida uy qo‘llari ham mavjud bo‘lar edi. Qo‘llarning ko‘payishi bilan sinfiy munosabatlar tarkib topa boshlagan. Lekin qo‘lchilik ijtimoiy hayotga keng kirib kelmagan. SHu bois bo‘lsa kerakki, manbalar hoqonlikda qo‘llar mexnatidan keng foydalanish haqida amalda hech kanday ma’lumot bermaydi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, ko‘proq ayollar mexnatidan foydalanilgan va qo‘llar asosan uy ishlari bilan shug‘ullanishgan. Ko‘pincha jamoada ayollar qo‘l qilib olib ketilar edi. Lekin, qo‘l ayollardan ham og‘ir ishlarda foydalanilmay, balki uy-ro‘zgor ishlarida ishlatilinlar edi. Qo‘l erkakmi, ayolmi baribir kochib ketavergan. Qochgan qo‘l ta’qib qilinmagan va uning uchun hech kim tovon to‘lamagan. Turk hoqonligining markaziy boshqaruv tizimi asosan yirik siyosiy davlat tadbirleri (davlat osoyishtaligini saqlash, davlat sarhadlarini kengaytirish, soliq tizimi, ichki va tashqi savdo, diplomatik munosabatlar va bosh.) bilan mashg‘ul bo‘lib o‘zlarini zabit etgan hududlardagi boshkaruv tizimiga ma’lum darajada erkinlik berilgan. SHuning uchun ham Farg‘ona, Sug‘d, SHosh, Toxariston, Xorazm va boshqa mulklardagi boshqaruv tartibi asosan mahalliy sulolalar qo‘lida bo‘lgan. Misol uchun, Sug‘d va Farg‘onada oliy hukmdor - “**ixshid**” Toxaristonda - “**malikshoh**”,

Xorazmda - "**xorazmshoh**", Keshda – “**ixrid**”, Buxoroda - "**xudot**", Ustrushonada - "**afshin**", CHoch va Ilokda – “**budun**” deb atalgan.

Turk xoqonligi davrida Sug‘d hududlariga hozirgi Panjikentdan Karmanagacha bo‘lgan erlar kirgan. Buxoro esa, VII asrdan boshlab mustaqil mulklar ittifoqidan iborat bo‘lgan. Sug‘dning mahalliy hokimlari ayrim vaqtarda CHoch va Xorazmning mustaqil hukmdorlari birlashar edilar. Bunday yirik siyosiy birlashmalar ma’lum muddatlarda yirik shaharlarda o‘z qurultoylarini o‘tkazib turganlar.

Farg‘ona Sug‘d siyosiy ittifoq, iga kirmagan bo‘lib, u alohida mustaqil davlat edi. Uni afshin boshqargan bo‘lib, Farg‘onaliklar Tyanshan xalqlari bilan o‘zaro aloqada bo‘lganlar. Xorazm boshqa mulklarga nisbatan ancha mustaqil edi. Mamlakatni Afrig‘iyalar sulolasiga mansub podsholar boshqarib turgan.

Ta’kidlash lozimki, Turk xoqonligi ma’lum darajada to‘liq ishlab chiqilgan jinoiy qonunchilikka ega bo‘lgan. Sodir etilgan jinoyat uchun jazoning asosiy turlari – qatl etish odam a’zolarini kesib tashlash, zararni to‘lash, mol-mulk tarzida tovon to‘lashdan iborat edi. Misol uchun, manbalarning ma’lumot berishicha, o‘lim jazosi davlatga qarshi jinoyatlar uchun (isyon ko‘tarish, sotqinlik) hamda nohak yoki qasddan odam o‘ldirganlik uchun berilgan. O‘g‘irlik qilgan yoki bo‘zuqlik qilgan shaxsning qo‘li yoki oyog‘i kesilgan. Shaxsga qarshi qaratilgan boshqa jinoyatlar etkazilgan zararni o‘n barobar qilib to‘lash, jarohat etkazgani yoxud mayib qilgani uchun mol-mulk tarzida tovon to‘lash, qizi, xotinini qo‘llikka berish, suyagini sindirganlik uchun esa ot berish yo‘li bilan jazolanardi.

### **Adabiyotlar**

Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997.

Каримов И.А. Тарихийхотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998

Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Т.: Шарқ. 2000.

Сагдулаев ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т., 2000.

Сагдулаев А.С., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. – Т., 2006.

Ртвеладзе Э.В. История государственности Узбекистана. – Т.: Узбекистан. 2009.

Эшов Б.Ж. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи. (ўқув қўлланма). – Т.: Маърифат, 2009.

Эшов Б.Ж. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012.

## **6.Mavzu: Arablarning O‘rta Osiyonni istilo etishi va ularning Movarounnahrdagi boshqaruvi**

**Reja:**

- 1.Arablarning O‘rta Osiyonni istilo etishi.**
- 2.Arablarga qarshi xalq ozodlik xarakatlari.**
- 3.Arab xalifaligi davlat boshqaruvi.**

**Arablarning O‘rta Osiyonni istilo etishi.**

VI asrning birinchi yarmida Arabiston yarim orolida asosini ko‘chmanchi seliy qabilalari tashkil etgan Arab xalifaligi paydo bo‘ladi. Arabiston yarim orolida islom dinini yoyish orqali mustahkamlangan bu davlat VII asrning boshlaridan boshlab o‘z hududlarini g‘arb va SHarq tomonga kengaytirish harakatini boshladi. Xususan 642 -yilda Naxavanddagi jangda Eron sosoniylari tor-mor etilgach O‘rta Osiyo erlariga hujum uchun imkoniyat yaratiladi.

Arablarning O‘rta Osiyoga dastlabki yurishlar Ubaydulloh ibn Ziyod boshchiligidagi 651 -yilda Marvni egallash bilan boshlandi. Arablar Amudaryo (Jayxun)dan shimolda joylashgan erlarga "Movarounnahr", ya’ni, "daryoning ortidagi erlar" deb nom berishadi. Narshaxiy va arab muallifi YOqut bergen ma’lumotlarga ko‘ra, Muhammad payg‘ambarning shaxsan o‘zi Movaraunnahrni buysundirishni muqaddas deb hisoblagan va islomga e’tiqod etuvchilarni bu muqaddas ishga da’vat etgan.

652 -yilda arablar Balx shahrini egallashga muvaffaq bo‘ldilar. O‘sha -yili Amudaryodan o‘tib Movaraunnahrqa hujum qilish rejasi arablar uchun muvaffaqiyatsiz tugaydi. Ammo, Xuroson noibi Abdulloh ibn Amir 652 -yilda CHag‘aniyonni egallashga muvaffaq bo‘ldi. Bu esa ilk bor Movaraunnahr erlarini egallash edi. 654 -yilda Sug‘ddagi Maymurg‘ qal’asiga arablarning birinchi hujumi bo‘ladi. 657 -yilda arablar CHag‘aniyonga qayta yurish qilib eftalitlarga kuchli zarbalar berdilar. Arablar keng miqyosdagi hujumlarga tayyorgarlik ko‘ra boshlagan edilar. Manbalarning ma’lumot berishicha, Movarounnaxrga yurish qilishdagi harbiy-siyosiy tayyorgarlikdan biri, xalifalikning Basra va Kufa shaharlaridan 50 ming arab oilasi ko‘chirib keltirilishi va Xurosonning turli shaharlariga garnizon sifatida joylashtirilishi bo‘ldi.

673 -yilning oxiri - 674 -yilning boshlarida arablarning Xurosondagi noibi Ubaydulloh ibn Ziyod Movaraunnahrqa hujum qilib Romiton va Poykandni egallaydi hamda Buxoro shahrini qamal qiladi. Ammo, buxoroliklar va turklarning ittifoqchi qo‘sishnlardan qattiq qarshilikka uchragach, sulh tuzishga majbur bo‘ladi.

676 -yilda Xurosonning yangi noibi Said ibn Usmon Buxoroga yurish qilib Buxoro malikasi Xutakxoto‘n qo‘sishnlarini tor-mor etadi va Samarqandga hujum boshlaydi. Ammo, bir oy davom etgan bu urushda Sug‘diylar arablarga qattiq qarshilik ko‘rsatdilar. Natijada arablar sulh to‘zib orqaga qaytadilar va yo‘l-yo‘lakay Termizni talon-taroj etadilar. 683 -yilda xalifa YAzid vafot etganidan so‘ng xalifalikda toj-taxt uchun kurash boshlanib ketadi. Bunday vaziyatda arablar yana Movaraunnahrqa hujum qilishdan deyarli to‘xtab, o‘z ichki nizolari bilan band bo‘lib qoladilar. Xalifa Abdumalik ibn Marvon (685-705 yy.) davrida o‘zaro ichki kurashlarga chek qo‘yilib arablar Movaraunnahrqa jiddiy harbiy xarakatlar boshladilar.

Umuman olganda, arablarning yarim asr davomida Xuroson noiblari Abdulloh ibn Amir, Ubaydulloh ibn Ziyod, Sayd ibn Usmon, Salmo ibn Ziyod qabilar tomonidan uyushtirilgan hujumlar talon-taroj qilish, o'lkadagi harbiy-siyosiy vaziyatni o'rganish, boyliklarini olib ketish maqsadida uyushtirilgan edi. 705 -yilda Qutayba ibn Muslim Xuroson noibi etib tayinlangach, Movaraunnahrni butunlay bosib olish harakati boshlanadi. O'rta Osiyodagi siyosiy parokandalik va kichik davlatlarning bir-birlari bilan tez-tez nizolarga borib turishi Qutaybaga nihoyatda qo'l kelgan edi. 706 -yilda u katta qo'shin bilan Movaraunnahrga yurish boshladi va Poykand shaxri 15 kunlik kamaldan so'ng egallandi.

Arablarga qarshi turklar, Sug'diyilar umuman, mahalliy aholi o'zaro ittifoq tuzishga erishgan bo'lsa-da, Qutayba nayrang yo'li bilan bu ittifoqni bo'zishga muvaffaq, bo'ldi va 708-709 -yillarda Buxoro va uning atroflariga bir necha marta yurishlar qilib Buxoroni zabit etdi. Qutayba 710 -yilda SHuman, Nasaf va Keshni egalladi. 710-712 -yillarda Samarqand ixshidi Tarxun va Xorazmshoh Xurzod Qutayba bilan tinchlik sulhi to'zib unga yirik mikdorda boj to'laydilar. Ammo, Samarqand aholisining tovon to'lashga qarshilik ko'rsatishi, norozilik natijasida Tarxunning taxtdan ketishi va o'limi, Sug'd podshosi va Samarqand afshini sifatida Gurakning taxtga o'tirishi arablarning Samarqandga hujumlari uchun bahona bo'lган edi. SHuningdek, Qutayba "Tarxunning o'limi uchun qasd olaman", deb e'lon qildi va Samarqandga hujum uyushtirib, 712 -yilda uni bosib oldi. Mug' tog'i hujjatlarining ma'lumot berishicha, 712-713 -yillarda Sug'd, CHoch, Farg'ona va Panjikent hokimlari arablarga qarshi ittifoq to'zib vaqtincha g'alabalarga erishgan bo'lsa-da, Qutayba bu ittifoqka rahna solib, ularni tor-mor etishga muvaffaq bo'ldi. 714 -yilda Qutayba ibn Muslim turklardan kelayotgan yordam kuchini to'xtatib qo'yish maqsadida CHoch vohasiga qayta bostirib kirdi va Isfijobni egalladi. 715 -yilda Qutayba Farg'onaga ikkinchi marotaba yurish uyushtiradi. SHu -yili Qutayba o'ziga dushman bo'lган xalifa Sulaymonga qarshi isyon kutaradi va mag'lubiyatga uchrab, o'ldiriladi. SHunday qilib, arablar qisqa muddat ichida Movaraunnahr hududlarini bosib oldilar-ki, buning sabablari quyidagicha edi:

1. O'lkada hukm surayotgan siyosiy tarqoqlik va mahalliy hukmdorlarning o'zaro kurashlari arablarga juda qo'l kelgan edi. CHunki, parokanda va siyosiy jihatdan tarqoq hududlarni alohida-alohida zabit etish Qutayba uchun qulay edi.
2. O'zaro birlashish harakatida bo'lган va ittifoqchilik uchun harakat qilgan mahalliy hokimlar orasiga Qutayba turli nayranglar bilan rahna solishga erishgan edi.
3. Arablar o'zaro kurashayotgan hokimlarning biriga ikkinchisini engishi uchun yordam ko'rsatib, keyin ularning har ikkisini ham birin-ketin buysundirdilar. Misol uchun, Sug'dni zabit etishda Qutayba arab qo'shini bilan bir qatorda Xorazm, Buxoro va Nasafning kuchlaridan foydalangan edi.
4. Arablar Movarounnahrga qadar juda katta hududlarni bosib olgan bo'lib, katta boylik va harbiy zahiralarga ega edilar. Arablar qo'shiniga muntazam ravishda bosib olingan erlar va ichki viloyatlardan yangi harbiy kuchlar safarbar kilinib turilar edi.

## **2. Arablarga qarshi xalq ozodlik xarakatlari.**

Arablar olib borayotgan bosqinchilik siyosatiga qarshi birinchi bo'lib, 720 -yilda Sug'd aholisi bosh ko'targan va bu harakatta Samarqand ixshidi Gurak va

Panjikent hokimi Devashtichlar boshchilik qiladilar. Bu harakat umumxalk ko‘zg‘oloniga aylanib ketganligi bois, Xuroson noibi Sayd ibn Abdulaziz bu ko‘zg‘oloni bostirishga muvaffaq bo‘la olmadi. 721 -yilda xalifa YAzid ibn Abdumalikning tavsiyasi bilan Sayd ibn Amir al-Xaroshiy Xuroson noibi etib tayinlanadi. U ko‘zg‘olonchilar bilan mo‘zokaralar olib borishi natijasida ko‘zg‘olonchilarning bir kismi arablar tomoniga (Gurak boshchiligida) o‘tgan bo‘lsa, bir qismi shafqatsizlarcha bostiriladi.

VIII asrning 2-choragidan boshlab arab xalifaligida ikkita sulola -Ummaviylar va Abbosiylar o‘rtasida kurash avj oldi. Ma’lumki, ulkan xalifalikni 667 -yildan boshlab Ummaviylar sulolasi boshqarib kelar edi. Bu sulola davrida juda ko‘p siyosiy o‘zgarishlar, diniy mazhablar, guruhlarning kuchayishi, boshqarishdagi nomutanosiblik, mustamlakachilik siyosati, zo‘ravonlik,adolatsizlikning avj olishi ruy berdi-ki, bu narsa sulolaning keyingi davrida uning faoliyatini qiyin ahvolga solib qo‘ydi. 718 -yildan boshlab Muhammad payg‘ambarning amakilari Abbasning tarafdarları - Abbosiylar o‘z g‘oyalarini targ‘ib qila boshladilar. Ularning hokimiyat tepeisiga kelishida Abu Muslim va uning harakati muhim ahamiyat kasb etdi. 749 - yilda Abu Muslim qo‘shini xalifalikning markaziy viloyatlariga yurish qilib, Iroq va Jazoirda Ummaviylarga hal qiluvchi zarbalar berdi. Qo‘zg‘olonchilar poytaxt Damashqni ham qo‘lga olib, xalifa Marvon II ni taxtdan ag‘dardilar hamda Abbosiylardan bo‘lgan Abo‘labbos Safaroh (749-754) taxtga o‘tiradi. Ammo, hokimiyat tepeisiga boshqa sulola vakillari kelsa ham arablarga qarshi kurash tuxtamadi.

751 -yilda Buxoro shaxrida SHarik ibn SHayxulmaxr boshchiligida ko‘zg‘alon ko‘tariladi. Qo‘zg‘olonchilar shialik talablarini ilgari surib, Ali avlodidan xalifa tayinlash shiorini kutarib chiqishadi. Bu ko‘zg‘olon Abu Muslim jo‘natgan Ziyod ibn Solih boshchiligidagi qo‘shinlar va buxorxudot Qutayba ibn Tug‘shod yordamida bostiriladi. 755 -yilda Abu Muslim xalifa Abu Ja’far tomonidan Bag‘dorra xiyonatkorona o‘ldiriladi. Uning do‘sti va safdoshi Sumbad o‘sha - yiliyoq do‘sti uchun o‘ch olish maqsadida ko‘zg‘olon ko‘taradi. Qo‘zg‘olon tez orada Xuroson va Tabaristonga yoyiladi. 70 kun davom etgan qo‘zg‘olon xalifa qo‘shinlari tomonidan qattiqqo‘llik bilan bostiriladi.

VIII asrning 70-80-yillarida Movaraunnahrda juda ulkan xalq Qo‘zg‘oloni ko‘tariladi. Tarixda "oq kiyimlilar" qo‘zg‘oloni" deb nom olgan bu harakatga asli kelib chiqishi Marv atroflari yoki Balxdan bo‘lgan Muqanna taxallusli Xoshim ibn Hakim boshchilik qiladi. Qo‘zg‘olon 776 -yilda boshlanib, o‘sha -yili Muqanna Amudaryodan o‘tib Kesh viloyatiga keladi va Kesh yaqnidagi Sanam qal’asini o‘ziga qarorgoh, qiladi. Qo‘zg‘olon tez orada Sug‘d, Iloq SHosh, Naxshab va CHag‘aniyon hududlariga yoyiladi. Arab qo‘shinlari bir necha -yil davomida Muqanna qo‘zg‘oloniga qarshi qaqqhatqich kurash olib borib, VIII asr 80-yillari boshlarida qiyinchilik bilan qo‘zg‘oloni bostirishga muvaffaq bo‘ldilar.

### **3. Arab xalifaligi davlat boshqaruvi.**

Arablar O‘rta Osiyon bosib olgach bu hududdagi hamma shahar va aholi joylarida o‘z qo‘shinlarini joylashtirdilar. Bu harbiy kuchlar o‘z vaqtida mahalliy aholi ustidan nazorat qilib turardi. Arab xalifaligi tasarrufiga o‘tgan Movaraunnahr

hududida ko‘pgina yirik er egalari - dehqonlarning mavqeい avvalgi holaticha saqlanib qoldi. Ular siyosiy jihatdan xalifa va uning noibiga buyso‘nar edilar.

Butun VIII asr davomida arab zodagonlarining dehqonlar bilan til topishuv hollari kuchayadi va aynan mana shu davrda yirik dehqon urug‘ aymoqlari qo‘li ostidagi er-mulkarning yuqori arab harbiy mulkdoriga o‘tishi ruy beradi. Arab qo‘shini tarkibiga mahalliy aholi ichidan ko‘plab erkaklar majburan safarbar qilindi. Harbiy harakatlar natijasida aholining bir qismi halok bo‘ldi, bir qismi asirga olindi. Barcha shahar va qishloqlarda o‘z harbiy garnizonlarini joylashtirgan arablar, shu harbiy kuchlarga tayanib aholidan turli soliqlar undirishar, ularni turli jamoa ishlariga safarbar qilishar edi.

Yirik er egalari o‘rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshilik arablarning aralashuviga sabab bo‘lar yoki mulkning bir shaxsdan ikkinchisiga o‘tishini ta’minlar edi. O‘rtal asr mualliflari ma’lumotlariga ko‘ra, dehqonlar qo‘li ostida kishlok jamoalari bo‘lib, bu jamoadan er olgan kishilar xiroj to‘laganlar. Dehqonlar mustaqil qo‘rg‘onlarda hayot kechirib, ularning yaxshi qurollangan harbiy bo‘linmalari bo‘lgan. Bunday bo‘linmalarning askarlari **chokarlar** deb atalgan. Dehqonlar xalifa noibining mahalliy aholi orasidan bo‘lgan vakiliga buysunadilar. Mehnatkash aholi, asosan kadivarlar, kashovarzlar hamda qo‘llar dehqonlarda mavjud bo‘lgan er-mulkarning ma’lum ulushini ijaraga olib ishlashgan va buning evaziga soliq to‘laganlar. Dehqonlar orasida er-mulk, shaxsiy uy-joy va qo‘rg‘onlar masalasida nizo va janjallar chiqib qolsa, muammoni xalifa hal qilgan. Har bir huquqiy muammo islom qono‘n-qoidalariga binoan ko‘rib chiqilgan.

VIII asr o‘rtalariga kelib Movaraunnahr hududida siyosiy boshqaruv arab xalifaligi siyosiy tizimiga moslashtirilgan edi. Viloyatlardagi hokimlar va boshqa hukmdorlarning qo‘li ostidagi ma’muriy-idora usuli o‘z shaklini saklab dolgan builshiga qaramay, xokimlarning xalifa noibiga itoat etishlari shart edi. Mahalliy davlat boshliqlarining ko‘philigi o‘z huquqlari va imtiyozlarini saqlab qolish maqsadida islom dinini qabo‘l qilgan edilar. Islom dinini qabul qilmagan zodagonlar o‘z mol-mulklaridan mahrum etilar yoki katta miqdordagi tovon tular edilar.

Arablar iqtisodiy hayotni o‘z qo‘llaridan chiqarmaslik maqsadida bosib olingan hududlarda sosoniylar tartibidagi soliq tizimini joriy qildilar. Bo‘lar asosan quyidagilar edi:

1. **Qavonin** yoki **mukati‘a** - mayda viloyatlar va tumanlardan xazinaga tushib turgan yig‘in.
2. **MaqrSIMA** – hosilning ma’lum ulushi miqdorida to‘langan. Uning hajmi sug‘orishga bog‘liq holda belgilangan.
3. **Misoxa** er hajmiga qarab miqdori belgilanadigan soliq bo‘lib, o‘nda ekin ekilishi yoki ekilmasligiga e’tibor berilmagan.

Bu soliq tizimiga er solig‘i - **xiroj** (hosilning undan bir yoki undan ikki kismi miqdorida), chorva, hunarmandchilik, savdo-sotiqlik **zakot** (qirqdan bir miqdorda) hamda islomni qabul qilmagan shaxslardan olinadigan - **jizya** solig‘i ham qushilgan.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, arablarning O'rta Osiyon bosib olingan hududlarini boshqarish markazi Marv shahri bo'lib, bu erdan turib xalifaning noibi Movaraunnahr hamda Xurosonni idora qilgan. YUqorida ta'kidlaganimizdek, VIII asrning o'rtalari va oxirlariga kelib Movaraunnahr va Xuroson hududlarida siyosiy boshqaruvaq arab xalifaligi siyosiy tizimiga moslashtirib bo'lingan edi. Bu davrda Movaraunnahrda Sug'd, SHosh, Farg'ona, Xorazm, Ustrushona, Toxariston qabilardagi mahalliy hokimlar zimmasiga aholidan belgilangan soliqlarni yig'ish, ma'muriy boshqaruvni amalga oshirish asosida islom dini g'oyalarini aholi o'rtasida yoyish asosiy vazifa qilib belgilangan edi. Mahalliy hokimlar faoliyati xalifa tomonidan tayinlanadigan maxsus amirlar tomonidan katta nazorat ostiga olingan bo'lib, bundan tashqari ular xalifaning Xurosondagi noibiga itoat etishi shart bo'lgan.

Arablar istilosidan keyin Movaraunnahrda musulmon qonunchilik tizimi ham joriy etildi. Islom huquqsho'nosligining asosini tashkil etuvchi shariat muqaddas kitob - Qur'oni karim va Hadisi sharifga hamda fikhshunos olimlarning turli savollarga javoblari va qarorlariga tayanar edi. Masalaning yana bir jihat shundaki, Islom dinining ko'p jihatdan afzalligi, ahloq va intizom nuqtai nazaridan ommaviyiligi xususiyati arablar bosib olgan mamlakatlar aholisi tomonidan uning tez orada qabul etilishiga sabab bo'ladi. Qutayba singari uni bosqinchilik va zo'ravonlik bilan olib kelish mumkin emas edi. Qachonki islom moxiyatiga etilgachgina unga rag'bat va e'tiqod kuchayib ketadi. Olik-soliq, maishiy hayot bobida, zakot masalasida Qur'on va SHariat ahkomlarining qoidalari mehnatkash aholi tomonidan tezda qabul qilindi. Alloh oldidagi tenglik esa dinning ahamiyatini kuchaytirar edi. Bu o'rinda islom dinining xakparvarlik ruhi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

### **Adabiyotlar**

Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997.

Каримов И.А. Тарихийхотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998

Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Т.: Шарқ. 2000.

Сагдуллаев ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т., 2000.

Сагдуллаев А.С., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. - Т., 2006.

Ртвеладзе Э.В. История государственности Узбекистана. – Т.: Узбекистан. 2009.

Эшов Б.Ж. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи. (ўқув қўлланма). – Т.: Маърифат, 2009.

Эшов Б.Ж. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012.

## **7.Mavzu: Somoniylar davlati, davlat boshqaruvi tartibi, huquqiy munosabatlar.**

**Reja:**

- 1. Tohiriylar davlati.**
- 2. Safforiylar davlati.**
- 3. Somoniylar davlatining tashkil topishi.**
- 4. Somoniylar davlatining davlat tizimi va boshqaruvi.**

### **1.Tohiriylar davlati.**

Bu sulolaning ilk vakili Roziq ibn Sayqal Horun ar-Rashid davrida Seyiston hokimi Abumuhammad Talx ibn Abdulloh qo‘lida xizmat qilgan. Uning Mus’ab, Xusayn va Toxir degan o‘g‘illari bo‘lib, keyinroq Toxir Hirotdagi Bo‘shang shahrining hokimi bo‘ladi. Ma’lumki, Xorun ar-Rashid vafotidan so‘ng uning katta o‘g‘li Amin xalifa bo‘ladi. Ammo Xorun ar-Rashidning kichik o‘g‘li Ma’mun (Ma’mun-laqabi, asli ismi Abdulla) ham taxtga da’vogar edi. SHu bois 811 -yildan boshlab aka-ukalar o‘rtasida toj-taxt uchun kurash boshlandi. Ushbu kurashda Tohir ibn Husayn Ma’mun qo‘sishinlariga boshchilik qilib 813 -yilda Bag‘dod shahrini egallaydi va Ma’mun xalifalik taxtiga o‘tiradi. Ma’mun xalifa bo‘lib olgach (813-833yy) Tohir ibn Husayn tez orada xalifalikning eng nufuzli kishilaridan biriga aylanadi va 815 -yildan boshlab xalifalik qo‘sishinlarining bosh sarkardasi lavozimida ishlaydi.

821 -yilda xalifa Ma’mun Toxir ibn Husaynni Xuroson viloyatiga noib etib tayinlaydi. Toxir Xuroson noibligining poytaxti qilib Nishopur shahrini tanladi. U Huroson va O‘rta Osiyo viloyatlarini (Tabariston, Jurjon, Ray, Kirmon, Xuroson, Seyiston, Movarounnahrning janubi) mustaqil hokim sifatida boshqarib, 822 -yilda xalifa nomini xutba namoziga qo‘shib o‘qishni ta’qiqladi. Bu esa ochiqdan-ochiq xalifadan o‘zini mustaqil deb e’lon qilish edi. Lekin Toxir ibn Husayinning bu rejasи amalga oshmadi. U to‘satdan vafot etdi. Taxmin qilishlaricha, bu holat xalifaning o‘z noiblari ustidan siyosiy hukmronligini mustahkam tutishga intilishidan dalolat beradi.

YUqoridagi voqeadan qat’iy nazar, xalifa Ma’mun Toxirning o‘g‘li Talxa ibn Toxirni Xuroson noibi etib tiyinlaydi. Zamonaviy adabiyotlarda berilishicha, mahalliy sulola vakillarini noib bo‘lib qolganligining sababi, xalifalikning aynan mahalliy hukmdorlarning kuchidan arablarga qarshi qo‘zg‘olonlarni bostirishida foydalanishi edi. SHuningdek, Xuroson noibining muhim vazifalaridan yana biri o‘ziga qarashli hududlarda ayrim viloyat hokimlarini saylash bo‘lgan. Jumladan, Toxir ibn Husaynning o‘zi Somoniylarni Samarqand, Farg‘ona va SHoshga hokim bo‘lishlarini rasman tasdiqlagan. O‘sha davrda Xuroson noibligiga quyidagi viloyatlar kirgan edi: Movarounnahr, Xorazm, Seyiston, Ko‘histon, Kermon, Ko‘mis, Tabariston va Jurjon. Ular hajmiga ko‘ra katta va kichik tumanlardan iborat bo‘lgan.

50 -yildan ziyodroq hukmronlik qilgan Tohiriylar sulolasining vakillari qo‘yidagilar edi.:

Toxir ibn Husayn (821-822yy);

Talxa ibn Toxir (822-828yy);  
Abdulloh ibn Tohir (828-844yy);  
Tohir II ibn Abdulloh (844-862yy)  
Muhammad ibn Tohir (862-873);

Tohiriylar mustahkam hokimiyat yaratish va qishloq xo‘jaligini tartibga solish borasida jiddiy chora-tadbirlarni amalga oshirdilar. Ular yangi kanallar bunyod etib suvdan foydalanishni yaxshilash choralarini ko‘rdilar. Abdulloh ibn Toxirning buyrug‘i bilan o‘lkadagi yirik qonunshunoslar sug‘orish uchun foydalaniladigan suv taqsimoti qonunlari to‘plami – **Kitob al-kuniyni** to‘zdilar. Ushbu qonunlar yuzlab -yillar mobaynida Movarounnahrda suvdan foydalanishdagi babs-munozaralarini hal etishda asos bo‘lib xizmat qilgan.

Tohiriylar shunday ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yuritganlarki, bu siyosat asosan aholining hukmron tabaqalarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan edi. Misol uchun, bizga qadar saqlangan Toxir ibn Husaynning o‘g‘li Abdullohga yozgan xatida shunday deyiladi: «SHuni bilginki, boylik ko‘payib xazina to‘lib toshganda ham u daromad keltirmaydi. U fuqaro zarurati, ular haq-huquqlarini ado etishga, ularni tashvish va qarzlardan ozod etish uchun sarflangan taqdirdagina ko‘payadi, ortib boradi; bu bilan xalq ommasining e’tibori qozoniladi; shu bilan xalq farovonligi ta’minlansa, bu hokimlarga zeb beradi, davronning emin-erkinligi shu bo‘ladi, shuhrat va qudrat bag‘ishlaydi; shu bilan birga agar shunday ish yuritsang, er solig‘ini katta miqdorda undirish imoniyatiga ega bo‘lasan va boyliging oshadi. Bu bilan sen xalq ommasiga saxovat qo‘lini ochsang, boyliging ortadi, kuch-qudrat egasi bo‘lasan, qo‘shin saqlaysan va hammani o‘zingga maftun etasan». Tohir o‘z o‘g‘lini mana shunday «mohirona» siyosat yurgizishga chaqiradi hamda Abdulloh ibn Tohir qaysidir ma’noda otasining maslahatlariga amal qilgan edi.

O‘z davrida Abdulloh yirik er egalari va davlat amaldorlari tomonidan ayrim erlardagi dehqonlarga nisbatan bo‘layotgan nohaqliklarni imkoniyat darajasida cheklashga harakat qildi. U dehqonlarning ahvolini birmuncha tartibga soluvchi maxsus farmon e’lon qildi. Manbalarning guvohlik berishicha, bu farmonda jumladan shunday deyiladi: «Olloh bizni ularning (dehqonlarning – E.B.) qo‘li bilan boqadi, bizni ularni og‘zi bilan olqishlaydi va ularga ozor berishni ta’qilaydi». Albatta, bu bilan Abdulloh butunlay ziroatkor-dehqonlarning manfaatlarini himoya qiluvchi hukmdor bo‘lgan, deb bo‘lmaydi. U «dehqonlarga ozor bermaslikni» talab qilishiga sabab, busiz davlat xazinasiga etarli soliqlar kelib tushmas edi.

Ahvolni yaxshilash uchun ayrim harakatlar qilingan bo‘lishiga qaramay, Tohiriylar davrida aholi ko‘pgina qatlamlarining ayniqsa, ziroatkor-dehqonlarning ahvoli og‘ir bo‘lib qolaverdi. Misol uchun, 844 -yilda Abdulloh ibn Tohir ziroatkor-dehqonlardan olingan xirojdan 48 mln. dirham to‘plagan edi. Soliqlarning ko‘pligi dehqonlarning qo‘zg‘olon ko‘tarishiga olib kelgan. Tohiriylar bu qo‘zg‘olonlarni shafqatsizlarcha bostirib turganlar. Bu hol ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlar bir qadar saqlanib qolganligini ko‘rsatadi.

Manbalarda Tohiriylarning islomlashtirish siyosatida mustahkam turganliklari qayd etiladi. Ular huquqiy munosabatlarni islom peshvolariga tayangan holda rivojlantirganlar. SHuning uchun ham Tohiriylar islom dinini xalq

orasida keng yoyish siyosatini davom ettirib, islom ruhoniylarini asosiy tayanch deb bilganlar. Talxa ibn Toxir davrida zardo'shtiylik dini saqlanib qolgan Ustrushonada ham islom dini qabul qildirilgan.

O'z hukmronlik erlarida mustahkam tartib saqlanishini xohlagan Abdulloh ibn Tohir o'ziga qarshi har qanday harakat yoki qo'zg'olonning oldini olishning eng muhim usuli – soliq yig'uvchilarining suiste'molliklariga yo'l qo'ymaslikda deb hisoblar edi. U turli soliqlarning miqddorini kamaytirmagan bo'lsa-da, soliqlar yig'ishda turli jinoiy ishga qo'l urganlarni jazolar edi. Amal va mansab egalarining o'zboshimchalogini oldini olish va davlat xazinasiga ziyon etkazmaslik maqsadida Adbulloh o'z qo'l ostidagi o'ziga sodiq kishilar orasidan ayg'oqchilar tanlab, ularning xizmatidan foydalanar edi. Bunday maxfiy shaxslar joylarda hukmdorlarning yurish-turishi, har bir mansabdorning Abdulloh oldidagi majburiyatlarini qay darajada bajarishlari xususida noibga xabar etkazib turishgan. Demak, amaldor xoh viloyat hokimi bo'lsin, xoh yirik dehqon bo'lsin, Abdullohning nazorati ostida bo'lgan.

Tohiriyalar davlati ko'p sonli bilimdon amaldorlarga muhtoj edi. SHu bois Abdulloh ibn Tohir aholining barcha qatlamlari ma'lumot olishini ta'minlashga harakat qildi. Manbalarning ma'lumot berishicha, Abdulloh otasi Tohir singari shoir bo'lgan. Abdullohning Marv, Amul va Xorazmni boshqarib turgan jiyani Mansur o'zining falsafiy asarlari bilan mashhur bo'lgan. Abdullohning o'g'li Toxir II ham otasidan o'rnak olishga harakat qilgan.

Umuman, Abdulloh va Toxir II hukmronliklari davri mahalliy madaniyatning qayta tiklanish davri bo'ldi. Ammo, bu o'ta murakkab va qiyin jarayon edi. Gap shundaki, Toxiriylar sulolasiga vakillarining o'zлari, xususan, Abdulloh ibn Toxir o'zining arab madaniyatiga xayrixoxligini ta'kidlar edi. Shunga qaramasdan bizga qadar etib kelgan ayrim yozma manbalar va moddiy ashyolar mahalliy madaniyat rivojidan dalolat beradi.

## 2.Safforiylar davlati.

IX-X asrning boshlariga kelib ilgarigi davrlarda bo'lgani kabi, O'rta Osiyo dehqonchilik voholaridagi davlat hokimiyatining asosiy vazifalaridan biri ko'chmanchilar hujumlaridan himoyalanish edi. Aynan mana shu maqsadlarda bu davrda qurolli ko'ngillilarning maxsus guruhlari, din uchun kurashuvchilar-g'oziyalar guruhlari tuziladi. G'oziyalar guruhalining asosiy qismini kasodga uchragan dehqonlar va hunarmandlar tashkil etar edi.

Mahalliy hukmdorlar dehqonchilik vohalarini chegaralarini dasht chegaralaridan himoya qilish uchun g'oziyalar guruhalidan foydalana boshlaydilar. Arab mualliflarining ma'lumot berishlaricha, g'oziyalar «mahalliy hukmdorlar uchun bir vaqtning o'zida ham tayanch, han notinchlik sababi» ga aylana boshlaydilar. Chunki bir tomondan ular ko'chmanchilarining hujumlariga qarshi turib, dehqonchilik vohalarini ularning hujumlaridan saqlab tursa, ikkinchi tomondan, ko'p hollarda mahalliy zodagonlarga qarshi halq harakatlarining faol ishtirokchilari edilar.

IX asrning 70-yillarida g'oziyalarning qurollangan guruhlari O'rta Osiyo va Eron chegaralaridagi xalq harakatining asosini tashkil etardi.Bu xalq harakatlaridan hunarmand misgar (saffor) aka-uka YOqub va Amr ibn Layslar (Safforiylar) o'z

niyatlarini amalga oshirish uchun foydalandilar. Avval boshda Safforiylar kichik bir qaroqchilar guruhini to‘zadilar va keyinroq, Seyistondagi g‘oziyalar guruhlariga qo‘shiladilar. Qat’iyatlilik hamda lashkarboshlik qobiliyatiga ega bo‘lgan YOqub ibn Lays tez orada g‘oziyalar guruhlarining boshlig‘iga aylanadi. YOqub boshchiligidagi g‘oziyalar guruhi Seyistondagi siyosiy hayotga faol aralasha boshlaydi va xalq harakatlaridan foydalanib 861 -yilda Seyistonning markazi Zaranj shahrini egallaydi hamda bu erdan Toxiriylar noiblarini haydab yuboradi.

SHu tariqa YOqub Seyistonning hokimi bo‘lib oladi hamda 10 -yil davomida Toxiriylarning so‘nggi hukmdori Muxammad ibn Toxir egallab turgan xalifalikning sharqiylarini ulardan tortib oladi. 873 -yilda YOqub Toxiriylar qo‘shinlarini tor-mor etib Xurosonning poytaxti Nishopur shahrini egallaydi va shu bilan Mavorounnahr va Xurosondagi Tohiriylar hukmronligiga barham beradi.

Bag‘doddagi xalifalik hokimiyati YOqubning muvaffaqiyatlaridan anchagina xavotirga tushib, unga qarshi bir qancha choralar ko‘rgan bo‘lsada, bu harakatlar besamar tugadi. 784 -yilda xalifa bo‘lib o‘tgan voqealarni tan olib YOqubni Xuroson va Mavorounnahrga noib etib tayinlashga majbur bo‘ladi.

Manbalarning ma’lumot berishicha, YOqub ibn Lays izzat-ikromni, xushomadgo‘ylikni, tantanalarni yoqtirmaydigan, oddiy aholi qatori yashagan hukmdor bo‘lgan. Ammo, uning harbiy lashkarboshlik qobiliyati kuchli edi. YOqub to‘zgan qo‘shinda qat’iy tartib-intizom o‘rnatilgan bo‘lib, u o‘zi jasorat ko‘rsatgan holda, askarlari, ularning boshliqlari va suvoriylardan ham jasorat talab qilgan. Yoqub qo‘shinlarining asosiy qismi **al-mutatavviya** (ko‘ngillilar, ularni «ayyorlar» ham deb ataganlar) tashkil etgan bo‘lib, bu qism doimiy ravishda ersiz dehqonlar va ishsiz hunarmandlar hisobiga to‘lib turgan. Ayyorlar orasidan janglarda jasorat ko‘rsatganlar harbiy boshliq – sarhang lavozimiga ko‘tarilgan. Qo‘shinda ayyorlardan tashqari ozodagon-erkin jangchilar va g‘ulom-qo‘llar guruhlari ham bo‘lgan. Qo‘shinga har uch oyda bir marta maosh berilgan. Qo‘shinlar vaqt-i-vaqti bilan harbiy ko‘rikdan o‘tkazilib turilgan.

876 -yilda YOqub ibn Lays xalifa hokimiyatini egallah maqsadida Bag‘dodga qo‘shin tortadi. Bag‘doddan 100 km uzoqlikdagi Dar al-Akul degan joyda YOqub va xalifa qo‘shinlari to‘qnashib YOqub mag‘lubiyatga uchraydi. Ushbu muvaffaqiyatsiz yurishdan so‘ng uch -yil o‘tgach YOqub ibn Lays vafot etadi va uning o‘rnini ukasi Amr ibn Lays egallaydi. Amr ibn Lays xalifaga o‘z vassalligini bildirganidan so‘ng Mavorounnahr va Xurosonni boshqarish huquqini beruvchi yorliq oladi. Ammo, Toxiriylarda bo‘lgani kabi Safforiylar ham amalda xalifalikdan mustaqil siyosat olib borganlar. Manbalarning ma’lumot berishicha, Amr ibn Lays mohir siyosatchi va tashkilotchi, harbiy ishni puxta bilgan shaxs bo‘lgan.

Safforiylar hukmronligi davrida xalqning ahvoli sezilarni darajada yaxshilanmadı. Vaholanki, ular xalq harakati natijasida hokimiyat tepasiga kelgan edilar. Safforiylar asosan mayda va o‘rta hol er egalariga suyangan holda davlatni idora qildilar. Ular xalqdan olinadigan soliq miqdorini o‘zgartirmadilar. SHuning uchun ham keng xalq ommasi ularni qo‘llab quvvatlamadi. IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Somoniylar sulolasasi tarix sahnasida paydo bo‘ldi. 900 -yilda

Buxoro ostonasida Amr ibn Lays qo'shinlari Somoniylardan mag'lubiyatga uchradi va Safforiylar hukmronligi tugatildi.

### **3.Somoniylar davlatining tashkil topishi.**

IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Movarounnahr va Xurosonda Somoniylar sulolasi paydo bo'ladi. Bu sulolaga Somon qishlog'i (manbalarda – Balx yaqinida, Samarqand atroflarida, Termiz yaqinida) oqsoqoli Somonxudotning avlodlari asos soladilar. Yirik er egasi bo'lgan Somonxudot Ma'mun Xuroson noibligi davrida uning xizmatiga o'tib tez orada e'tiborga to'shadi. Somonxudotning o'g'li Asad hamda nabiralari ham Ma'mun saroyida xizmat qilishgan. SHaxsan Ma'munning buyrug'i bilan Xuroson noibi Asadning o'g'illarini 820 -yilda turli viloyatlarga noib etib tayinlaydi. Xususan, Nuh Samarqandni, Ahmad Farg'onani, YAhyo SHosh va Ustrushonani, Ilyos Hirotni boshqara boshlaydilar.

Dastavval, Asadning katta o'g'li Nuh ukalari mulklarini birlashtirib, xalifalikdan mustaqil davlat barpo etish harakatini boshladi. CHunki Nuhning nomidan tanganlar zarb etilgani ma'lum. Nuh vafotidan so'ng ukasi Ahmad uning ishlarini davom ettirib asta-sekin Mavorounnahrni Somoniylar sulolasi boshchiligidagi birlashtirishga kirishadi. Tohiriyalar Ahmadning bu harakatlariga qarshilik ko'rsata olmadilar. 865 -yilda Ahmad vafot etgach ko'pchilik Somoniylar tomonidan sulola boshlig'i sifatida Ahmadning o'g'li Nasrni tan olinadi.

873 -yilda Buxoro shahri va uning atroflarini Toxiriylarning so'nggi vakili Muhammad ibn Tohir bosib oldi va hududlarga soliqlar soldi. Bundan g'azablangan xalq Muhammadga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. 874 -yilda Muhammad ibn Tohir Xorazm shaharlarini talayotgan bir paytda Buxoro zodagonlari Nasrdan Buxoroga noib yuborishni iltimos qiladilar. Nasr Buxoroga Ismoil ibn Ahmadni hokim qilib jo'natadi. Nasr Ismoilni o'z noibi deb hisoblar edi. Ismoil ibn Ahmad Buxoroda o'z hokimiyatini mustahkamlab olgach, Samarqandga yuboriladigan soliqni yubormay qo'ydi hamda akasiga tobe' bo'lishni istamadi. Natijada 886 -yilda aka-ukalar o'rtasida birinchi to'qnashuv bo'lib, Ismoil engildi va u vaqtincha Buxoro noibligidan tushirildi. 888 -yildagi ikkinchi jangda Ismoil Nasr qo'shinlarini tor-mor etishga muvaffaq bo'ldi. 892 -yilda Nasr vafot etgach Ismoil Movarounnahrning yagona hukmdori bo'lib qoldi. Poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko'chirildi. Ismoil Somoniy 893 -yilda ko'chmanchilarga qarshi qo'shin tortib dastlab Tarozni, keyin esa Ustrushonani egallahsga muvaffaq bo'ldi.

Bag'dod xalifasi al-Mutadis (892-902 yy.) Ismoilning qudrati oshib ketayotganidan sarosimaga tushib 898 -yilda Movarounnahr noibligidan Ismoilni tushirib uning o'rniga safforiy Amr ibn Laysni hokim etib tayinlash haqida yorliq jo'natadi. Mavorounnahr noibligi to'g'risidagi yorliqni olgach Amr ibn Lays Ismoilga qarshi qo'shin tortdi. 900 -yilda Balx atroflarida Ismoil Safforiylar qo'shinlarini tor-mor etdi. Manbalar ma'lumotlariga ko'ra Ismoilni nafaqat Buxorodan, balki Xorazm va Farg'onadan ham kelgan harbiy kuchlar qo'llab-quvvatlagan edilar. Narshaxiyning ma'lumot berishicha, Ismoil bu jangda Buxoro hunarmandlari va oddiy xalqning qo'liga qurol berib o'z ozodligini saqlab qolishga chaqirgan. Keng xalq ommasining qo'llab-quvvatlashi natijasida Ismoil Somoniy

arab bosqinidan keyin birinchi bo‘lib o‘zaro janjallarga botgan, bosqinchilar tomonidan talangan o‘lkani qudratli va mustaqil davlatga aylantirishga erishdi. SHu tariqa Ismoil Mavarounnahr va Xuroson, Eronning qator sharqiy va shimoliy viloyatlarini o‘z ichiga oluvchi yirik davlatga asos soldi va bu hududlarda Arab xalifaligi hukmronligiga barham berildi.

SHunday qilib, Farg‘ona, Isfijob (Sayram), SHosh, Samarqand, Buxoro Xorazm, CHag‘aniyon, Xuttalon, Kesh, Xuroson, Seyiston, G‘azna kabi qator viloyatlar Somoniylarga bo‘ysundirildi. Ularning hammasi ham mutlaqo tobe’ bo‘lmasada, Somoniylar xokimiyatini tan olishga majbur bo‘lgan edilar. Ismoil Somoni yirik er egasi bo‘lib, mahalliy zodagonlar va savdogarlarga tayanib davlatni idora qilgan. Lekin Ismoil ham, boshqa Somoniylar ham ichki ijtimoiy ziddiyatlarni yo‘qota olmadilar. Natijada dehqonlarning er egalariga qarshi chiqishlari bo‘lib turgan. Bundan tashqari ayrim chekka viloyatlar hokimlari markazlashtirish siyosatiga qarshilik qilib turganlar.

907 -yilda Ismoil Somoni vafot etib taxtni uning o‘g‘li Ahmad ibn Ismoil egalladi. Ahmad uzoq vaqt hukmronlik qilmadi (907-914 yy.). Uning davrida davlatni idora etishda arab tilini qayta tiklanishi ko‘pgina mahalliy zodagonlar va turk g‘ulomlarining noroziligin o‘yg‘otdi. Natijada u 914 -yilda turk g‘ulomlari tomonidan o‘ldirilib, taxtga uning 8 yoshli o‘g‘li Nasr ibn Ahmad o‘tirdi va u balog‘atga etguncha davlat ishlarini vazir Abdullo Jayhoni boshqarib turdi.

914 -yil oxirida Samarqandda yana qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Davlatning janubiy hududlarida bo‘lgan Husayn ibn Ali Marvoziy rahbarligidagi qo‘zg‘olon ayniqsa keskin tus oldi. Bu qo‘zg‘olon karmatlar g‘oyasi bayrog‘i ostida bo‘lib o‘tdi. Bu qo‘zg‘olon 918 -yilda bostirilib Marvoziy asir olindi. Ko‘p o‘tmay Nasrning qarindoshi Ahmad ibn Nuh hokimiyatga qarshi bosh ko‘tardi. 922 -yilda esa Ilyos ibn Ishoh qo‘zg‘olon ko‘tardi. Tinmay davom etgan qo‘zg‘olon va isyonlar Somoniylar davlatining qudratiga ta’sir ko‘rsatib, u asta-sekinlik bilan inqirozga yuz tuta boshladi.

Ta’kidlash lozimki, Nasr ibn Ahmad hukmronligi davrida Somoniylar davlati hududlarida karmatlar harakati ancha keskin tus oldi. Karmatlar islomni yoyilishiga, er egaligi munosabatlarini kuchayishiga qarshi chiqdilar va ilgarigi an’analarni, qishloq jamoalarini qayta tiklashni yoqlab chiqqan edilar. SHuning uchun ham bu harakatni keng xalq ommasi qo‘llab quvvatladidi. 943 -yilda taxtga o‘tirgan Nasrning o‘g‘li Nuh karmatlarga qarshi shafqatsiz kurash olib bordi. Ularning mol-mulklarini musodara qildi.

Nuh hukmronligi davrida Somoniylar davlatining inqirozi yaqqol ko‘zga tashlana boshladi. Bo‘shab qolgan xazinani to‘ldirish maqsadida Nuh soliqlar miqdorini ko‘paytirdi. Bu xalq noroziligin yanada oshirdi. Xalq noroziligidan foydalangan Nuhning amakisi Ibrohim ibn Ahmad Xuroson noibi Abu Ali CHag‘oniy yordamida vaqtincha Buxoro taxtini egallab olishga muvaffaq bo‘ldi. Abu Ali Chag‘oniy Xurosonga qaytgach Nuh yana Buxoro taxtiga qaytdi va isyonkor qarindoshlarini qattiq jazoladi. Lekin Somoniylarning Abu Ali Chag‘oniy bilan kurashi keyingi -yillarda ham davom etdi.

Soliqlarning -yil sayin ko‘payib borishi, zodagonlarning o‘zaro janjallari, noiblarning markazga bo‘ysunmay qo‘yishi va saroyda bo‘layotgan taxt uchun kurashlar Somoniylar davlatini juda zaiflashtirib yubordi.

Bu kurashlar ayniqsa Amir Mansur ibn Nuh II (976-997 yy.) hukmronligi davrida keskin tus oldi. Ichki nizolar oqibatida Nuh II Ettisuv va Qoshg‘arda vujudga kelgan Qoraxoniylar davlatining Mavarounnahrga qilgan yurishlariga keskin qarshilik qilolmadi. Somoniylar davlatidagi beqarorlikdan foydalangan Qoraxoniy Horun Bug‘roxon 990 -yilda G‘arb tomon qo‘shin tortdi va ikki -yil davomida Somoniylarga qarashli bir qancha viloyatlarni bosib oldi. SHundan so‘ng Somoniylar davlati o‘zini tiklay olmadi. 13-15 -yil davomida Somoniylar hukmdorlari asosan Qoraxoniylar va qisman Saljuqiylar bilan kurash olib borib nihoyatda holdan toydilar. Somoniylarning so‘nggi hukmdori Abu Ibrohim Muntasir 1005 -yilda o‘ldiriladi hamda Mavarounnahr va Xurosondagi Somoniylarga tegishli bo‘lgan hududlar Qoraxoniylar va G‘aznaviylar tomonidan bo‘lib olinadi.

#### **4. Somoniylar davlatining davlat tizimi va boshqaruvi.**

Somoniylar Mavarounnahr va Xurosonda mustaqil davlat tuzish uchun avvalambor, kuchli markazlashgan hokimiyat tuzish kerakligini yaxshi tushunishgan. Bu ayniqsa Ismoil Somoni davrida kunning dolzarb masalasiga aylangan edi. Yirik er egasi bo‘lgan Ismoil birinchi navbatda mahalliy zodagonlar va savdogarlarning manfaatlarini ko‘zlab ish tutdi. Davlatning iqtisodiy kuch qudratini oshirish, qishloq xo‘jaligini, hunarmandchilikni va savdoni rivojlanishi uchun keng shart-sharoitlar tug‘dirib berish lozim edi. SHu maqsadda Ismoil katta va yaxshi qurollangan, saralangan qurolli kuchlarni tashkil qilishga kirishdi. U ayniqsa, turk g‘ulomlaridan iborat qismlarni tuzishga katta e’tibor berdi. Natijada Somoniylar davlati tez orada musulmon SHarqidagi markazlashgan kuchli davlatga aylandi. Mamlakatning qudratini mustahkamlash maqsadida Ismoil Somoni bir qancha islohatlar o‘tkazdi. Mana shunday islohatlardan biri davlatni boshqarish ma’muriyatini joriy qilish bo‘ldi. Bu ma’muriyat **dargoh – amir saroyi** va **devon – davlat idorasi, vazirliklardan** iborat bo‘lgan.

Davlatni boshqaruvchi oliy hukmdor **amir** unvoniga ega edi. Ismoil Somoni o‘z davrida markazlashgan davlat boshqaruvi tizimini joriy etgan edi. Somoniylar davlati majmuini mustahkamlashda Nuh II Somoniyning ma’rifatli vazirlari Abuabdullo Muhammad Jayhoni va Abufazl Muhammad Balamylarning xizmatlari katta bo‘lgan. Somoniylar hukmronligi davrida bosh vazir lavozimiga asosan shu ikki sulola vakillari tayinlangan. Davlat majmui **dargoh** (amir saroyi) va **devonga** (vazirliklar, davlat idorasi) bo‘lingan.

Saroya siyosiy hokimiyat **sohibi xoras** qo‘l ostida bo‘lib, u oliy hukmdor farmonlari ijrosini nazorat qilgan. Dargoh hamda boshqa muhim davlat idoralarining xavfsizligini amalga oshirish xizmatini **bosh hojib** va uning xodimlari olib borgan. Saroya sharbatdorlar, dasturxonchilar, tashtadorlar, ot boqarlar, xo‘jalik bekalari kabi turli xizmatchilar bo‘lgan. Saroydagagi barcha xo‘jalik ishlarini **vakil** boshqargan. Vakil saroydagagi eng e’tiborli kishilardan biri hisoblangan. Narshaxiyning ma’lumot berishicha, Nasr II Somoni davrida Buxoro registonida

davlatdagi 10 ta devonga atab maxsus 10 ta bino qurilgan. Davlatda quyidagi devonlar faoliyat ko'rsatgan:

**Devoni vazir (bosh vazir devoni).** Bu devonga qolgan barcha devonlar bo'ysungan. Bosh vazir devoni barcha ma'muriy, siyosiy, xo'jalik va harbiy mahkamalarni nazorat qilgan.

**Devoni mustaufi (moliyaviy ishlar devoni).** Bu devon davlatning barcha moliyaviy ishlarini bajargan va nazorat qilgan. Devon xazinador tomonidan boshqarilib, uning ixtiyorida hisobchilar, munshiy va kotiblar, daftardorlar bo'lган.

**Devoni amid al-mulk, yoki al-rasail (rasmiy hujjatlar devoni).** Bu devon davlat ahamiyatiga molik bo'lган barcha hujjatlarni tuzish va ishlab chiqish bilan shug'ullangan. SHuningdek, bu devon chet davlatlar bilan bo'lган diplomatik munosabatlarni ham nazorat qilgan.

**Devoni sohib-ash-shurot (harbiy ishlar devoni).** Bu devon davlatning butun harbiy ishlarini nazorat qilgan, jumladan, amirning shaxsiy qo'shinini (gvardiyasini) boshqargan. Ushbu devonboshining maxsus yordamchisi – ariz bo'lган. U mahkama va uning boshlig'i amir qo'shini xazinasi bilan shug'ullangan. Qo'shinga bir -yilda to'rt marta maosh to'langan. Bu devon harbiy intizomni ta'minlab turgan.

**Devoni sohib al-borid (xat-xabarlar nazoratchisi devoni).** Ushbu devon markazda qabul qilingan muhim qarorlar, hujjatlar, xabarnomalarni viloyat va shaharlarga etkazish bilan shug'ullangan. Bu devonning viloyatlardagi boshlig'i faqat markazga bo'ysungan. Bu devon xodimlari viloyat va shaharlarda bo'lib turadigan, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lган voqealarni markazga etkazib turgan. SHuningdek bu devon davlat elchilari, viloyat va shaharlar hokimlari ustidan maxfiy nazorat o'tkazgan.

**Devoni muxtasib (bozorlar va ko'chalar, shariat qonun qoidalariga rioya qilishni nazorat qiluvchi devon).** Bu devon xizmatchilari qiladigan asosiy ish shahar va qishloqlarda, ko'cha va bozorlarda tartib-intizomni, tosh-tarozini nazorat qilganlar. Aholi tomonidan shariat qonun-qoidalariga rioya qilishning nazorati ham shu devon zimmasida bo'lган. Ushbu devonboshi o'z mirg'azab (xodim) lari bilan barcha shaharlarda faoliyat ko'rsatgan.

**Devoni mamlakai xos (davlat ish boqaruvchisi devoni).** Bu devon saroy ta'minati bilan bog'liq sarf-xarajatlarni nazorat qilgan. Muhim davlat ishlari va ayniqlsa, xazina kirim-chiqimini nazorat qilish ham shu devon zimmasida bo'lган.

**Devoni vakf (vakf erlari devoni).** Machitlar, madrasalar, umuman diniy muassasalar ixtiyorida bo'lган er-suv, mol-mulk kabilarni boshqargan.

**Devoni qozi az-ziyo (qozilik ishlari devoni).** Bu devonni davlatning bosh qozisi boshqargan. Devon barcha viloyatlar va shaharlardagi qozilar faoliyatini nazorat qilib turgan.

YUqorida sanab o'tilgan devonlarning barchasi (soxib al-borid devonidan boshqa) mahalliy hokimlar va oliy markaziy hokimiyatga bo'ysungan. Ta'kidlash lozimki, Somoniylar davrida mahalliy boshqaruv tizimi ham samarali faoliyat yuritgan. Viloyatlar boshqaruvchilari – **hokim**, shaharlar boshqaruvchilari esa – **rais** deb yuritilgan. Viloyatlar hokimlari ko'p hollarda hukmron sulola vakillaridan va katta ta'sirga ega bo'lган yirik zodagonlardan tayinlangan.

Somoniylar davrida amaldorlarni davlat xizmatiga qabul qilishda ma'lum bir talablar: davlat tili hisoblangan arab tilini mukammal bilish, islomiy huquq-fiqx me'yorlaridan to'liq xabardorlik, tarix, adabiyot kabi ilmlardan boxabarlik, hisob-kitob ishlarida bilimdonlik va boshqalar mavjud bo'lib, bu markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qilardi. Davlat boshqaruvida harbiy-ma'muriy amaldorlarning mavqelari nihoyatda katta edi. SHuningdek, X asrda musulmon ruhoniylari ham katta obro'ga ega edilar. Movarounnahrda asosan islam dinining xanifiylik mazhabi tarqalgan bo'lib, dindorlar boshlig'i **ustod** (keyinchalik **shayx-ul-isлом**) Somoniylar davlatida katta mavqega ega bo'lgan.

Somoniylar davlatida sud ishlari shariat qonun-qoidalariga asoslangan bo'lib, ular qozilik devoni tomonidan boshqarilgan. Sud jarayonidagi ishlar qozikalon, qozilar, mufti, raislar tomonidan amalga oshirilgan. Viloyat va shahar qozilari qozikalonga bo'ysungan.

Davlatda har bir viloyatlar va shaharlar hukmdorlari ko'ngillilaridan iborat qo'shin saqlagan. Ko'ngillilar odatda ozod va boy dehqonlarning o'g'llaridan iborat bo'lgan. Ko'ngillilar harbiy holat vujudga kelgan vaqtida albatta yig'ilgan. Ular viloyat va davlat daromadi hisobiga saqlangan. Davlat hududlari viloyat qo'shnlari va g'oziyarlarning qismlari bilan qo'riqlangan.

**Iqtisodiy va madaniy hayot.** Somoniylar davrida kuchli va mustaqil davlatning paydo bo'lishi dehqonchilik, hunarmandchilikning rivojlanishi, shaharlarning taraqqiyoti – o'z navbatida ichki va tashqi savdoni yanada o'zviylashuviga va taraqqiyotiga olib keldi. Avvalo, shahar va qishloqlar o'rtasidagi savdo kengaydi. Ikkinchi tomonidan, shahar va qishloqlarni qo'shni ko'chmanchi xalqlar va boshqa davlatlar bilan aloqasi rivojlandi.

Yozma manbalarda qayd qilinishicha, bozorlar katta-kichik shaharlarda va hatto qishloqlarda ham bo'lgan. Aynilsa karvon yo'llari bo'yida joylashgan shaharlarda bir nechtadan bozorlar bo'lgan. Buxoro, Xo'jand, Nasaf, Kesh, Termiz, Hirot, Marv, Nishopur shaharlaridagi bozorlar katta va gavjum bo'lgan. Istarriyning ma'lumot berishicha, Samarqandda Movarounnahrning bosh bozori joylashgan bo'lib, bu erga ko'pgina shaharlardan savdogarlar kelgan. Movarounnahrda tayyorlangan mahsulotlarning katta qismi Samarqandga keltirilgan va undan keyin boshqa o'lkalarga tarqatilgan. Ichki va tashqi savdoda ayrim kichik shaharlarning ham o'rni katta bo'lgan.

Bu borada Poykand shahri muhim ahamiyat kasb etadi. Manbalarda qayd etilishicha, bu shaharda Somoniylardan oldin ham savdogarlar Xorazm, Kaspiy bo'yidagi o'lkalar va Xitoy bilan oldi-sotti ishlari olib borishgan. Shahar raislari savdogarlar uchun barcha sharoitlar yaratib berishga harakat qilganlar. Shaharda o'nlab karvonsaroylar mavjud bo'lgan, ular bozorga yaqin joyda joylashgan. Savdo rastalari karvonsaroyning o'zida ham bo'lgan. Karvonsaroylar yo'llarda ham qurilgan.

Bozorlarda sotiladigan mahsulotlar avvalo, mahalliy aholining ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Hunarmandlar o'z mollarini sotib, oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilganlar, o'z navbatida hunarmandchilik mahsulotlariga dehqonlarning talabi katta bo'lgan. IX-X asrlarda O'rta Osiyoning iqtisodiy hayotida savdo-sotiq katta ahamiyatga ega edi. Bu borada ko'chmanchilar bilan

chegaradosh bo‘lgan shaharlarning ahamiyati katta bo‘lgan. Ko‘chmanchilar shaharlarga kelib dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlarini xarid qilganlar, teri va boshqa chorvachilik mahsulotlarini sotganlar.

O‘rta Osiyolik savdogarlar o‘z mollarini arab xalifaligi tarkibiga kirgan davlatlarga, Kavkazga, Xazar va Bulg‘oriyaga, Xitoy va Hindistonga olib borib sotganlar. O‘rta Osiyodan Xitoy bilan O‘rta er dengizini birlashtiruvchi va Janubi-SHarqiy Evropaga olib boruvchi karvon yo‘llari o‘tgan. Ayniqsa, O‘rta er dengizi bilan bog‘lovchi karvon yo‘li ancha gavjum bo‘lgan. Bu yo‘l Bag‘dod, Hamadon, Nishopur, Marv, Amul, Buxoro, Nasaf, Kesh, Samarqand, Ustrushona, CHoch, Balasog‘un orqali Xitoya olib borgan. Xitoya O‘rta Osiyodan otlar va shisha buyumlar olib borilgan. Xitoydan esa turli-tuman ipak gazlamalar keltirilgan. Xazar, Bulg‘or va Rus erlariga O‘rta Osiyodan quruq mevalar, turli-tuman gazlamalar, guruch va kumush chiqarilgan. O‘z navbatida Janubi-SHarqiy Evropadan O‘rta Osiyoga mo‘yna, mis, teri, qoramol, qo‘llar keltirilgan. Janubi-SHarqiy Evropa bilan bo‘lgan savdo aloqalarida xorazmlik savdogarlarning o‘rni katta bo‘lgan.

IX-X asrlarda madaniy hayot ham o‘zining yuqori darajasiga ko‘tarildi. Avvalo, me’morchilik san’ati va qurilish uslublari rivojlandi. Turar-joylar, yirik binolar, amirlar saroylari ham xom g‘ishtdan qurila boshlandi. Ma’muriy binolar, yirik boylar va amaldorlarning uylari ustunlar va o‘yma naqshlar bilan bezatilgan. Somoniylar davrida Movarounnahr va Xuroson me’morchilik san’atining yuqori taraqqiyotidan yorqin dalolat beruvchi yodgorlik bu Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasidir. Maqbara o‘ta oddiylik va mahobatli shaklga xos bo‘lib u 892-943 - yillar orasida qurilgan va o‘zining bag‘oyat chiroli qilib ishlangan tashqi ko‘rinishi bilan ajralib turadi. Ushbu maqbara o‘rta asrlar me’morchilik san’atining noyob durdonalaridan biri hisoblanadi.

Somoniylar davri me’morchiligining yana bir noyob durdonasi Kattaqo‘rg‘ondan 60 km janubdag‘i Tim qishlog‘ida joylashgan Arab ota maqbarasidir. Bu maqbara Ismoil Somoniy maqbarasi bilan o‘xshashlik topadi. Bu o‘xshashlik maqbaraning umumiyo ko‘rinishida, inshootning tuzilishida, umumiyo bezatilishida o‘z ifodasini topgan. SHu bilan birga Arab ota maqbarasi misolida Somoniylar davridagi me’morchilik taraqqiyoti va rivojlanish yo‘llarini ko‘ramiz. Somoniylar davri me’morchiligining nodir namunalarini shuningdek, Karki (Turkmaniston) yaqinidagi Alambardor, O‘zun (Surxondaryo) yaqinidagi Xo‘ja Naxshron, Karmanadagi Mir Said Bahrom maqbaralarida ham uchratish mumkin.

IX-X asr me’morchiligining rivojlanish yo‘llarining saqlanib qolganligini ko‘plab masjidlar misolida ham ko‘zitishimiz mumkin. Bu davrga oid masjidlar to‘g‘risida so‘z yuritilganda Buxorodagi Mag‘oki Attoron, Poykand masjidi, Termizdagi CHorustun, SHaxristondagi CHilduxtaron masjidlarini qayd qilish mumkin. Bu yodgorliklar O‘rta Osiyoda diniy me’morchilikning rivojlanish yo‘llarini ko‘zatish imkonini beradi.

Narshaxiyning ma’lumot berishicha, amir Nasr ibn Ahmad Buxoro registonida o‘zi uchun katta saroy qurdirgan va uning qurilishida katta mablag‘ sarflagan. Bu saroy g‘oyatda go‘zal bo‘lgan. Saroyning oldida esa devonlar uchun binolar qurilgan. Amir va hokimlar saroyi Nishopur, Marv, Samarqand va boshqa

shaharlarda ham bo‘lgan. Bu saroylar o‘zlarining kattaligi va go‘zalligi bilan ajralib turgan. Ko‘p hollarda bunday saroylar xushmanzara joylarda, bog‘lar ichida bunyod etilgan.

O‘rta Osiyo xalqlarining asrlar davomida erishgan madaniy yutuqlari va bilimlari IX-X asrlarda yashagan va ijod qilgan olimlarga katta ilmiy poydevor vazifasini o‘tadi. Agarda bu ilmiy poydevor yuqori darajada bo‘limganda edi, Somoniylar davridagi ilmiy taraqqiyot haqida gapirish qiyin bo‘lar edi. Buxoro, Marv, Samarqand, Nishopur, Balx, Binkent, Kesh, Nasaf, Termez, Xo‘jand, Urganch kabi shaharlar bu davr ichida yirik madaniyat va fan markazlariga aylandilar. Somoniylar o‘z davlatlari hududida joylashgan o‘lkalardan chiqqan zamonasining etuk ma’rifiy va fan sohiblarini Buxoroga taklif etdilar. Ular amir saroylarida o‘tkaziladigan ilmiy munozaralar va adabiyot uchrashuvlariga taklif qilinib turdilar. O‘z bilimlarini yanada chuqurlashtirish aqsadida amir kutubxonalarida saqlanadigan qo‘lyozmalarini o‘rgandilar.

Somoniylar davrida O‘rta Osiyoning qo‘shti davlatlar va xalqlar bilan madaniy va savdo aloqlari yanada kengaydi va o‘zviylashdi. Movarounnahr va xurosonlik olimlar – Abdullo Ro‘dakiy, Abumansur Daqiqiy, Abulqosum Firdavsiy, Muso al-Xorazmiy, Abu Nars Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abulabbos al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Narshaxiy kabilar o‘zlarining buyuk ixtirolari va tadqiqotlari bilan nafaqt o‘z o‘lkalaridagina emas, balki butun mashriqu mag‘ribda mashhur bo‘ldilar. E’tiborli tomoni shundaki, bu olimlar qomusiy bilimlar sohiblari bo‘lishgan. Ular fanning turli sohalarida ijod etib, dunyo madaniyati va fanining rivojlanishiga o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shdilar. Ular ixtiro etgan kashfiyotlar faqatgina ularning nomlariga boqiyli baxsh etmay, balki butun xalqimizning obro‘-e’tiborini dunyoga taratdi. Bu davrga oid moddiy topilmalar, me’moriy yodgorliklar xalqimizning yuksak madaniyatidan, nozik dididan, chuqur bilimidan va ijodiy parvozidan guvohlik berib kelmoqda.

### **Adabiyotlar**

Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997.

Каримов И.А. Тарихийхотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998

Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Т.: Шарқ. 2000.

Сагдуллаев ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т., 2000.

Сагдуллаев А.С., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. - Т., 2006.

Ртвеладзе Э.В. История государственности Узбекистана. – Т.: Узбекистан. 2009.

Эшов Б.Ж. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи. (ўкув қўлланма). – Т.: Маърифат, 2009.

Эшов Б.Ж. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012.

## **8.Mavzu:Qoraxoniylar davlati ma'muriy tuzilishi, hududi, davlat boshqaruvi tartiblari**

**Reja:**

- 1.Qoraxoniylar davlatini barpo etilishi.**
- 2.Ijtimoiy tuzum va iqtisodiy hayot.**
- 3.Qoraxoniylar davlati siyosiy tizimi**
- 4.Qoraxoniylarda mulkchilik va harbiy tizim.**

### **1.Qoraxoniylar davlatini barpo etilishi.**

X asrning ikkinchi yarmiga kelib ichki ziddiyatlarning ko'payishi va keskinlashuvi natijasida Somoniylar davlati kuchsizlana boshlaydi. Somoniylarga tobe bo'lgan viloyatlarda, ayniqsa, Xurosonda ular hokimiyatiga qarshi ko'tarilgan isyonlar, toju-taxt uchun o'zluksiz olib borilgan kurashlar Somoniylar davlati inqirozini yaqinlashtirgan edi. Bunday vaziyatdan Ettisuv va Qashg'arda yashovchi turkiy qabilalar unumli foydalandilar. CHunki, X asrning ikkinchi yarmiga kelib bu hududlardagi turkiy qabilalar – qarluqlar, chig'illar, yag'molar va boshqalar o'zlarining kuchli feodal davlatlarini tuzishga muvaffaq bo'lgan edilar.

Qoraxoniylar turkiy qavmlar ekanligi aniq bo'lsa-da, ularning kelib chiqishi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Ammo, ular o'z sulolalarini «Afrosiyob avlod» deb ataganlari hamda Qoraxoniylar chig'illar yoki qarluqlar qavmiga mansubligi haqidagi nuqtai nazar o'rta asrlar davri tarixining ko'pchilik tadqiqotchilari tomonidagi e'tirof etiladi.

Qoraxoniylardan birinchi bo'lib islomni qabul qilgan va musulmoncha Abdulkarim degan nom olgan hukmdor Xorun Bug'raxon hisoblanadi. Ayrim yozma manbalarda u Bug'raxon at-Turkiy deb nomlanadi. Misol uchun, Ibn al-Asir o'zining «Kitob al-kamil fi-tarix» asarida ma'lumot berishicha, Qashg'ar, Balasog'undan to CHan (Xitoy) chegarasigacha bo'lgan erlar Bug'raxon at-Turkiy hukmronligi ostida bo'lgan.

Butun Tyan-SHan va Ettisuvni egallab bo'lgandan so'ng, qoraxoniylar Somoniylar davlati tarkibiga bo'lgan Mavarounnahrga ham harbiy yurishlar uyushtira boshlaydilar va tez orada Farg'ona va Isfijob (Sayram) ni bosib olishga erishadilar. 990-992 -yillarda qoraxoni Horun (Hasan) Bug'raxon Somoniylarga tegishli bo'lgan O'rta Osiyodagi mulklarning kattagina qismini bosib oldi. 992-993 -yillarda Hasan Bug'raxon Samarqand va Buxoroni ham egallaydi. Manbalarning ma'lumot berishicha, Somoniylar davlatida katta ta'sirga ega bo'lgan turk lashkarboshisi, Xuroson hokimi Abu Ali Simjuriy va yana bir lashkarboshi Balx hokimi Foyiq ochiqdan-ochiq Qoraxoniylarga yon bosadilar. YA'ni, Simjuriy Hasan Bug'raxon bilan mo'zokalar olib borgan bo'lsa, Foyiq Raboti Malik yaqinidagi Bug'raxonqa qarshi jangda, har tomonlama ustunlikka ega bo'lishiga qaramay taslim bo'ladi. Hasan Bug'raxon Samarqand va Buxoroni egallagach, kasalligi tufayli urushni davom ettirolmasdan Qashg'arga qaytishda, yo'lida Qo'chqorboshi degan joyda 993 -yilda vafot etadi.

Hasan Bug'raxon vafotidan so'ng ulug' xon (qoraxon) lavozimini, uning jiyani Ali ibn Muso egallaydi. Ammo u uzoq vaqt taxtga o'tira olmadi. Taxtni Qoraxoni Nasr Ilekxon egalladi. Somoniylar davlatidagi ichki nizolarni, Somoniylar

hukmdorlari va turk lashkarboshilari o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni diqqat bilan ko‘zatib turgan Qoraxoniylar 996 -yilda Nasr Ilekxon boshchiligidagi Buxoroga yangi yurishlar uyushtirdilar. Somoniy hukmdori Nuh II G‘azna hokimi Sabuqteginni yordamga chaqiradi. Balxdan katta qo‘sish bilan etib kelgan Sabuqtegin Kesh va Nasaf oralig‘ida joylashib, o‘z qo‘sishlari bilan kelib qo‘shilishini so‘rab Nuh II ga elchi yuboradi. Lekin o‘z «vassali» ga uncha ishonmagan Buxoro hukmdori o‘z vaziri O‘zayrining fikriga qo‘silib bu taklifni rad etadi va Sabuqteginni o‘zini Buxoroga chaqiradi. Bundan ranjigan Sabuqtegin o‘g‘li Mahmudni 20 minglik qo‘sish bilan Buxoroga jo‘natadi. O‘zi esa Nasr Ilekxon bilan mo‘zokalar olib borib, Qoraxoniylarga Somoniylarga tegishli bo‘lgan shimoliy hududlarni taqdim etadi.

SHunday qilib, 1005 -yilga qadar Somoniylar va Qoraxoniylar o‘rtasida ko‘plab urushlar bo‘lib o‘tdi va o‘sha -yili so‘nggi Somoniy Abu Ibrohim Ismoil Muntasirning Buxoroni ozod etishdagi harakatlari muvaffaqiyatsiz yakunlanadi va Somoniylar siyosiy tarix sahnasidan tushib ketdilar. Xullas, XI asr boshlarida Qoraxoniylar davlati Amudaryoning yuqori va o‘rta oqimlaridan to Ettisuv, sharqda esa Torim daryosigacha bo‘lgan hududlarni o‘z ichiga olgan edi. Ayrim olimlarning fikricha, shu vaqtadan boshlab Qoraxoniylar Buxoro, Samarqand va umuman, Amudaryogacha bo‘lgan hududlarni ham boshqara boshlaganlar. Siyosiy jihatdan olib qaraganda, XI asr boshlarida Turkiston bir qancha siyosiy kuchlar tomonidan idora etilgan. SHarqiylar, Toshkent, Isfijob, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, CHag‘aniyon, Xuttalon viloyatlari Qoraxoniylar, Amudaryoning chap qirg‘oq erlari to G‘aznagacha, Xuroson, Seyiston viloyatlari G‘aznaviylar, Xorazm esa Xorazmshohlar, Orol dengizidan sharq va shimoldagi erlar ug‘o‘zlar ittifoqi tomonidan boshqarilar edi.

Qoraxoniylarning Movarounnahrga hukmronligi 200 -yilga yaqin davom etadi. Somoniylarga tegishli bo‘lgan erlarni egallash jarayonida Qoraxoniylar boshqaruvchilari vaqtinchalik bo‘lsa-da birlashib turkiylarning yirik Qoraxonlar davlatini barpo etadilar. Bu davlat bir nechta viloyatlarga bo‘lingan bo‘lib, Movarounnahrga dastlab Nasr Ilekxon hokimlik qilgan. SHijoatli va mohir sarkarda Nasr Ilekxon do‘stona munosabatlari o‘rnatish tarafdori ekanligini bildirib qo‘sni Mahmud G‘aznaviy bilan elchilik munosabatlari o‘rnatadi. Ammo, bunday munosabatlari uzoq cho‘zilmadi. Mahmud G‘aznaviyning shimoliy Hindistonda urush olib borayotganligidan foydalangan Nasr Ilekxon 1006 -yilda katta qo‘sish bilan Amudaryodan kechib o‘tib Balx, Tus, Nishapur shaharlarini bosib oladi. SHunga qaramasdan G‘aznaviylar Qoraxoniylarni Xurosondon haydab chiqarishga muvaffaq bo‘ldilar. 1008 -yilda Qoraxoniylar yana Xurosonga hujum qildilar. Mahmud G‘aznaviyning o‘zi 500 ta jangga o‘rnatilgan fillarga ega bo‘lgan katta qo‘sish bilan Qoraxoniylarga qarshi chiqdi va ularning qo‘sishini butunlay yakson qildi. SHundan keyin Qoraxoniylar Xurosonga harbiy yurish uyushtirishga boshqa jur‘at etmadilar.

Nasr Ilekxonning o‘limidan so‘ng oradan biroz vaqt o‘tgach Movarounnahrdagi hokimiyat Qoraxoniylarning Hasaniylar sulolasiga mansub Alitegin qo‘liga o‘tdi. Movarounnahri uzoq -yillar boshqargan Alitegin bilan Qoraxoniylarning ulug‘ xoni (tamg‘achxon) Yusuf Qodirxon o‘rtasida yaxshi

munosabat o‘rnatilgan edi. Bu munosabatning yanada kuchayib ketishidan cho‘chigan Mahmud G‘aznaviy YUsuf Qodirxon bilan kelishib Aliteginga qarshi ish tutdilar. Ular 1025 -yilda Movarounnahrga yurish qildilar. Alitegin Zarafshonning o‘ng oqimida yashayotgan ko‘chmanchi turkman qabilalari va Saljuqxonning nevaralari Ismoil, Tog‘rul va Dovudlardan yordam so‘raydi. Bu jangda Qoraxoniylar mag‘lubiyatiga uchragan bo‘lsalarda, Alitegin Movarounnahrda o‘z hokimiyatini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi.

Movarounnahr erlariga batamon o‘rnashib olgandan so‘ng oradan ko‘p o‘tmay, ya’ni 1015-1016 -yillar Qoraxoni hukmdorlari, xonzodalar va yirik amaldorlar o‘rtasida toj-taxtni egallah, yirik yaylovlarni qo‘lga kiritish, ayrim viloyatlarni bosib olish uchun kurashlar avj ola boshlaydi. Natijada 1041 -yilga kelib Qoraxoniylar davlati ikkiga: sharqiy va g‘arbiy qismga bo‘linib ketdi. G‘arbiy qism Movarounnahrdan to Farg‘ona vodiysining g‘arbiy rayonlarigacha bo‘lgan hududlarni egallagan bo‘lib, uning poytaxti dastavval Buxoro, bir muddat O‘zgand, keyin esa Samarqand edi. SHarqiy qism Ettisuv, Qashg‘ar, Taroz, Isfijob, SHosh va SHarqiy Farg‘onani o‘z ichiga olgan. Uning poytaxti avval Balasog‘un, keyin esa Qashg‘ar edi.

XI asrning o‘rtalariga kelib Xurosondagi G‘aznaviylar davlati Saljuqiylar tomonidan yo‘q qilindi. Movarounnahrni esa Qoraxoniylar o‘z qo‘llarida saqlab qoldilar va bu erda Ibrohim ibn Nasrning siyosiy faoliyati boshlanadi. U o‘z qo‘shinlari bilan avvalo, Amudaryo bo‘yidagi Xuttalon, Vaxsh, CHag‘aniyonni bosib oladi va tez orada butun Movarounnahr erlarini zabit etadi. U yangi poytaxt qilib o‘ziga Samarcandni tanladi va shu erdan turib hokimiyatni boshqardi (1040-1068 yy.)

Ibrohim ibn Nasr bilan Saljuqiylar o‘rtasidagi munosabat ancha yomon edi. U Saljuqiylarning bir necha hujumlarini qaytarishga erishgan. 1068 -yilda Ibrohim ibn Nasr vafotidan so‘ng uning o‘g‘illari o‘rtasida taxt uchun kurash boshlanib, bu kurashda SHamsulmulk g‘alaba qozonib hokimiyatni egallaydi. 1072 -yilda Saljuqiy Sulton Alp Arslonning vafotidan foydalangan Qoraxoni SHamsulmulk Saljuqiylarga tegishli bo‘lgan Termiz va Balx viloyatlarini egalladi. Ammo, ko‘p o‘tmay Alp Arslonning vorisi bo‘lgan Sulton Malikshoh boshchiligida Saljuqiylar Qoraxoniylarni qaytarib yubordilar.

1080 -yilda SHamsulmulk vafot etib taxtga Qoraxoni Ahmad taxtga o‘tiradi. Ahmadxon davrida musulmon ulamolari va turk lashkarboshilar o‘rtasidagi kurash avj olib ketadi. Bundan foydalangan Saljuqiy Malikshoh Amudaryodan kechib o‘tdi va qattiq janglardan so‘ng Buxoro hamda Samarcandni egalladi. Ahmadxon esa asir olinadi. Lekin, Movarounnahrni o‘z qo‘lida saqlab qolishga ko‘zi etmagan Malikshoh Ahmadxon bilan sulh to‘zib, katta o‘ljalar olib orqaga qaytadi. Ahmadxonning Saljuqiylarga itoatkorligi harbiy lashkarboshilar va ruhoniylarning noroziligiga sabab bo‘lganligi bois, oqibat 1095 -yilda u fitna uyushtirilib o‘ldiriladi.

XII asrning boshlariga kelib Qoraxoniylar taxtiga Arslonxon (1102-1130 yy.) o‘tirib yarim mustaqil davlatni boshqargan bo‘lsada, to‘la mustaqillik uchun harakatlar olib bordi. Ulamolar bilan kelishmovchilik va betobligi tufayli Arslonxon taxtni 1130 -yilda o‘g‘li Nasrga topshiradi. Arslonxon Saljuqiy Sulton

Sanjardan yordam so‘raydi. O‘sha -yili Sulton Sanjar fitnachilarni jazolab Samarqand shahrini egallaydi va shu davrdan boshlab Qoraxoniylar o‘z mustaqilligini deyarli yo‘qotib Saljuqiylargaga qaram bo‘lib qoldilar.

Oradan ko‘p o‘tmasdan Movarounnahrga yangi ko‘chmanchi qabilalar Qoraxitoylar (kidanlar) hujumi xavfi paydo bo‘ldi. XII asrning 30-yillarida Qoraxitoylar SHarqiy Turkiston va Ettisuvni, ya’ni SHarqiy Qoraxoniylar hududini bosib oldilar. SHarqiy Qoraxoniylar ancha zaiflashib qolganligi tufayli o‘z mulklarini himoya qila olmadilar. G‘arbiy Qoraxoniylarning ham ahvoli bundan yaxshi emas edi. 1137 -yildagi Xo‘jand yaqinidagi bo‘lgan jangda Qoraxitoylar qo‘shini Qoraxoniy Mahmudxon qo‘shinlarini tor-mor etdilar. Bu paytda Xorazmni egallah bilan band bo‘lgan Sulton Sanjar o‘z vassali Mahmudxonga etarli yordam bera olmadi. Samarqand talon-taroj qilinib, katta tovon undirilgach, Qoraxitoylar orqaga qaytdilar.

Oradan ko‘p o‘tmasdan, ya’ni 1141 -yilda Qoraxitoylar yana Movarounnahr erlariga bostirib keldilar. Ularning hujumini to‘xtatish uchun Sulton Sanjar katta qo‘shin bilan Samarqand yaqiniga etib keladi. Bu safar jang Samarqand yaqinidagi Qatvon cho‘lida bo‘ldi. Hal qiluvchi bu jangda Sulton Sanjar va Qoraxoniy Mahmudxonlarning birlashgan qo‘shinlari Qoraxitoylar tomonidan mag‘lub etildi.

Samarqand, Buxoro va butun Markaziy Movarounnahrni egallagan Qoraxitoylar katta o‘ljalar bilan orqaga qaytdilar. Qoraxitoylar Balasog‘undan tashqari hamma erlar hokimiyatni Qoraxoniylar qo‘lida qoldirdilar. Qoraxoniylar endi Qoraxitoylarga qaram bo‘lib, har -yili ularning poytaxti Balasog‘unga katta-katta o‘lpon yuborib turar edilar. XIII asrning boshlarida Muhammad Xorazmshohning Movarounnahrga yurishlari tufayli Qoraxoniylar hukmronligi butunlar barham topdi.

## **2.Ijtimoiy tuzum va iqtisodiy hayot.**

Qoraxoniylar sulolasiga o‘z hukmronligi davrida o‘z mulklarining sarhadlarini bir necha marta o‘zgartirganlar. Misol uchun, Movarounnahrni egallaguniga qadar ularning mulklari Tyanshan va uning atroflarini egallagan bo‘lsa, XI asr boshlariga kelib esa, hoqonlik chegaralari Amudaryogacha etgan. Oradan ko‘p o‘tmay ular SHarqiy Turkistonda Qashg‘arni va Xo‘jandni qo‘lga kiritdilar. Bunday holat xoqonlikning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Har bir viloyat ma’lum siyosiy mavqega ega bo‘lgan holda xondan kichikroq unvonga ega elekxonlar tomonidan boshqariladigan bo‘ldi.

Qoraxoniylar Somoniylarga nisbatan davlat tuzilishi va boshqaruving boshqacharoq shaklini joriy etishga harakat qildilar. Ularda hokimiyat Somoniylarda bo‘lgani kabi to‘g‘ridan – to‘g‘ri otadan o‘g‘ilga emas, balki akadan ukaga, keyin sulolaning navbatdagi avlodiga o‘tgan. Ayrim olimlarning fikricha, Qoraxoniylarning butun urug‘i hokimiyatning jamoaviy sohibi bo‘lib, sulolaning har bir a’zosi o‘zining kelib chiqishiga ko‘ra, umumsulola mulkinining bir qismiga da’vo qila olardi. Bu mulknинг asosiy qismi sulolaning uch ulug‘ a’zosi – ulug‘ xoqon, kichik xoqon va elekxonga tegishli hisoblanardi. Ularning har qanday avlodiga o‘z hissasi ajratib berilar edi.

Qoraxoniylarda ikkita poytaxt: Qashg‘ar va Balasog‘un mavjud edi. Ulug‘ xon shu shaharlardan biridagi qarorgohda o‘tirgan. Ulug‘ xoqon yoki ulug‘ xon «**xoqon ul-xoqon**» degan nomda yuritilib, arab manbalarida mazkur unvon «**sulton us-salotin**», fors manbalaridagi «**shahanshoh**» ga mos keladi. Qoraxoniylarga qarashli erlar tamg‘achxon tomonidan uning o‘g‘illari, qarindoshlari o‘rtasida taqsimlangan edi. SHu bois er-mulk masalasida ota-o‘g‘il, amaki va jiyalar o‘rtasida doimiy nizolar yuz berib, u siyosiy ahvolga salbiy ta’sir ko‘rsatib turgan.

Qoraxoniylar Movarounnahrni bosib olgach bu erdag‘i ijtimoiy-siyosiy hayotda katta o‘zgarishlar sodir bo‘lganligi bois, Qoraxoniylar o‘z davlatlarini viloyatlarga bo‘lib tashlaydilar. Movarounnahr viloyatining poytaxti Samarqand, Farg‘onaniqi esa O‘zgand shahri edi. Bu viloyatlar boshliqlari elekxonlar bo‘lib ular Qashg‘ardagi tamg‘achxonlarga rasman tobe edilar. Qoraxoniylar davrida Samarqand elekxoni ancha kuchayib ketgan edi. Samarqand elekxoni saroyida Somoniylar davlatida bo‘lgani kabi vazir, sohibi-borid, mustavfiy, hojib, rais-muxtasib kabi amaldorlar bo‘lgan. Ta’kidlash joizki, Qoraxoni hukmdorlari musulmon ulamolari bilan qalin aloqa o‘rnatganlar va imomlar, sayidlar, shayxlar, sadrlarni qo‘llab-quvvatlaganlar.

Keyingi davrdagi yangi adabiyotlarda ta’kidlanishicha, Qoraxoniylar davrida jamiyatning ijtimoiy bo‘g‘inlari qo‘yidagicha bo‘lgan:

- **xoqon-ul-xoqon**, Qoraxon yoki tamg‘achxon. Eng yuqori oliy mansabdor shaxs, davlatning oliy boshlig‘i;
- **elekxon** – xoqondan keyingi pog‘onada turuvchi shaxs. U xoqon xonadoniga mansub bo‘lib, viloyatning mulk sohibi hisoblangan;
- **iqtadorlar** – Qoraxoniylar davlatining tayanch qatlami, asosiy harbiy harakatlarni amalga oshiruvchi jangovar bo‘linmalar vakillari. Ular o‘z martabalariga ko‘ra bir-birlaridan farq qilganlar, ya’ni, tumanlar va viloyatlar miqyosidagi iqtadorlar;
- **islom dinining peshvolari** – imomlar, sayidlar, shayxlar, sadrlar. Qoraxoniylar musulmon ruhoniylari bilan yaxshi munosabatlarda bo‘lgan bo‘lib, davlatda diniy mansabdorlarning mavqeい nihoyatda baland edi;
- **hokimlar, raislar, muhtasiblar** va boshq. Bunday shaxslar Somoniylar davrida bo‘lgani kabi Qoraxoniylar davrida o‘z mavqelarini mustahkam saqlab olgan ijtimoiy qatlamlardir;
- **tariqchilar** – ziraotkorlarning turkcha nomi, qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan ta’minlovchi asosiy ijtimoiy qatlam;
- **hunarmandlar va savdogarlar** – turli xildagi xo‘jalik ahamiyatiga molik ashyo, asbob-anjomlar yasovchi, tayyorlovchi mehnatkash qatlam va savdo-sotiқ bilan mashhur bo‘lgan shahar ahli;
- **ko‘chmarchilar** – chorvadorlar ya’ni, chorva mahsulotlarini etishtiruvchi asosiy qatlam.

Qoraxoniylar davrida oddiy xalq – **budun**, soliq to‘lovchi fuqaro – **raiyyat**, qabila boshliqlari – **bek**, savdogarlar – **sart** deb atalgan.

Somoniylar davrida juda katta kuchga ega bo‘lgan dehqonlar, yirik er egalar Qoraxoniylar darvida o‘z ta’sirini asta-sekin yo‘qota bordilar. Qoraxoniylar bu yirik er egalarining mulklarini, erlarini zo‘rlik bilan tortib olib o‘zlariga xizmat

qiluvchi amaldorlarga, lashkarboshilariga bo‘lib berdilar. SHartli ravishda foydalanishga berilgan bu erlar tarixiy manbalarda «**iqta**» deb, er egalari esa «**iqtador**» deb atalgan. Asta-sekin bu erlar avloddan avlodga meros sifatida o‘tadigan bo‘ldi. Iqta bilan bir paytda erga egalik qilishning boshqa turlari ham mavjud edi.

Bu davrda Movarounnahrda dindorlarga va diniy idoralarga tegishli vaqf erlari ham ancha kengaydi, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy hayotda musulmon dindorlarining o‘rni katta bo‘lganligidan dalolat beradi.

Bu davrda erga egalik qilishning xususiy shakli oz miqdorda bo‘lsa-da saqlanib qolindi. Bu erda shuni unutmaslik kerak-ki, Movarounnahrga Qoraxoniylar bilan birga juda ko‘p ko‘chmanchi turkiy qabilalar kirib keldi. Ushbu qabilalar Qoraxoniy hukmdorlarga ko‘rsatgan xizmatlariga qarab katta-katta erlarga, serunum yaylovlarga egalik qildilar. Ba’zi hollarda sug‘oriladigan dehqonchilik erlari ham ko‘chmanchilarga yaylov tariqasida bo‘lib berilgan.

### **3.Qoraxoniylar davlati siyosiy tizimi**

Qoraxoniylar davrida davlat boshqaruvi tartiblari somoniylar davri davlat boshqaruvi tizimidan tubdan farq qilmaydi. Saroy amaldorlarining nomlanishi va vazifalarida ham bu holatni ko‘rish mumkin. Mamlakat oliy hukmdor - xon yoki xoqon tomonidan boshqarilib, eng ulug‘ xon - qoraxon unvoniga ega bo‘lgan. Saroyda somoniylar davlatida bo‘lganideq vazir, sohibbarid, mustavfiy, hojib, rais (Muhtasib), bitikchi (Munshi), kotib (Mirza), qushchi (xokoga ovining tashkilotchisi) va boshqa mansablar bo‘lgan.

Qoraxoniylarda xoqonning taxti merosiy sanalgan taxt otadan o‘g‘ilga yoki akadan ukaga o‘tishi asosiy qoida sifatida belgilangan. Ma’muriy idoralar ikki qismga - dargoh va devonga bo‘lingan edi. Qoraxoniylarda ikki shahar - Qoshg‘ar va Bolasog‘un poytaxt sanalib, ulug‘ xon shu shaharlardan biridagi karorgoxda o‘tirib davlatni boshqarardi. Qoraxoniylar hukmdori “**Tamgachxon**” yoki arablardagi “sulton us-salotin”, forslardagi “shahan shoh” atamalariga muvofiq keladigan “**xoqon ul-xoqon**” degan nom bilan ham ulug‘langan. G‘arbiy qoraxoniylar davlatiga kirgan Movarounnahr hukmdorlari odatda **Eloqxon** (ularning ba’zilari o‘zlarini Tamgachxon deb ham ataganlar) yuritilar edi.

Qoraxoniylar davlatni ulus va viloyatlarga bo‘lib idora qildilar. Mamlakat endilikda markazlashgan davlat tizimidan alohida mulk boshqaruvi tizimiga o‘tdch. El-yurt hokimlari “**Eloqxon**” deb yuritilar edi. Viloyatlar esa ma’lum siyosiy mavqega ega bo‘lib, ular ham xondan kichikroq unvonga ega **iloqxonlar** tomonidan boshqariladigan bo‘ldi. Ular faoliyati ulug‘ xon tomonidan tayinlanadigan maxsus amaldorlar - **takin** deb ataluvchi noiblar tomonidan nazorat qilib turilardi. SHu tariqa qoraxoniylar tomonidan Movarounnahrning ishg‘ol etilishi hududning siyosiy hayotida katta o‘zgarishlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

Qoraxoniy hukmdorlar garchi bu davrda xali o‘troq hayotga ko‘chmagan bo‘lsalarda dehqonchilik vohalari va shaharlarning madaniy ahamiyatini yaxshi anglar edilar. Bolosog‘un, Qoshg‘ar, Taroz, O‘zgan, Samarkand, Buxoro kabi shaharlar umumdavlat miqyosida ham katta ahami yatga ega hisoblanardi. SHaharlar shahar hokimi, raisi va muhtasiblari tomonidan boshqarilardi. Viloyat

hokimlariga misdan chaqa tangalar zarb qilish huquqi berilgan bo‘lib, Movarounnahr eloqxonasi qoraxoni eloqxonlarning orasida katta obru-e’tibor qozongan edi.

Qoraxoniylarga qarashli erlar **Tamg‘achxon** tomonidan o‘g‘illari va qarindoshlari o‘rtasida taqsimlangan. SHu bois er-mulk masalasida ota-o‘g‘il, amaki-jiyanlar hamda aka-uka va amakivachchalar o‘rtasida doimiy muammolar yuz berib, u siyosiy ahvolga salbiy ta’sir ko‘rsatib turardi.

Koraxoniylar davlatida imom, sayyid, shayh sadrlar kabi diniy ulamolarning ham mavqeい kuchli edi. Qoraxoniylar mamlakatda o‘z hukmronligini mustaxkamlab olishga intilib musulmon ruxoniylari bilan yaqin va do‘stona munosabatlar o‘rnatadilar. Bu davrda din peshvolariga e’tibor kuchayib ularning obruyi xar qachongidan ham balandga ko‘tariladi.

#### **4.Qoraxoniylarda mulkchilik va harbiy tizim.**

. XI - XII asrlarda yuz bergen siyosiy vokealar Movarounnahr iqtisodiy hayotida ham o‘zgarishlar keltirib chiqardi. Alovida mulklarning boshqaruvi, ma’muriy idoralar somoniylar davridagi tartiblarga muvofiq kelar va ijtimoiy mansab va martabalardagi farq katta emas edi. Ijtimoiy tuzumda mavqeい ancha baland hisoblangan yirik zamindorlar - dehqonlar qatlami qoraxoniylar davrida o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. O‘rta Osiyo ko‘xna zodagon toifasining bunday ahvolga tushishiga asosiy sabab bu ko‘chmanchilik sharoitiga moslashgan el-uluslarning o‘troq aholi hududlarini ishg‘ol etishidir. Somoniylar zamonida mazkur sulola uchun xos markazlashgan davlat tuzumidan ko‘nikmagan aslzoda dehqonlar qoraxoniylarni ko‘llab- quvvatlagan edilar. Lekin yakka hokimlikka intilgan qoraxoni hukmdorlar ham dehqonlarni quvg‘in qila boshladilar. Buning okibatida qadimiylar zodagonlar vakillari o‘z ekinzorlari, uy-joylari, mulklari va boyliklaridan mahrum bo‘ldilar. Ularning er-mulkleri koraxoniylar davlatiga ko‘rsatgan xizmati uchun iqto‘ (arabcha - in’om) tarzida turli harbiy-ma’muriy amaldorlarga bo‘lib berila boshladi. Dehqon degan nom endilikda faqat oddiy qishloq ziroatkoriga nisbatan aytildigan bo‘lib qoldi.

Qoraxoniylar davrida xoqonga tegishli davlat erlari, ikto‘ er-mulklar, vaqf va jamoa mulklari asosiy er-mulklar hisoblanardi. Bu davrda yuz bergen iqtisodiy o‘zgarishlar jamiyatning ijtimoiy qatlamlariga ham ta’sir ko‘rsatdi. Mamlakatning asosiy ijtimoiy qatlamlari sifatida quyidagi toifalarni ko‘rsatish mumkin:

- iloqxon - xoqon ul-xoqondan keyingi pog‘onada turuvchi amaldorlar toifasi. Ular xoqon xonadoniga mansub bo‘lib, viloyatlarning mulk egalari hisoblangan;

- ikto‘dorlar - koraxoniylar davlatining tayanch qatlami. Asosan, harbiy-ma’muriy amaldorlardan tashkil topgan bu toifa vakillari o‘z martabalari va mol-mulkiga ko‘ra bir-birlaridan farq qilganlar;

- islom dinining peshvolari - imomlar, sayyidlar, shayxlar, sadrlar va boshqalar. Butun o‘rta asrlar davrida bo‘lganidek ulamolar bu davrda ham katta ijtimoiy mavqega ega edi;

- hokimlar, raislar, muxtasiblar va boshqa amaldorlar. O‘rta boshqaruvi bo‘g‘inini tashkil qilgan bunday amaldorlar toifasi, barcha tarixiy davrlarda

bo‘lganidek koraxoniylar davrida o‘z mavqelarini mustahkam saqlay olgan ijtimoiy qatlam edi;

- tariqchilar - ziroatkorlarning turkcha nomi. Ular qishloq xo‘jalik mahsulotlari etishtiruvchi asosiy ijtimoiy qatlam sanalardi;

- hunarmandlar - ichki va tashqi bozor uchun hamda saroy ehtiyojlari uchun turli xildagi xo‘jalik ahamiyatiga ega mahsulotlar tayyorlovchi mexnatkashlar qatlami;

- savdogarlar - savdo-sotiq bilan mashg‘ul bo‘lgan alohida ijtimoiy toifa hisoblanardi;

- kuchmanchi chorvadorlar - chorva mahsulotlari etishruvchi asosiy ijtimoiy qatlam. Bunday aholi toifalari shahar hayotidan yiroq bo‘lgan.

Qoraxoniylarda oddiy xalq - budun, soliq tulovchi fuqaro - ra’iyat deb atalgan. Qabila boshliqdari bek deyilgan. Savdogarlar sart deb atalgan. Qoraxoniylar davlatida hunarmandchilik (kulolchilik, tukuvchilik, shishapazlik, temirchiliq, zargarlik) va me’morchilik, s avdo-sotiq ancha taraqqiy etgan edi. SHuningdek, konchilik rivojlangan bo‘lib, qimmatbaho toshlar, oltin, mis, temir qazib olingan. Iloq tog‘laridan (CHotkol-Qo‘rama tog‘lari), Farg‘onadan va mamlakatning boshqa ko‘pgina joylairdan nodir toshlar, metall va polimetalar mavjud konlardan ancha intensiv foydalanilganligi ma’lum. SHaharsozlik rivojlanib, barcha jamoat inshootlari pishiq g‘ishtdan bunyod etilgan. Bu davrda barpo etilgan va bizning davrimizgacha saqlanib qolgan Minora i Kalon, Vobkent va Jarqo‘rg‘on minoralari, Raboti Malik me’moriy majmuasi qoraxoniylar davri me’morchilik an’analari va rivojidan dalolat beradi.

**Huquq.** Qoraxoniylar davrida ham shariat ahkomlari asosiy huquq manbai hisoblanardi Qoraxoniylar ko‘chmanchi qabila vakillari bo‘lganliklari uchun turkiy chorvadorlarga xos qadimiylar tartib-koidalarga riosa etganliklari ham extimol qilinadi. Ibn al-Asir, YUsuf Bolosog‘uniy, Narshaxiy va Nizomulmulk asarlarida bayon qilingan voqealardan Movarounnahrdagi huquqiy munosabatlarni ham anglash mumkin. Biroq markazlashgan davlatning yo‘qligi bu munosabatlarda ham o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazardi. Lekin shunga qaramay islomga kirgan qoraxoni hukmdorlar shariatga amal qilish bilan o‘z davlatlarini xuquqiy tartiblarini saqlay oldilar.

Qoraxoniylar davlatida saljuqiylarda bo‘lgani singari ikto‘ masalasida ayrim konuniy cheklanishlar joriy etilgan. Iqto‘ egasi o‘z mulkida ishlayotgan ziroatkorlardan qonunda belgilangan mikdordagi soliqdan boshqa ortaqcha mahsulot yoki xaq olishga huquq bo‘lmasan. Majburiy ravishda biror-bir mahsulot tortib olinsa, bunday vaziyatda iqto‘ning ma’lum miqdori qirqib olingan yoki umuman tortib olingan.

Rai’iyatdan biror-bir shaxs amaldor yoki mansab sohibidan aziyat cheksa, bunday vaziyatda mazlum kishi davlat boshlig‘iga arz qilgan va shundan so‘ng zulm qilgan kishi o‘z jinoyatiga yarasha jazoga tortilgan. Sud ishlarini har bir viloyat yoki tuman uchun mas’ul qozilar amalga oshirganlar. Bu qoraxoniylar davri konunchiligida islom tartiblariga kattiq riosa etilganligidan dalolat beradi.

### **Adabiyotlar**

Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997.

Каримов И.А. Тарихийхотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998

Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Т.: Шарқ. 2000.

Сагдулаев ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т., 2000.

Сагдулаев А.С., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. - Т., 2006.

Ртвеладзе Э.В. История государственности Узбекистана. – Т.: Узбекистан. 2009.

Эшов Б.Ж. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи. (ўқув қўлланма). – Т.: Маърифат, 2009.

Эшов Б.Ж. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012.

## **9.Mavzu: G‘aznaviylar va Saljuqiylarning boshqaruv tizimi va davlatchilik**

**Reja:**

- 1.G‘aznaviylar davlatining tashkil topishi.**
- 2. G‘aznaviylar davlat boshqaruvi**
- 3. Saljuqiylar davlatining tashkil topishi.**
- 4. Saljuqiylarning boshqaruv tizimi.**

### **1.G‘aznaviylar davlatining tashkil topishi.**

G‘aznaviylar davlati Movarounnahrdagi bosib olingan hududlarning cheklanganligi va nisbatan tarixan qisqa davr – Movarounnahrda bor-yo‘g‘i 40 - yilga yaqin hukmronlik qilgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston davlatchiligi tarixidagi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. CHunki, G‘aznaviylar paydo bo‘lishi davri – X asr oxiri – XI asr boshlarida paydo bo‘lgan boshqa davlatlar - Saljuqiylar va Qoraxoniylar kabi o‘ta muhim tarixiy ahamiyat kasb etgan voqeа – nafaqat Movarounnahr, balki butun O‘rta Osiyoda turkiy davlatchilikning o‘zil-kesil qaror topganligini ko‘rsatadi. SHu bois, ushbu paragrafda G‘aznaviylar davlatchiligi tarixi haqida qichqacha ma’lumot berib o‘tishni lozim topdik.

Demak, G‘aznaning siyosiy markaz sifatida yuksalishi X asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. G‘aznaviylar sulolasining asoschisi Amir Nasiriddin ud-davla Sabuqtegin G‘oziy kelib chiqishiga ko‘ra turkiy qavmga mansub edi. Ayrim o‘rta asrlar manbalarida, xususan, XIV asrda yashab o‘tgan Muhammad SHabangaroyning «Majma al-ansab» nomli asarida berilishicha, Sabuqtegin Issiqko‘l bo‘yidagi hukmdori **qarluq** bo‘lgan Barsxon degan joyda tug‘ilgan. YOshligida Sabuqtegin asir olinadi va to‘rt -yil **tuxsi** qabilasida tutqunda bo‘lgach, uni Movarounnahrlik savdogarlarga sotib yuboradilar. V.V. Bartoldning fikriga ko‘ra, Sabuqteginni Somoniylar davlatining mansablar pog‘onasida ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri Alptegin sotib oladi. Alptegin 963 -yilda vafot etgan paytda u sotib olgan qo‘l Sabuqtegin katta nufuzga ega edi. Uning vafotidan so‘ng G‘aznada navbat bilan Amir Ishoq ibn Alptegin, Amir Bilgategin, Amir Piriy, Amir Sabuqteginlar hukmronlik qiladilar. 997 -yilning boshida Sabuqtegin Somoniylar tomonidan G‘azna va uning atroflariga hokim etib tayinlanadi. Tarixiy manbalar Sabuqteginni G‘aznaviylar davlatining asoschisi sifatida ta’riflaydilar. 997 -yilning oxirida Amir Sabuqtegin vafot etadi va uning kichik o‘g‘li Ismol taxtga o‘tirib bor yo‘g‘i 7 oy hukmronlik qiladi. 998 -yilda o‘zining harbiy jasoratlari uchun **Sayf ud-davla** – «**sultanat qilichi**» degan faholi nomga sazovor bo‘lgan, Sabuqteginning ikkinchi o‘g‘li Mahmud G‘aznaviylar taxtiga o‘tiradi.

Ko‘pchilik tarixiy-ilmiy adabiyotlarda Mahmud G‘aznaviy deb yuritilgan Abulqosim Mahmud hukmronligi davrida (998-1030 yy) G‘aznaviylarning qudrati va shuhrati ortib Buyuk G‘aznaviylar davlati barpo etildi. Mahmud hukmronligi davrida Xorazm, Xuroson, Seyiston, Qobul, G‘azna, SHimoliy Hindiston kabi viloyatlar G‘aznaviylar qo‘li ostida edi. Abulqosim Mahmud taxtga o‘tirgan -yili xalifa Muqaddirdan Xurosonni boshqarish uchun yorliq hamda «**YAmin ad-davla va amin al-milla**» – «**Sultanat tayanchi va musulmonlar jamiyatining ishonchli vakili**» faxriy unvoni bilan taqdirlanadi.

Mahmud taxtga o‘tirgan paytidan boshlab o‘z davlati chegaralarini kengaytirish siyosatini olib bordi. U o‘sha -yiliyoq Janubiy Toxariston (hozirgi SHimoliy Afg‘oniston)ni bosib olgan bo‘lsa, 999 -yilda Marv yaqinidagi bo‘lgan jangdan so‘ng butun Xuroson Mahmud G‘aznaviy izmiga bo‘ysunadi. Manbalarning ma’lumot berishicha, Amudaryo vohasi, strategik jihatdan juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Termiz shahri ham Mahmud qo‘l ostida bo‘lgan. Abul Fazl Bayhaqiy «Tarixi Ma’sud» asarida ma’lumot berishicha, Termizda noib va qal’a qutvoli bevosita G‘aznaviyalar tomonidan tayinlangan. Bu G‘aznaviylargacha Amudaryo orqali Markaziy Osiyodan Hindistonga olib boradigan muhim savdo yo‘lini nazorat qilish imkonini bergen.

1002 -yilda Bag‘dod xalifasi Mahmud G‘aznaviy hokimiyatini tan olib unga yorliq yuborgach, Mahmud siyosiy jihatdan ancha mustahkamlanib oldi va o‘sha -yili Seyistonni bosib oldi. G‘aznaviyalar va Qoraxoniylar o‘rtasida dastavval Amudaryo chegara qilib belgilanadi. Ammo, Qoraxoniylar bu chegarani tez-tez bo‘zib turardilar. 1008 -yilda Balx atroflarida G‘aznaviyalar va Qoraxoniylar o‘rtasida jang bo‘lib o‘tadi. Bu jangda Mahmudning to‘la g‘alaba qozonishi Xurosonda uning ahvolini yanada yaxshiladi. O‘sha -yili Mahmud CHag‘aniyon va Xuttalyonni ham bosib olib, o‘zining noiblari sifatida mahalliy hukmdorlarni hokimiyatda qoldiradi.

Manbalarning ma’lumot berishicha, 1024 -yilda Mahmud G‘aznaviy markaziy Movarounnahr aholisini Alptegin zulmidan ozod qilish bahonasi bilan Amudaryoni kechib o‘tdi va Temir darvoza orqali Samarcandgacha borib Sug‘dga hujum qildi. Tadqiqotchilarning fikricha, bu yurishdan so‘ng CHag‘aniyon, Xuttalyon va Qobadiyonda Mahmudning hokimiyatini yanada mustahkamlandi. Ammo, numizmatik manbalar ma’lumotlariga asoslangan E. V. Rtveladzining fikricha, Xuttalyon, Qobadiyon va Vaxshning Mahmud G‘aznaviy davlatiga nisbatan tutgan siyosiy mavqeい haqida esa fanda hali unchalik ishonchli ma’lumotlar mavjud emas. Yana shu olimning fikricha, qat’iy dalillar asosida Omul (CHorjo‘y) gacha bo‘lgan butun Amudaryo vohasi Mahmud G‘aznaviyga bo‘ysungan deb hisoblash mumkin. Xorazm yurishi oldidan Mahmud G‘aznaviy vaziri tomonidan Termiz, Qobadiyon va Xuttalyonda kemalarni jangga tayyorlash, Omulda esa qo‘sishin uchun oziq-ovqat to‘plashga buyruq berilganligi ma’lum.

1017 -yilda Mahmud G‘aznaviyning ittifoqchisi bo‘lgan xorazmshoh Abulabbos Ma’munning o‘ldirilishi va isyonchilar tomonidan taxtga Ma’munning jiyani Abulhoris Muhammad Aminning o‘tqazilishi Mahmudning Xorazmga yurishiga sabab bo‘lagan edi. 1017 -yilning yoz oyida Mahmud G‘aznaviy qo‘sishlari Xorazmni egallab, g‘alayonni bostiradilar. Mahmud Xorazm taxtiga o‘zining noibi etib bosh hojib Mahmud Oltintoshni tayinlaydi. Mahmud Oltintosh ko‘p jihatdan mustaqil siyosat yurg‘izishga harakat qilgan bo‘lsada o‘zining butun hukmronligi davrida G‘aznaviy sultonlar, avval Mahmud, keyin esa Ma’sudning vassali hisoblangan hamda harbiy yurishlar davrida G‘aznaviyalar qo‘sishini Xorazm qo‘sishlari bilan to‘ldirib turgan. Xorazmning qo‘lga kiritilishi Mahmud G‘aznaviyning Movarounnahrda mavqeini yanada mustahkamlanishiga olib keldi.

Abulqosim Mahmud davrida G‘aznaviyilar davlati musulmon olamining eng kuchli davlatiga aylandi. Bu davlatning hududi Mahmud G‘aznaviyning harbiy yurishlari tufayli shimoliy va shimoli-g‘arbiy Hindistondan CHag‘aniyon va Xorazmgacha cho‘zilgan bo‘lib, unga Eronning katta qismi ham kirgan edi. O‘z davrining iqtidorli sarkardasi va qattiqqo‘l hukmdori bo‘lgan Sulton Mahmud G‘aznaviy 1030 -yilda vafot etadi. SHundan so‘ng Mahmudning vasiyati bilan ulug‘ xojib Ali Qarib boshchiligidagi bir guruh amaldorlar hukmdorning kichik o‘g‘li Muhammadni taxtga o‘tqazadilar. Ammo, o‘sha -yilning o‘zidayoq Mahmudning katta o‘g‘li Ma‘sud taxtni ukasidan tortib olishga muvaffaq bo‘ldi.

Ma‘sud G‘aznaviy otasi to‘zgan davlatni butunligicha saqlab qololmadi. Uning hukmronligi davrida (1030-1041) G‘aznaviyilar davlati o‘z qo‘l ostidagi hududlarni birin-ketin qo‘ldan chiqara borib, inqirozga yuz tuta boshladи. G‘aznaviylardan birinchi bo‘lib Xorazm ajralib chiqdi. Uning hukmdori Mahmud Oltintosh rasman mustaqil ichki va tashqi siyosat yurgizgan bo‘lsa-da, amalda Mahmud G‘aznaviyga tobe bo‘lib, unga ochiqdan-ochiq qarshi chiqishga jur’at qilolmagan edi. 1032 -yilda Xorazm hukmdori Mahmud Oltintosh vafot etadi. SHundan so‘ng Ma‘sud G‘aznaviy Oltintosh vorislarining hokimiyatini cheklash choralarini ko‘radi. YA’ni, Xorazmshoh unvoni Ma‘sud G‘aznaviyning o‘g‘li Sulton Saidga berilib, Mahmud Oltintoshning o‘g‘li Horun esa Sulton Saidning Xorazmdagi vakili bo‘lib qoldi. Bunday siyosat albatta, Horunning jiddiy noroziligiga sabab bo‘lgan edi.

1034 -yilda Horun ibn Oltintosh G‘aznaviylargaga qarshi isyon ko‘tardi. U Saljuqiylar va Qoraxoniylar bilan do‘stona munosabat o‘rnatib, Xorazmni G‘aznaviylardan mustaqil deb e’lon qildi va Sulton Ma‘sud nomiga xutba o‘qishni bekor qilish to‘g‘risida farmon berdi. Xorun ibn Oltintosh o‘sha -yili katta qo‘shin bilan Xurosonga yurish qildi. Lekin Sulton Ma‘sud tomonidan sotib olingan kishilar Xorun ibn Oltintoshni o‘ldiradilar. Uni qo‘llab-quvvatlagan Qoraxoniylar yana Samarcandga qaytib ketadi. SHundan so‘ng Sulton Ma‘sud G‘aznaviy Qoraxoniylar bilan mo‘zokalar olib boradi va shu yo‘l bilan G‘aznaviyalar hokimiyatiga bo‘lgan xavfni biroz kamaytiradi.

Ammo, G‘aznaviyarning kelajakdagi yirik raqibi bo‘lgan yangi sulola Saljuqiylarning siyosat maydoniga chiqishi ham aynan Ma‘sud G‘aznaviy davriga to‘g‘ri keladi. Mahmud G‘aznaviyning ruxsati bilan shimoliy Xurosonga joylashib olgan Saljuqiylar bu davrga kelib G‘aznaviyilar uchun katta xavf tug‘dira boshlagan edilar. 1035 -yilda Saljuqiylarning Xurosonga yangi hujumi boshlanadi.

Bu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Sulton Mahmud G‘aznaviy umrining oxirlarida u tomonidan barpo etilgan va poytaxti G‘azna bo‘lgan davlat G‘arbda Isfahon va Kaspiy dengizidan sharqda SHimoliy Hindiston, shimolda Xorazmdan, janubda Balujistongacha bo‘lkan ulkan hududni o‘z ichiga olib, o‘z davrining yirik musulmon davlatiga aylangan edi. Ammo, Sulton Ma‘sud ibn Mahmud davlat boshqaruvi va harbiy harakatlarda otasi kabi qobiliyatga ega emas edi. SHuningdek, o‘sha davrdagi siyosiy vaziyat, sulolalar o‘rtasidagi hududlar uchun o‘zaro kurashlar ham Sulton Ma‘sudga mamlakatni bir butunlikda saqlab qolish imkonini bermadi. SHu bois uning hukmronligi davrida (1030-1041 yy.)

G‘aznaviylar davlati o‘z qo‘l ostidagi hududlarni birin-ketin qo‘ldan chiqara borib, tanazzulga yuz tuta boshladi.

G‘aznaviylarning asosiy raqiblari Saljuqiylar bo‘ldi. 1035 -yilda Saljuqiylar Niso shahrini egallagan bo‘lsalar, 1037 -yilda ular Mari viloyatini o‘zil-kesil egallab Bag‘dod xalifasiga hokimiyatni boshqarish uchun yorliq berishini so‘rab elchi jo‘natdilar.

Keyingi -yillarda Saljuqiylar Tog‘rul boshchiligidagi G‘aznaviylarga bir qancha zarbalar berib Xurosonning katta qismini egallab olishga muvaffaq bo‘ldilar. SHundan so‘ng Sulton Ma‘sud katta qo‘shin bilan Saljuqiylar ustiga yurish qildi. 1040 -yilning may oyida Mari yaqnidagi Dandanakon degan joyda bo‘lgan jangda Sulton Ma‘sud qo‘shini Saljuqiylar tomonidan o‘zil-kesil tor-mor etildi. Mag‘lubiyatga uchragan Ma‘sud zo‘rg‘a qochib G‘aznaga keldi va ko‘p o‘tmay fitnachilar tomonidan o‘ldirildi. Taxtga Ma‘sudning ukasi Muhammad o‘tirdi. Lekin, Ma‘sudning o‘g‘li Ma‘dud (1041-1048 yy.) Muhammadga qarshi urush boshlab uning qo‘shinlarini engdi va o‘zini o‘ldirib, G‘aznaviylar davlatining hukmdori bo‘lib oldi. Ammo, Sulton Ma‘sudning vorislari G‘aznaviylar davlatining ilgarigi qudratini tiklashga muvaffaq bo‘la olmadilar. Asta-sekin o‘z qudratini yo‘qota boshlagan G‘aznaviylar davlati XII asrning oxirlarida Afg‘oniston hududlarida tashkil bo‘lgan yangi davlat – G‘uriylar tomonidan butunlay tugatildi. Aniqrog‘i, 1186 -yilda G‘uriylar sulolasidan bo‘lgan G‘iyosiddin Muhammad qo‘shini bu paytga kelib Panjob viloyati bilan cheklanib qolgan G‘aznaviylar hokimiyatini o‘zil-kesil tor-mor qildi.

## 2. G‘aznaviylar davlat boshqaruvi.

G‘aznaviylar davri boshqaruv tizimi o‘zining murakkabligi bilan diqqatni jalb etadi. U ko‘p jihatdan Somoniylar, Qoraxoniylar zamonidagi davlat boshqaruvi tizimlariga yaqin va o‘xhash. Bu tabiiy hol. Chunki har qanday boshqaruv tizimi (shakli) mavjud ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy-madaniy sharoitga bog‘liq bo‘ladi. Boshqa tomonidan esa G‘aznaviylar hukmronligi ostida bo‘lgan Xuroson, Seyiston, Qobul, G‘azna kabi viloyatlar mintaqaning ajralmas tarkibiy qismlari bo‘lib kelganliklarini nazarda tutsak, boshqaruvchilik taraqqiyotidagi o‘xhashliklar, yaqinliklar sababi ma'lum bo‘ladi. Bayhaqiyning G‘aznaviylarga oid fikrlari Sultonning buyruqlariga itoat qilib boshqaruvga alohida e“tibor qaratgan. Bu boshqaruvda aholining asosiy qismini 3 guruhga ajratadi: “xirad-u suxan, nafsi guyanda” – ilm-fan sohasi; – “nafs-i xashmi giranda” – himoya qiluvchi qism; – 2 “nafs-i arzu” - raiyat qismi. “Nafsi guyanda” qismini podsho boshqarib,adolat va qattiqqo‘llik bilan nazorat qilgan. “Xashm” bu qirolning qo‘shini bo‘lib, dushmanlarga qarshi o‘zini himoya qilishda, dushmanlarni mag‘lubiyatga uchratish va “raiyyat” aholini himoya qilish uchun maxsus tuzilgan. Bu qo‘shin shunday tayyor bo‘lishi kerakki, bu, albatta, podshoning buyruqlarini bajarishi shart bo‘lgan. “Nafsi arzu” bu podshoga qaram bo‘lgan aholi bo‘lib, shunisi muhimki, ular qiroldan qo‘rqishi, uni hurmat qilishi va o‘zlarining itoatkorligini namoyon qilishi kerak bo‘lgan. Mahmud G‘aznaviy va uning o‘g‘li Mas‘ud hukmronligida G‘aznaviylar davlatining siyosiy harakatida hukmdorlarning bir-biriga bo‘lgan munosabati muhim sabablarni keltirib

chiqarardi. V.V. Bartoldning “Turkestan” (291-293) nomli adabiyotida Sultonlarning boshqaruvi haqida aytib o,,tilgan . Unga ko,,ra, islom dunyosida vatanparvarlik va mahalliychilik g,,oyalari bu davrda yaqqol ko,,zga ko,,rinadi. Bu paytda ko,,pchilik dehqonlarning qishloq joylari yoki hunarmand va savdogarlarning shaharlari o,,zlarining doiralarida cheklanib qolgandi. Ular hukumatdan soliq to,,lash orqali o,,zlarining uy-joylari hamda ozodliklarini saqlab qolish maqsadida tinch yo,,lda hal qilishni umid qilishardi. Sultonlarning maqsadiga keladigan bo,,lsak, ular hukmronliklarini saqlab qolish uchun mafkuraviy tomondan hamda Abbosiylar xalifaligi bilan do,,stona munosabat o,,rnatish orqali sunniylik yo,,nalishi ostida hududiy boshqaruvni o,,rnatishgan. X asrda islom dunyosining ko,,pgina hududlarida shialik yo,,nalishi g,,alabasini ko,,rish mumkin: g,,arbda Fotimiylar xalifaligi tashkil topishi orqali Arab yarimorolidagi ko,,pgina amirliklar Suriya, Iroq hamda Eron hududlari, Buyidlar va Daylamiy sulolalari shialik yo,,nalishiga e“tiqod qilishgan. Buning oqibatida shialik yo,,nalishi Eronning barcha hududlariga tarqalib, asosiy diniy e“tiqodiga aylanayotgan edi. Bu paytda Sabuqtegin va Mahmud G,,aznaviy Somoniylar e“tiqod qilgan sunniylik yo,,nalishiga ergashishgan. Somoniylar Bag,,dod bilan yaqindan aloqa o,,rnatganliklari bois o,,zlarining kuchi yanada oshadi va shundan bilsa bo,,ladiki, G,,aznaviylar sunniylik yo,,nalishini qo,,llab quvvatlashgan.

### **3.Saljuqiylar davlatining tashkil topishi**

O‘z davlatini barpo etgan ko‘chmanchi xalqlar davlatchiligi tarixida Saljuqiylar davlati muhim ahamiyatga egadir. Saljuqiylar sulolasiga turkiy o‘g‘o‘z qavmining **qiniq urug‘i** yoki qabilasidan chiqqan bo‘lib, hozirgi Janubiy Qozog‘iston hududlariga to‘g‘ri keluvchi Sirdaryoning o‘rtalari oqimidan Talas vodiysigacha, Sirdaryoning qo‘yi oqimlarida ko‘chib yuruvchi etnik guruhlar bo‘lgan. Manbalarning ma’lumot berishicha, bu sulolaning paydo bo‘lishi qiniq qabilasi vakili bo‘lgan Saljuq nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u X asrning o‘rtalarida o‘g‘o‘zlar YAbg‘usining xizmatida bo‘lib, yirik harbiy unvon – «So‘boshi» unvoniga sazovor bo‘ladi. Bu haqda Mahmud Qoshg‘ariy «Saljuq So‘-boshi» deya ma’lumot beradi. X asrning 61-62-yillarda o‘g‘o‘zlar YAbg‘usi bilan kelisholmaslik tufayli (musulmon dinini qabul qilish va qilmashlik masalasida) qiniq qabilasi ajralib ketib, ularning bir qismi Sirdaryoning quyi oqimlariga ko‘chib ketadilar. Ikkinci, katta qismi esa Samarqand va Buxoro o‘rtasidagi cho‘llarda, Nurota tog‘lariga kelib o‘rnashadilar. XI asrning boshlaridan boshlab qiniq qabilalarining o‘troqlashuv jarayonlari kuchayib boradi.

Tadqiqotchilarning ma’lumotlariga ko‘ra, 1025 -yilda Movarounnahrdagi Saljuqning nabiralari Mahmud G‘aznaviya murojaat qilib SHimoliy Xurosonga ko‘chishni (4000 oila) so‘raydilar. Mahmud G‘aznaviyning ruxsati bilan shu -yili Saljuqning nabiralari boshliq qiniq qabilalari Saraxs, Farova va Obivard atroflariga joylashib, bu hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotga tezda aralashib ketadilar. Voqealarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, Saljuqiylar bilan G‘aznaviylar o‘rtasidagi munosabatlar -yildan-yilga jiddiy lashib, oxir oqibat yuqorida eslatilgan Dandanakon jangi kelib chiqdi. Bu jangdan so‘ng Saljuqning nabirasi Tog‘rulbek

Xurosonning hukmdori deb e'lon qilindi hamda siyosiy tarixda, G'arbiy Osiyoda Saljuqiylar sulolasini rasman tashkil topdi.

XI asrning 40-yillaridan boshlab Saljuqiylar Xuroson, Gurgon, Dehiston va Xorazmni butunlay qo'lga kiritib, Eron, Afg'oniston, Iroq, Kavkazorti va Kichik Osiyoga harbiy yurishlar uyuştirdilar. Ayniqsa, Sulton Alp Arslon (1063-1072 yy) va Sulton Malikshoh (1072-1092 yy) hukmronligi davrida Saljuqiylar davlatining hududlari yanada kengayib, mamlakatning yuksalgan davri bo'ldi. Sulton Malikshoh davrida Samarqand, Buxoro va markazi O'zgand bo'lgan Farg'ona ham Saljuqiylar davlatiga buysunadi. 1092 -yilda Sulton Malikshoh vafot etgach uning vorislari o'rtasida toj-taxt uchun kurash avj olib ketdi. Bir necha -yillik kurashlardan so'ng 1118 -yilda Malikshohning o'g'li Sulton Sanjar (1118-1157 yy) taxtni egallashga muvaffaq bo'ldi.

Buyuk Saljuqiylar sulolasining so'nggi yirik vakili bo'lgan Sulton Sanjar davrida davlatning poytaxti Marv shahriga ko'chirildi. Sulton Sanjar Movarounnahrdagi Qoraxitoylarning ichki ishlariga, siyosatiga katta ta'sir o'tkaza olishga erishgan Saljuqiylardan edi. U hokimiyatni qo'lga olishi bilanoq harbiy yurishlarni kuchaytiradi. Natijada bir qancha viloyatlar, xususan, Mozandaron, Xorazm, Seyiston, G'azna va Movarounnahr Saljuqiylar davlatiga buysundiriladi. Manbalarning ma'lumot berishicha, Sulton Sanjar «Ulug' sulton», «Sultonlarning sultonisi», «SHahanshoh» kabi unvonlar bilan ulug'langan.

Ta'kidlash lozimki, Saljuqiylar davlati singari ulkan hududlarni o'z ichiga olgan davlatni yagona markazdan turib boshqarish oson emas edi. SHuning uchun ham markazdan turib boshqaruvdagi qiyinchiliklar, sulola, vakillarining toj-taxt uchun kurashlari, mahalliy hukmdorlarning mustaqillikka intilishlari, qaram o'lkalardagi norozilik harakatlari Saljuqiylar davlatining zaiflashuviga sabab bo'lган edi. Natijada Sulton Sanjar davriga kelib Saljuqiylar davlatining g'arbiy Iroq qismida uning ta'siri pasayib qoladi. Mamlakatning sharqiy qismi – Eron, Afg'oniston, Xorazm va Movarounnahrdagi Sultonning ta'siri birmuncha kuchli edi. Ammo, 1141 -yilda Sulton Sanjar va uning vassali hamda ittifoqchisi, Qoraxoniy Mahmudxonning birlashgan qo'shinlari bilan qoraxitoylar o'rtasida Samarqand yaqinidagi Qatvon cho'lidi jangda Sulton Sanjar qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi. Natijada Movarounnahr qo'ldan ketib, sultonning mavqeい ancha pasayib ketdi.

Saljuqiylarning mag'lubiyatidan Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad Otsiz ustalik bilan foydalanib, 1141 -yilning qishida Saljuqiylarning poytaxti Marvni bosib oldi va 1142 -yilda Nishopurga yurish qildi. Lekin, Sulton Sanjar Xorazm qo'shinlarini Xurosandan quvib chiqardi va Otsizni yana o'ziga bo'ysundirishga erishdi. Sulton Sanjarning harakatlariga qaramay, Saljuqiylar davlati o'zining avvalgi qudratini yo'qota boshlagan edi. Saljuqiylarga hal qiluvchi zARBANI Balx va Xuttalon viloyatlarida yashovchi **G'o'z** qabilalari berdi. 1153 -yilda ular Sulton Sanjar qo'shinlarini tor-mor etib, uning o'zini asir oldilar. G'o'zlar himoyasiz qolgan Marv va Nishopur shaharlarni talon-taroj qilib, o't qo'ydilar. Sulton Sanjar 1156 -yilda asirlikdan qochishga muvaffaq bo'lsa ham, lekin Saljuqiylar davlatini tiklay olmadи va bir -yildan keyin vafot etdi.

## **5. Saljuqiylarning boshqaruv tizimi.**

Saljuqiylar davlat boshqaruvi o‘ziga xos edi. Davlat boshlig‘i, oliy hukmdor Saljuqiylar xonadoni vakili bo‘lib **Sulton ul-a’zam** unvoniga ega bo‘lgan. Ilgarigi sulolalarda bo‘lgan kabi, Sultan nomiga xutba o‘qilib, tangalar zarb etilgan. Mol-mulk, er-suv taqsimlash davlat va boshqaruv mansablariga tayinlash, davlat kirim-chiqimlarini nazorat qilib turish, amaldorlar va xizmatkorlar faoliyatini nazorat qilish, yangi qal’alar, shaharlar, hashamatli inshootlar qurishga boshchilik qilish kabilar sultonning zimmasida bo‘lgan.

Saljuqiylar boshqaruv tizimida bosh vazir alohida mavqega ega bo‘lgan. Manbalarda **bosh vazir-rais ur-ruaso** (raislarning boshlig‘i), **sa’id ur-ruaso** (boshliqlarning kattasi) deb atalib, u barcha devonlar faoliyatiga rahbarlik qilgan holda xazina, moliya, soliq, davlatga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish muassasalari ishlarini nazorat qilgan.

Saljuqiylar boshqaruv tizimi **dargoh va devonga** bo‘lingan bo‘lib dargohdagi eng asosiy xizmat va vazifalar quyidagilar edi:

**Ulug‘ hojib** – oliy hukmdorning eng yaqin kishisi, dargoh bilan devonlar o‘rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirib turuvchi, rasmiy qabullarni uyshturuvchi amaldor;

**Amiri horis** – oliy hukmdor chiqargan jazolar hukmlarini ijro etish bilan shug‘ullanuvchi amaldor;

**Salohdor** – saroydagi qurol-aslaha, ayniqsa oliy hukmdorga tegishli narsalarni saqlash bilan shug‘ullanuvchi amaldor;

**Xos vakil** – dargoh ishlarini boshqaruvchi amaldor;

**Jangdor** – sulton va dargoh xavfsizligini ta’minlovchi amaldor. Undan tashqari oliv hukmdor huzuridagi dargoh faoliyatini ta’minalashda jomador, sharobdor, choshnigir (sultonning ovqatlanishiga mas’ul), sarhang, miroxo‘r, tashtor kabi amaldorlar ham xizmatda bo‘lgan.

Saljuqiylar davlat boshqaruvidagi devonlar sulolaviy va rasmiy devonlarga bo‘lingan. **Sulolaviy devonlar** oliv hukmdor xonadoni faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, bu xonadonga tegishli bo‘lgan mol-mulk, er-suv, xazina kabilarning boshqaruvi va hisob-kitobi bilan shug‘ullangan. **Rasmiy devonlar** qo‘yidagilar bo‘lgan:

**Devoni tug‘ro** – bu devon oliv hukmdorning farmonlari, qarorlari, rasmiy yozishmalari va hujjatlarini tayyorlab, ularni muhr bostirishga taqdim etgan. Joylarga rasmiy hujjatlar yuborish, ulardan hujjatlar qabul qilish, chet ellarga maktublar yuborish, davlat hujjatlarida maxfiylikni ta’minalash ham shu devonning vazifasi edi;

**Devoni istifo (moliya devoni)** – davlat kirim-chiqimlarini, soliqlar, boj va boshqa moliyaviy daromadlar, ularni alohida ro‘yxatga olish bilan shug‘ullangan. Bu devonning xizmatchilari dargoh kirim-chiqimlari, xazinadagi ahvol, mavjud naqd pulning hisobi, davlat qaramog‘ida bo‘lganlarga ketadigan xarajat, maosh, nafaqa miqdori kabilarni ham nazorat qilganlar;

**Devoni ishrof (davlat nazorati)** – moliya-soliq ishlarini nazorat qilish va tekshirish, vaqfga tegishli mulklar ustidan umumiyl nazorat olib borish, sulolaga tegishli er-suvalar, qimmatbaho moliya qog‘ozlari, zarbxonalar, amaldagi muhrlar,

bozor mutasaddilari, soliqchilar, qishloq oqsoqollari va boshqa amaldorlar ustidan nazorat olib borgan;

**Devoni arz (harbiy vazirlik)** – lashkarga mo‘ljallangan maosh va ta’minot, harbiylarning ro‘yxati, yangilanib turishi, harbiy qismlarning tarkibiy soni, ularga ketadigan xarajatlarning turi va hajmi, ot-ulov, harbiy yurishlar paytidagi ta’minot, harbiylar ko‘rigini tashkil etish kabi vazifalarini bajargan.

Saljuqiylar hokimiyatida, ayniqsa Sulton Sanjar hukmronligi davrida hokimiyatda harbiy sarkardalar katta o‘rin egallaganlar. Harbiy boshliqlar va sarkardalarning ko‘pchiligi turli urug‘ va qabilalardan (o‘g‘o‘z, turkman, xalaj, chig‘il va boshq.) chiqqan kishilardan bo‘lgan. Harbiy sarkardalar tabaqasi o‘z ta’sirini Sulton Sanjar boshqarayotgan hokimiyatga o‘tqazib, ularning ixtiyori bilan ish tutishni talab qilganlar. Harbiy sarkardalarning mavqeい Sulton Sanjarning Qatvan cho‘lidagi mag‘lubiyatidan so‘ng yanada kuchayib ketgan edi.

Saljuqiylar davri mahalliy boshqaruv tizimida viloyat boshliqlari (voliylar) ham o‘z devonlariga ega bo‘lganlar. Voliylarni oliv hukmdor tayinlagan va mansabidan olgan. Voliylar butun viloyat hayoti bilan bog‘liq barcha sohalarga boshchilik qilganlar. Moliya, soliq, sud, harbiy ishlar, jazo idoralari voliylar nazorati ostida faoliyat ko‘rsatgan. Tumanlar va shaharlar miqyosidagi boshqaruv tizimi ham viloyatlarniki singari bo‘lgan.

### **Adabiyotlar**

Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997.

Каримов И.А. Тарихийхотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998

Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Т.: Шарқ. 2000.

Сагдуллаев ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т., 2000.

Сагдуллаев А.С., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. - Т., 2006.

Ртвеладзе Э.В. История государственности Узбекистана. – Т.: Узбекистан. 2009.

Эшов Б.Ж. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи. (ўқув қўлланма). – Т.: Маърифат, 2009.

Эшов Б.Ж. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012.

## **10. Mavzu: Xorazmshoh-anushteginiylar davlatining ma'muriy tuzilishi, ijtimoiy iqtisodiy hayoti.**

**Reja:**

- 1. Xorazmshoh-anushteginiylar davlatining tashkil topishi.**
- 2. Xorazm va saljuqiylar davlatining o'zaro munosabatlari**
- 3. Xorazmshohlar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.**

### **1. Xorazmshoh-anushteginiylar davlatining tashkil topishi.**

Xorazm Somoniylar davrida ularga tobe viloyat hisoblanardi. X asr oxiri – XI asrning boshlariga kelib Xorazm hukmdori Ma'mun I va uning o'g'li Ali ibn Ma'mun Somoniylar davlati qo'laganidan so'ng mustaqil davlat tuzishga harakat qilib ko'rdilar. Xususan, 996 -yilda SHimoliy Xorazm hukmdori Ma'mun ibn Muhammad ikki qismga bo'linib ketgan davlatni birlashtirib **xorazmshoh unvoni** oladi va Urganchni o'z poytaxtiga aylanadiradi. Ammo, Movarounnahrdagi Qoraxoniylar va Xurosondagi G'aznaviylar davlati oldida Xorazm davlati juda kuchsiz bo'lib, ko'p hollarda Mahmud G'aznaviy va uning o'g'li Ma'sudga qaram edi. Xorazmning mustaqil davlat sifatida shakllanishi va rivojlanishi Anushteginiy-Xorazmshohlar sulolasini davriga to'g'ri keladi.

Ushbu sulolaning asoschisi yoki birinchi vakili Anushtegin kelib chiqishi jihatidan o'g'o'z turklaridan bo'lib, yoshligida Garjiston (Gurjiston) da yashagan va yollanma jangchi (mamluk) bo'lган. Saljuq sulton Malikshoh I davrida Anushtegin tashtdorlik mansabiga (sulton hovo'zlari va hammomlari ashylari xazinachisi) ko'tarilgan edi. Manbalarning ma'lumot berishicha, tashtdorlik mansabiga sulton o'zining ishonchli odamlarini tayinlar edi va ko'p o'tmay Anushtegin sultonning yaqinlaridan biriga aylanadi. Natijada 1076 -yilda Sulton Malikshoh Anushteginni Xorazm hokimi etib tayinlaydi. Anushtegin Saljuqiylarga tobe bo'lib hokimiyatni boshqaradi va 1097 -yilda vafot etadi. O'sha -yili uning o'g'li Qutbiddin Muhammad (1097-1128) Xorazm volysi qilib tayinlanadi.

Qutbiddin Muhammad otasi davrida o'z davrining yirik shaharlaridan biri bo'lgan Marvda ilm olgan, xususan, din ilmlarini yaxshi o'rgangan edi. U Xorazm volysi bo'lgach qobiliyatli hukmdor sifatida ulamolarga va din arboblariga homiylik qiladi. Qutbiddin Muhammad Xorazmda o'z mavqeini mustahkamlash uchun anchagina kuch-g'ayrat sarflagan bo'lsada, rasman Saljuqiylarga tobe bo'lgani bois, Sulton Sanjarga sadoqat bilan xizmat qildi. U Saljuqiylarning oliy hokimiyat uchun o'zaro kurashlarida ham faol ishtirot etganligi ma'lum. Tarixiy manbalarda Xorazmshohning unvoni «**Podshoh Qutbid-dunyo vad-din Abul-fath Mu'in Amiral-mo“minin»** («Dunyo va din qutbi, g'alabalar otasi Mo'minlar amiri-xalifanining yordamchisi») deb ulug'lanishi Qutbiddin Muhammad Saljuqiylarga tobe bo'lsa-da, mavqeい ancha baland bo'lganligidan dalolat beradi. SHu sababli bo'lsa kerakki, 1128 -yilda Qutbiddin vafot etgach Sulton Sanjar Xorazm taxtini uning o'g'li Aloviddin Otsizga (to'liq nomi Al-Malik Abu Muzaffar Aloviddin Jaloliddin Otsiz; 1128-1156 yy) topshiradi.

1171-1172 -yillarda qoraxitoylarning katta qo'shini Xorazmshohning o'lponti o'z vaqtida to'lamayotganligini bahona qilib Xorazm ustiga yurish qiladi.

Elarslonning buyrug‘i bilan Sirdaryodagi katta to‘g‘onlar ochtirilib, Xorazm poytaxti yaqinidagi yo‘llar suvgaga bostirildi. Bu qoraxoniylar qo‘sini yurishini qiyinlashtirdi va Xorazmning poytaxti Gurganj (Urganch) talon-taroj qilishdan saqlab qolindi. Ammo, qoraxitoylarning bu yurishi davrida Elarslon kasallikdan vafot etdi (1172 y). SHundan so‘ng uning o‘g‘illari Aloviddin Takash va Sultonshoh Mahmud o‘rtasida uzoq -yillar toj-taxt uchun kurash bordir. Aloviddin Takash 1172 -yilning dekabrida qoraxitoylar malikasi CHen Tiyon yordamida rasman taxtga o‘tirgan bo‘lsa-da, aka-ukalar o‘rtasida kurash davom etdi. CHunonchi, 1174 -yilda Sultonshoh Mahmudning onasi Turkon xotun Nishopur hukmdori Oy-Aboga qimmatli sovg‘alar yuborib, Takashga qarshi ittifoq taklif qildi. O‘sha -yili Gurganjdan 20 farsah uzoqlikdagi Subvurni shahri ostonasida Oy-Abo qo‘sinchilari Alovuddin Takash qo‘sinchilari bilan to‘qnashdi. Bu jangda Takashning qo‘li baland kelib, Oy-Abo asir olindi va qatl etildi. Turkon xotun va Sultonshoh Kaspiy dengizining sharqiy sohilidagi Dehistonga qochdilar.

Shundan so‘ng Aloviddin Takash Xorazmda mustahkam o‘rnashib, qoraxitoylarga va’da bergen o‘lponni to‘lashdan bosh tortadi. Bunga javoban qoraxitoylar yana Xorazmga yurish qildilar, lekin muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Sultonshoh ixtiyoriga kichik bir qo‘sish qoldirib o‘zlarini orqaga qaytadilar. Bu davrga kelib Xurosonning anchagina qismi Xorazm davlatiga qo‘shilgan bo‘lsa-da, Marv va uning atroflarda, Sabzavorda Sultonshoh Mahmud hukmronlik qilardi. 1187 -yilda aka-ukalar o‘rtasida Nishopur ostonasida yana to‘qnashuv bo‘lib, Takash g‘olib bo‘ldi. Sultonshoh Marvga chekinishga majbur bo‘ldi.

1188 -yilda Xurosonning ulamolari va taniqli amirlari vositachiligidida Sultonshoh bilan Takash o‘rtasida sulh bitimi tuzildi. Bu paytga kelib Takashning harbiy qudrati va obro‘si oshib ketgan bo‘lib, Sultonshoh uning barcha shartlarini qabul qilishga majbur edi. Ammo, bu uzoqqa cho‘zilmay Sultonshoh G‘o‘r viloyati hukmdorlarini akasiga qarshi kurashda o‘ziga ittifoqchi qilib oldi. 1193 -yilning bahorida Takash yana Sultonshohga qarshi yurish boshladidi. Xorazmshoh qo‘sinchilari Obivardga etganida har ikala tomonning vakillari bo‘lgan ulamo va din arboblari aka-ukalarni yana yarashtirib qo‘yish uchun mo‘zokaralar boshladilar. Bu orada Saraxs qal‘asining boshlig‘i Badriddin CHaqir xorazmshoh Takash tomonga o‘tib ketib, qal‘a kaliti va Sultonshohning barcha xazinalarini unga topshirdi. Bu voqealarni ko‘tara olmagan Sultonshoh 1193 -yilning ko‘zida vafot etdi. SHu tariqa xorazmshoh Elarslonning ikki o‘g‘li o‘rtasida 20 -yildan ziyodroq davom etgan kurashga yakun yasaldi.

Xorazmshoh Takash 1193 -yilning dekabrida Marv shahrini fath etib, shahar va uning atroflariga katta o‘g‘li Nosiriddin Malikshohni voliy etib tayinladi. Bag‘dod xalifasi Nasr (1180-1225 yy) va G‘arbiy Saljuqiylar sultonasi Tog‘rul II o‘rtasidagi nizolardan foydalanib, Takash qo‘sinchilari 1194 -yilning mart oyida Tog‘rul II ga qarshi urush ochdi va uni mag‘lub etib Hamadon shahrini egalladi.

Xorazmshohning tobora kuchayib borayotganligidan xavfsiragan xalifa Nasr qo‘sinchilari Takashga qarshi chiqdilar. 1196 -yilning iyun oyida Takash qo‘sinchilari xalifa qo‘sinchilarini engdi. SHu tariqa Afg‘oniston va Eronning katta qismi Xorazmshohlar qo‘liga o‘tdi va Xorazm davlati hududlari birdaniga ikki baravar kengaydi. Xorazm davlati endi Bag‘dod xalifasiga tegishli joylar va G‘uriylar bilan

chegaradosh bo‘lib qoldi. Ammo, ko‘p o‘tmasdan xalifa Nasr bilan Takash munosabatlari yana yomonlashganligi tufayli Xorazmshoh Iroqi Arab va xalifalik poytaxti Bag‘dodni bosib olishga qaror qildi. Lekin bu yurish paytida Takash kasallanib, 1200 -yil iyul oyida Xorazm bilan Nishopur orasidagi SHahriston shahrida vafot etdi.

O‘rta asrlar mualliflari ma’lumotlari asosida tadqiqotlar olib borgan Z.Buniyodovning xulosalariga ko‘ra, xorazmshoh Takash o‘z fuqarolariga nisbatanadolatli bo‘lgan. U boshqa sultonlarga nisbatan qobiliyatli, yirik diplomat va zukko lashkarboshi edi. SHu bois bo‘lsa kerakki, Xorazmshoh – Anushteginlar davlatining nisbatan kuchayishi, Aloviddin Takash faoliyatining ma’muriy idora boshqaruvi o‘zining qat’iyatligi va tartib intizomi bilan ajralib turadi. Lekin Takashning katta xatosi shunda ediki, u o‘zining xotini Turkon xotun mansub bo‘lgan qipchoqlar qabilasiga katta erkinliklar berdi, ularni doimo qo‘llab-quvvatladi. Turkon xotun (Uning shaxsiy muhrida «**Ismat ud-Dunyo vad-Din Ulug‘ Turkon malika niso al-olamiyn**», «**Dunyo va uning pokdomoni, Ulug‘ Turkon, olam ayollarining malikasi**» degan yozuv bitilgan edi) ularga tayanib katta hokimiyatga ega bo‘ldi, o‘z homiyligidagi odamlarning yuqori lavozimlarni egallashini ta’minladi. Natijada bu alohida turk harbiy-feodal tabaqasi paydo bo‘lishiga olib keldi va amalda xorazmshohlar davlatining inqiroziga sabab bo‘ldi.

1200 -yilning -avgust oyida Xorazmshohlar taxtiga Takashning o‘g‘li Qutbiddin Muhammad o‘tirdi (1200-1221 yy) va otasining Aloviddin laqabini qabul qildi. U taxtga o‘tirishi bilanoq ayrim muammolarga duch kelgan bo‘s-a-da, ularni zudlik bilan bartaraf etib, 1203 -yilda qoraxitoylarning yordami bilan Xurosonni bosib oldi. Undan keyin esa Hirot va uning atroflarini egalladi.

Aloviddin Muhammad 1207 -yilda Movarounnahrga yurish qilib, Buxorodagi Sanjar qo‘zg‘olonini bostirdi va Buxoroni egalladi. Xorazmshoh 1210 -yilda qarluqlar bilan ittifoq to‘zib qoraxitoylar ustiga yurish qildi. Bu yurish Xorazmshohning g‘alabasi bilan tugadi va u qoraxitoylarning O‘zganddagi boy xazinasini qo‘lga kiritdi. Umuman, Aloviddin Muhammad 1210 va 1212 -yillarda qoraxitoylarga ikki marta qaqqhatqich zarba berib ularni butunlar tor-mor etdi. Buning natijasida uning obro‘yi oshib ketib ikkinchi Iskandar, ikkinchi Sulton Sanjar laqablarini olishga mo‘sharraf bo‘ldi. Aloviddin Muhammadning say‘i-harakatlari tufayli 1217 -yilga kelib butun Movarounnahr, Ozarbayjon, Eron, Xurosandan Hindistongacha bo‘lgan erlarda Xorazmshohlar hukmronligi o‘rnatildi. Ammo, mamlakatning ichki siyosiy holati mustahkam emas edi. Bu holat mug‘ul bosqini paytida yaqqol nomoyon bo‘ldi.

## **2. Xorazm va saljuqiylar davlatining o‘zaro munosabatlari**

O‘z davrining mohir sarkardasi va yaxshigina diplomati bo‘lgan Otsiz mustaqil tashqi siyosat olib borishga harakat qilib Saljuqiylarning har bir xatosidan ustalik bilan foydalandi. Otsiz birinchi marta Sulton Sanjarning itoatidan chiqib mustaqil harakat qildi va Saljuqiylarga tegishli bo‘lgan Sirdaryoning quyi oqimidagi erlarni Jandgacha (Kaspiy dengizi bo‘ylarigacha) bosib olib, Mang‘ishloq viloyatini ham o‘ziga bo‘ysundirdi. Bundan g‘azablangan Sulton Sanjar Otsizga qarshi yurish qilishga qaror qildi. CHunki o‘sha davr siyosatini

yaxshi tushungan Sanjar, agar Otsizni buysundirmasa o‘ziga tobe bo‘lgan Qoraxoniylar va G‘aznaviylar ham isyon ko‘tarishini bilardi. SHuningdek u, o‘zining harbiy qudrati g‘oyat kuchli ekanligini ham bilardi. Bularni hisobga olib Sulton Sanjar 1138 -yilning oktyabrdagi Otsizga qarshi Xorazmga qo‘shin tortdi va Xazorasp qal’asini qamal qildi. Sulton Sanjar Xorazmga jiyani Sulaymonshohni voliy qilib tayinladi. Ammo, ko‘p o‘tmay, 1139 -yil fevralda Sulton Sanjar Marvgaga qaytgach, Otsiz o‘z qo‘shinlari bilan Xorazmga kelib Sulaymonshohni haydab yuborib qayta taxtni egalladi.

Aloviddin Otsiz Xorazmni mustaqil boshqarish maqsadida bir necha marta Sulton Sanjarga qarshi (1138, 1141-1142, 1147-1148 yy) isyonlar qilgan bo‘lsa-da, butunlay mustaqil bo‘lish unga nasib etmadidi. SHunga qaramasdan, ko‘pchilik olimlarning e’tirof etishlaricha, u Xorazmni mustaqil davlat bo‘lishi uchun asos yarata oldi. YA’ni, Otsiz Anushtegin-Xorazmshohlar sulolasiga nafaqat bir viloyat, balki ulkan mintaqada ham siyosat yurgizishi va dongdor siyosiy kuchlar bilan raqobatlasha olishi mumkinligini amalga ko‘rsata oldi. CHunki Otsizning asosiy maqsadi va siyosatining asosi Xorazmda o‘z hokimiyatini mustahkamlash edi. O‘zining uzoq -yillik humronligi davrida (u 29 -yil davlatni boshqargan) Otsiz Bag‘dod xalifalari bilan aloqalarini mustahkamlashga intilib, Sulton Sanjarga qarshi kurashda Bag‘dod xalifasini ittifoqchi qilishga ham harakat qilib ko‘rdi.

1156 -yilda Otsiz qoqshol kasaliga uchrab vafot etadi va taxtga uning o‘g‘li Elarslon (1156-1172 yy) taxtga o‘tiradi. Elarslon otasiga qaraganda ancha qo‘lay vaziyatda taxtni boshqardi. CHunki 1157 -yilda Sulton Sanjar vafot etganidan so‘ng Saljuqiylar davlati mayda viloyatlarga bo‘linib ketdi va Xorazmni mustaqil siyosat olib borishi chun keng yo‘l ochildi. Elarslon Xurosondagilari Saljuqiylarning o‘zaro kurashlaridan foydalanib Kaspiy bo‘ylaridagi Dehistonni bosib oldi. SHuningdek u, otasi davrida Xorazmga bo‘ysundirilgan ko‘chmanchi turkman va qipchoq qabilalari yordamida Movarounnahrning ichki ishlariga ham tez-tez aralasha boshlaydi. 1158 -yilda u katta qo‘shin bilan Movarounnahrga bostirib keldi. Bu vaqtda qoraxitoylarga vassal bo‘lgan qoraxoniylar ko‘chmanchi qarluq qabilalari bilan jang olib borayotgan edi. Elarslon qarluqlarga Buxoro va Samarqand uchun olib borilgan janglarida yordan beradi. Lekin qoraxitoylar qo‘shinlari yordamga etib kelishi bilan Elarslon Xorazmga qaytishga majbur bo‘ldi. U bir necha marotaba Xorazmga yurish qilgan bo‘lsa-da, muvaffaqiyatga erisha olmadi.

### **3.Xorazmshohlar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.**

XII asr Xorazm, umuman, O‘rtalik Osiyot arixi uchun iqtisodiy-ijtimoiy hayoti, davlatchilik, ma’naviyat jihatdan eng rivoj topgan davrlaridandir. Qo‘lyozmalarni o‘rganish, XI-XII asr boshlarida bu erda hunarmandchilik, shahar qurilishi, savdo-sodiq, madaniyat, ilm-fan, san’atning turli sohalari yuqori darajada rivoj topganini tasdiqlaydi. O‘sha davr sayohatchilar, mualliflarining ta’kidlashicha, Movarounnahr, jumladan, Xorazm o‘lkasi butun islom olamida eng taraqqiy etgan boy va ko‘rkam, ma’naviy yuksak o‘lkalardan bo‘lgan. Xorazmliklar qadim zamonlarda chorvachilik, baliq ovlash, don etishtirish, paxtachilik, bog‘dorchilik kabi kasblar bilan shug‘ullanib kelganlar. Mazkur

qishloq xo‘jalik ishlarini amalga oshirish uchun Xorazmda sun’iy sug‘orish inshootlaridan foydalanilgan. Xorazm iqtisodiyoti, madaniyati va fanning rivojlanishi uning jo‘g‘rofiy joylashishi, ya’ni Xorazmning ba’zi shaharlarini savdo yo‘llari, jumladan, “Buyuk ipak yo‘li” bilan ham bog‘liq bo‘lganligi bilanham belgilanadi. Katta hududda markazlashgan yirik siyosiy birlikning vujudga kelishi tufayli, davlatning siyosiy mavqeい ortdi, unda hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlandi, shaharlar yuksaldi

Movarounnahr va unga yondosh hududlarda Marv, Buxoro, Samarqand, SHosh (Toshkent), Xo‘jand, Banokat, Balx, Kesh, Nasaf, Axsikat, Niso, Jand, O‘tror, O‘zgand, O‘sh, Isfijob, Termiz, Taroz kabi shaharlarni misol tariqasida ko‘rsatish mumkin. Xorazmshohlar davlatining poytaxti Gurganj shahri ayni paytda yirik iqtisodiy va madaniy markazga aylandi. Aholi gavjum bu ulkan shaharda hunarmandchilik ustaxonalarini va savdo rastalari bir-biriga ulanib ketgan edi. Bundan tashqari Hazorasp, Kat, Xushmisan, Darg‘on, Sovakon, Nuzkat, Mang‘ishloq kabilalar o‘sha kezlarda Xorazm hududidagi obod shaharlar jumlasidandir.

Shaharlar rivoji uchun savdo, jumladan, xalqaro savdo muhim o‘rin tutgan. Xorazm davlatining savdo karvonlari nafaqat o‘z hududi bo‘ylab, balki undan tashqariga - Hindiston, Arab mamlakatlari va Evropaga ham qatnagan Xorazmshohlar davlatida ichki va tashqi savdo ehtiyojlari uchun maxsus oltin dinor va mis chaqalardan iborat tangalar turli shaharlarda zarb qilingan va ular keng muomalada bo‘lgan.

Butun o‘rtal asr turkiy-islom davlatlarida davlat xazinasidan foydalanmaganlar, ya’ni xalq raiyat hisoblanardi. Raiyatning vazifasi yuqorida berilgan buyruqlarni so‘zsiz bajarish va soliq to‘lashdan iborat edi. Aslida islom dinida huquqiy jihatdan “barcha musulmonlar tengdir”. Biroq, shunga qaramay, tarixiy va ijtimoiy shart-sharoit taqozosi bilan shakllangan tushunchalarga muvofiq, raiyat diniy yo‘l-yo‘riqlarga rioya qilish bilan bir qatorda, davlat mansabdorlariga itoat etishi lozim edi. Hukmdor esa, o‘z navbatida, raiyatning hayotini, mol-mulkini va or-nomusini himoya etish, uni muayyan bir farovonlikka erishtirish uchun mas’ul bo‘lgan. Xorazm sultoni Takishning ba’zi farmonlarida raiyatga nisbatanadolatli bo‘lish, dehqonlarning manfaatlarini himoya qilish va soliq olishda qonunlarga rioya etish to‘g‘risida amr etilgan. Jaloliddin Xorazmshoh ham qiyin ahvolga tushib qolgan dehqonlarni soliqlardan ozod qilish to‘g‘risida farmon bergen. Jumladan, Takishning munshiysi (shaxsiy kotibi) Muhammad Bog‘dodiy “At-tasviri ila-t-tarassul” (“Muhim nomalar bitish yo‘l yo‘riqlari”) asarida o‘sha davrdagi ahvolni tasvirlaydi va Xorazmshoh Takishning Sirdaryo viloyati noibi Jaidga topshirig‘ini keltiradi. Unda shoh noibiga aholining turli tabaqalari bilan munosabatlarni quyidagicha o‘rnatishni buyuradi:

1. Sayidlar (Muhammad avlodidan) kamchilik ko‘rmasligi, ularning eg‘tiyoji va tabbarukligi darajasidan kelib chiqqan holda taminlanishlari lozim;

2. Imom va ulamolar shariatdan kelib chiqilgan holda sovg‘a-salom va turli imtiyozlarga sazovor etishlari lozim;

3. Qozi va boshqaruvchilar qonunga rioya etib, adolatni talab qilishlari kerak;
4. So‘fiy va ularga yaqin kishilar shunday ta’min etilsinlarkim, toki ular engilmas davlatimiz uchun bemalol duo o‘qisinlar;
5. Obro‘li oqsoqollarga g‘amxo‘rlik qilib turish kerak;
6. Noibga bo‘ysunuvchi amaldor va sarkardalarga qat’iy boshchilik qilish, aholini talamasliklari uchun haqini o‘z vaqtida berib turish zarur;
7. Xudoga ishonuvchilarni qo‘llab-quvvatlash va ularga aholining xulqini kuzatib yurishni topshirish lozim.

Oddiy va karvon yo‘llari yaxshi qo‘riqlangani uchun ichkiva tashqi savdo juda rivojlangan. Gurganj savdogarlari noyob mollarini Bog‘dodga va hatto olis Andalusga olib borib sotar edilar. Rashididdin Vatvotning Iroqdagi Xorazm noibiga maktubida Usmon ibn Ismoil Xorazmiy ismli savdogarga g‘amxo‘rlik qilishi so‘ralgan. Abul Fath ibn Hasan SHoshiy ismli savdogar Samarqanddan karvon bilan Andalusga borib savdo qilgan. Amudaryoning ikkala sohiliga joylashgan Gurganj shahri, chamasi daryodan to‘g‘on bilan ajratilgan. Mo‘g‘ullar kelgach, to‘g‘onni buzib, shaharni suvga bostirgan. Etti oy davom etgan qamal vaqtida ham shahar ancha vayron bo‘lgan, albatta. Suv bosganida va urush-qirg‘inlardan faqat shayx Najmiddin Kubro bilan Sulton Takish maqbaralari, shuningdek, Alouddin Muhammadning qizi, Ko‘shki Ohjuq (qasri) va bozorning bir qismi omon qolgan.

Mo‘g‘ullar istilosiga qadar Gurganj juda obod, aholisi juda gavjum, zich edi. Zakariyo Qazviniy yozishicha, Gurganjda aholi ko‘pligidan ko‘chalar, bozorlarda odamlar bir-biriga urilar, o‘tish qiyin edi. Tanura va Maydon mahallalari, Qobilon darvozasi nomlari manbalarda esga olinadi.

### **Adabiyotlar**

Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997.

Каримов И.А. Тарихийхотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998

Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Т.: Шарқ. 2000.

Сагдуллаев ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т., 2000.

Сагдуллаев А.С., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. - Т., 2006.

Ртвеладзе Э.В. История государственности Узбекистана. – Т.: Узбекистан. 2009.

Эшов Б.Ж. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи. (ўқув қўлланма). – Т.: Маърифат, 2009.

Эшов Б.Ж. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012.

Бунёдов З.М. Ануштегин-Хоразмшохлар давлати. -Т., 1998.

## **11. Mavzu: Xorazmshohlar davlatining ma'muriy boshqaruv tizimi, boshqaruv tartiblari.**

**Reja:**

- 1. Saroy boshqaruvi.**
- 2. Hukmdor va viloyat tashkiloti.**
- 3. Xorazmshohlar davlatida unvon va mansablar.**

### **1. Saroy boshqaruvi.**

Ko'pgina turkiy – islom davlatlarida bo'lgani singari, Xorazmshohlarda ham sultanat vorisligi masalasi ma'lum bir tamoyillarga bog'liq bo'lmanan. SHunga qaramay, sulton ko'pincha katta o'g'lini valiahd tayinlab, boshqa shahzoda va yuksak martabali a'yonlarni valiahdga itoat qilish to'g'risida qasamyod ettirardi.

Bay'at – qabul va tasdiqdan iborat marosimdir. Tarixan bu hukmdorga itoatni bildirgan. Bu marosim hukmdor huzurida er o'pish tariqasida ijro etilgan.

Hukmdorning hokimiyat ramzi bo'lgan unsurlar turli-tumandir. Bu ramzlar ikki: ma'naviy va moddiy unsurlardan iborat. "Unvonlar" va "Xutba" ma'naviy unsurlar sirasiga kiradi. Moddiy unsurlar esa: "Sikka" (tanga zarb etish), "Taxt", "Toj", "SHamsiya", "Libos", "Bayroq", "Harbiy musiqa marshi", "Tug", "Kamar", "Saroy" va "CHodir"dan iborat bo'lgan. Hukmdorning qabul marosimlari saroyda yoki chodirda o'tkazilgan.

Hukmdorning rasmiy va shaxsiy hayoti kechadigan va bu hayot uchun kerakli rasm-rusumlarni o'tkazishga mas'ul shaxslar ishlaydigan binoga saroy deyilgan. Saroy ikki – salomxona va devondan iborat bo'lgan.

Haramda sultonning nikohida bo'lgan umr yo'ldoshlari va joriyalar yashagan. Manbalarda haram haqida ma'lumot yo'q. Salomxonada hukmdorning rasmiy yoki g'ayrirasmiy qabul marosimlari o'tkazilgan.

### **2. Hukmdor va viloyat tashkiloti.**

Buyuk Devon hukumat idorasining eng oliy organi bo'lgan. Vazir, sohibi devoni davlat, sohibi devoni insho, sohibi devoni istifo, sohibi devoni ishraf, sohibi devoni arz buyuk devon a'zolari bo'lgan.

Buyuk devon davlat ishlari muhokama etilgan va qarorlar chiqarilgan bir kengashdir. Biroq, shunisi shubhasizki, uzil-kesil qarorni sultonning o'zi chiqargan. Viloyatlarning noib va vazirlari Buyuk devonga bog'liq bo'lgan. Viloyatlarni boshqaruvchi vazirlar ham davlatning katta amaldorlari edilar. Bu vazirlik mansabi viloyat yoki shaharlarda noiblikdan keyin ikkinchi o'rinda turgan. Bu rahbarlik lavozimi faqat Xorazmshohlar davlatidagina mavjud bo'lgan. (Bu fikr munozarali). Bu mansabda o'sha davr qoidasiga muvofiq turkiylar qo'yilmagan. Bu vazirlar Xorazmshohga yoki uning vaziriga bo'ysungan. Ushbu lavozim saljuqiylar saroyidagi vakil mansabiga to'g'ri kelgan. .

Vazir viloyatning eng vakolatli boshlig'i bo'lgan. Bu lavozimga obro'li, yuksak martabali odamlar qo'yilganiga qarab, yo Xorazmshohni o'ziga qarashli erlarni yoki siyosiy jihatdan muhim mavqe tutgan viloyat va shaharlarni boshqarganlar.

Poytaxtdagi singari, viloyatlarda ham vazirga qarashli bir oz kichikroq devonlar bo‘lgan. Devoni istifo, devoni ishraf, devoni nazar va devoni arz kabi idoralar mavjud edi.

Xorazmshoh Otsiz davrida Mozandaron vaziri Majidi-d-din SHaraf- ul-islom bo‘lgan. Alouddin Muhammadning Niso shahrida Zahiriddin Mas’ud ibn Munavvar SHoshiy ismli vaziri bo‘lib, u shahar istehkomlari uchun javobgar edi. Sultonning Dehiston va Mozandarondagi vaziri Aloiddin Dehistoniy bo‘lib, u ismoiliylar chegaralariga ko‘z-quloq bo‘lib turardi. Safiuddin al-Aqro turklar mamlakatida, O‘trorda vazir edi, u Xorazm davlatining sharqiy chegaralarida yuz berayotgan voqealardan xabardor bo‘lib turar edi. Sultonning Jand shahridagi vazirlari – Najibiddin SHahrizo‘riy, so‘ng uning o‘g‘li Bahoul-Mulk Hoja, keyin Faxriddin Ali ibn Abul Qosim Jandiy (kelgusida sulton Jaloliddin vaziri) edilar.

Jaloliddin sultonlik qilgan davrda har bir shaharni boshqarish uchun alohida vazir bor edi. Isfahon vaziri Nizomiddin, Niso vaziri Ziyo ul- mulk Nasaviy, SHirvon, SHaka va Kabalo (Karbalo?) vaziri Safiuddin Tug‘roiy edi. Safiuddin bo‘shatilganidan keyin bu shaharlarga – Tojiddin Muhammad Balxiy vazir bo‘ldi. Sulton Jaloliddin Tabrizdagi vaziri SHamsiddin Tug‘roiy “Tabriz aholisining faqat mollariga emas, balki jonlariga ham egalik qilar edi”. Tug‘roiydan keyin Tabrizga turk millatidan Bahovuddin Muhammad ibn Bashir Yorbek vazir bo‘ldi va nihoyat, Sulton Jaloliddinning Niso shahridagi vaziri “Siyrat as-sulton Jalol-ad-din Mengburni” asarining muallifi SHihobiddin Muhammad ibn Ahmad Nasaviy edi.

Jaloliddin Xorazmshoh davrida quyidagi noib va vazirlar bevosita markazga bog‘liq bo‘lgan: Iroqi Ajam noibligi, Xuroson vazirligi, Mozandaron vazirligi, Tabriz vazirligi, Niso vazirligi, Nishopur vazirligi. Binobarin, Eronning Ozarbayjon, Arron, Iroqi Ajam, Xuroson, Mozandaron, Niso, Nishopur, Kirmon, Fors viloyatlari Jaloliddingga qaragan.

Jaloliddin viloyatlarga o‘z xonadoniga mansub kishilarni emas, balki noib va vazirlarni hokim etib tayinladi. Devon a’zolari orasidan ham vazir tayinlangan. Masalan, munshiy Nasaviy ayni zamonda Niso vaziri ham edi. Ma’lum bo‘lishicha, vazirlarning hammasi qalam ahlidan bo‘lgan. SHu tariqa sulton markazlashtiruvchi bir siyosat yurgizdi. Jaloliddin Kirmon va Fors viloyatlarini tobe otabeklar vositasida idora qildi. Yuqorida aytilganidek, bu mintaqalarni o‘z imperiyasiga butunlay bevosita qo‘shib ololmadni. Jaloliddin davridagi viloyat tashkiloti va uning faoliyat tartibi to‘g‘risida ham etarli ma’lumot yo‘q. Biroq, shunga qaramay, viloyatda vazirdan keyin eng nufuzli mansab egasi **omil** bo‘lgani haqida ma’lumot mavjud. **Omil** “voliy” ma’nosida ishlatilgan. Xorazmda u shunday nomlangan. Omil boshqaruvchi yoki noib kabi vakolatga ega bo‘lgan va asosan, soliq to‘plash bilan shug‘ullangan. Uning bundan tashqari ba’zi boshqaruv vakolatlari ham bo‘lganligi ma’lum.

Otabek – “Ota” va “bek” so‘zlaridan tashkil topgan. Bu unvon dastlab saljuqiylar davrida joriy etildi. Dastlab saljuqiylarning mashhur vaziri Nizomulmulkka shu unvon berilgan edi. Manbalardan ma’lum bo‘lishicha, otabeklik saljuqiylar davrida yuksak unvon edi. Sultonlar imperiya hududlarini

sulola a'zolariga taqsimlab bergan vaqtlarida kichik yoshdagi shahzodalarga vasiy va murabbiy sifatida otabek tayinlar edilar. Ular o'z xizmati, sadoqati va kuchqudrati bilan tanilib, buyuk amir darajasiga ko'tarilgan qo'mondon orasidan tanlab olinardi. Otabeklikka, asosan, yuqori lavozimda ishlab turgan obro'li o'g'uz beklari yoki sulton mamluklari tayinlangan. Saljuqiylar davlati buning yorqin misolidir.

Shihna – viloyatning jamoat tartibini saqlash bilan shug'ullangan. U xalqning tinchligi, osoyishtaligi va farovonligini ta'minlagan, omilga soliq yig'ish masalalarida yordam bergen. Aftidan shihna harbiy toifaga mansub bo'lган. Bulardan tashqari rais lavozimi ham bor edi.

Rais – bu lavozim har bir qal'a, shahar va tumanda bo'lган. Bu lavozim egasi shaharning obro'li kishilari orasidan mahalliy aholi tomonidan saylangan va shahar miqyosida shihna vazifasini o'tagan. Raislar viloyat voliysiga bo'ysungan. Bu o'rinda raislar rahbarini tayinlash Xorazmshohlar davlati miqyosida amalga oshirilgan favqulodda hol deb qarash mumkin.

Muhtasib – shaharning bozorlarini nazorat qilgan va shaharni boshqarish bilan bog'liq vazifalarni bajargan. Mahsulotlar, go'sht, mevalarni tekshiruvchi, ozodalik ishlari uchun mas'ul hamda aholining axloqiy ishlari bo'yicha kuzatuvchi bo'lган. Bu mansabga aksariyat hollarda ma'rifatli odamlar, faqihlar singari olimlar orasidan imom unvoniga ega bo'lганlar qo'yilgan.

Hojib – ummaviylar davridan e'tiboran, ko'pgina islom davlatlarida mavjud bo'lган lavozimdir. Barcha turkiy davlatlarida bu mansab amalda bo'lган. Hojiblarning eng kattasiga "amiri hojib" yoki "malik ul-hujjob" deyilgan. Saljuqiylarda turk g'ulomlari orasidan chiqqan hojiblar boshlig'i – hojibi buzurg saroyning eng yuksak martabalaridan biri bo'lган. Buyuk saljuqiylar imperiyasida va unga qaram boshqa turkey davatlarda hojiblik muassasasi bevosita somoniylar va g'aznaviylar ta'siri ostida yuzaga kelgan. Saljuqiylarda saroy hojibi va uning qo'li ostidagi hojiblar vazifasi asos e'tibori bilan saroyda tashrif marosimlarini yo'lga qo'yishdan iborat bo'lган.

Dargohda bosh hojib yoki ulug' hojib – Xorazmshohlar davlatidagi yuksak mansablardan edi. Odatda, hojib turk millatidan bo'lar edi. Hojiblarga g'oyatda muhim vazifalar, masalan, hojib Xorazmshohga shaxsiy topshiriqlari qanday bajarilayotgani haqida axborot berar, qabul marosimlarini tashkil etar edi. Maxsus muzokarolar olib borish va hatto, vazirlar faoliyatini taftish qilish kabilar topshirilgan. Xorazmshohning bir necha hojiblari bo'lardi. Ular doimo sultonga hamroh bo'lib turishar, uning eng muhim topshiriqlarini bajarar edi. SHuningdek, hojib lavozimidagi amaldorlarga butun bir viloyat noibligi topshirilgani ma'lum.

Qul-g'ulom - har ikkala tushuncha bir ma'nodadir. Ular qul bozoridan sotib olingen yoki avvalgi hukmdordan keyingisiga meros bo'lib o'tgan. Ba'zan g'ulomlardan xususiy shaxslardan hukmdorga, bir davlat ichida bir hukmdordan ikkinchisiga o'tgan. O'lган hukmdorning g'ulomlari va g'ulomlardan chiqqan hojiblar ko'p hollarda taxtga yangi chiqqan hukmdor xizmatiga o'tar edilar. Tayyorlangan g'ulomlar hojiblar qo'li ostida bo'lганlar. Saroy g'ulomlari bilan davlat arkoniga qarashli g'ulomlarorasida huquqiy jihatdan bo'lmasa ham holatiga,

mavqeiga ko‘ra katta farq bo‘lgan. Saroy g‘ulomlari safidan joy olish nihoyatda imtiyozli darajaga ko‘tarilishni bildirgan.

Ma’lumki, Bog‘dod xalifaligiga qilgan harbiy yurishi muvaffaqiyatsizligidan avvalroq Xorazmshoh Xitoyni bosib olish niyatida bo‘lgan. Juzjoniyning shohid kishilar hikoyalari asosida bergen ma’lumotiga ko‘ra, Xitoyga yurish qilish fikri Sulton Alouddinning miyasiga qattiq o‘rnashib qoladi va mulozimlari yo‘lning uzoqligi hamda boshqa mushkulotlarni vaj qilib ko‘rsatib, uni bu fikrdan qaytarishga har qancha urinmasinlar, foyda bermaydi. Xorazmshoh mudom savdogarlardan Xitoydagi ahvol haqida so‘rab-surishtirardi. Xitoyning CHingizzon tomonidan bosib olinganligi haqida xabar etgach, Xorazmshoh bu xabarning to‘g‘riligini tekshirish maqsadida Xitoyga Bahovuddin Roziy boshchiligidan elchilar yuboradi.

Mamlakat ravnaqi va farovonligi dastavval ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat bilan bog‘liq bo‘lsa, uning madaniy-ma’naviy saviyasi jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi bilan o‘lchanadi. SHarq renessansi markazlaridan biri hisoblangan ko‘hna Xorazm ham jahon tarixi buyuk siymolarni, yirik davlat arboblarini va jasur sarkardalarni yetkazib bergen yuksak madaniyatli davlat bo‘lib tanilgan.

Mo‘g‘ul istilosi arafasida Xorazm ancha yuksalib kelayotgan o‘rta asrlarga xos G‘arbdagi feodal monarxiyalarga o‘xshab shakllanayotgan yirik davlat sifatida tanilgan. Ammo, o‘z davrining mahsuli hisoblangan bu monarxiya ham ichki va tashqi siyosatida o‘ziga xos kuchli va zaif tomonlari, katta-kichik ziddiyatlar va turli nizolar bilan rivojlanan boshlagan. Bu holatni nafaqat yozma manbalarda, balki arxeologik va etnografik kashfiyotlar tufayli to‘plangan materiallar asosida ham tasavvur qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Xorazmning ko‘hna tarixi O‘zbekiston xalqlari tarixinining ajralmas qismini tashkil qiladi. Xorazmshohlar davlatining ma’muriy tuzilishi, boshqarilish tartibi hamda ijtimoiy-siyosiy munosabatlari masalasi tarixini o‘rganish, tahlil etish tarixchilarning muhim ilmiy izlanishlar sohasi hisoblangan. Anushtaginiylardan avvalgi Xorazm hokimlari ham o‘zlarini “xorazmshoh” deb ataganlar. Lekin ularning ta’siri faqat Xorazm vohasi va hatto goho uning bir qismi bilangina chegaralangan. Yuqorida aytib o‘tilganidek, Anushtaginiy xorazmshohlar davlati esa na faqat Xorazm, balki Dashti Qipchoqning janubi, SHarqiy Turkiston, O‘rta Osiyo, YAqin va O‘rta SHarq davlatlarini birlashtirgan buyuk saltanat bo‘lgan.

XI asr oxiri XII asr boshlarida tarix sahnasida Buyuk Saljuqiylargacha tobe davlat sifatida paydo bo‘lgan Xorazmshohlar davlati, sulola asoschisi Anushtaginning Alouddin Otsiz (1127-1156), Abulfatx El-Arslon (1156-1172), Alouddin Takish (1272-1200) singari iqtidorli va siyosatdon avlodlarining sa’yi harakatlari tufayli mustaqillikni qo‘lga kiritibgina qolmay, balki o‘z davrining yirik hamda qudratli saltanatlaridan biriga aylandi.

XIII asr boshlarida Muhammad Xorazmshoh davrida Xorazm ulkan davlat maqomiga ega bo‘ldi. Uning davrida katta hududda markazlashgan yirik siyosiy birlikning vujudga kelishi tufayli, davlatning siyosiy mavqeい ortdi, unda

hunarmadchilik va savdo-sotiq rivojlandi, shaharlar yuksaldi, Xo‘jalikning turli sohalaridagi o‘sish umumiy iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun omil bo‘ldi.

### **3.Xorazmshohlar davlatida unvon va mansablar.**

Manbalarda Xorazmshohlar saroyida turli mansablar haqida qiziqarli ma’lumotlar saqlanib qolgan. Hukmdorlarning a’yonlari va mulozimlari saroyda yashab turgan sulola a’zolari hamda saroy hayotiga oid tashriflarni tashkil etishga safarbar qilingan xizmatchilardan tashkil topgan.

**Xonodon a’zolari.** Turkiy hokimiyat an’anasiga ko‘ra, davlat hukmron sulola a’zolarining barchasiga tegishli hisoblangan. Xonodonning bunday yuksak darajasiga muvofiq, sulola a’zolalari zamona rasm-rusumlariga ko‘ra saroyda eng yuqori mavqeini egallagani tabiiy bir xoldir. Hukmdorning onasi, umr yo‘ldoshi, farzandlari (shahzodalar) xonodon a’zolari hisoblangan. Bundan tashqari, sultonning aka-ukalari, amaki-jiyanlari ham xonodon mansublari edilar.

**Hojiblar.** Biz yuqorida aytib o‘tganimizdek, hojib saroy marosimlarini tashkil etgan va boshqarib turgan. Xususan, u hukmdorning qabul marosimlari vaqtida mavjud qoidalarga rioya etilishini ta’milagan. Hukmdor bilan davlatning muhim mansabdorlari o‘rtasidagi aloqani ta’minalash ham hojibning zimmasida bo‘lgan. Jaloliddin davrida – ehtimol otasining davridan e’tiboran – hojiblikka saroyga mansub bo‘lmagan va turkiy amirlarning avlodni bo‘lgan kishilar tayin etilgan. Hojiblar saroy g‘ulomlari orasidan tanlab olingani va tayyorlangani e’tiborga olinsa, hojiblik muassasasi bu davrda mazmunan o‘zgarib, kengaygani ma’lum bo‘ladi. Buning natijasi o‘laroq, hatto, Jaloliddin uning zamonasigacha hech ko‘rilmagan bir ishni amalgam oshirdi, ya’ni hojiblar orasidan bir kishini vazir lavozimiga tayinladi. Uning vaziri SHarafulmulk ilgari hojib bo‘lgan edi. Sultonning hojibi Badriddin Inonj fors adabiyotining zukko bilimdoni edi. Jaloliddin davrida eng katta hojibga “xos hojib” yoki “hojibi xos” deyilgan. Hojibi xos hukmdorning qabul marosimlarini tashkil etar va marosim qatnashchilarining o‘z mavqeiga mos holda joy olishlarini ta’min qilar edi. Sultonga keltirilgan hadyalarni elchilardan olib, hukmdorga bitta-bitta sanab ko‘rsatish ham xos hojibning vazifalaridan biri edi.

Sulton hojibi xoslariga ba’zan elchilik vazifasini ham yuklagan.

Masalan, u hojibi xos Xonbardini Nasaviy bilan isyon ko‘targan Ganjaga yuborgan va elchilar xalqni itoatga da’vat qilgan edilar. SHuningdek, sulton hojibi xoslaridan Badriddin Tutoqni xalifaga elchi qilib jo‘natgan.

Sulton ba’zi hojibi xoslariga “malik ul-xos” unvonini ham bergen.

Sulton hukumat va saroy tashkilotining eng muhim mansabdorlarigagina bu unvonni bergen. Agar hojibi xoslikka madaniyatli, bilimli kishilar tayin etilgani hisobga olinsa, u holda ularning sultonga yaqin bo‘lganligini va maslahat kengashlarida ham qatnashganligini taxmin qilish mumkin.

**Mahramlar.** Jaloliddinning saroyida mahramlari ham bo‘lgan. Ularga “xodimoni xos” ham deyilgan. Mahramlar “malik ul-xos” unvoniga ega bo‘lganlar.

**Saroy amirlari.** Saroy tashkilotiga mansub bu amirlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri hukmdorga bo‘ysungan. Saroy amirlari o‘z xizmat lavozimi va unvoniga ko‘ra quyidagicha bo‘lgan:

**Ustozdor (yoki ustoz – ud-dor)** Xorazmshohlar saroyida xizmatkorlar va g‘ulomlarga bosh bo‘lib, xazinaga tushgan foydadan va soliq tushumlaridan muayyan bir qismini olib, bu mablag‘ni saroy oshxonasi, nonvoxonalar, sharobxonalar, otxonalar, saroydagи barcha xizmatchilarning sarf-xarajatiga ajratgan. SHuningdek, u ushbu mablag‘dan maosh berish va boshqa xarajatlar uchun ham foydalangan.

Xorazmshohlar davlatida ustozdorlar xizmat talabi bilan mamlakat boyliklari va xazinaga kirim qilinadigan mablag‘larning ma’lum qismidan foydalanish huquqiga ega edilar. Keyin bu mablag‘larni nonvoxonona, oshxona, otxona saroy zaruratlari uchun ishlatar, evaziga qancha pul ishlatgani haqida ulardan muhr bosilgan tilxat yozdirib olardi. U bunday muhrli tilxatlarni vazirdan, mustavfiydan, mushrif, nozir va ularning noiblaridan ham olar edi. Saroydagи lashkarlar, lashkarboshilarga oid chiqimlar tilxati esa arid (harbiy devon) tomonidan muhr bilan tasdiqlanardi. Jami bo‘lib yuqori lavozimda xizmat qiluvchi o‘n ikki odamning va ularning noiblarining muhri talab etilardi

**Amiri – oxur (miroxur)** – sayischi, sulton otxonalari boshlig‘i. Otlarning soni 30 minggacha bo‘lgani ma’lum.

**Tashtdor** – Bu lavozim egasi hukmdor qo‘l yuvganda unga qumg‘on va chilopchin tutgan. Oltindan qilingan bu idishlarning saqlanishi uchun mas’ul bo‘lgan.

**Tashtdor** – yana sulton hammomlari va hovuzlarining boshlig‘i ham tashtdor deyilgan. Uning qo‘l ostida bir necha g‘ulom bo‘lgan. Tashtdorlik mansabiga sulton juda ishonchli odamlarini tayinlar edi. Yuqorida tilga olganimiz Anushtagin saljuqiy sulton Malik saroyida xuddi mana shunday tashtdor mavqeiga erishganda, unga mazkur mansabga viloyatda mutanosib keluvchi shihnalik, ya’ni (raisi, qal’a boshlig‘i) Xorazm shihnaligi. CHunki tashtdor xizmati bilan bog‘liq barcha xarajatlar Xorazm viloyatidan tushadigan soliqlar bilan qoplanardi.

**Tashtxona** – saroyda tog‘aralar saqlanuvchi xona.

**SHarobdor** – sulton sharobxonasing boshlig‘i va kuzatuvchisi.

SHarobxonada shirin ichimliklarni tayyorlash uchun shakar ham saqlanar edi. Odatda amirlardan biri sharobdor bo‘lib, uning qo‘l ostida bu ishga mohir g‘ulomlari bor edi. Sulton Jaloliddinning sharobdori amir Sa’diddin

**Davotdor** (arabcha davot – siyohdon) – sultonlikda yozuv qurollarini tashuvchi odam. Hukmdorning yozuv-chizuv asboblari shay bo‘lishi va saqlanishi uchun javobgar shaxsdir.

**Qissador** – bir hafta davomida sulton nomiga yozilgan ariza, shikoyatlar va iltimosnomalarni yig‘ib olib, Sultonga etkazib beruvchiga hamda undan tegishli javoblarni oluvchiga aytildi. Sulton odatda shikoyat va arizalarni juma oqshomida ko‘rib chiqardi. Xorazmshohlar saroyida qissador eng obro‘li mansablardan biri edi. Zero, hukmdor bilan oddiy xalq o‘rtasida aloqa bog‘lab raiyat ahvoli va zoridan xabardor qilib turish savobli ishini hamma ham halol bajara olmasligi tabiyi.

Sulton yo‘lug‘ining boshlig‘i (hakim yo‘luk as-Sulton, al-mazalim) – ya’ni devonda shikoyatlar bilan shug‘ullanuvchilar boshlig‘i. Keyingi ikki mansab egasining amirlik rutbasiga ega bo‘lishi yoxud ega bo‘limgani haqida manbalarda

biron-bir ma'lumot yo'q. SHuningdek, manbalarda jomador (liboschi) va ibrikdor (hukmdor tahorat olgan vaqtida qo'liga suv quygan) mansablar to'g'risida ham hech qanday ma'lumot yo'q. Biroq, Xorazmshohlar davlat tashkilotida bu mansablar bo'lган. Binobarin, Jaloliddinning a'yonlari orasida ham bu ikki mansabdor har holda bo'lган.

**Nozir** – moliyaviy ishlar bo'yicha amaldor (Devon an-nozir yoki devoni nozir).

**Al-hojiblar** – saroylarda, odatda, sulton yoki shohlarning, umuman, hukmdorlarning ishlarini al-hojiblar, erkak odamlar qilishgan. Bu lavozimni Naxichevonda ayol kishi ham bajargan. Tarixda bundan boshqa hojibalik qilgan ayol bo'lmasa kerak.

**Choshnigir** – sulton sharoblarini tatib ko'ruvchi<sup>221</sup>. U dasturxon yozilganida sulton taomlardan zaharlanmasligi uchun o'zi birinchi bo'lib tatib ko'rар edi.

**Omil** (ko'pligi omilon, ummol) – devonda moliyaviy rahbarlar ichida eng kichik vazifa. Har bir tuman, shahar, aholi yashaydigan maskan (buk'a), qishloqning soliq yig'ish bo'yicha rahbari bo'lган.

**Mushrif** – devonda moliyaviy nazorat ishlarida xizmat qiladigan odamga aytilgan.

**Al-farroshiya** – yotoqxona boshlig'i.

**Farrosh** – sulton o'rин-to'shaklari saqlanadigan farroshxona boshlig'i. Uning ixtiyorida gilamlar, chodirlar; ko'rpa-to'shaklar bo'lardi. Farrosh va maxsus o'rgatilgan g'ulomlar sulton atrofida doimo hozir turar edilar. Sulton Alouddin va Jaloliddinlarning bosh farroshi Muqarrabiddin Muhammad ibn Ibrohim Pahlavon Xorazmiy edi. U, davlatning eng obro'li amirlaridan bo'lib, Jaloliddin uni ko'п xursand qilardi.

**Farroshxona** – sultonga tegishli o'rин, gilam va chodirlar saqlanadigan ombor.

**Faqihlar** – davr an'anasi muvofiq, sulton saroyida islom huquqi (fiqh) ilmi ustozlari – faqihlar ham ishlaganiga oid ba'zi ma'lumotlar mavjud. Masalan, sulton faqih Najmiddin Xorazmiyni Amidga, faqih Rukniddinni saljuq sulton Alouddin Qayqubod huzuriga elchi qilib yuborgan. Hukmdor davlat boshlig'i sifatida juda ko'п huquqiy masalalar ustida bosh qotirgani turgan gap. Bu ikki omil hisobga olinsa, faqihlar ham saroy a'yonlaridan bo'lганliklari va huquqiy masalalarda maslahat berish uchun kengashlarda qatnashganliklari muqarrardir.

**Munajjiimlar** – zamona zayliga muvofiq Jaloliddin saroyida munajjiimlar ham bo'lган. Zotan, sulton munajjiimlarning so'zidan chiqmas, ularning romlariga astoydil ishonar edi. Masalan, Isfaxon yaqinida mo'g'ullar bilan to'qnashganlarida munajjiimlar sultonga uch kun kutib, to'rtinchи kuni jang boshlashni tavsiya etdilar. Sulton ham ularning so'ziga kirib, zafar soatini kutdi, ammo g'alabani boy berdi.

**Mustaxdamlar** – saroyning umumiy ishlari bilan shug'ullangan xizmatchilarga muqaddimi chovushon boshchilik qilardi. Uning qo'l ostida chovushlar va mustaxdamlar xizmat qilgan. Binobarin, armiyada chovush unvonli kichik boshliqlar bo'lganidek, saroyda ham chovushlar xizmat qilgan. Ular safarda sultonga hamrohlik qilganlar, choparlik xizmatini o'taganlar.

O‘z vazifasini lozim darajada uddalamagan, tanbal mansabdorlar sulton tomonidan jazolangan.

**Mehtari mehtaron** – sultonning xos xizmatchilari bo‘lgan mehtarlarning boshlig‘i edi. Sultonning bulardan boshqa xodimlari ham bo‘lgan.

Xorazmshohlar, jumladan, Jaloliddin davrida saroy amirlari hukmdorlar ishongan g‘ulomlar orasidan, ya’ni ota-bobosi turkiy bo‘lgan qullar orasidan tayinlangan. Bu amirlarning qo‘l ostida etarli miqdorda askariy quvvatlar mavjud bo‘lib, bu qo‘shinlar bevosita hukmdorning gvardiyasini tashkil etgan. Bundan tashqari saroy amirlari orasidan elchilar tayinlangani haqida manbalarda ma’lumotlar ko‘p. Masalan, sulton o‘z tashtdorini Gurjiston qirolichasi huzuriga elchi qilib yuborgani ma’lum.

Saroy amirlarining o‘z bayroqlari bo‘lgan. Tashtdorning bayrog‘iga qo‘mg‘on, silohdornikiga yoy, jomadornikiga bo‘xcha, amiri oxurnikiga taqa, davotdornikiga esa davot tasviri tushirilgan edi. Sulton Alouddin, shuningdek, Jaloliddin davrida saroy amirlariga amir va malik rutbalaridan ham yuksakroq bo‘lgan “xon” unvoni ham berilgan.

### **Adabiyotlar**

- Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997.
- Каримов И.А. Тарихийхотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998
- Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Т.: Шарқ. 2000.
- Сагдуллаев ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т., 2000.
- Сагдуллаев А.С., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. -Т., 2006.

## **12. Mavzu: Chig‘atoy ulusi-ma’muriy tuzulishi va boshqaruv tartiblari; harbiy-siyosiy va davlat boshqaruving qaror topishi, ijtimoiy – iqtisodiy hayoti**

**Reja:**

- 1. Chingiziylar davlatining tashkil topishi va O‘rta Osiyon bosib olishi.**
- 2. Chig‘atoy ulusi.**
- 3. Chig‘atoy davlatining boshqaruv tizimi**

### **1. Chingiziylar davlatining tashkil topishi va O‘rta Osiyon bosib olishi.**

O‘rta asrlarning manbalarining ma’lumotlariga ko‘ra, XII asr oxiri-XIII asr boshlarida mug‘ul qabilalari va elatlarining qudratli davlatga birlashuvi jarayonlari bo‘lib o‘tadi. YOzma manbalarda mug‘ullar **menu(menva)** nomi bilan ilk marotaba Xitoyning Tan sulolasi (618-908 y.y.) solnomasida tilga olinadi. Aksariyat manbalarda mug‘ullarning birlashuv jarayonlari **Temuchin** nomi bilan bog‘lanadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Temuchin 1155 -yilda tug‘ilgan bo‘lib, boy mug‘ul zodagoni Esugay Bahodirning o‘g‘lidir.

XII asr o‘rtalariga kelib Baykal ko‘li atrofi, hozirgi Mug‘uliston hududlarida yashovchi turkiy va tungus-manjur qabilalarining ko‘pchiligi Esugay Bahodir ta’siriga o‘ta boshlaydilar. Egusay tatar va markit qabilalariga qarshi urushlar paytida 1185 -yilda xoinona o‘ldirilgandan so‘ng tashabbus uning o‘g‘li Temuchin qo‘liga o‘tadi. Temuchvin 1186-1204 -yillar davomida hokimiyat uchun kurash olib borib faqat mug‘ullarnigina emas, ular bilan qo‘shni bo‘lgan tatar, markit, kerayit, jaloyir, nayman, uyg‘ur, qorluq kabi ko‘plab qabilalarni o‘z qo‘li ostida birlashtirib, kuchli davlatga asos soladi.

1206 -yilning bahorida Mug‘ulistondagi Onon daryosi irmoqlaridan birining sohilida o‘z hokimiyatining to‘liq mustahkamlab olgan Temuchin mug‘ullarning umum qurultoyini chaqiradi. Temuchinning tarafдорлари – mug‘ul zodagonlari to‘plangan bu qurultoyda u oliy mug‘ul hukmdori – xon deb tantanali e’lon qilinadi va davlatning bosh shamanı Teb Tangriy unga “CHingizzon” degan faxriy nom beradi (“CHingizzon” – kuchli, buyuk degan ma’noni anglatadi).

Qurultoya CHingizzon o‘z tug‘i – bayrog‘ini ko‘tarib, o‘nta lavozimni joriy etadi va uni o‘z yaqinlariga taqdim etadi. Sahrodagi Qoraqurum shahri yangi davlatning poytaxti qilib belgilanadi. YAngi mug‘ul davlati – **Eke Mung‘ol ulus** (**Buyuk mug‘ul davlati**) deb atalib uning boshqaruvi **“Altan urug”** (**Oltin urug**) qo‘liga o‘tdi.

O‘z mavqeい va hokimiyatini mustahkamlab olgan CHingizzon o‘z harbiy kuchlarini isloq qilib, davlati sarhadlarini kengaytirish harakatini boshladi. U 1209 -yilda tang‘utlarni, 1211 -yilda uyg‘urlarni, 1215 -yilda esa shimoliy Xitoyni poytaxt Chjundu (Pekin) shahri bilan birgalikda o‘ziga tobe qilib oldi. SHu tariqa XIII asr o‘ninchı -yillari oxiriga kelib SHarqda ikkita yirik davlat – Xorazmshoh – Anushteginlar va Chingizzon davlatlari mavjud bo‘lib, ular o‘rtasida urush bo‘lishi muqarrar edi. Chunonchi, 1215 -yildagi Dashti Qipchoq yurishida Xorazmshoh mug‘ullarning Jo‘ji boshchiligidagi harbiy qo‘shiniga duch keladi (hoz. Qozog‘istonning To‘rg‘ay viloyati cho‘llarida). G‘arbga chekingan dushmanlari markitlar ustidan g‘alaba qozongan mug‘ullar Xorazmshohning 60 ming kishilik

qo'shini bilan bir kun jang qildilar. Bu jang borasida CHingizzondan hech qanday ko'rsatma olmagan Jo'jixon ertasiga chekinishga majbur bo'ladi.

1215-1218 -yillar oralig'ida Xorazmshoh va CHingizzon o'rtasida bir necha marta elchilar almashinadi. Rashiddin ma'lumotlariga ko'ra, CHingizzon 1218 -yil Horazmshohga yuborgan nomasida uni "o'z o'g'illari qatorida ko'rishini" ma'lum qiladi. SHarq diplomatiyasiyada bu qaramlikni bildirishini Sulton Muhammad yaxshi anglagan edi. Undan tashqari 1218 -yilgi CHingizzon tomonidan Xorazmga yuborilgan 450 kishilik elchilar guruhidagi 100ga yaqin savdogarlarga jouslik vazifasi ham topshirilgan edi. SHu bois bu karvon O'tror shahrida talon-taroj qilinib, elchilar o'ldiradi.

Bu voqeadan so'ng har ikkala tomon ham urushga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi, An-Nasaviy ma'lumotlariga ko'ra, CHingizzon bilan bo'ladigan jang munosabati bilan Urganchda chaqirilgan mashvaratda Sulton Muhammad o'rtaga tashlagan qator takliflarni inobatga olmadi. CHunonchi, to'ng'ich o'g'li Jaloliddinning, Xo'jand hokimi Temur Malik singari sarkardalarning barcha harbiy kuchlarni (A. Ziyo ma'lumotlariga ko'ra, qo'shin soni 600 ming kishi atrofida bo'lgan- E. B.) asosiy nuqtalarga yoki bir erga to'plab, dushmanga zarba berish haqidagi maslahatlarga amal qilmadi va qo'shirlarni yirik shaharlarga bo'lib tashladi.

CHingizzon 1219 -yilda o'z o'g'illari boshliq 200 mingga yaqin asosiy harbiy kuchlari bilan Xorazmshohlar davlati ustiga yurish boshladi. Bu kuchlar o'sha -yili yozni Irtish daryosi bo'yiga o'tkazib, sentyabr oyida chegaradan o'tadi. CHegaradan o'tgan CHingizzon o'z qo'shini bilan janubiy qozoq cho'llarining Sirdaryoga tutashgan joyidagi O'tror shahri yaqiniga to'plab uni to'rt qismga bo'ladi. CHig'atoy bilan O'qtoy qo'shining bir qismi bilan O'trorni qamal qilib egallash uchun qoldiradi. Ikkinchchi qism esa Jo'ji boshchiligidida Sirdaryoning yuqori oqimidagi Jand, YAngikent, Borchilig'kent, Sig'noq shaharlarini bosib olish uchun yuboriladi. Uchinchi qismga Uloq nuyon va Suketu CHerbu bosh bo'lib O'trordan janubga, Xo'jand va Banokatni egallash topshiriladi. CHingizzxonning o'zi bosh bo'lgan asosiy to'rtinchi qism yirik shaharlar-Samarqand va Buxoroni egallash uchun yo'l oladi.

Bu yurishlar natijasida 1219 -yilda O'tror, Jand, YAngikent, Borchilig'kent, 1220 -yilda Xo'jand, Buxoro, Samarqand, 1221 -yilda Termiz va Urganch shaharlari mug'ullar tomonidan bosib olinadi. Manbalarda "Jahon sultonlari poytaxti" va "Insoniyat buyuk farzandlari beshigi" nomini olgan Urganch, "Qubbatul Islom" nomini olgan Buxoro, "Sayqali ro'yi zamin" deb atalgan Samarqand kabi shaharlar talon-taroj qilindi. Ba'zi shaharlar, masalan, O'rta, Sig'noq, Borchilig'kent kabilar uzoq vaqtlargacha dashtu-biyobonlarga aylanib qoldi. SHu davrda yashagan arab tarixchisi ibn al-Asirjug'ul (1160-1244 yy.) mug'ul bochqini dahshatlarini shunday ta'riflagan: "Ular (mug'ullar) hech kimga shafqat qilmadilar, aksincha, xotinlar, bolalar, erkaklarni o'ldirdilar, homilador xotinlarning qorinlarini yorib, tug'ilmagan go'daklarni nobud qildilar... Bu musibat to'lqinlari turli tomonlarga tarqaldi va uning fojeasi umumiy bo'lib qoldi hamda u shamol bulutlarni turli tomonga haydagani kabi butun viloyatlarga yoyildi. Xitoy chegaralaridan bir xalq chiqib Turkistondagi Qashg'ar va Balasag'un kabi viloyatlarni vayron etib, qirg'in qilib, talon-taroj qilib egalladi. Tatarlar hech qaysi

shaharlarni omon qoldirmadilar, ketayotib hamma erni vayron etdilar. Ular nimaniki yonidan o‘tgan bo‘lsalar, o‘zlariga yoqmagan barcha narsalarga o‘t qo‘ydilar”.

SHunday qilib talon-tarajlik urushlari natijasida XIII asr 20-yillari o‘rtalariga kelib CHingizzon SHarqda SHimoliy Xitoydan G‘arbda Amudaryogacha bo‘lgan hududlarda o‘z hokimiyatini o‘rnatishga muvaffaq bo‘ldi. 1227 -yilning -avgustida Osiyoning ichkarisiga, tang‘utlar ustiga yurish paytida CHingizzon vafot etadi. CHingiziyarning harbiy yurishlari natijasida 1260 -yilda tarixdagi ko‘chmanchilarining yirik davlatlaridan biri – SHarqda Amurdan Sariq dengizgacha, G‘arbda Dunaydan Evfratgacha bo‘lgan hududlarni o‘z ichiga olgan ulkan imperiya tashkil topdi.

## 2. Chig‘atoi ulusi.

CHingizzon hali hayotligidayoq o‘zi tashkil etgan ulkan sultanatni o‘g‘illari o‘rtasida taqsimlab bergen edi. Natijada mug‘ullar bosib olgan hududlarda to‘rta davlat, ya’ni, to‘rtta ulus vujudga keldi. Manbalarga ko‘ra, CHingizzxonning ikkinchi o‘g‘li CHig‘atoya Oltoy tog‘larining janubiy sarhadlaridan to Amudaryo va Sindgacha bo‘lgan erlar berilgan bo‘lib, bu ulus tarkibiga SHarqiylar Turkiston, Ettisuvning katta qismi va Movarounnahr hamda o‘ng qirg‘oq Amudaryodagi Balx, Badaxshon, G‘azna, Qobul kabi hududlar kirgan. Mug‘ullar o‘rtasidagi o‘zaro urushlar natijasida hududlar qo‘ldan qo‘lga o‘tib turgan bo‘lsa-da, ulusning o‘zagi saqlanib qolgan edi.

CHingizzxonning ikkinchi o‘g‘li bo‘lgan CHig‘atoyning qachon tug‘ilganligi aniqlanmagan. Hali CHingizzon hayotligidayoq CHig‘atoi “YAsoqlar” va mug‘ul qonunlarining hamda an‘analarining bilimdoni sifatida shuhrat qozongan edi. CHig‘atoi mulklarining asosiy qismi Ettisuvda bo‘lib, **El Alargu** deb atalgan. Uning bosh shahri Ili daryosi vodiysidagi Olmaliq shahri edi.

Manbalarning xabar berishichi, Botuxon (1227-1255 yy.), O‘gedey (1229-1241 yy.) va Munkexon (1251-1259 yy.) lar zamonida mug‘ullar sultanati ijtimoiy-siyosiy hayotda muhim o‘rin to‘tib, Oltin O‘rda xonligiga asos solindi. Bulg‘or viloyati, Qrim va unga qarashli dengiz bo‘yi shaharlari, Kavkazning Darband, Boku shaharlari gacha, Xorazmnning shimoli Urganch shahri bilan G‘arbda Dnestr dan boshlangan cho‘llar, SHarqda esa G‘arbiy Sibir va Sirdaryoning quyi oqimlarigacha bo‘lgan erlar Oltin O‘rdaga qaragan. CHig‘atoi o‘z erlariga mulk sifatida egalik qilgan edi.

Rashididdin ma’lumotlariga ko‘ra, mug‘ullar davlatida O‘gedey hukmronligi davrida CHig‘atoi butun imperiyada shu qadar kuchli hokimiyatga ega ediki, hatto buyuk xonning o‘zi ham “uning maslahati va ko‘rsatmalarisiz” muhim qarorlar chiqara olmas edi. Ammo, shunga qaramasdan CHig‘atoi butun ulusning mustaqil hukmdori emas edi.

Musulmon manbalarida bo‘lgani kabi, Xitoy manbalarida ham CHig‘atoi chehrasida kulgi bo‘lмаган, qaramog‘idagilarni qo‘rquvda ushlab turadigan, zulmkor shaxs sifatida tasvirlanadi. “YAsoqlar”ning bilimdoni va nazorat qiluvchisi bo‘lgan CHig‘atoi mug‘ul qonunlari buzilishini juda shafqatsiz jazolagan. Musulmon qonunlari ko‘pincha “YAsoq”larga mos kelmasligi tufayli u

islomga yaxshi munosabatda bo‘lmanan. Tadqiqotchilar ning xulosalariga ko‘ra CHig‘atoyning nomi quyidagilarda saqlanib qolgan:

1. O‘rta Osiyodagi mug‘ul davlatining rasmiy nomlanishi atamasida.
2. CHig‘atoy davlatining harbiy kuchlarini tashkil etgan ko‘chmanchilar nomida.
3. O‘rta asrlar O‘rta Osiyoda shakllangan adabiy til nomida.
4. Joylarning nomlanishida.

CHig‘atoy ulusi tarkibiga kirgan hududlar o‘z geografik joylashuviga ko‘ra, CHingizzon asos solgan ulkan sultanatning ichki va tashqi, iqtisodiy va madaniy hayoti hamda aloqalarida, elchilik munosabatlari katta o‘rin tutardi. Misol uchun, CHingizzon va uning dastlabki vorislari davrida sultanat poytaxti bo‘lgan Qoraqurum, keyinchalik Xonbaliq (Pekin) shaharlarini Dashti Qipchoqdagi Oltin O‘rda va Erondagi Xulagiylar davlati bilan bog‘lovchi muhim aloqa – savdo yo‘llari mug‘ullar sultanatining markazida joylashgan CHig‘atoy ulusi hududidan o‘tardi. CHig‘atoy ulusi hukmdorlari Buyuk ipak yo‘lining markaziyo yo‘nalishini nazorat qilgan bo‘lsalar, Jo‘ji ulusiga bu yo‘lning shimoliy yo‘nalishi nazorati yuklatilgan. Bu yo‘nalishda Volga bo‘yi shaharlari bilan birga Xorazm vohasi ham katta o‘rin tutganligi tufayli, Xorazmning g‘arbiy qismi Jo‘ji ulusi tarkibiga kiritilgan. Umuman olganda, CHig‘atoy ulusi davrida Xitoy, Markaziy Osiyo va Dashti Qipchoqdagi ko‘pgina hududlarda turk-mug‘ul zodagonlari savdo-tranzit yo‘llari ustidan o‘z nazoratlarini o‘rnatadilar.

CHig‘atoy ulusi tashkil topgach, Movarounnahr va SHarqiy Turkistonning madaniy viloyatlarini ulug‘ xon tomonidan tayinlangan Mahmud YAlavoch boshqargan. Ulug‘ xon shuningdek, Movarounnahrdagi mug‘ul qo‘sishlari boshliqlarini ham tayinlagan. Bu boshliqlar ko‘p hollarda barlos, jaloyir, qovchin va orlat qabilalaridan bo‘lgan. Ibn Arabshoh ma’lumotlariga ko‘ra, jaloyirlar Amudaryoning shimoli, Buxoroning sharqiy tomonlarida, barloslar Qashqadaryo vohasida, orlatlar Afg‘onistonning shimolida joylashganlar. Mahmud YAlavoch ham Movarounnahrdha olib borgan siyosatida ko‘pincha shu qabilalarga suyanib ish ko‘rgan.

Mug‘ullar ko‘chmanchi xalq bo‘lganligi uchun boshqaruv ishlariga no‘noq edilar. Asli xorazmlik bo‘lgan Mahmud YAlavochning Movarounnahr noibi etib tayinlanishi bejiz emas edi. CHig‘atoy ulusidagi harbiy bo‘lmanan hokimiyat, odatda, mahalliy aholi orasidagi bilimli va yuqori mavqega ega bo‘lgan shaxslarga berilgan. O‘troq xalqlarni boshqarish, zodagonlarni itoatda saqlash uchun boshqaruvdagi zarur bilimlar va tajribalar kerak bo‘lgan hollarda mug‘ullar orasida harbiy bo‘lmanan hokimiyatdagi oliy lavozimlarni egallashga qodir shaxslar deyarli yo‘q edi. Jo‘vayniy ma’lumotlariga ko‘ra, CHingizzon hayotligi davridayoq mug‘ul zodagonlarining yosh bolalari, hukmdor xonadonning bolalari maxsus o‘qitilgan bo‘lsa-da, CHingizzonning o‘zi ham, uning avlodlari ham bilimli shaxslarga, ma’muriy boshqaruvchilar va amaldorlarga, tabiblar va olimlarga, savdogarlar kabilarga juda katta ehtiyoj sezganlar. SHuning uchun ham Qoraqurumdagagi buyuk xon va ulus xonlarining saroylarida bo‘ysundirilgan xalqlar vakillari, ayniqsa, musulmon madaniyati vakillari katta izzat-obro‘ga ega bo‘lganlar.

Misol uchun, kelib chiqishi musulmon bo‘lgan Habash al-Hamid (ayrim ma’lumotlarda o‘trorlik, ayrimlari karmanalik deyiladi), CHig‘atoyning mahslaxatchisi bo‘lgan. CHig‘atoy ulusining harbiy bo‘limgan boshqaruvi xorazmlik Mahmud YAlavochga, keyin esa uning o‘g‘li va nabiralariga topshirilgan. Mug‘ilistonning o‘zida va CHig‘atoy ulusida bo‘lib turgan noroziliklarga qaramay YAlavoch xonadoni Movarounnahr va SHarqiy Turkistondagi boshqaruvni XIV asr boshlariga qadar o‘z qo‘llarida saqlab qoldilar. SHuning uchun ham manbalarning ma’lumot berishicha, CHig‘atoy mug‘ul zodagonlari Movarounnahrdagi mahalliy zodagonlar, amaldorlar va savdogarlar orasidan tajribali ma’murlar, soliq yig‘uvchilar va boshqaruvchilarni topishda qiyalmaganlar. SHu sabab bo‘lsa kerakki, asta-sekinlik bilan Buxoro sadrlari, Termiz sayidlari, SHosh, Taroz, O‘tror, Xo‘jand maliklari o‘z mulklariga egalik qilishni tiklab oladilar.

CHig‘atoy ulusiga dastlabki noib etib tayinlangan Mahmud YAlavoch ixtiyorida mug‘ullarning tayanchi bo‘lgan soliq yig‘uvchi mug‘ul **bosqoqlari**, mahalliy hokimlar, harbiy ma’murlar – **dorug‘alar** hamda mug‘ul harbiy bo‘linmalari bor edi. YAlavoch Xo‘jandda turib o‘z qo‘l ostidagi harbiy bo‘linmalari yordamida davlatni boshqargan va soliqlar yig‘ar edi. Buxoroda esa mahalliy zodagonlar va ruhoniylar vakillari boshqaruvni o‘z qo‘llariga olgan edilar. Ular mahalliy amirlar va sadrlar hisoblangan.

Mahmud YAlavoch davridayoq (1227-1239 yy.) ko‘pchilik aslzoda zodagonlar, savdogarlar va qisman ulamolar ham o‘z jonlari hamda qolgan mol-mulklarini saqlab qolish maqsadida mug‘ullar xizmatiga o‘ta boshlagan edilar. Ulusda o‘zlarini tayanch va qo‘llab-quvvatlovchi kuchlari bo‘lishini xohlagan mug‘ul hukmdorlari ham bu toifadagi kishilarga rahnamolik qilar edilar.

CHig‘atoy ulusida viloyat hukmdorlari **xon**, oliy hukmdorlar esa **qoon** yoki **xoqon** deb yuritilgan bo‘lib, ular davrida o‘lponu soliqlar miqdori osha borib, yangi soliqlar ham joriy etila boshlanadi. Misol uchun, manbalarga ko‘ra, bu davrda yangi er solig‘i- **kalon** joriy etilib, bu soliq hosilning undan bir qismi miqdorida olingan. Mug‘ullarning 1235 -yilgi qurultoyidan so‘ng esa har bir bosh chorva molidan olinadigan soliq **qopchur** joriy etiladi. Unga ko‘ra, har 100 chorvadan bittasi soliqqa to‘langan. SHuningdek “YAsoqlar”ga ko‘ra, davlat xazinasi uchun **shulen** yoki **shulsi** solig‘i joriy etilgan. Bu soliq chorvadorlardan har suruvdan bir qo‘y va qimiz uchun har ming bosh otdan bitta biya undirilgan.

Bu davrda hunarmandlarning ham ahvoli yaxshi emas edi. Ular mahalliy xonlarning mulki sifatida qullarcha ishlatalishi bilan birga, soliqqa ham tortilgan edilar. Hunarmandlardan va savdogarlardan olinadigan soliq **targ‘u** yoki **tamg‘a** deb atalgan. Bu soliq ishlab chiqarilgan hamda sotilgan mahsulotning o‘ttizdan bir ulushi hajmida bo‘lgan. CHig‘atoy ulusi davrida er egaligi munosabatlari ham o‘zgarib, yangi in’om etilgan erlar **suyurg‘ol** nomini olgan edi. Suyurg‘ol hajmi jihatdan (uning tarkibida juda katta er maydonlari va suv havzalari, dasht-yaylovlari ham kirgan) iq’tadan farq qilgan. Bu davrdagi davlat, mulk (xususiy erlar), vaqf(diniy idoralar ixtiyoridagi erlar) erlarda ko‘p hollarda ijara ga chorakor dehqonlar mehnat qilishgan. Bunday ijrador o‘rtahol dehqonlar **mo‘zariylar** deb atalgan.

Buyuk Hoqon O‘gedey (1229-1241 yy.) davridayoq mug‘ullar o‘zlarining xizmatida bo‘lgan ayrim zodagonlarga,katta er egalari va savdogarlarga **barot** (ijara yorlig‘i) va **payzalar** bera boshlangan edilar. Payzalar qimmatbaho metallar (oltin, kumush, bronza) yoki yog‘och taxtachalardan ishlangan bo‘lib, unga nuyonning muhri qo‘yilgan. Bunday payzaga ega bo‘lgan kishilar, shu jumladan elchilar, soliqchilar va boshqa shaxslar aholidan turli yig‘im, to‘lovlarni talab qilib olish huquqiga ega edilar. SHuningdek payza egalari aholidan ot-ulov, em-xashak, yotar joy, oziq-ovqat talab qilishga haqli edi. Savdo yo‘llarida joylashgan bekatlar **yom(jom)** ularning xizmati aholi bo‘ynida edi. 1235 -yilgi xoqon farmoniga ko‘ra, har bir yomdagi aloqa xizmati ikki tuman aholisiga yuklatiladi. Ikki tuman aholisi yom uchun 20 bosh ot, so‘yishga qo‘y - echki, sog‘ishga biyalar, arava va boshqa anjomlar ajratishlari lozim edi.

Mahalliy aholi-hunarmand, dehqon, chorvador, kim bo‘lishidan qat’iy nazar umumhashar ishlarida qatnashishi va tekinga ishlab berishi shart edi. Aholiga o‘tkazilayotgan jabr-zulm mug‘ullarga qarshi norozilik isyoniga olib keldi. 1238 -yil Buxoro atrofidagi Tarob qishlog‘ida Mahmud Tarobiy boshchiligidagi qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Ammo, qo‘zg‘olonchilar ayrim g‘abalalarga erishgan erishgan bo‘lsalarda, ko‘p o‘tmay mug‘ullarning Eldo‘z no‘yon va CHag‘an qo‘rchi boshliq harbiy kuchlari qo‘zg‘oltonni shafqatsizlarcha bostiradilar. Mahmud Tarobiy ham halok bo‘ladi.

Mahmud Tarobiy qo‘zg‘oloni dan so‘ng CHig‘atoyma Mahmud YAlavochni o‘z amalidan chetlashtiradi va ko‘p o‘tmasdan xoqon uni Pekin (Dasin) shahriga noib qilib jo‘natadi. Mavarounnahrning noibi qilib esa uning o‘g‘li Ma’subek tayinlanadi.

YUqorida ta’kidlaganimizdek, XIII asrning 60-70-yillarida mug‘ullar orasida o‘zaro kurashlar kuchaygan bo‘lishiga qaramay, bosib olingen hududlardan mug‘ul harbiy sarkardalari, no‘yonlari, zodagonlari orasida siyosiy dunyoqarash o‘zgara boshlaydi. YA’ni, ba’zi xonlar, harbiylar, zodagonlar va savdogarlarga o‘troq hayotga o‘tish istagi kuchaya boshladi. Mug‘ul zodagonlari dehqonchilik va savdosoti xazinaning asosiy manbai ekanligini tushuna boshlagan edilar. Undan tashqari, XIII asr oxirlariga kelib ko‘chmanchi hayot tarzida bo‘lgan CHig‘atoyma xonlari qo‘lida aholi solig‘i va xirojlardan tushgan mablag‘lar hamda o‘ljalar ko‘payib ketib, ko‘chmanchilik sharoitida, tinimsiz urushlar va ko‘chmanchi zodagonlar isyonlari sharoitida xazinani saqlash qiyin va xatarli bo‘lib qolgan edi.

Bu davrda xo‘jalik-iqtisodiy hayotni bir me’yorga tushirish, savdo va pul muammosini izga solishda Ma’subekning xizmati va islohotlari katta o‘rin tutgan. Ma’subek 1271 -yili mug‘ullarning madaniy-o‘troq hayot tarafdrorlari madadi hamda Taras qurultoyi (1269y.) qarorlariga tayanib, molivaviy, ya’ni, pul islohoti o‘tkazishga kirishdi. Bu islohotga ko‘ra, CHig‘atoyma ulusining barcha shahar va tumanlarida bir xil vazndagi kumush tangalar zarb etish va muomalaga kiritish yo‘lga qo‘yildi. Bu islohotning asosiy mohiyatini tashkil etar edi. Bu holat ichki savdo va ichki munosabatlarni tartibga solardi. SHuningdek kumush tangalar zarb etish erkinligi paydo bo‘ladi. YA’ni, xohlagan kishi o‘z ixtiyoridagi kumush buyumlarni zarbxonaga olib borib, uni xohlagan tarzda, lekin bir xil hajm, qiymat va vaznda zarb etishi mumkin edi. Bu jarayon dastlab qiyin kechgan bo‘lsa-da,

asta-sekin faollasha borib, aholining kumush tangalarga ishonchi mustahkamlandi, bunday tangalarning nufuzi ortib bordi. Natijada XIII asrning 80-90-yillarida CHig‘atoy ulusining 16 ta shahrida zARBxonalar ochilib, ularda doimiy ravishda kumush tangalar zarb etilgan.

Bu davrda Eronda va Ettisuvda mug‘ul harbiy zodagonlari vayronagarchilik kelitirib chiqaruvchi urushlar qilib turgan bo‘lsalarda, ularning bu harakatlari Movarounnahrdagi islohatlarni to‘xtata olmadi. CHunonchi, 1273-76 -yillarda Ma’sudbek vayron etilgan Buxoroni qayta tiklash ishlarini amalga oshirdi. Natijada Buxoroda iqtisodiy hayot, savdo-sotiqlik tiklanib 1273-82-yillar Buxoro zARBxonalari to‘liq ishlay boshladи. Savdo – iqtisodiy aloqalar rivojlanib borayotgan Farg‘ona vodiysida esa CHig‘atoy xoni Duvaxon (1291-1306 yy.) davrida Andijon shahriga asos solindi.

XIV asrning boshlariga kelib CHig‘atoy davlati xonlari o‘z xazinalarini saqlash uchun shaharlar tanlay boshlaydilar yoki o‘zlar yangi shaharlarga asos sola boshlaydilar. CHig‘atoy xonlaridan birinchi bo‘lib Kebekxon (1309, 1318-1326 yy.), madaniy hayotga yaqinlashib, o‘troq turmush tarziga o‘tgan edi. U Nahshab shahri atrofida o‘ziga saroy qurdirdi va bu saroy (Qarshi) keyinchalik Kebekxon va uning atrofdagilarning doimiy qarorgohiga aylandi. SHu tariqa CHig‘atoy zodagonlari Movarounnahrdagi markazlarga o‘troqlashib bordilar.

### **3.Chig‘atoy davlatining boshqaruv tizimi.**

. Mo‘g‘ullar asos solgan davlat yarim ko‘chmanchi tipdagi, asosan harbiy tartiblarga muvofiq kelgan davlat boshqaruviga ega siyosiy tashkilot edi. CHingizzon va uning avlodlari xon unvoni soxiblari edilar. Ularning ko‘li ostidagi boshqaruv tizimida turli unvon, martaba va mansab egalari bo‘lgan. Bunday amallarning aksariyati harbiy boshqaruv tartiblariga mos tushardi. Davlat boshqaruvida harbiy sarkardalar va qo‘sish boshliqlarining nufo‘zi ancha salmokli edi. Faqat ulug‘ xonga itoat etadigan maxsus harbiy bo‘linma - manbalarda keshik nomi bilan ataluvchi harbiy kiyim mavjud bo‘lib, undan o‘ta favkulorra xolatlarda foydalanilgan. Yirik harbiy bo‘linma boshida nuyonlar, bahodirlar va mernanlar turgan. O‘n ming askardan iborat qo‘sish - tumanga xonning farzandlari ham boshchilik kilishgan. Tumanlar, o‘z navbatida, minglik, yuzlik, o‘nliklarga bo‘lingan va x.k.) bir bo‘ganda harbiy boshliqlar: mingboshi, yuzboshi va o‘nboshilar turgan. CHingizzon qo‘sishining asosiy qismi turli turkiy qabilalardan to‘zilgan bo‘lib, qattiq harbiy intizom o‘rnatalgan bu qo‘sish o‘z davrining xakikatdan ham qudratli jangovar armiyasi sanalardi.

Movarounnahr va Ettisuv mo‘g‘ullar davrida CHig‘atoy ulusi tarkibiga, Xorazmnning g‘arbiy qismi Oltin O‘rda davlati, qolgan qismi CHig‘atoy ulusi tarkibiga kiritilgan edi. CHig‘atoy ulusi Ettisuvdagagi Ili daryosi buyidagi Olmaliq shahridan turib boshqarilardi. Mo‘g‘ullar kuchmanchi xalq bo‘lganliklari uchun davlatni boshqaruv ishida anchagina no‘noq edilar. SHuning uchun ham ular bosib olingen hududlarni boshqarishda o‘zlar tomonidan tayinlangan noiblar yordamiga muxtoj edilar. CHig‘atoy ulusi davrida Movarounnahrni boshqarish ishlari mahalliy hukmdorlarga, mahalliy boy zodagonlar qatlamiga topshirilgan edi. XIV asrda Movarounnahrni xorazmlik yirik savdogar Maximud YAlavoch (1226-1238) va

uning ug'li Mas'ubek (1238-1289) xon noibi sifatida boshqarib keldilar. Movarounnahrda juda kata huquqga ega bo'lgan Maxmud YAlavoch va Mas'ubekning karorgoxi Xo'jand shahrida edi. Noibning asosiy vazifasi - belgilangan soliqlarni yig'ish va ulug' xon karorgoxiga etqazish, aholini itoatda saqlab turish hisoblanardi. Noiblar Xo'janddan turib o'z ko'li ostidagi harbiy bo'linmalar yordamida davlatni boshqargan, soliklarni yiqqanlar. Buxoroda esa mahalliy zodagonlar va ruxoniy rahbarlar mamlakatda boshqaruvni o'z ko'llariga olgan edilar. Bular mahalliy amirlar va sadrlar hisoblangan.

Movarounnahrni deyarli mustaqil boshqargan Mahmud YAlavoch 1238 - yildagi Maxmud Torobiy boshchiligidagi mo'g'ullarga qarshi ko'tarilgan xalq harakati tufayli o'z vazifasidan bo'shatiladi. Lenin CHingizzonga va undan keyingi mo'g'ul xonlariga ko'rsatgan xizmatlari hisobga olinib, Xonbaliq (Pekin) shahriga gubernator qilib tayinlanadi. U bu lavozimda to umrining oxirigacha (1254) turgani ma'lum. Mavorounnaxrga noib etib tayinlangan Mas'ubek esa otasi siyosatini davom ettirib, mo'g'ullarga sodiq xizmat qildi.

Mo'g'ullar davrida maxsus xujjat-payzalarga ega bo'lgan kishilar hamma mahalliy boshqaruvda katta nufuzga ega bo'lganlar. Bunday alohida yorliqlarga ega xon xonadoni vakillari, turli darajadagi amaldorlar, savdogarlar va ruxoniylar kiyofasidagi ayg'oqchilar joylarga safar qilganda mahalliy aholi ularni turar joy hamda oziq-ovqat va ot-ulov bilan ta'minlash kabi xarajatlarni koplashi shart edi.

### **Adabiyotlar**

Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997.

Каримов И.А. Тарихийхотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998

Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Т.: Шарқ. 2000.

Сагдуллаев ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т., 2000.

Сагдуллаев А.С., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. -Т., 2006.

### **13. Mavzu: Amir Temurning siyosiy hokimiyatni qo‘lga olishi va markazlashgan davlat asoslarining yaratilishi.**

**Reja:**

- 1. Movarounnahrdagi siyosiy tarqoqlik.**
- 2. Temur davlatining barpo etilishi .**
- 3. Amir Temur davrida davlat boshqaruvi.**
- 1. Movarounnahrdagi siyosiy tarqoqlik.**

O‘zbekiston davlatchiligi tarixining o‘rtalasrlar davridagi yangi bosqichi buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur ibn Tarag‘ay Bahodir nomi bilan bog‘liqdir. Amir Temur 1336 -yil 8 aprelda (hijriy 376yil, sha’bon oyining 25 kunida) Kesh tumaniga qarashli Xo‘ja Ilg‘or (hoz. Qashqadaryo viloyati, Yakkabog‘ tumani) qishlog‘ida barlos beklaridan biri Amir Tarag‘ay Bahodir ibn Barqal oilasida dunyoga keldi. Temurning bolaligi va o‘spirinlik -yillari Kesh va uning atroflarida o‘tib, mahalliy amirlar, no‘yonlar va beklarning o‘zaro urushlari, nizolariga to‘g‘ri keldi.

Ma’lumki, XIV asrning 40-yillariga kelib CHig‘atoj davlati parchalanib, davlatning sharqiy qismi-SHarqiy Turkiston va Ettisuvni o‘z ichiga olgan Mug‘uliston davlati tashkil topadi. CHig‘atoj ulusida nisbatan barqarorlikni saqlay olgan Qozonxon (1336-1347yy.) o‘limidan keyin davlat hududlari parchalinish, iqtisodiy vayronlik sari yuz tutib, Amir Qozog‘on (1347-1357yy.) davrida bu jarayon yanada avj oladi. 1348 -yilda CHig‘atoj avlodlaridan bo‘lgan Tug‘luq Temur Mug‘uliston taxtiga o‘tiradi. U CHig‘atoj ulusidagi siyosiy parokandalikka barham berish va Movarounnahrni bosib olish maqsadida bu hududlarga bir necha bor talonchilik urushlari olib boradi. Xususan Tug‘luq Temur 1360 -yilda Kesh viloyatini bosib oladi. bu viloyatning hokimi bo‘lgan Temurning amakisi Hoji Barlos Xurosonga qochadi. Manbalarning ma’lumot berishicha, Amir Temur Amudaryo bo‘yida amakisini kuzatar ekan amakisiga shunday murojaat qiladi: “Agar ikkovimiz ham vatanni tark etsak, merosiy yurtimiz shubhasiz begonalar qo‘liga o‘tib ketadi. Lozim topsangiz men podshoh (Tug‘luq Temurxon) xizmatiga borsam.”

Amir Temur merosiy yurtni qo‘ldan bermaslik maqsadida Tug‘luq Temur ishonchini qozonib (Amir Hoji Sayfiddin yordamida) uning xizmatiga o‘tadi va Kesh viloyatining hokimi etib tayinlanadi. Ammo, Tug‘luq Temur o‘g‘li Ilyosxo‘jani Movarounnahrning hokimi etib tayinlangach Amir Temur unga xizmat qilishdan bosh tortib, Balx hokimi, Amir Qozog‘onning nabirasi Amir Husayn bilan ittifoq tuzadi. O‘scha davrdagi vaziyat taqozosi bilan Temur Movarounnahrni tark etishga majbur bo‘lib, Husayn bilan ittifoq tuzgan edi. 1361-1370 -yillar davomida Amir Temur va Amir Husayn dastlab do‘stona, keyin esa dashmanchilik munosabatda bo‘ldilar.

1363 -yilda Mug‘uliston hokimi Tug‘luq Temur vafot etgach Ilyosxo‘ja Movarounnahrdan haydaladi. Ammo, ko‘p o‘tmasdan Movarounnahr ustiga yangidan yurishga tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi va 1365 -yilda katta qo‘shin bilan Sirdaryo tomonga yo‘lga chiqadi. Bundan xabar topgan Husayn va Temur harbiy kuchlarini jangga tayyorlaydilar. Birlashgan kuchlar va Tug‘luq Temur qo‘shinlari o‘rtasidagi jang 1365 -yil 22 mayda CHinoz va Toshkent oralig‘ida qattiq

yog‘ingarchilik paytida bo‘ladi va tarixda “Loy jangi” (“Jangi loy”) nomini oladi. Bu jangda Temur va Husayn kelishib harakat qilmaganliklari oqibatida ularning birlashgan qo‘shini mag‘lubiyatga uchraydi. Ayrim manbalar bu mag‘lubiyatning sababini Amir Husaynning sust va mayoqsizlik bilan harakat qilishi deb izohlaydi. Temurning o‘zi esa bu kabi holatlarni Husaynning hasadgo‘yligida deb biladi. Xususan “Temur tuzuklari”da Amir Temur va Amir Husaynning do‘stona munosabatlarini buzilishiga Husaynning molparastligi va hasadchiligi sabab bo‘lganligi ta’kidlanadi. “Amir Husayn bilan murosayu-madora qilishga shunchalik intildimki, hatto uning amirlariga ham bu ta’sir etib, menga bo‘ysundilar.”

“Loy jangi” mag‘lubiyatidan so‘ng Husayn va Temur Balxga chekinadilar. O‘z holicha tashlab qo‘yilgan Movarounnahr aholisi yana Ilyosxo‘ja boshliq mug‘ullar zarbasiqa uchrash xavfi ostida qoladi. Bunday sharoitda Samarqanddagi sarbadorlar “Ozodlik yo‘lida dorga osilishga tayyormiz” shiori ostida (sarbador-forscha, boshi dorda) mug‘ullarga qarshi kurash uchun butun xalqni da’vat etdilar.

Sarbadorlar harakati XIV asrning 30-yillarida Xurosonda (Afg‘onistonning shimoli-g‘arbi, Marv vohasi va Eronning shimoli-sharqiy qismi) paydo bo‘lib, bu hududlardagi mug‘ullar hukmronligi barham beradilar va markazi Sabzavor shahri bo‘lgan Sarbadorlar davlatiga (1337-1381 yy.) asos soladilar Sarbadorlar harakati XIV asrning 50-60-yillarida ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida Movarounnahrga ham yoyiladi va uning markazi Samarqand edi. Sarbadorlarning harakatlantiruvchi kuchlari madrasa toliblari, shayxlar, umuman, oddiy aholidan iborat edi. Harakat qatnashchilarining asosiy maqsadi mug‘ul istilochilar va zulm o‘tzazuvchi mahalliy qatlamlarga qarshi kurash edi.

Xurosonda bo‘lgani kabi Samarqandda ham bu kurash harakatlantiruvchi kuchlari tarkibi bir xil edi. Ilyosxo‘ja qo‘shinlari Samarqandga yo‘l olib uni qamal qilganlarida sarbadorlar mudofaani tashkil qildilar. Mudofaaga madrasa mudarrisi Mavlonzoda, hunarmand Abu Bakr Kalaviy, mergan Xurdaki Buxoriylar boshchilik qiladilar. Shaharni osonlikcha egallahni rejallashtirgan mug‘ullarning bir necha hujumlari muvafaqqiyatsiz chiqqach, ular shahar atrofini o‘rab olib, uzoq vaqt qamal qilish rejasini ishlab chiqadilar. Ammo, Ilyosxo‘ja lashkari safida yuqumli kasallik (ot vabosi) tarqalishi natijasida u dastlab Samarqandni, keyin esa Movarounnahrni tashlab ketishga majbur bo‘ladi.

Bu paytda Keshda bo‘lgan Amir Temur Ilyosxo‘janing mag‘lubiyati haqidagi xabarni Amir Husaynga etkazadi va ular 1366 -yilning bahorida Samarqandga etib keladilar. Samarqand atrofidagi Konigil mavzeida qo‘zg‘olon rahbarlari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tadi. Amir Husaynning buyrug‘i bilan bu erda sarbadorlarning boshliqlari va aftidan, faol ishtirokchilari qatl etiladi. Temurning aralashuvi bilan faqat Mavlonzoda omon qoldirilib, Xurosonga jo‘natiladi. Mu’iniddin Natanziy ma’lumotlariga asoslangan A. Ziyoning fikricha, sarbadorlar g‘alabasidan so‘ng samarqandliklar Mavlonzoda itoatiga o‘tib “uni imom va amir (sifatida) qabul qilganlar”. YA’ni, Samarqandda ham diniy, ham siyosiy hokimiyat Mavlonzoda qo‘liga o‘tgan. Uning bu “imomligi va amirligi” Samarqandning o‘zida deyarli bir -yil davom etgan. SHu bois ham Amir Husayn sarbadorlar harakatining boshliqlari va faollarini omon qoldirmasligi aniq edi. Amir Husayn uchun o‘z siyosiy raqiblarini zaiflashtirish va mavridi kelsa ulardan qutulish siyosati nechog‘lik

muhim bo‘lganini Konigil voqeasidan so‘ng yuz bergen jarayon orqali ham bilib olish mumkin.

1366-1370 -yillar Amir Temur va Amir Husayn o‘rtasidagi ziddiyatlar kuchayib, bu kurash Husayinning o‘ldirilishi bilan yakun topdi. 1370 -yil 9 aprel chorshanba kuni o‘z davrining nufuzli amirlaridan bo‘lgan SHayx Muxammad suldo‘z, Kayxisrav Xuttaloniy, O‘ljoytu apardi, Dovud dug‘lot, Sarbug‘o jaloyir, Joku barlos, Muayyad dug‘lot, Badaxshon hokimi SHayx Muxammad, Husayn bahodir, Sayyid Baraka, termezlik aka-uka sayyidlar Abu Maoliy va Ali Akbar kabilar huzurida Amir Tumr hokimiyati tan olindi. Movarounnahrning amaldagi xonligi CHingizzon avlodiga mansub bo‘lgan Suyurg‘at mish qo‘liga o‘tdi. Davlat boshqaruv tizimi esa Movarounnahr amiri nomini olgan Amir Temur qo‘lida qoldi. Temur Kesh shahridan Samarqandga ko‘chib, uni o‘z davlatining poytaxtiga aylantirdi. Zero, “Boburnoma” da ma’lumot berilishicha, “Mug‘ul va turk ulusi uni Semizkand derlar. Temurbek poytaxt qilur edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug‘ podshoh Samarqandni poytaxt qilgan emastur”.

## **2.Temur davlatining barpo etilishi .**

Amir Tumur hokimiyat tepasiga kelgach, deyarli bir asrlik bosh boshdoqlik hukm surgan mamlakatga qonunlar joriy etib, tartib o‘rnatish oson emas edi. Uni faqatgina kuchli siyosat yurgizib, mamlakat qudratini mustahkamlab amalga oshirish mumkin edi. Temur o‘ziga mustahkam tayanch barpo etish maqsadida dastlab barlos qabilasidan maxsus gvardiya tashkil qiladi. CHunki bunday ishonchli gvardiya ayniqsa uning siyosiy va harbiy kurashlari uchun zarur edi.

SHuningdek, Amir Temur davlat boshqaruvini o‘z qo‘liga olgan bo‘lsa-da, ammo mavjud shart-sharoitda amaliy qadamlar qo‘yib borish nihoyatda og‘ir edi. Zero, mamlakat yo biron-bir viloyat, yoki ijtimoiy tabaqa doirasida kattagina mavqega ega bo‘lgan amirlar avval boshda uning hukmonligini tan olgan bo‘lsalar-da, ular bilan Amir Temur o‘rtasidagi munosabat bundan buyon ularga va ularning namoyondasi bo‘lmish ijtimoiy muhitga nisbatan yurgiziladigan siyosat bilan ko‘p jihatdan bog‘liq edi. Aynan shuning uchun ham 1370 -yilning o‘rtalarida Samarqandda o‘tkazilgan qurultoyda Amir Temur barcha viloyatlardan nufuzli amirlar, lashkarboshilarni yig‘ib, ularga har birining mavqeい va martabasiga qarab biron-bir mansab va mulk (viloyat, tuman, shahar) taqsimlab beradi, katta-katta sovg‘alar ularashadi. Bu haqda Sohibqironning “Tuzuklarida” shunday deyiladi: “Bulardan mol-dunyoga hirs qo‘ygan ochqo‘z va ta’magirlariga mol-ashyo va’d qildim, mansab-martabaga va mamlakatlarni boshqarishga ko‘z tikkan amalparastlarga qo‘lim ostidagi mamlakat va viloyatlardan birining hokimligini berdim”.

Amir Temur Movarounnahrning qonuniy hukmdori sifatida mamlakat hududlarini birlashtirishga kirishar ekan, hududlar ustiga dabdurustdan harbiy yurishlar qilmasdan, kelishuvchilik siyosatini tutdi. SHu bois ham u Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi erlarni, Farg‘ona, SHosh viloyatlarini o‘z tasarrufiga kiritishda unchalik qiyalmadi. Ammo, Xorazmda ahvol boshqacha edi. Xorazmning o‘scha davrdagi hukmdorlari (Husayn So‘fi, YUsuf So‘fi) Oltin O‘rda ta’sirida bo‘lib, elchilar jo‘natilganligiga qaramay bir necha -yil Amir Temur hokimiyatnini tan olmadilar. SHuning uchun ham Amir Temur Xorazm ustiga besh

marotaba (1371, 1373, 1375, 1379, 1388 -yillar) qo'shin tortishga majbur bo'ladi. 1388 -yildan so'ng Xorazm Amir Temur davlati tarkibiga kirgan.

Amir Temurning harbiy yurishlari 1386 -yildan boshlab "uch -yillik", 1392 -yildan "besh -yillik", 1399 -yildan "etti -yillik" urushlar nomini olagn. XIV asrning 80-yillari o'rtalariga kelib butun Xuroson Sohibqiron ixtiyoriga o'tadi. "Uch -yillik" urush davrida Amir Temur Ozarbayjon, Tabriz, Mozandaron, G'ilonni bo'ysundiradi. SHundan keyn u Kavkazga yurish boshlab Tiflis, Arzirum va Van qal'asini egalladi.

1387-1388 -yillarda Xorazmga davogar bo'lgan Oltin O'rda xoni To'xtamish Amir Temurning yo'qligidan foydalanib Movarounnahrga harbiy yurishlar uyushtiradi. 1388 -yilning yanvarida Amir Temurning qaytishidan xabardor bo'lgan dushmanlar chekina boshlaydilar. Amir Temurdan topshiriq olgan amirlar, Husayn, SHayx Ali Bahodir va boshqalar dushmanni Sirdaryo bo'yidagi Sarisuv degan joyda quvib etib, unga katta talofat etkazdilar. 1388 -yilning oxiridagi yana bir to'qnashuv (Sagaron, Kattaqo'rg'on atroflarida) To'xtamishning mag'lubiyati va qochib ketishi bilan yakunlandi. 1395 -yilning bahorida Kavkazdagagi Terek daryosi bo'yida To'xtamish va Amir Temur qo'shinlari yana to'qnashdilar. Bu jangda To'xtamish qattiq mag'lubiyatga uchradi, poytaxt Saroy Berka ishg'ol etildi va Oltin O'rdaning qudratiga qattiq zarba berildi.

Ta'kidlash lozimki, Sohibqironning bir mamlakatga qilgan yurishlari uning boshqa mamlakatlarga qilgan yurishlari bilan ketma-ket borgan. Xorazm, Xuroson, Eron, Hindiston yurishlari bunga misol bo'la oladi. Ma'lumki, Sohibqiron hokimiyat tepasiga kelgan davrda Eron va Xurosonda ham bir nechta kichik davlatlar mavjud bo'lib, oddiy xalq va savdogarlar ulardan ko'p jabr ko'rар edilar. Amir Temur 1380 -yildan boshlab Xuroson yurishlarini boshlaydi. Tus, Nishopur, Sabzavor shaharlari unga jangsiz taslim bo'ladilar.

Sohibqiron Ozaybarjonga bir necha bor hujum qilib 1387 -yilda uni egallahsga muvaffaq bo'ladi. 1392 -yilda Armaniston va Gruziya Amir Temur izmiga o'tadi. SHimoliy Hindiston va Kashmir musulmonlari qaroqchilardan aziyat chekayotganligi bois Temur Hindistonga ham yurish qilib, 1399 -yil martida bu hududlarni ham egallaydi. 1400 -yilda Amir Temur qo'shinlari turk sultonii Boyazid I va Misr sultonii bilan kurash olib borib, o'sha -yili Misr sultonii Farajni tor-mor etdi. 1402 -yilda Amir Temur Anqara yonida Boyazid bilan ikkinchi marta to'qnashdi va uni tor-mor etdi. Temurning bu g'alabasi ayniqsa evropaliklarda katta taasurot qoldirgan edi. Misol uchun, Boyazid ustidan qozonilgan buyuk g'alaba munosabati bilan Fransiya qiroli Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV va Vizantiya imperatori Temurga o'z tabriknomalarini yuborganliklari manbalarda ma'lum. CHunki, tadqiqotchilar tili bilan aytganda, Evropaga ulkan xavf solib turgan Boyazid boshchiligidagi usmoniyalar imperiyasiga berilgan zarba uchun endigina uyg'onayotgan butun Evropa Amir Temurdan minnatdor edi.

1404 -yilning may oyida Amir Temur Kichik Osiyodan Samarqandga qaytib keladi va Xitoya bo'ladigan yurishga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. 1404 -yilda qahraton qishda Temurning 200 minglik qo'shini Samarqanddan Xitoy yurishiga chiqadi. O'sha -yili qish O'rta Osiyo tarixidagi eng qahraton qishlardan bo'lgan edi. Sirdaryoning suvi bir metrga muzlagan, askarlardan ko'pining qo'l-oyoqlarini,

qulqoq-burunlarini sovuq olgan edi. Amir Temurning o‘zi ham ko‘p o‘tmay shamollab qoladi. 1405 -yil yanvar oyining o‘rtalarida O‘trorga to‘xtashga qaror qilishadi va bu erda 18 fevral kuni buyuk jahongir Sohibqiron Amir Temur vafot etadi.

Amir Temur 35 -yil davomida harbiy yurishlar olib boradi. Ushbu yurishlar natijasida ulkan sultanat barpo etildiki, uning tarkibiga Movarounnahr va uning atrofidagi viloyatlar, Xorazm, Kaspiy atrofidagi viloyatlar, hozirgi Afg‘oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, Iroq, Janubiy Rossiya, Kavkaz va G‘arbiy Osiyoning bir qator davlatlari kirgan. Amir Temurning ulkan davlat barpo etishdagi faoliyati uning maqsad va rejalariga ko‘ra ikki bosqichga bo‘linadi. Birinchi bosqich 1360-1386 -yillarni o‘z ichiga olib, bu davrda Sohibqiron Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlat barpo etishga erishadi. Ikkinci bosvich 1387-1404 -yillarni o‘z ichiga olib, bu davrda Amir Temur mamlakat qudratini mustahkamlash payida bo‘ldi.

Amir Temur o‘z sultanatini barpo etishda o‘ziga qadar mavjud bo‘lgan siyosiy boshqaruv tajribalaridan keng foydalanadi. Uning davlati o‘z tarkibiy tuzilishiga ko‘ra ko‘pincha harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan edi. Qudratli hukmdor davlatchilik va boshqaruv tarixini yaxshi bilganidan bo‘lsa kerak, qadimgi va o‘rta asrlar SHarqdagi turli davlatlar va ularning siyosiy hamda ma’muriy idora usuli, boshqaruv tizimlari haqida keng tasavvurga ega edi. Sohibqironning davlat boshqaruv tizimi qo‘l ostidagi butun hududda yagona markazlashgan siyosiy tartib asosida qurilgan bo‘lsa-da, bu sohada olib borilgan siyosat o‘rta asrlar O‘rta Osiyo davlatlarida keng qo‘llanilgan idora usullari tajribasi bilan boyitilgan edi.

### **3. Amir Temur davrida davlat boshqaruvi.**

Ko‘plab yozma manbalarning ma’lumot berishicha, o‘z davrining yirik harbiy va davlat boshlig‘i bo‘lgan Amir Temur siyosiy, huquqiy asoslarga ega bo‘lgan ulkan davlat barpo etgan edi. O‘zbekiston davlatchiligi tarixining o‘rta asrlar davrida Sohibqiron Amir Temur avvalo, adolatli va qonunchilikka tayangan davlatchilik asoslarini barpo etish bilan birga davlat yaxlitligi va kuch-qudratini mustahkamlashning asosiy omili bo‘lgan kuchli mudofaa tizimi yaratdi hamda temuriylarga meros qilib qoldirdi. Amir Temur o‘z sultanatining boshqaruv tizimini yaratishda o‘sha davrning yirik va ko‘zga ko‘ringan harbiylari, amirlar va beklar, fozillar, olimu-ulamolar, o‘z pirlarining o‘gitlari hamda maslahatlariga tayangan edi. Misol uchun, “Tuzuklar”da keltirilishicha Amir Temurga piri Abu Bakr Zayniddin Toyobodiy shunday o‘git beradi: “Agar har narsani va har kimni o‘z martabasida saqlay olmasang, saltanatingga bundan ko‘p xalal va ziyon etgay. Demak, har kimning qadr-qiyamatini, tutgan mavqeini va har narsaning o‘lchovini belgilab olishing va shunga muvoffiq ish tutishing kerak.”

SHuningdek, “Tuzuklar”da yana shunday ma’lumot beriladi: “O‘zga mamlakatlarni zabit etish, ularni idora qilish, g‘anim lashkarni sindirish, dushmani tuzoqqa tushirish, muxoliflarni ko‘nglini topib do‘stga aylantirish, do‘st-dushman orasidagi muomala, murosayu-madora qilish xususida ushbu tadbir va kengashlarni qo‘lladim. Pirim Abu Bakr Toyobodiy menga yozmishlarkim: Abdulmansur (zafarmand) Temur sultanat yumushlarida to‘rt ishni qo‘llasin, ya’ni, 1) kengash; 2) mashvaratu maslahat; 3) hushyorligu mulohazakorlik; 4) ehtiyyotkorlik. CHunki

kengash va mashvaratsiz sultanatni barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari xato bo‘lgan johil odama qiyoslash mumkin: uning so‘zлари po‘shaymonlik va nadomat keltirgay. SHunday ekan, sultanatni boshqarishda mashvaratu maslahat va tadbir bilan ish yuritgin, toki oqibatda nadomat chekib, po‘shaymon bo‘lmagaysan.”

Amir Temur va temuriylar davrida fuqarolarda davlat tomonidan o‘rnatalgan qonunlarni hurmat qilish, ularga ma’suliyatli yondashish tushunchalari shakllangan. Bu esa davlat tomonidan ilgari surilgan maqsad va g‘oyalarni amalga oshirishdagi kafolatlardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Air Temur davlati markazlashgan davlat bo‘lib, butun hokimiyat davlat boshlig‘ining ixtiyorida bo‘lgan. Tadqiqotchilarning fikricha, Amir Temur davlatining boshqaruv asoslari shakllanishi rivojida **kengashlar** muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Vaqtı-vaqtı bilan muhim ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy va siyosiy masalalarni hal qilishda katta va kichik kengashlar chaqirilib turilgan. **Katta kengashlar** tinchlik vaqtlarida Samarqanddagi hukmdor saroyida chaqirilgan. Unda oliy hukmdorning qarindosh urug‘lari, yuqori martaba va mavqega ega bo‘lgan ruhoniylar tabaqasining vakillari, bosh amirlar, beklarbegi, ulus, tuman hokimlari, mingboshilar, yuzboshilar, o‘nboshilar, bahodir unvoniga ega bo‘lgan harbiylar kabilar ishtirok etganlar. Ushbu kengashda mamlakat hayoti bilan bog‘liq masalalar muhokama qilingan. **Kichik kengashda** Amir Temur, uning o‘g‘illari, qarindoshlari, qo‘sish boshliqlari ishtirok etganlar. Unda uzoq mamlakatlarga harbiy yurishlar bilan bog‘liq masalalar hal qilingan.

Amir Temur davrida markazda hamda tobe hududlarda xon boshchiligidagi mukammal va puxta davlat boshqaruv apparati shakllangan. “Tuzuklar”da mukammal davlat boshqaruvini tashkil etish quyidagicha ifodalanadi:

- davlat daxlsizligini va mustahkamligini har tomonlama muhokama qilish;
- oliy hukmdor hokimiyatining cheklanmaganligi hamda mustaqil siyosat yurgizishi;
- vazirlarga yuklatilgan majburiyatlar va ular bajarishi lozim bo‘lgan vazifalar;
- markazga tobe bo‘lgan mulk(ulus)lar amirlari hamda tuman hokimlarining vazifalari;
- oliy davlat kengashi;
- davlat xavfsizligi va mustahkamligi, joylardagi jamoat tartibi hamda mamlakat tinchligi, osoyishtaligini saqlash;
- muntazam qo‘sish tashkil etib, qo‘sish qo‘mondonlarini tayinlash, lavozimlarga ko‘tarish, rag‘batlantirish va ularga maosh to‘lash;
- aholidan olinadigan turli soliqlar(zakot, xiroj va boshq.) miqdorini aniqlash;
- harbiy yurishlarda jasorat namunalarini ko‘rsatganlarni(noiblar, amirlar , sipohiylar va boshq.) rag‘batlantirish;
- Harbiy yurishlar va janglar paytida qo‘shtining joylashuvi va ularni ajratib turuvchi belgilar.

SHuningdek, “Tuzuklar”da Amir Temurning boshqaruv faoliyatini kuchli nazorat qilish, odamlardan unumli foydalanish, ularni o‘z atrofiga to‘plash va birlashtirish, katta-kichik tadbirlarni tashkil qilish borasida tutgan yo‘li haqidagi ma’lumotlar ham saqlangan. Bu borada manbalarda Sohibqiron tilidan shunday deyiladi: “Sultanat ishlarining to‘qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan

bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini angladim. (Donishmandlar) demishlarkim, o‘z o‘rnida qo‘llangan tadbir bilan ko‘plab lashkarning qilichi ojizlik qilgan har qanday mamlakat darvozasini ochib, favj-favj lashkarni engib bo‘lur. Tajribamda ko‘rilgankim, azmi-qat’iy, tadbirkor va hushyor, jang ko‘rgan, mard, shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir. CHunki tajribali kishi minglab odamga ish buyuradi... YAna mening tajribamdan o‘tmishkim, garchi ishning qanday yakunlanishi taqdir pardasi ortida yashirin bo‘lsa ham, aqli raso va xushyor kishi mulohazakorlik, tadbir va kengashga tayanishi lozim. SHuning uchun Payg‘ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vasallam aytganlaridek, har bir ishni qilishga kirishar ekanlar, avval obdon o‘ylab, (amirlarim bilan) kelishdim. Maslahatchilar va kengash ahli yig‘ilganda oldimizdagи ishlarni yahshi-yomoni, foydayu-ziyon tomonlari, ularni qilish qilmaslikdan so‘z ochib, ulardan fikr surar edim. Ularning so‘zlarini eshitgach, shuning har ikki tomonini mulohaza qilib, foyda-ziyonlarini ko‘ngilga keltirardim. Uning xatarli tomonlariga ko‘proq e’tibor berar edim. Qaysi bir ishda ikki bir xatar mavjud bo‘lsa, uni bajarishdan voz kechardim va bir xatarlik ishni ixtiyor etardim... Ishlarning barini kengash bilan yuritib, uni bitirishda to‘g‘ri tadbir qo‘llar edim. Bir ishga kirishmay turib, undan qutulib chiqish yo‘llarini mo‘ljallab qo‘yar edim. Uni to‘g‘ri tadbir, qat’iy jazm, chinlik-chidamlik ko‘rsatib, ehtiyotkorlik bilan uzoqni ko‘rib, ortini o‘ylagan holda oxiriga etkazardim.”

Zamonaviy adabiyotlarda keltirilishicha, Amir Temur o‘ziga qadar mavjud bo‘lgan davlatchilikning quyidagi sakkizta asosiga amal qildi:

- davlat o‘z vazifasini bajarmog‘i uchun, eng avvalo, siyosiy jihatdan mustaqil bo‘lishi;
- davlat va jamiyatning yaxlitligi buzilmasligi;
- davlat va jamiyat muayyan bir qonunlar, trtiblar va mafkura asosida boshqarilmog‘i;
- boshqaruvning turli tabaqalari, yo‘nalishlari, sohalarini muvofiqlashtirib turuvchi ma’lum bir tizim shakllangan bo‘lishi;
- jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining ahvoli davlat e’tiborida bo‘lishi;
- fan va madaniyatning ravnaqi to‘g‘risida doimiy qayg‘urishiga davlat ahamiyatiga molik qat’iy siyosat sifatida qarash;
- har bir davr shart-sharoiti, tartiblariga ko‘ra, davlat jamiyat ichki taraqqiyoti masalalarini tashqi dunyodagi mavjud omillardan foydalangan holda olib borishi;
- davlat tepasidagi kuchlar o‘tmish, zamona va kelajakni teran tafakkur, mustahkam iymon, g‘oyat yuksak ma’naviyat va millatparavchilik ila anglamog‘i.

Ta’kidlanishicha, (A. Ziyo) Amir Temurning o‘zbek davlatchiligi taraqqiyoti tarixida tutgan buyuk o‘rni shundaki, u o‘zining butun faoliyati mobaynida ana shu asoslarni ro‘yobga chiqara oldi. YA’ni, Temur bir yuz ellik -yil qaramlikdan so‘ng davlat siyosiy mustaqilligini tikladi; o‘z davrida mavjud sharoit, to‘ro-tuzuklar asosida jamiyat hayotini boshqarishni yo‘lga qo‘ydi; markazlashgan davlat tizimini yaratdiki, o‘z zamonasi uchun bu dunyo miqyosidagi taraqqiyiparvarlar voqeа hisoblangan edi; iqtisodiy munosabatlar (dehqonchilik, hunarmandchilik, savdosotiqlar) rivoji uchun barcha ichki va tashqi sharoitlarni barpo etishga qattiq kirishdi;

ijtimoiy munosabatlarni (soliq tizimi, mulkchilik, turli ijtimoiy tabaqalar manfaatlarini nazarga olish va hok.) muhim deb bildi; hukmronligining dastlabki kunlaridan to umrining oxirigacha fan va madaniyat ravnaqiga alohida diqqat bilan qaradi; o‘z davri shart-sharoitiga ko‘ra, tashqi siyosatida qat’iy va faol hamda maqsadga muvofiq ravishda harakat qilib, davlatni sultanat mavqeiga olib chiqdi; o‘lkani dunyoning eng buyuk va siyosiy, iqtisodiy, madaniy markaziga aylantirdi.

SHu bilan birga Amir Temur yuqoridagi sakkizta asosni yana bir to‘qqizinchilasos bilan boyitdi. U ham bo‘lsa, jamiyat rivojida barcha ijtimoiy tabaqalar faoliyatini nazarda tutish va manfaatlarini ta’minlashdan iboratdir. Amir Temur bo‘yicha bunday tabaqalar o‘n ikkita bo‘lib, ularda jamiyatning barcha tarkibiy qismlari o‘rin olgan. Bu tabaqalar quyidagilar edi:

- 1.Sayyidlar, olimlar va shayxlar.
- 2.Katta tajribaga ega ilmli kishilar.
- 3.Duo qiluvchi taqvodorlar.
- 4.Lashkarning sipohlari, sarhang va amirlar.
- 5.Askar va xalq ommasi.
- 6.Davlat boshqaruv ishlarini ipidan ignasigacha biladigan maslahatgo‘y, dono va aqlli kishilar.
- 7.Vazirlar, kotiblar, devon boshlig‘i.
- 8.Tibbiyot ahli, munajjim va muhandislar.
- 9.Muhaddislar va muarrixlar.
- 10.Tasavvuf vakillari va oriflar.
- 11.Hunarmandlar va san’atkorlar.
- 12.Ajnabiyy sayyohlar va savdogarlar.

YUqoridagi ijtimoiy qatlamlar Amir Temur davri davlatchiliginin ma’muriyboshqaruv tizimidagi tartiblrl bilan aloqador holda uning harbiy-siyosiy xususiyatge ega bo‘lganligidan ham dalolat beradi.

Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligi masalalari bo‘yicha so‘nggi - yillardagi tadqiqotlar (SH. O‘ljaeva) natijalariga ko‘ra, bu davr davlat boshqaruv asoslari zamonlar sinovidan hamda, amaliyotda tajribadan o‘tgan eng afzal boshqaruv asoslarini o‘zida aks ettirgan bo‘lib, u keyinchalik ko‘plab davlatlar boshqaruvida asos sifatida tanlangan. Amir Temur va temuriylar davlat boshqaruv asoslari jamiyat va davlatni kuchli taraqqiyotga olib kelgan omillardan sanalgan. SHuningdek, bu asoslar xalqaro, siyosiy-diplomatik va savdo-iqtisodiy aloqalarning kuchayishiga xizmat qilgan. Bu davrdagi xalqaro munosabatlari va markazlashuv qoidalari muvofiqlashtirilganligi davlat boshqaruv asoslarini mustahkamlashga xizmat qilgan omillardan biri edi.

### **Adabiyotlar**

- Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997.
- Каримов И.А. Тарихийхотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998
- Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Т.: Шарқ, 2000.
- Сагдуллаев ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т., 2000.
- Сагдуллаев А.С., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. -Т., 2006.
- Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати. -Т.: 1994.

## **14. Mavzu: Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji**

**Reja:**

- 1. Amir Temur davlatining boshqaruв asoslari**
- 2. Amir Temur va Temuriylar davri davlatchiligidа ichki va tashqi siyosat.**
- 3. Amir Temur va temuriylar davri shahar madaniyatи.**

### **1. Amir Temur davlatining boshqaruв asoslari.**

Ko‘plab yozma manbalarning ma’lumot berishicha, o‘z davrining yirik harbiy va davlat boshlig‘i bo‘lgan Amir Temur siyosiy, huquqiy asoslarga ega bo‘lgan ulkan davlat barpo etgan edi. O‘zbekiston davlatchiligi tarixining o‘rta asrlar davrida Sohibqiron Amir Temur avvalo, adolatli va qonunchilikka tayangan davlatchilik asoslarini barpo etish bilan birga davlat yaxlitligi va kuch-qudratini mustahkamlashning asosiy omili bo‘lgan kuchli mudofaa tizimi yaratdi hamda temuriylarga meros qilib qoldirdi. Amir Temur o‘z sultanatining boshqaruв tizimini yaratishda o‘sha davrning yirik va ko‘zga ko‘ringan harbiylari, amirlar va beklar, fozillar, olimu-ulamolar, o‘z pirlarining o‘gitlari hamda maslahatlariga tayangan edi. Misol uchun, “Tuzuklar”da keltirilishicha Amir Temurga piri Abu Bakr Zayniddin Toyobodiy shunday o‘git beradi: “Agar har narsani va har kimni o‘z martabasida saqlay olmasang, saltanatingga bundan ko‘p xalal va ziyon etgay. Demak, har kimning qadr-qiyamatini, tutgan mavqeini va har narsaning o‘lchovini belgilab olishing va shunga muvoffiq ish tutishing kerak.”

SHuningdek, “Tuzuklar”da yana shunday ma’lumot beriladi: “O‘zga mamlakatlarni zabit etish, ularni idora qilish, g‘anim lashkarni sindirish, dushmani tuzoqqa tushirish, muxoliflarni ko‘nglini topib do‘stga aylantirish, do‘st-dushman orasidagi muomala, murosayu-madora qilish xususida ushbu tadbir va kengashlarni qo‘lladim. Pirim Abu Bakr Toyobodiy menga yozmishlarkim: Abdulmansur (zafarmand) Temur sultanat yumushlarida to‘rt ishni qo‘llasin, ya’ni, 1) kengash; 2) mashvaratu maslahat; 3) hushyorligu mulohazakorlik; 4) ehtiyyotkorlik. CHunki kengash va mashvaratsiz sultanatni barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari xato bo‘lgan johil odama qiyoslash mumkin: uning so‘zлари po‘shaymonlik va nadomat keltirgay. SHunday ekan, sultanatni boshqarishda mashvaratu maslahat va tadbir bilan ish yuritgin, toki oqibatda nadomat chekib, po‘shaymon bo‘lmagaysan.”

Amir Temur va temuriylar davrida fuqarolarda davlat tomonidan o‘rnatalgan qonunlarni hurmat qilish, ularga ma’suliyatli yondashish tushunchalari shakllangan. Bu esa davlat tomonidan ilgari surilgan maqsad va g‘oyalarni amalga oshirishdagi kafolatlardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Amir Temur davlati markazlashgan davlat bo‘lib, butun hokimiyat davlat boshlig‘ining ixtiyorida bo‘lgan. Tadqiqotchilarning fikricha, Amir Temur davlatining boshqaruв asoslari shakllanishi rivojida **kengashlar** muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Vaqtı-vaqtı bilan muhim ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy va siyosiy masalalarni hal qilishda katta va kichik kengashlar chaqirilib turilgan. **Katta kengashlar** tinchlik vaqtlarida Samarqanddagи hukmdor saroyida chaqirilgan. Unda oliy hukmdorning qarindosh urug‘lari, yuqori martaba va mavqega ega

bo‘lgan ruhoniylar tabaqasining vakillari, bosh amirlar, beklarbegi, ulus, tuman hokimlari, mingboshilar, yuzboshilar, o‘nboshilar, bahodir unvoniga ega bo‘lgan harbiylar kabilar ishtirok etganlar. Ushbu kengashda mamlakat hayoti bilan bog‘liq masalalar muhokama qilingan. **Kichik kengashda** Amir Temur, uning o‘g‘illari, qarindoshlari, qo‘shin boshliqlari ishtirok etganlar. Unda uzoq mamlakatlarga harbiy yurishlar bilan bog‘liq masalalar hal qilingan.

Amir Temur davrida markazda hamda tobe hududlarda xon boshchiligidagi mukammal va puxta davlat boshqaruv apparati shakllangan. “Tuzuklar”da mukammal davlat boshqaruvini tashkil etish quydagicha ifodalanadi:

- davlat daxlsizligini va mustahkamligini har tomonlama muhokama qilish;
- oliy hukmdor hokimiyatining cheklanmaganligi hamda mustaqil siyosat yurgizishi;
- vazirlarga yuklatilgan majburiyatlar va ular bajarishi lozim bo‘lgan vazifalar;
- markazga tobe bo‘lgan mulk(ulus)lar amirlari hamda tuman hokimlarining vazifalari;
- oliy davlat kengashi;
- davlat xavfsizligi va mustahkamligi, joylardagi jamoat tartibi hamda mamlakat tinchligi, osoyishtaligini saqlash;
- muntazam qo‘shin tashkil etib, qo‘shin qo‘mondonlarini tayinlash, lavozimlarga ko‘tarish, rag‘batlantirish va ularga maosh to‘lash;
- aholidan olinadigan turli soliqlar(zakot, xiroj va boshq.) miqdorini aniqlash;
- harbiy yurishlarda jasorat namunalarini ko‘rsatganlarni(noiblar, amirlar , sipohiylar va boshq.) rag‘batlantirish;
- Harbiy yurishlar va janglar paytida qo‘shning joylashuvi va ularni ajratib turuvchi belgilar.

Shuningdek, “Tuzuklar”da Amir Temurning boshqaruv faoliyatini kuchli nazorat qilish, odamlardan unumli foydalanish, ularni o‘z atrofiga to‘plash va birlashtirish, katta-kichik tadbirlarni tashkil qilish borasida tutgan yo‘li haqidagi ma’lumotlar ham saqlangan. Bu borada manbalarda Sohibqiron tilidan shunday deyiladi: “Saltanat ishlarining to‘qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini angladim. (Donishmandlar) demishlarkim, o‘z o‘rnida qo‘llangan tadbir bilan ko‘plab lashkarning qilichi ojizlik qilgan har qanday mamlakat darvozasini ochib, favj-favj lashkarni engib bo‘lur. Tajribamda ko‘rilgankim, azmi-qat’iy, tadbirkor va hushyor, jang ko‘rgan, mard, shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir. CHunki tajribali kishi minglab odamga ish buyuradi... Yana mening tajribamdan o‘tmishkim, garchi ishning qanday yakunlanishi taqdir pardasi ortida yashirin bo‘lsa ham, aqli raso va xushyor kishi mulohazakorlik, tadbir va kengashga tayanishi lozim. SHuning uchun Payg‘ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vasallam aytganlaridek, har bir ishni qilishga kirishar ekanlar, avval obdon o‘ylab, (amirlarim bilan) kelishdim. Maslahatchilar va kengash ahli yig‘ilganda oldimizdagagi ishlarni yahshi-yomoni, foydayu-ziyon tomonlari, ularni qilish qilmaslikdan so‘z ochib, ulardan fikr surar edim. Ularning so‘zlarini eshitgach, shuning har ikki tomonini mulohaza qilib, foyda-ziyonlarini ko‘ngilga keltirardim. Uning xatarli tomonlariga ko‘proq e’tibor berar edim. Qaysi bir ishda ikki bir xatar

mavjud bo'lsa, uni bajarishdan voz kechardim va bir xatarlik ishni ixtiyor etardim... Ishlarning barini kengash bilan yuritib, uni bitirishda to'g'ri tadbir qo'llar edim. Bir ishga kirishmay turib, undan qutulib chiqish yo'llarini mo'ljallab qo'yar edim. Uni to'g'ri tadbir, qat'iy jazm, chinlik-chidamlik ko'rsatib, ehtiyotkorlik bilan uzoqni ko'rib, ortini o'ylagan holda oxiriga etkazardim."

Zamonaviy adabiyotlarda keltirilishicha, Amir Temur o'ziga qadar mavjud bo'lgan davlatchilikning quyidagi sakkizta asosiga amal qildi:

- davlat o'z vazifasini bajarmog'i uchun, eng avvalo, siyosiy jihatdan mustaqil bo'lishi;

- davlat va jamiyatning yaxlitligi buzilmasligi;

- davlat va jamiyat muayyan bir qonunlar, trtiblar va mafkura asosida boshqarilmog'i;

- boshqaruvning turli tabaqalari, yo'nalishlari, sohalarini muvofiqlashtirib turuvchi ma'lum bir tizim shakllangan bo'lishi;

- jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlарining ahvoli davlat e'tiborida bo'lishi;

- fan va madaniyatning ravnaqi to'g'risida doimiy qayg'urishiga davlat ahamiyatiga molik qat'iy siyosat sifatida qarash;

- har bir davr shart-sharoiti, tartiblariga ko'ra, davlat jamiyat ichki taraqqiyoti masalalarini tashqi dunyodagi mavjud omillardan foydalangan holda olib borishi;

- davlat tepasidagi kuchlar o'tmish, zamona va kelajakni teran tafakkur, mustahkam iymon, g'oyat yuksak ma'naviyat va millatparavchilik ila anglamog'i.

Ta'kidlanishicha, (A. Zoyo) Amir Temurning o'zbek davlatchiligi taraqqiyoti tarixida tutgan buyuk o'rni shundaki, u o'zining butun faoliyati mobaynida ana shu asoslarni ro'yobga chiqara oldi. YA'ni, Temur bir yuz ellik -yil qaramlikdan so'ng davlat siyosiy mustaqilligini tikladi; o'z davrida mavjud sharoit, to'ro-tuzuklar asosida jamiyat hayotini boshqarishni yo'lga qo'ydi; markazlashgan davlat tizimini yaratdiki, o'z zamonasi uchun bu dunyo miqyosidagi taraqqiyiparvarlar voqeа hisoblangan edi; iqtisodiy munosabatlар (dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq) rivoji uchun barcha ichki va tashqi sharoitlarni barpo etishga qattiq kirishdi; ijtimoiy munosabatlarni (soliq tizimi, mulkchilik, turli ijtimoiy tabaqalar manfaatlarini nazarga olish va hok.) muhim deb bildi; hukmronligining dastlabki kunlaridan to umrining oxirigacha fan va madaniyat ravnaqiga alohida diqqat bilan qaradi; o'z davri shart-sharoitiga ko'ra, tashqi siyosatida qat'iy va faol hamda maqsadga muvofiq ravishda harakat qilib, davlatni sultanat mavqeiga olib chiqdi; o'lkani dunyoning eng buyuk va siyosiy, iqtisodiy, madaniy markaziga aylantirdi.

**2. Amir Temur va Temuriylar davri davlatchiligidagi ichki va tashqi siyosat.** Amir Temurning kuchli markazlashgan davlat barpo etishi natijasida Movarounnahrda o'zaro urush va nizolarga barham berilib, uning barcha hududlarida tinchlik va osoyishtalik o'rnatildi. Fan, madaniyat, hunarmandchilik, dehqonchilik, savdo-sotiqning rivojlanishiga imkon yaratildi. Amir Temur vafot etgach bu an'analar buzilgan bo'lsa-da, SHohruh va Ulug'bek Sohibqiron davridagi tartib-qoidalani tiklash borasida say'i-harakatlar olib bordilar.

Bizga manbalardan ma'lumki, Amir Temur hokimi mutlaq bo'lib, uning farmolari so'zsiz ijro etilgan. Ammo, o'rta asrlar davlatchilik an'analariga ko'ra, nasl-nasabi xon avlodiga mansub bo'lmagan shaxs taxtni boshqara olmas edi. SHuning uchun ham, o'z davrida Amir Qozog'on tomonidan belgilangan an'anaga ko'ra, Amir Temur avval CHingizzon avlodidan bo'lган Suyurg'at mishni (1370-1388 yy.) keyin esa uning o'g'li Sulton Mahmudxonni (1388-1402yy.) o'z huzurida "**xon**" qilib ko'taradi. Ularning nomidan yorliqlar chiqarilib, tanga pullar zarb qilingan bo'lsa-da, Sohibqiron ularni davlat ishlariga umuman aralashtirmagan. Sohibqiron "**amir**" unvonida bo'lib, 1370yilda Qozonxonning qizi Saroymulkxonimga uylanganidan so'ng "**Qo'ragon**" ("**Xon kuyovi**") unvonini oladi. Bu holat, ya'ni, xon avlodiga kuyov, qarindosh bo'lishi ham uning siyosiy mavqeini rasman bo'lsa ham mustahkamlashga xizmat qilgan.

Amir Temur o'zi barpo etgan ulkan sultanatni o'g'illari, nabiralari va nufuzli amirlariga suyurg'ol tarzida in'om qilib, ular orqali boshqardi. Movarounnahrni esa poytaxt Samarqand bilan o'zida qoldirdi. Suyurg'ol tariqasida berilgan uluslar markaziy hukumatga itoat etsalarda, ammo ular ma'lum mustaqillikka ega edilar. Ulus hukmdorlarining alohida devonxonasi bo'lib, ularning markaziy hukumatga tobelligi xirojning bir qismini Samarqandga jo'natish va oliy hukmdorning harbiy yurishlarida o'z qo'shini bilan qatnashish yoki talab qilingan askarni yuborib turishdan iborat edi.

Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligidagi markazda va joylarda xon boshchiligidagi mukammal va puxta davlat boshqaruv apparati, boshqaruvdagi ikki muhim, hamda asosiy idora- **dargoh** va **devonlar** (**vazirlıklar**) mavud edi.

**Dargoh**- eng oliy davlat idorasini bo'lib, oliy hukmdor Amir Temur, yuqorida eslatganimizdek, Suyurg'at mishni "xon" deb e'lon qilgan bo'lsa-da, hokimiyat batamom Sohibqiron ihtiyyorida bo'lgan. "Soxta xon" e'lon qilinishi holati o'sha davr vaziyati va voqeysligidan kelib chiqib, Amir Temur hokimiyatini mustahkamlash yo'lida amalga oshirilgan edi. "Tuzuklar"da keltirilishicha, dargohda vaqtiga bilan xos majlislar o'tkazilib turilgan. Bunday majlislarda davlat va mamlakat idorasini, sodir bo'layotgan o'zgarishlarga munosabat, mansab va vazifalarga tayinlash masalasi ko'rib chiqilgan. Bunday tadbirlarni tor doirada o'tkazilishiga sabab, davlat ahamiyatiga molik masalalarni chetga ayon bo'lishidan saqlanish edi.

Dargoh faoliyatini boshqarish, uning devonlar va joylardagi mahalliy hokimiyat idoralari bilan bog'lanib turish ishlari **Oliy devon** zimmasida bo'lgan. Dargoh tizimidagi bu devonga **devonbegi** boshchilik qilgan. O'sha davrda oliy devonning ahamiyati va mavqeい shu qadar baland bo'lganki, ayrim manbalar (Ali YAzdiy) uni dargoh bilan bir ma'noda ta'riflagan.

**Dargoh** faoliyatini boshqaruvida quyidagi mansab va vazifalar mavjud edi.:

- **arzbegi** – dargohdagi muhim vazifalardan biri bo'lib, uning xizmati dargohga arz-dod, shikoyat bilan kelganlarni hamda mamlakatda sodir bo'layotgan voqealarga o'z munosabatlarini bildiruvchilarni qabul qilishni uyuştirib turish edi. Undan tashqari, tushgan arzlar, shikoyatlar va takliflarni oliy hukmdorga etkazib turish ham arzbegining vazifasi bo'lgan;

- **adolat amiri** – bu mansabdagi shaxs turli o‘lka, viloyat va shaharlarda “sipoh va raiyyat orasida urf-odatlarga oid janjalli ishlar haqida” oliv hukmdorga hisobot va ma’lumot etkazib turgan. Tadqiqotchilarining xulosalariga ko‘ra, joylardagi ahvoldan boxabar bo‘lib turishning ikki yo‘lidan foydalanilgan: biri pastdan yuqoriga, ya’ni, arzchilar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri dargohga murojaat qilish imkoniga ega bo‘lganlar, ikkinchisi esa, maxsus xizmat orqali joylardagi vaziyat davlat tomonidan, aniqrog‘i, oliv hukmdor dargohi orqali tekshirib borilgan. Mavjud holatlar aniqlanib, shunga yarasha chora-tadbirlar ko‘rilgan;

- **aminlar** – tushgan ma’lumotlarni joylarga topshirib,adolatsizlik, tartibsizlik, davlat va jamiyat manfaatiga zid ishlar haqida yozma ma’lumot berib turadigan maxsus ishonchli vakillar hisoblanib, ularning vazifasiga bundan tashqari tobe erlar to‘lovlaringin yig‘ib kelish ham kirgan;

- **tavochi** – muhim lavozimlardan biri bo‘lib, oliv farmonga ko‘ra, joylarga borib harbiy yurish uchun lashkar to‘plash bilan shug‘illangan. Tavochilar avval boshdan belgilangan lashkar sonining taxt bo‘lishi, tayyorgarlik darajasi, ta’mnoti ko‘ngildagidek talabga javob berishi, ko‘rsatilgan joyga muayyan yo‘l bilan o‘z vaqtida etib borishi kabi g‘oyatda ma’suliyatni tadbirlarga javobgar bo‘lganlar. Ularning boshlig‘i **bosh tavochi** deb atalib, ular tumanot (o‘n minglik), hazorajot (minglik), sadajot (yuzlik), etakchilaridan, viloyat hokimlaridan qo‘shinni o‘z vaqtida, belgilangan son va sifat, ta’milanganlikda etkazish berish to‘g‘risida tilxat olganlar.

Shuningdek dargohda **bosh hojib, hojiblar** (rasmiy tadbirlar boshqaruvchisi va tashkilotchilari), **xazinador, xonsolar** (dasturxon tuzatishga bosh-qosh bo‘luvchi), **jibachi** (qurol-aslaha saqlovchi), **qushchi** (podshohona ovlar uyushtirilganda maxsus o‘rgatilgan ov qushlarini olib yuruvchi va parvarish qiluvchi) va mana shu xizmatni boshqaruvchi **qushbegi, bakovulboshi** (saroy oshpazlarining boshlig‘i), **kotiblar, bitikchilar, tabiblar, sozandalar, g‘azalxonlar, farroshlar** kabilalar mavjud bo‘lgan.

Mamlakatdagi ijroya tizimi markazdagи vazirliklar faoliyatida mujassamlashgan. Amir Temur somoniylar, qoraxoniylar, g‘aznaviylar, saljuqiylar, anushteginlar davrlaridagi ijroya hokimiyatining vazirliklar tizimini o‘z davriga moslab, yangi asoslarda qaytadan yo‘lga qo‘ydi. Davlat boshqaruvida quyidagi vazirliklar mavjud edi:

1. **Mamlakat va raiyyat vaziri** – bosh vazir hisoblanib u mamlakatning muhim ishlari, kundalik muammolar, xalq ahvoli, viloyatlarda olinadigan hosil, soliqlar va ularni taqsimlash, kirim-chiqimlar, obodonchilik ishlari, aholi farovonligi, xazinaning ahvoli kabilarga mas’ul bo‘lgan hamda mazkur masalalar bo‘yicha hukmdorga tegishli ma’lumot va hisoblar berib turgan.

2. **Harbiy ishlar vaziri** – harbiylarning maoshi, alohida xizmatlari uchun ularga tuhfa qilingan er-suвлar boshqaruvi, qurol-aslaha ta’moti, harbiy ko‘riklarni tayyorlash, janglarda yarador bo‘lib xizmatga yaroqsiz bo‘lganlarga nafaqa tayinlash, iste’foga iqqan harbiylar to‘g‘risida qayg‘urish kabi masalalar bilan mashg‘ul bo‘lgan

3. **Mulkchilik va soliq ishlari vaziri** – turli sabablarga ko‘ra egasiz va qarovsiz qolgan mol-mulklarni nazoratga olish va qo‘riqlash, savdogarlardan zakot

va boj undirib olish, mamlakat chorvalari, o‘tloq-yaylovlarni boshqarish, er solig‘i, chorva solig‘i, zakotlarni o‘z vaqtida yig‘ilishi va o‘z vaqtida davlat xazinasiga tushishini nazorat qilish, mulkchilikdagi merosxo‘rlik tartiblarini amalga oshirish kabi vazifalarni bajargan.

**4. Moliya vaziri** – butun sultanat idoralarinig kirim-chiqimlari, xazinadan sarf qilinayotgan barcha xarajatlar hisobini olib borish vazifasini bajargan.

**5. Davlat korxonalari vaziri** – uning ihtiyyorida bir qancha ustaxonalar bo‘lib, ular doimiy ravishda harbiylar uchun sovut, dubulg‘a, kamon, o‘q-yoylar tayyorlaganlar. SHuningdek, bu vazir bevosita Amir Temurning buyrug‘i bilan yirik inshootlar (saroylar, machitlar, madrasalar, timlar va boshq.) qurilishiga rahbarlik qilgan.

**6. Devonbegi (devon boshlig‘i)** – davlat mablag‘lari devonbegi ihtiyyorida bo‘lgan hamda u davlat xazinasidagi mablag‘larning vazirlar tomonidan to‘g‘ri va maqsadga muvofiq saqlanishini nazorat qilgan.

**7. Adliya vaziri (devoni mazolim)** – bu vazir to‘g‘ridan-to‘g‘ri fuqarolar va dunyoviy ishlar bilan shug‘illangan. Harbiy sud (lashkar qozisi) esa alohida ravishda faoliyat ko‘rsatgan. SHariat tartiblari bilan islom qozisi shug‘ullangan.

**8. Harbiy sud vaziri** – bu vazir alohida faoliyat ko‘rsatib, sipohiylar (harbiylar) ishlarini ko‘rib chiqib, muhokama qilgan.

**9. Vaqf ishlari vaziri** – bu vazirlikka sadr us-sudur (sadrlar boshlig‘i, sadrlar sadri) boshchilik qilgan bo‘lib, u vaqf mulklari bilan bog‘liq masalalarga mutasaddi bo‘lgan.

**10. Habar va aloqa vaziri** – bu vazir zimmasiga mamlakatning turli burchaklarida sodir bo‘layotgan voqealardan hukmdorni ogoh qilib turish, markazdan joylarga buyruq, farmon va ko‘rsatmalarni jo‘natish, markazga turli hujjat, hisobot kabilarni etkazishi, tashqi siyosiy-diplomatik munosabatlarni amalga oshirish hamda davlat yuklarini o‘z manzillariga etkazish yuklatilgan. Vazirlikning o‘zi **devoni rasoil, devoni insho** deb atalgan.

Mamlakatda ichki va tashqi favqulodda voqealardan voqif etib turuvchi ming nafar piyoda, ming nafar tuya mingan, ming nafar ot mingan choparlar bo‘lgan. Butun sultanat bo‘ylab bir kunlik yo‘l oralig‘ida yomxonalar tashkil etilgan bo‘lib, har bir yomda ellik boshdan ikki yuz boshgacha ot-ulov saqlangan. Tadqiqotlardan ma’lumki, Amir Temur va temuriylar davlatni ulus, viloyat va tumanlarga bo‘lib boshqarganlar. Temur davrida sultanat **to‘rt ulusga** bo‘linib, ularga o‘g‘il va nabiralarni hukmdor etib tayinlagan. Shuningdek, viloyat va tumanlarni ham asosan temuriy shahzodalar va harbiylar boshqarganlar. Ali YAzdiy ma’lumotlariga ko‘ra, Amir Temur janglarda, davlat ishlarida toblangan sadoqatli tadbirkor, oqil va bilimdon shaxslarni o‘g‘illari va nabiralari yoniga maslahatchi qilib tayinlagan hamda ularga yirik viloyat va hududlarni ishonib topshirgan. Amir Temur mahalliy hokimliklarni o‘ziga itoat etuvchi davlat maslahatchilarini orqali ham muvofiqlashtirib turgan hamda mahalliy va markaziy hokimiyat aloqadorligini shu mansab orqali ushlab turishga harakat qilgan.

Mansablarga asoslangan zamnaviy tadqiqotlarda Amir Temur va temuriylar davri mansab va unvanlari haqida ko‘plab ma’lumotlar mavjudki, ular quyidagilardir: amin, arzbegi, bakovul, bakovulboshi, bovarchi, baxshiyalar, bitikchi, vazir,

daftardor, devonbegi, dorug‘a, dodxoh, jarchi, juybon, zubit, ixtisobchi, zinbardor, inoq, ichkilar, iqto, yasag‘lik, ko‘kaldosh, kulu, kalontar, kutvol, ko‘ragon, mavkab, mahdi ulyo (mahdi oliya), majlisnavis, miroxo‘r, mirob, muxtasib, oqo (og‘o), otaliq, parvonachi, pos (posbon), sadr, sadri a’zam, sohibi devon, tavochi, tarxon, uyo‘g‘lon, farrosh, xazinador (xozin), xattot, chuhra, shayxulislom, chuhraboshi, shiqovul, shixna, shuqurchi, yurtchi, yasovul, qozilar, qo‘rboshi, qushchi (qushbegi), qorovul, qopuchi, hojiblar.<sup>4</sup>

Ushbu keltirilgan mansab va unvonlar Temur va temuriylar davrida mukammal ma’muriy tizim yaratilganini, bu tizim davlat ravnaqi va fuqarolarni himoya qilishga va ularning farovonligini ta’minlashga xizmat qilganini ko‘rsatadi

**Harbiy tizim va huquqiy munosabatlar.** Amir Temur manbalarda o‘z zamonasining mashhur sarkardasi va yirik lashkarboshi sifatida tilga olinadi. Uning harbiy iste’dodi hamda sarkardalik mahorati qo‘sincharning tuzilishida, harbiy strategiya hamda taktikalarda namoyon bo‘lgan.

Qo‘sinning yuragini va qo‘mondonlik o‘zagini barlos urug‘i vakillari tashkil etgan. O‘sha davr voqealarining shohidi bo‘lganlarning guvohlik berishicha, barloslar harbiy qo‘nimsizlikka nihoyatda chidamli, kamondan o‘q o‘zishga juda usta, o‘z hukmdorlariga sodiq va sabr-toqatli bo‘lganlar.

Sohibqiron qo‘sini o‘nlik birikmalar asosida tuzilgan bo‘lib, lashkar **tuman** (**o‘n minglik**), **hazora** (**minglik**), **xushun** (**yuzlik**) **va ayl** (**o‘nlik**) qismlarga bo‘lingan. O‘n minglik lashkarni boshqarish uchun **mirixazora**, yuzliklar uchun **xo‘shunboshi** o‘nliklar uchun esa **aylboshi** kabi harbiy mansablar joriy etilgan. Qo‘sindagi bo‘linma boshliqlari – amirlar Sohibqironga tobe bo‘lgan qirq aymoq (urug‘)dan o‘n ikkitasi: barlos, arg‘in, jaloyir, tulkichi, duldoy, mug‘ul, suldo‘z, to‘g‘oy, qipchoq, arlot, totor va taxxonlar orasidan saylab olingan.

XV asr muallifi Abdurazzoq Samarcandiyning ma'lumot berishicha, harbiy safarda har bir jangchi o‘zi bilan bir -yilga etadigan oziq-ovqat, kamoni bilan o‘ttiz o‘qli sadoq (o‘qdon), sovut, nayza va qalqon olgan. Har ikki suvoriyda bitta zahira chopqir ot, o‘rdagohdagi har bir o‘nlik qismida bittadan chodir, qozon, ketmon, o‘roq, bolta, bigiz, ikkita belkurak, yuzta igna, arqon, bitta oshlangan pishiq teri bo‘lishi shart edi. Harbiy safarbarlik paytida har bir viloyat oldindan belgilab qo‘yilgan asosiy (asl) hamda zahira (izofa) qismlarni to‘plab bergen. Viloyatlar toshotar (sangandoz), devor buzuvchi (manjaniq), o‘t otuvchi (ra‘dandoz va naftandoz) kabi moslamalarni ishlatishni biladigan jangchilarni tayyorlab bergen. Viloyatlardagi askariy qismlarni to‘plash hamda markazga yoki tayinlangan manzilga jo‘natish bilan tavochi lavozimidagi amaldor shug‘ullangan.

Qo‘sindagi har bir harbiy – hoh amir, hoh oddiy sipohiy bo‘lsin belgilangan nizomni qat’iy bajarishga majbur bo‘lib, jangda ayovsiz va dovyurak bo‘lishi, omonlik istagan dushmanga yumshoq muomala qilishi hamda adolatli bo‘lishi lozim hisoblangan.

Harbiy safarlar paytida har bir qo‘sish qismlarining eng oldida dovyurak va botir askarlardan tanlab olingan **xabarchi** (**xabargir**) deb yuritilgan ayg‘oqchikuzatuvchilar bo‘linmasi yurgan. Ularning orqasidan soqchilar bo‘linmasi –

<sup>4</sup> Ушбу мансаб ва унвонлар ҳакида тўлиқроқ маълумот олиш учун дарслик охиридаги атамалар лўғатига қаранг.

**yasovul** borgan. Undan keyin qo'shining avangard qismi **manglay** harakatda bo'lган. Manglaydan keyin qo'mondonning o'rdagohi, uning yon tomonlarida **izofa** (zahira) qismlar joylashgan. Qo'shining asosiy jangovar qismi – **markaz** hamda **o'ng qanot (barong'or)** va **chap qanot (javong'or)**lardan iborat bo'lган. Har bir qanotning oldida qo'riqchi manglay – avangard, yon tomonlarida ham qo'riqchi askariy bo'linmalar - **kanbullar** joylashtirilgan. SHu zaylda qo'shin etti qism - **qo'llardan** iborat bo'lib, ulardan uchtasi – markaz, barang'or va javong'orlar mustaqil; to'rttasi – ikki manglay va ikki kanbullar tobe qismlar bo'lган.

Sohibqiron birinchi marta jang usulida qo'shinni etti qismga bo'lishni joriy etgan edi. SHarofiddin Ali YAzdiy bu haqda shunday ma'lumot beradi: "... hazrat cherik (qo'shin)ni etti qo'l tartib ettikim, hech podshoh andoq qilmaydur erdi va eshitmaydur erdi. Va bu etti adadida xosiyat ko'b turur va ko'b sir yanda bor erdi..."

Amir Temur davlatida maxsus tayyorgarlikdan o'tgan minglab kishilar mamlakatning bosh ma'muriy binosini, o'rduni chegaralarni, davlatni qo'riqlaganlar. Favqulodda holatlarda, mamlakat uchun katta xavf tug'ilganda armiyani safarbar etish, zudlik bilan qo'shin toplash qoidalari ham ishlab chiqilgan. SHuningdek, temuriylar davrida ham, ayniqsa, SHohruh Mirzo, Mirzo Ulug'bek, amirzoda Umar, Husayn Boyqaro davrlarida ham davlat himoyasi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ammo, hokimiyat uchun bo'lib turgan o'zaro kurashlar bu jarayonning zaiflashuviga olib kelgan edi.

Ta'kidlash lozimki, Sohibqironning qat'iy va mustahkam harbiy tizimni shakllantirishdan asosiy maqsadi, eng avvalo, mamlakatni ichki va tashqi dushmanlardan himoya qilish, tobe hududlardagi tartibsizliklarni oldini olish,adolat, tinchlik va barqarorlikni o'rnatish, mazlumlarni zolimlardan himoya etish, insonparvarlik va bag'rikenglik g'oyalariga amal qilish hamda keng tarqatish, qonun ustivorligiga erishish, mamlakatlarni taraqqiyot yo'liga solish, islom dini va baynalminal kelishuvchilikni ta'minlash, zo'ravon davlatlar va guruhlarning g'arazli maqsadlarini amalga oshirishga yo'l qo'ymaslik edi. Amir Temur harbiy yurishlaridan ko'zlagan maqsadi haqida "Tuzuklar"da shunday bayon qilinadi: "Biron mamlakatda jabr-zulm va fisqu-fasod ko'payib ketar ekan, asl podshohlaradolat o'rnatish, fisq-fasodni, zulmni yo'qotish niyatida ana shunday mamlakatga hujum boshlashi lozim."

SHuningdek, "Tuzuklar"da keltirilishicha, Amir Temur qo'shiniga asli toza, aql-farosatli, bahodir, dovyurak, tadbirkor, sergak, ehtiyyotkor, oldi va ketini o'ylab ish tutadigan, jang sir-asrorlarini biladigan uch yuz o'n uch amirlar rahbarlik qilib, ularning kichigi kattarog'iga bo'ysungan. Bu amirlardan yuz nafari o'nboshi, yuz nafari yuzboshi va yuz nafari mingboshi bo'lgan. Jang paytida amir ul-umaro amirlarga, amirlar mingboshilarga, mingboshilar yuzboshilarga, yuzboshilar o'nboshilarga boshchilik qilgan hamda buyruqlar so'zsiz bajarilgan.

"Tuzuklar"ga ko'ra, har bir harbiy mansabdorning aniq vazifasi belgilangan. Birorta oddiy navkar qilich chopib bahodirlik ko'rsatsa, unga in'om tariqasida qimmatbaho toshlar qadalgan o'tog'a, kamar, turna bellik qilich va bir ot berilgan hamda o'nboshilik martabasiga ko'tarilgan. Agar birorta amir biron mamlakatni

fath etsa, yoki g‘anim lashkarini engsa, u uch narsa: faholi xitob (faxriy yorliq), tug‘, nog‘ora bilan taqdirlangan.

Tadqiqotchilarning fikricha, Sohibqiron armiyasida muntazam qo‘singa xos bo‘lgan ko‘pgina belgilar mavjud edi. Qo‘sish son jihatidan aniq va puxta tashkil etilgan, uning jangovar tartibi o‘zining takomil darajasiga ko‘tarilgan. Qo‘sish o‘z zamonasining eng ilg‘or qurol-yarog‘i, texnikasi bilan qurollangan. Har bir qism, bo‘linma aynan bir turdagи qurol-yarog‘, aslaha-anjom bilan ta’min etilgan. Bo‘linmalar, qismlar bir biridan kiyim boshi, ko‘targan bayrog‘i, hatto mingan otining tusi orqali ham farqlangan.

Sohibqiron o‘z qo‘sini tuzilishidan ixchamlikni, ularning bir biriga o‘zviy bog‘liqligini, bir biriga bo‘ysunishini, pog‘onalar tizimliligini ta’minlagan. Amir Temur harbiy sohadagi betakror merosi hamda an’analari temuriylar davrida ham davom etgan bo‘lsa-da, temuriylar ko‘proq mudofaa xususiyatidagi harbiy siyosat olib bordilar.

Ma’lumki, o‘rta asrlar davlatchiligi tizimida islom shariati qonun-qoidalari etakchi o‘rin egallagan. SHu nuqtai nazardan olib qaraganda Amir Temur davlatida ham huquqiy munosabatlar Qur’oni Karim hamda Hadisi sharifda bayon qilingan tartib-qoidalarga asoslangan ekan. Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligidagi huquq va qonun-qoida asoslari “Tuzuklar”da o‘z aksini topgan. Bu manbada davlat yumushlari, harbiy soha, raiyyat va ijtimoiy tuzumning barcha qatlamlari haqida so‘z yuritilib, unda ta’kidlanishicha, mamlakatdagi dunyoviy jarayonlar oliy hukmdorning o‘zi, ya’ni, Amir Temur nazorat qilgan hamda kerakli jazoni ham aynan davlat boshlig‘i bergen. SHariat ishlarini boshqarish shariat qozisi zimmasiga yuklatilgan. Ammo, davlatning devonida, uning turli bug‘inlarida ham alohida qozilar, sud, jinoyat va jazo ishlarini bajarganlar. Mamlakatdagi huquq tizimi quyidagicha bo‘lgan:

- **shayxulislom** – mamlakat va har bir tobe hududlarda islom ahlini nojo‘ya hatti-harakatlardan saqlash, nazorat qilish, ularni savob ishlarga undash bo‘yicha mas’ul shaxs;
- **sadrlar** – ular asosan sayyidlardan chiqqan shaxslardan bo‘lib, ularning muhim vazifalaridan biri vaqf mulklarini nazorat qilish bo‘lgan va suyurg‘olni belgilab turganlar. Ular ahli islomga boshchilik qilganlar;
- **mutavalliy** – sadrlar tomonidan vaqflarni boshqarish hamda nazorat qilish uchun tayinlangan shaxs;
- **qozi** – har bir shahar va viloyatda, devonning turli jabhalarida qonunni nazorat qilgan. Qozilar darajasi va martabasiga ko‘ra bir-birlaridan farqlangan;
- **mudarris** – diniy masalalar, shariat, tafsif, hadis va fiqh bo‘yicha dars beruvchi shaxs;
- **muxtasib** – bozorlarda tarozi, narx-navoni nazorat qiluvchi mas’ul shaxs.

Yuqoridaq qozilar va sadrlar faqat Sohibqironning o‘ziga hisobot berib turganlar. “Tuzuklar”da Amir Temur tomonidan qat’iy tartiblar va qonunlar bayon etilgan bo‘lib, bunda quyidagicha ma’lumot beriladi: davlat xazinachilari bo‘lmish moliya vaziri o‘z ishiga xiyonat qilib, boylikning bir qismini o‘zlashtirib olgan bo‘lsa, avvalo, tekshirib, agar o‘zlashtirib olingan mablag‘ o‘ziga tegishli ulufa

miqdoriga teng bo'lsa, mazkur mablag' unga hadya etilgan. Agar o'zlashtirilgan mablag' maoshdan ikki barobar ortiq bo'lsa, ortig'i olingen maoshidan ushlab qoltingan. Agar maoshidan uch barobar ko'p bo'lsa, sultanat xazinasiga tortiq sifatida olingen.

Mansabdorlar tomonidan sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlarga jazo tayinlash alohida nazorat qilingan. Agarda qishloq oqsoqoli va shahar ulug'lari kichikroq darajadagi shaxsga zulm qilsalar, o'sha zulmga yarasha, har kimning sharoitiga yarasha jarima solinib, fuqarolarning ijtimoiy holati va turmush tarzi e'tibordan chetda qolmagan. Agar mansabdorlar xalqqa jabr-zulm etsa, ularni xonavayron etsa, bu qilmishiga yarasha ayovsiz jazolangan. Bu jazo oddiy jarimadan tortib, o'lim jazosigacha borgan. Davlat amaldorlarining sotqinligi, qo'poruvchiligi, poraxo'rliqi va boshqa jinoyatlari ham eng xavfli hisoblangan. Sohibqiron bunday jinoyatlarni davlatga qarshi qaratilgan jinoyatlar deb hisoblagan va ularga qattiq jazolar tayinlagan. E'tiborli tomoni shundaki, jazolar rayiatdan yashirin holatda emas, balki ochiqchasiga bozor hamda xalq gavjum bo'lgan joylarda ijro etilgan.

Amir Temur va temuriylar davrida huquqni muhofaza etish ishlari bilan nafaqat maxsus organlar balki, har bir hududning ma'murlari ham shug'ullanganlar. Ularning barchasi davlat va fuqarolarning tinchlik hamda xotirjamligini, joylardagiadolat va qonun ustuvorligini ta'minlashga ma'sul bo'lib, asosan ma'muriy tartibdagi kichik huquqbuzarliklarni jazolash ishlari bilan shug'ullanganlar. Agar davlatga, shaxsga, jamiyatga va sog'liqqa qarshi jiddiy jinoyatlar sodir etilsa, ular tegishli qoziliklarda ko'rilgan hamda yarasha jazolar berilgan.

Amir Temur va temuriylar davri majburlov funksiyasini tashkil etishdan hukmdorlarning asosiy maqsadi aholini qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash va jinoyatlarni oldini olish, sodir etilgan jinoyatlarga muqarrar ravishda jazo berish, jinoyat sodir etilgani aniqlangan holatdagina jazo tayinlash, davlat va jamiyatning tinchlik hamda osoyishtaligini saqlash edi. SHu bois ham bu davrdagi huquqiy tizim qat'iy qonuniylik va adolat tamoyiliga asoslangan edi.

### **3. Amir Temur va temuriylar davri shahar madaniyati.**

Amir Temur davrida Movarounnaxrda aholining yashash darajasi va sharoiti yaxshilangan. Yagona markazlashgan davlatning shakllanishi va rivoj topishi bilan oddiy aholining tinch va osuda yashab, mehnat qilishiga shart-sharoitlar yaratildi. Amir Temur sultanat poytaxti Samarqand shahrini mudofaa qudratini oshirish bilan birga (1370 -yildayoq mudofaa devori barpo etiladi), shaharda obodonchilik va qurilishlarga katta e'tibor karatdi. Amir Temur o'z poytaxti Samarqand jamolini tubdan o'zgartirishga qaror qilib, uning atrofiga Bog'i Jamol, Bog'i Dilkusho, Bog'i Chinor, Bog'i Behisht va Bog'i Nav kabi 12 ta bog'ni barpo ettiradi. SHuningdek, Samarqand atrofiga qishloqlar barpo etib, ularni jahonning eng go'zal shaharlarining nomi (Bag'dod, Damashq, Misr, SHeroz, Sultoniya, Madrid va Parij bilan atadi).

Nafaqat poygaxt Samarqandda, shu bilan birga, ulkan sultanatning boshqa ko'plab shaharlarida ham maxobatli saroylar, masjidu madrasalar, savdo

do‘konlari, ko‘priklar va boshqa imoratlar bino kildirdi. Mamlakatning qon tomiri bo‘lmish savdo yullarini kayta tamirlab, karvonsaroylar, rabotlar, sardobalar va hammomlar qurdirdi. Tijorat ahliga keng yul ochib, xazina hisobidan sarmoya uchun qarzlar berdi. Ko‘ishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun dehqonlarga urug‘lik etkazib, suv inshootlarini ta’mirlab, ayrim joylarda yangidan kanal va ariqlar kazdirdi. Mamlakatning iqtisodiy ahvolini kutarishda savdoning ahamiyati beqiyos ekanligini tushungan hukmdor bozorlar, rastalar, timlar, kurdirdi hamda turli-tuman ustaxonalar barpo etib, xalq hunarmandchilik san’atini rivojlantiradi.

„Temur tuzuklari“da Amir Temur o‘z mamlakatini boshqarishda aholini ma’lum ijtimoiy qatlamlarga bo‘lganligini ham aytib o‘tishimiz kerak. Ular, asosan, o‘n ikkita guruhga bo‘lingan. Bular quyidagi ijtimoiy toifalar:

- sayyidlar, olimlar va shayxlar;
- katta tajribaga ega ilmli kishilar;
- duo qiluvchi takvodorlar;
- lashkarning sipoxlari, sarxang va amirlari;
- askarlar va xalq ommasi;
- davlat boshqaruv ishlarini ipidan-ignasigacha biladigan maslahatguy dono va aqlli kishilar;
- vazirlar, kotiblar, devon boshlig‘i;
- tibbiyat ahli, munajjim va muxandislar;
- muxaddislar va muarrixlar;
- tasavvuf vakillari va oriflar;
- hunarmandlar va san’atkorlar;
- ajnabiyy sayyoxlar va savdogarlar.

Yuqoridagi ijtimoiy qatlamlar Amir Temur davlatining ma’muriy-boshqaruv tizimidagi tartiblar bi lan aloqador holda uning harbiy-siyosiy xarakterda bo‘lganligini ham ko‘rsatib turibdi.

**Soliq tizimi.** Ko‘pgina manbalar Amir Temur va temuriylar davrida O‘rta Osiyo va boshqa hududlar soliq tizimi ma’lum me’yorga tushirilganligini bayon qiladi. Temuriylar davrida soliqning asosiy turi xiroj bo‘lib, ziroatchilar kanday er mulklarida yashashi ekin ekishlariga qarab xiroj to‘laganlar. Ular, asosan, to‘rt turga bo‘linadi;

1. Davlat erlarida ishlovchi ziroatchilar;
2. Xususiy mulk erlarida ishlaydiganlar;
3. O‘z erida ishlovchilar;
4. Vakf erlarida ishlovchilar.

Xiroj mahsulot yoki pul bilan olingen. Xajmi hosilning yarmi miqdorigacha borgan. Savdogarlar va xunar mandlar, chorvadorlardan zakot solig‘i olingen. Mag‘lub shahar aholisidan jiz’ya olingen. CHegara hududlarida bojxonalar bo‘lib, chetdan keladigan savdogarlardan boj undirilgan. Mahalliy savdogarlar tagjoy, bog‘dorlar tanobona to‘laganlar.

### **Adabiyotlar**

- Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997.
- Каримов И.А. Тарихийхотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998
- Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Т.: Шарқ. 2000.
- Сагдуллаев ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т., 2000.
- Сагдуллаев А.С., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. -Т., 2006.
- Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати. -Т.: 1994.